



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan
chiqa boshlagan

2020-yil. 3-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz



Ushbu sonda



Dolzarb mavzu
"Lison ut-tayr"ni
tushunish mas'uliyati

5
bet



Dars – muqaddas
X va h harflari

10
bet



Tadqiqotlar
Alisher navoiy ontologik
tafakkurida vaqt
kategoriyasi

34
bet



Из опыта
преподавателя
Билингвизм и раннее
обучение языку

59
bet

ZULFIYAXONIM IZDOSHI



O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi “Ziyo” media markazi muharriri Vazira Ibragimova 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlash to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Yurtimizda yildan-yilga xotin-qizlarni ulug‘lash, ularning jamiyatdagi mavqeyini oshirish, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish hamda faollik va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor berilmoqda. Buni har yili 8-mart – “Xalqaro xotin-qizlar kuni” umumxalq bayrami arafasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etayotgan ayollar, yosh avlod kamoloti yo‘lida xizmat qilayotgan ustoz-murabbiylarning, shu bilan birga iqtidorli qizlarning davlatimizning yuksak mukofot va unvonlariga sazovor bo‘layotganlarida ko‘rish mumkin.

Shu ma‘noda, kuni kecha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori asosida O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi “Ziyo” media markazi muharriri Vazira Ibragimovaning ham yuksak mukofot bilan taqdirlanishi akademiya jamoasi tomonidan qizg‘in kutib olindi.

– Prezidentimiz tashabbusi bilan ushbu tanlovda ishtirok etish yoshining 30 yoshgacha etib uzaytirilishi men kabi oliy ma‘lumot egasi bo‘lib, o‘z sohasida mehnat qilayotgan, ozmi-ko‘pmi yutuqlarga erishayotgan qizlarning qalbida umid uchqunlarini uyg‘otdi. Biz uchun mukofot imtiyoz belgisi emas, aksincha yuragida orzu barq urgan va mana shu orzuni amalga oshirish uchun o‘qishdan, mehnatdan charchamagan qizlar uchun berilgan yuksak e‘tirof va ishonch belgisidir, – deydi V. Ibragimova.

2016-yil “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligiga 25 yil” esdalik nishoni, 2017-yil “Eng ulug‘, eng aziz” Respublika ko‘rik-tanlovida “Bosma ommaviy axborot vositalari xodimlarining jurnalistik ishlari” yo‘nalishida “Fidoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan turkum maqolalari uchun rag‘batlantiruvchi mukofot bilan taqdirlangan Vazira Ibragimovani davlatimizning yuksak mukofoti bilan taqdirlangani bilan akademiya jamoasi samimiy tabriklaydi. Oilaviy baxt, ijodiy izlanishda omad yor bo‘lsin!

**O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Matbuot xizmati**

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 3-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODIOLOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nilufar Namozova

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Ehson TURDIQULOV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ul:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 19.03.2019-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84¹/₄. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasida 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma 82/C. Adadi 4500 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

NAVOYIDAN NAVOLAR KELUR

Asror MO'MIN. Qush tili	1
Sultonmurod OLIM. "Lison ut-tayr"ni tushunish mas'uliyati	5
G'ofir HAMROYEV. Kreativ o'quv topshiriqlari - zamonaviy ona tili ta'limining asosi	8

DARS - MUQADDAS

Gulnoza BOBOJONOVA. X va h harflari	10
Ro'zmat ISMOILOV. Qadimiy shaharlar	12

TAHLIL

Tolib ENAZAROV. "Muhokamatu-l-lug'atayn"dagi dialektal so'zlar va obrazli nomlanishlar talqini	13
Alisher AXROROV. Maqollarda tinglash, sukut saqlash odobi masalasi	16
Ro'zixon USMONOVA. Til bilgan - el bilan	17
Dilbar NORMURADOVA. Jahon folklori namunalarida poetik yondashuvni qiyoslab o'rganish	18
Nigora ADIZOVA. Qiziqmachoqlarning lingvopoetik xususiyatlari	19
Surayyo MUQIMOVA. Etimon va hozirgi ma'no	21
Umida SHERMATOVA. Kunduzsiz kechalar yog'dusi	23

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Shoira SODIQOVA. Adabiyot darslarida innovatsion metodlar samaradorligi	25
Dono ZULPIYEVA. Produktiv yondashuv orqali o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	26

TARJIMASHUNOSLIK

Muqaddas OQMAMATOVA. Bir lavha talqini: tarjima va so'z	27
Ozodakhon GULYAMOVA. Some lexical and morphological features of translation	30

METODIK TAVSIYA

Nigora ABDULLAEVA. The role of communicative language teaching in Uzbekistan	32
--	----

TADQIQOTLAR

Ra'no TOSHHIYOZOVA. Alisher Navoiy ontologik tafakkurida vaqt kategoriyasi	34
Gulnoza QURBONOVA. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-operativ tafakkurini rivojlantirish	36

KICHIK TADQIQOT

Jumanazar ESHONQULOV, Ilhom ESHONQULOV. Muhammadsiddiq Hayrat Buxoriy tazkiranavislar nazdida	38
Dilorom KAMALOVA, Nazokat SAMINOVA. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik madaniyatni rivojlantirishning o'ziga xos usullari	40

Sayyora HALIMOVA. "Sadoyi Turkiston" gazetasida milliy til va imlo muammolari	41
Aziza RAXMANOVA. Parallel matnlar korpusining milliy til xususiyatlarini yoritishdagi ahamiyati	43

Visola TASHPULATOVA. Badiiy asarlarda antroponimlar tarjimai	44
Dildora TASHMUXAMEDOVA. Xitoy tilida undov so'zlarning turkumlanishi	45

TAVSIYA

Dilnoza QURBONOVA. O'quvchilarda madaniyatlararo bag'rikenglikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	47
---	----

METODIKA. OPIY

Дилором Шодиева. Навруз и Масленица. Национальные праздники, традиции, обычаи и обряды	49
Замира Нурманова. Н.С.Лесков. Рассказ «Левша»	51

Гульшод Хамраева. Основные черты научного стиля, его функции, разновидности и жанры	53
Феруза Худайкулова. Сложное предложение. Сложносочиненное предложение. Сочинительные союзы	54

ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ

Елена Лагай. Современные подходы к формированию и развитию интеллектуально-творческого потенциала студентов языковых вузов	57
Екатерина Аминова. Билингвизм и раннее обучение языку	59

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Дилором Юлдашева, Нигина Хожиева. Некоторые соображения о фруктовой лексике	61
Венера Жамединова. Синтаксические конструкции в паремиях узбекского языка с концептом «труд»	62

Замира Нуржанова. Морфологические особенности русской рукописной книги	64
--	----

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Шахста Тахиржанова. Критерии и классификации завершенности эпистолярных текстов	66
Малика Файзилова. Из истории учений о поэтике	67

Насиба Шодиева. Комментарий к системе диалогов в драматических произведениях Шекспира	70
Комила Довлетова. Репрезентация героев в романе Ильдара Абузярова «ХУШ. Роман одной недели»	71

Азиза Ахмедова. Лингвопоэтика обычного фольклоризма	74
---	----

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Охида Юлдашева. Система персонажей и авторская позиция в рассказе Владимира Макинни «Кавказский пленный»	76
--	----

ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Светлана Мадьярова, Раушан Медетова. Новые педагогические технологии как важные ресурсы образования	78
Расима Габдулхакова. Определение коммуникативной цели урока русского языка как неродного	79



► O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq bir guruh xalq ta'limi tizimi xodimlari davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan 28 nafar iqtidorli qiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Mazkur mukofotga loyiq deb topilganlar orasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olayotgan 6 nafar iqtidorli o'quvchilar ham bor.

► Yaqinda o'zbek tilining mavqeyi va maqomini tubdan yuksaltirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori imzolandi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tuzilmasida Sotsiolingvistika bo'limi tashkil etiladi.

► 15-mart kuni O'zbekiston Respublikasi bosh vaziri Abdulla Oripov boshchiligidagi koronavirus infeksiyasining tarqalishini oldini olish va ta'lim muassasalarida sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash hamda o'quvchi va o'qituvchilarning sog'lig'ini himoyalash maqsadida 16-mart kundan O'zbekiston Respublikasidagi barcha umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun ta'til e'lon qilindi.

► Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari o'rtasida an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi – 2020" respublika tanlovi boshlanmoqda.

Tanlov uch bosqichda bo'lib, unda umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars berayotgan oliy ma'lumotli, kamida 2 (ikki) yillik pedagogik stajga ega bo'lgan o'qituvchilar ishtirok etishlari mumkin. Har bir o'qituvchi faqat bitta fandan qatnashish huquqiga ega.



► Joriy yilning 5-mart kuni O'zbekiston Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov va EF Education First kompaniyasi direktori Karl-Yoxann Vestring bilan anglashuv memorandumini imzoladi. Hujjatga ko'ra Shvetsiyaning yirik kompaniyasi O'zbekistonda ingliz tilini o'qitishni ta'komillashtirishga 60 mln. dollar investitsiya kiritadi.



► Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 302-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Munavvar Murodova prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha "5 ta muhim tashabbus"ni keng ko'lamda amalga oshirish maqsadida "Yosh adabiyotchilar" to'garagini yuritib kelmoqda.

► O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi Olim Toshboyevning G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan "Ultontoz" romani nashr etildi. Ulkan ma'naviy merosimiz bo'lgan "Alpomish" dostonida Ultontoz el-yurt boshiga kulfat keltirgan, nomard va nodon hukmdor sifatida tasvirlangan. "Ultontoz" romanida esa yigirmanchi asrda xalqimiz boshdan kechirgan voqealarning badiiy talqini, asr ultontozlari – mansab-u amal uchun o'z xalqiga xiyonat qilish evaziga yurtni boshqargan kishilar obrazi gavdalanadi.

Muxlisa DO'STMUHAMEDOVA tayyorladi.



Asror MO'MIN,
shoir va tarjimon,
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

QUSH TILI

(Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni asosida)

Drama

Davomi. Boshi 1-sonda

Tovus uzri:

Tengri bermish husn-u zebolig' manga,
Haddin ortig' zeb-u ra'nolig' manga.
Qanotlarim yozsam hama qarar lol,
Yurishim ko'rganlar bo'lishar behol.
Har bir kishining o'z vazifasi bor,
Boshqa yumush unga o'xshamas zinhor.
Husnim birla elni qarataman men,
Hayrat ko'zlarini yayrataman men.
Shundan boshqa ishga yo'q menda toqat,
Uzoq safar meni o'ldirar faqat.
Menga ruxsat bergin, o'z o'rnim bilay,
Qasr-gulshanga qaytib o'z ishim qilay.

Hudhud (Tovusga javob qaytardi):

Ey Tovus, husningni maqtading o'zing,
Ustingdan kulmoqda eshitgan so'zing.
Odam o'lg'on zebi zohirdin demas,
Kimki ondin faxr etar odam emas.
Noz ila husn o'ldi shohidlar ishi,
Dard-u mehnat bilan xushtur er kishi.
Ortiq bino qo'ysa kimki suratga,
Oxiri el aro qolar uyatga.
Sharafli ish – go'zal surat ahliga,
Ma'no tomon borsa yetar baxtiga.
Suratga bo'lgandan ko'ra mahliyo,
Ezgulik yo'lida jon etgin fido.

Tovus aytgan uzridan mulzam bo'lib, ortga chekindi.

Bulbul uzri:

Men bog'da ochilgan gulga shaydomen,
Ishqi birla aql-u hushdin judomen.
Ishqig'a bo'lganmen tamom devona,
Menga boshqa dardlar butkul begona.
Men gulimdin ketgan sari yiroqqa,
Bildim, chidolmasmen ortiq firoqqa.
Ham aning yodi bila bog' ichramen,
Hajrida yuz dard ila dog' ichramen.
Shohga pok yuz bilan bormoqlik kerak,
Gul ishqida yonar mendagi yurak.
Ey Hudhud, rahm etgin oshiq joniga,
Men qaytib ketayin gulim yoniga.

Hudhud (Bulbulga javob qaytardi):

Ishq emastur bu – havasdur sarbasar,
Gar havasdur, muncha, bas, ey bexabar.
Sen kibi olamda nodon bo'lmag'ay,
Nafsqa ma'muri farmon bo'lmag'ay.
Kim yasab sen o'zni oshiq zo'r ila,
Ko'rguzursen ishq aro ming sho'r ila.
Bir chechakkakim – vafosi yo'q oning,
Umr bog'inda baqosi yo'q oning.
Yilda besh kunkim chamanda ochilur,
O'n kun o'tmay tufrog' uzra sochilur.
Kimsa bu paykarga oshiq bo'lmag'ay,
Kim bu oshiqliqqa loyiq bo'lmag'ay.
Sen shunday sharifni ma'shuq deb bilgin,
U qolsin, bo'lsa ham yer ostin-ustin.

Bulbul aytgan uzridan mulzam bo'lib, ortga chekindi.

Qumri uzri:

Men bir umr chamandin chetga chiqmadim,
Sayr etib vatandin chetga chiqmadim.
Za'f-u ojizliq shior o'lg'on manga,
Shox-u barg ichra qaror o'lg'on manga.
Ne sovug' ko'rgan jahonda, ne isig',
Ne irik boshimg'a kelgan, ne qotig'.
Bog'din bog' ichra ko'rg'uzg'on safar,
Shoxlardin barg aro qilg'on mafar.
Bo'yla yo'l ranji chekaolg'aymu men,
Bu havas tuxmin ekaolg'aymu men.
Qo'y dum ersa bu mashaqqat jonima,
Kuch bila kirmakdurur o'z qonima.

Hudhud (Qumriga javob qaytardi):

Ey Qumri, sen hozir yuztuban ketding,
Erga yarashmagan so'zlarni aytding.
Ming yil o'lsa bog' aro manzil sanga,
Shox ila barg ichra ne hosil sanga.
Bo'yla murdor o'lg'ucha g'afat aro,
O'zni o'rtab shu'lai firqat aro,
Er esang, maqsudi asli istabon,
Yo'lg'a kirsang yor vasli istabon.
O'lsang ul yo'l ichra ranj-u dard ila,
Jismi zor-u joni g'amparvard ila.
Yaxshiroq yuz qatla ul ofotdin,
Or qilgudek daniy ovqotdin.

Qumri aytgan uzridan mulzam bo'lib, ortga chekindi.

Qarchig'ay uzri (U so'zlashdan oldin changalini o'ynatdi, tumshug'ini bir necha marta ochib-yopdi):

*Hammaga ma'lumdir kuch-u qudratim,
Uzr aytgan qushlar mening ovqatim.
Qaysi qush qasdiga tushsam mabodo,
U qush changalimdan qutulmas aslo.
Men shahlar qo'lida olaman orom,
O'z qo'llari bilan yedirar taom.
Shahlar ollinda topib bu e'tibor,
Shavkatim Simurg'cha bilfe'l bor.
Shah qo'li taxtimdur boshimda toj,
Yo'q manga Simurg' sori ehtiyoj.
Bor mening o'z shahim, o'z saltanatim,
Simurg'dan kam emas mening shavkatim.*

Hudhud (Qarchig'ayga javob qaytardi):

*Sen buncha chiranding, buncha lof urding,
Bildikki, almoysi xayollar surding.
O'zing bir qushchiga erursan qaram,
Luqma tashlashini kutasan har dam.
Oldingga bir luqma tashlaguncha to
Chig'illab qilursen qancha iltijo.
Biror-bir narsani qilsang agar ov,
Egang changalingdan oladi darrov.
Senda bo'lsa edi uyatdin ozroq,
Derding: bu kunimdan o'lgan yaxshiroq.
Sen puch da'volardan kechg'in butkul voz,
Biz bilan shahimiz sari et parvoz.*

Qarchig'ay aytgan uzridan mulzam bo'lib, ortga chekindi.

Burgut uzri:

*Ey Hudhud, so'zimga solmasdan quloq,
Avval diqqat bilan kelbatimga boq.
Manga holat o'zga qushlardek emas,
Qumri-yu bulbuldek el vasfim demas.
Savlatim mufritdur-u qahrim yamon,
Tog' mulki ichra menmen qahramon.
Necha kaklik to'madur har kun manga,
Bo'lmasa bu, uyqu kelmas tun manga.
To'ma istab chun havo tuttum biyik,
Emin ermas ne qulon-u ne kiyik,
Ulki bo'lg'ay bo'g'zi bu yanglig' ulug',
Yo'l netib qat' aylagoy bo'lmay ozuq.
Meni bu yo'lda qanot ko'p soldi tut,
Qorin och o'lg'och – yiqilib qoldi tut.*

Hudhud (Burgutga javob qaytardi):

*Ey Burgut, bilamiz parvozing yuksak,
Qushlar ichra yo'qtur sendek dovyurak.
Ham yigitlik vasfi loyiq zotinga,
Ham musallam pahlavonlig' otinga.
Hayf bu munqor-u changoling sening,
Farru shavkatlig' par-u boling sening.*



*Senki maqsud istoy, ey badnafsi dun,
Azm etordin bo'yla bo'lg'oysen zabun.
Ozim o'lmay yo'lg'a solg'oysen qanot,
Chang-u minqor-u qanotingdin uyot.
Muncha birla o'zni tavsif etkasen,
Zo'r-u shavkat birla ta'rif etkasen.
Pahlavon-u qahramon ul bo'ldi, ul –
Kim kechib jonidin etkoy azmi yo'l.*

Burgut aytgan uzridan mulzam bo'lib, ortga chekindi.

Humoy uzri:

*Ey Hudhud, tushunib yetmadim zinhor,
Menga bu safarning ne keragi bor?
Ondadur iqboldin poyam mening,
Kim berur taxti sharaf soyam mening.
Zotima oncha sharaf bersa iloh,
Kim mening soyam gadoni qilsa shoh.
Men yana shoh istamak, ya'niki ne?
O'zni ranjur aylamak, ya'niki ne?
Qilmog'im xushroq havoye jilvagoh,
Bermagim soyamda shahlarg'a panoh.*

Hudhud (Humoyga javob qaytardi):

*Humoy, sening bu so'zung afsonaye,
Kim oni qilg'oy bayon devonaye.
Ulki zotingda balohat chog'lamish,
Sanga bu yanglig' saqifa bog'lamish.
Kim yetar soyangdin elga shohlig',
Sanga bovar qildurub gumrohlig'.
Shohlar tarixikim mastur erur,
Qaysining vasfida bu mazkur erur?!
Kim oni shoh aylamish soyang sening,
Kim erur bu muddao voyang sening.
Bu g'alat afsona shod aylab seni,
Bo'yla fosid e'tiqod aylab seni.
Filmasal bo'lsa bu da'vo rost ham,
Kelsa sendin bu sifat bexost ham.
Bersa elga shohlig' hayyi-vadud,
Sen de borikim sanga ondin ne sud?
Oqil ersang, ko'p dema mundoq gazof,
Kim sarosar bu so'zung bordur xilof.*

Humoy aytgan uzridan mulzam bo'lib, ortga chekindi. Hudhud qushlarga qaradi, ular boshlarini quyi egishdi. Birozdan keyin sen gapir degandek To'tiga qarashdi.

Davomi muqovaning 3-betida



Sultonmurod OLIM,
filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston
Respublikasi xalq ta'limi a'lochisi

“LISON UT-TAYR”NI TUSHUNISH MAS’ULIYATI

Navoiy “Mantiq ut-tayr”ni necha yoshligida yodlagan?

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida bolalik chog‘lari, ya’ni maktabda o‘qib yurgan kezlari Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostonini to‘liq yodlab olganini yozadi. Lekin u bu mahalda necha yoshda ekani hech kimga ma’lum emas. Mutaxassislar uning o‘n yoshlarda bo‘lganini taxmin qilishadi xolos.

Lekin navoiyshunoslikdan uzoq mualliflarga oson chog‘i, qo‘rqmasdan-netmasdan: “Navoiy hazratlari yetti yosh(lar)ida Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” asarini yoddan bilganlar”, – deb yozaverishadi. Ulug‘ shaxsga munosabatda bunday taxminlarga o‘rin bermaslik kerak. Yoshini kichraytirib ko‘rsatish bilan shoirning obro‘yi oshib qolmaydi.

Navoiy “Guliston” bilan “Bo‘ston”ni yodlaganmi?

Bir muallif nazdida Navoiy maktabda o‘qib yurgan kezlari avval Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlarini, keyin esa Attorning “Mantiq ut-tayr”ini yodlagan: “Sa’diyning “Guliston” va “Bo‘ston”ini allaqachon yodlab olgan bola Alisherning bu dostonni (ya’ni “Mantiq ut-tayr”ni – S.O.) hammadan pinhon o‘qib yurishi, yoddan bilishi uning dunyoni idrok etishga ancha erta intila boshlaganidan dalolat beradi”².

Birinchidan, maktab bolasi hamma asarni ham yod olavermaydi. Buning ustiga, bular katta-katta asarlar bo‘lsa. Ikkinchidan, “Bo‘ston”-ku – she’riy doston, lekin “Guliston” – nazm aralash nasriy asar. Uni boshdan oxir yodlagan biror kishi bo‘lmas kerak. Uchinchidan, Navoiyning bolalikda “Guliston” bilan “Bo‘ston”ni yodlagani haqidagi ma’lumot qayerdan olingan? “Lison ut-tayr”ning “Bu kitob nazmida o‘z munosabatining taqribi” deb nomlangan 189-bobida “Mantiq ut-tayr”ni yodlab olgani haqida shoirning o‘zi ma’lumot berib o‘tadi.

To‘g‘ri, shu bobda shoir “Guliston” bilan “Bo‘ston”ni ham tilga oladi. Lekin ular tamoman boshqa maqsadda zikr etilgan-da. Unda yozilishicha, Alisher maktabda o‘qib yurgan kezlari muallim bolalarning ham “sabaq ozoridin yo Kalomulloh takroridin” charchashini hisobga olib, ham savodi yaxshi bo‘lishini istab, ularga o‘qish uchun nasrdan “Guliston”, nazmdan “Bo‘ston” kabi kitoblarni berar ekan. Yosh Alisherning ko‘ngli esa “Mantiq ut-tayr”ga moyil bo‘libdi. Keling, yaxshisi, matnning o‘zini keltira qolaylik:

*Istabon tashxisi xotir ustod,
Nazm o‘quturkim, ravon bo‘lsun savod.*

*Nasrdin ba’zi o‘qur ham doston,
Bu “Guliston” yanglig‘-u ul – “Bo‘ston”.
Manga ul holatda tab’i bulhavas,
“Mantiq ut-tayr” aylab erdi multamas.³*

Axir bu yerda Navoiy “Guliston” bilan “Bo‘ston”ni yodlash u yoqda tursin, uni boshqa bolalar o‘qiganini qayd etyapti-ku!

Navoiyning nechta taxallusi bor?

Ushbu satrlar muallifi 1992-yili “Fan” nashriyotida chop etilgan “Ishq, oshiq va ma’shuq” risolasida navoiyshunoslikdagi bir xato qarashga aniqlik kiritib, “Foniy” Navoiyning ham forsiy, ham turkiy taxallusi ekanini ilman isbotlashga uringan edi. Chunki shoir o‘zining “Lison ut-tayr” dostonini aynan “Foniy” taxallusi bilan bitadi. Bu doston esa o‘zbek tilida yaratilgan. Hajman u “Devoni Foniy”dan kam emas. Shunga qaramay, hanuzgacha bu borada eski xato qarash o‘zgargani yo‘qdek. Matbuotda tez-tez: “Alisher Navoiy turkiy tilida yozgan she’rlariga “Navoiy”, forsiy tildagi she’rlariga “Foniy” deb taxallus qo‘yadi”⁴, – deb yozishadi.

Esdan chiqarmaylik: “Navoiy” – shoirning faqat turkiy, “Foniy” esa – ham turkiy, ham forsiy she’rlaridagi taxallusi.

Baytni yulib olib tahlil qilish mumkinmi?

Albatta, har qanday asardan har qanday parchani yulib olib, tahlil qilish mumkin. Biroq bir muhim sharti bor: matn bunga izn berishi kerak. Yulib olingan har qanday matn amalda butunning bo‘lagi hisoblanadi. Demak, avvalo, o‘sha butun tarkibidagi ma’no-mazmunni bilib olish lozim. Matnni arxitektonikadan ayri, ya’ni butun bilan qism mutanosibligini buzgan holda tushunish xato xulosaga olib kelishi hech gap emas.

Masalaga shu jihatdan yondashsak, Vohid Zohidovning mana bu tahliliga qo‘shilish qiyin ko‘rinadi: “Navoiy o‘zining keyin (umrining oxirida yozgan “Lison ut-tayr” dostoni oxirida) xabar berishicha, u kichikligida mashhur Fariduddin Attorning mutasavvufona “Mantiq ut-tayr” asarini juda katta qiziqish bilan o‘qib, o‘zlashtirib, o‘sha vaqtdayoq aytgan ekan:

*...Kim dedim: “Uzlat eshigin ochqomen,
Dahri bema’ni elidin qochqomen”.*

Zamonning bema’ni ekanligidan, uning bema’ni odamlaridan zorlanish, yaxshilik haqida orzu qilish,

shunga intilish Alisherda kuchayib boraveradi (tarkidun-yochilik tomon emas, real maqsadlar tomon)"⁵.

Ana endi tahlilga tortilgan, shu asosda bir jiddiy xulosa ilgari surilgan baytning butundagi o'rni va mavqeyini belgilab olaylik.

Navoiy "Lison ut-tayr"ning "Bu kitob nazmida o'z munosabatining taqribi" deb nomlangan 189-bobida yozadi:

*Oqibat ishq ayladi shaydo meni,
Uyla tab'img'a yetti bu savdo meni, –
Kim dedim: "Uzlat eshigin ochqomen,
Dahri bema'ni elidin qochqomen". (294-bet)*

Bu yerda Alisher "Mantiq ut-tayr"ni o'qishga berilib ketganidan odamovi bo'lib qolganini, uzlatga chekinib, faqat mutolaa bilan mashg'ul bo'lganini zo'ryapti. Keyin ota-onasi bu holdan xabar topadi. "Bunaqada bolamiz telbalikka muhtalo bo'ladi", – deb o'ylab, "Mantiq ut-tayr" kitobini undan olib, yashirishadi. "Foydasi yo'q edi, – deydi shoir, – chunki men uni to'liq yodlab olgan edim":

*Lek chun yodimda erdi ul kalom,
Yoshurun takror etar erdim mudom.
Ondin o'zga so'zga maylim oz edi,
Qush tili birla ko'ngul hamroz edi. (295-bet)*

Demak, bu bayt adabiyotshunosga "zamonning bema'ni ekanligidan, uning bema'ni odamlaridan zorlanish, yaxshilik haqida orzu qilish, shunga intilish" haqida so'zlash imkonini bermaydi. Bu aynan asarning qismini butunidan uzib olib tahlil qilishning oqibatidan boshqa narsa emas.

Eski va yangi qarashlar

Mustaqillik yillarida oliy ta'lim muassasalari talabarlari uchun eng qadimgi davrlardan to XV asr oxirigacha bo'lgan davr adabiyoti tarixi bo'yicha darslik yaratish ancha cho'zildi. Endilikda N.Rahmonovning darsligiga egamiz. Shungacha Alisher Navoiy ijodi yuzasidan dars o'tishda, asosan, Natan Mallayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligi hamda "O'zbek adabiyoti tarixi" besh jildligining 2-jildidan foydalanib kelindi.

"O'zbek adabiyoti tarixi" besh jildligining 2-jildi hozircha Alisher Navoiy haqida eng keng ma'lumot beruvchi mufassal ilmiy nashr hisoblanadi. Unda XV asrning ikkinchi yarmi adabiyoti, asosan, Alisher Navoiy hayoti va ijodi yoritilgan. "Lison ut-tayr"ga ham maxsus bob ajratilgan.⁶ Uni filologiya fanlari nomzodi Suyima G'aniyeva yozgan. Ochig'i, bu jild chop etilgan 1977-yili mazkur doston hali juda kam tadqiq etilgan edi. Bobda asarning muhim jihatlari yoritilgan, albatta. Muallif to'g'ri yo'ldan borib, "Lison ut-tayr" mohiyatini ochib berishga erishgan. Shoir dostonida ko'tarilgan masalalar bo'yicha fikrlarini "allegorik tarzda bayon et"gani, bu asarni Atorning "Mantiq ut-tayr"iga "tarjuma rasmi bila" javobiya tarzida yoki uni "sharh etgali" yozgani, asar tilining

"Navoiyning boshqa dostonlari, she'riy asarlari tiliga nisbatan anchagina sodda va ravon"ligi qayd etilgan, sujet nisbatan batafsil bayon qilingan.

Shuni unutmaylikki, bu sho'ro davrida yozilgan tadqiqot edi. Unga bugungi talablar bilan yondashilsa, taylay xato va kamchiliklar ham ko'zga tashlanadi. Bugungi navoiyshunoslik ularga munosabat bildirishi kerak. Shuning uchun ularning ayrimlariga to'xtalib o'tamiz.

Doston "bir necha asrlardan buyon Sharq mutafakkirlarini band qilib kelgan g'oyat murakkab falsafiy masalalarga bag'ishlangan asar" (323-bet) sifatida baholangan. Holbuki, "Lison ut-tayr" – Navoiyning 6 dostoni orasida eng soddasi. Buni "Mantiq ut-tayr"ni o'qituvchi maktab o'quvchilariga o'qish uchun tavsiya etganidan ham bilib olsa bo'ladi. Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ham "Mantiq ut-tayr"ni sakkiz yasharligida olti oy mobaynida erinmay mutolaa qilgan. Buni uning "Ahvolot" asaridagi mana bu so'zlaridan bilib olamiz: "...Vaqtim xomasi hayotim yuzidin sakiz raqamni chekti, zehnim tayri "Mantiq ut-tayr" kitobig'a notiq bo'ldi. Olti oy bol-u par urub, qushlar hikoyatini xotima oshyonasig'a qo'ndurdum".

Bob muallifining "Lison ut-tayr" tili haqida so'zlab, "Navoiyning boshqa dostonlari, she'riy asarlari tiliga nisbatan anchagina sodda va ravon" (335-bet), degan xulosasi o'zining yuqoridagi fikrini inkor etadi. "Lison ut-tayr" xuddi "Mantiq ut-tayr" kabi aruzning sodda va ravon, xususan, o'zbek tiliga juda mos tushadigan ramali musaddasi mahzuf (yoki maqsur), ya'ni foilotun-foilotun-faulun (yoki foilon) vaznida bitilgani ham fikrimizni isbotlashga xizmat qiladi. Mumtoz she'riyatimizda ham, hozirgi o'zbek nazmida ham bu vaznda eng ko'p g'azal bitilgan. Shu darajadagi, Atoiy g'azallarining hammasi ramal bahrining turli vaznlarida yozilgan. Hatto Husayniy, ya'ni Husayn Boyqaro barcha g'azallarini ramalning bittagina, ya'ni ramali musammani mahzuf (yoki maqsur), ya'ni foilotun-foilotun-foilotun-foilon (yoki foilon) vaznida yaratgan.

Demak, bugun qarashimizni o'zgartirishimiz kerak, ya'ni "Lison ut-tayr" – Navoiyning eng sodda dostoni deb hisoblashga majburmiz. Chunki unda tasavvufiy motivatsiya kaliti shundoqqina o'quvchining qo'lga tutqazib qo'yilgan.

Mana bu parchada Navoiyga qarshi talqinga duch kelamiz: "Navoiyning o'zi uqtirishicha, "Lison ut-tayr" "Mantiq ut-tayr"ga javoban, nazira tarzida yozilgan, lekin bu e'tirof adabiy an'ana chamberida qoladi. Zeroki... asar originallik darajasiga ko'tarilgan. Navoiy asarning falsafiy yo'nalishini ham, ijtimoiy-siyosiy mag'zini ham o'zgartirib, unga didaktik jarang, real va insoniy ruh baxsh etadi" (325-bet).

Birinchidan, qaysi asosga ko'ra javobiya, nazira, tatabbu' asarda ohoriylik (originallik) bo'lmaydi, deb hisoblashimiz kerak? Navoiyning hamma dostoni javobiya, hammasi ohoriy asarlar bo'lsa! Demak, tadqiqotchi bu yerda masalaga "Javobiya asarda ohoriylik kam bo'ladi" degan ilman mutlaqo xato pozitsiyadan turib yondashgan. Shuning uchun "Lison ut-tayr"ni "original-

lik darajasiga ko'tarilgan", deya ulug'lamoqchi bo'lyapti. Ikkinchidan, "Navoiy asarning falsafiy yo'nalishini ham, ijtimoiy-siyosiy mag'zini ham o'zgartirib, unga didaktik jarang, real va insoniy ruh baxsh etadi" degan ta'rif ham aslo o'zini oqlamaydi. "Mantiq ut-tayr" va "Lison ut-tayr" qiyosi, xususan, Foniyning o'z dostonida va masalaga doir nuqtayi nazari bunday yondashuv tamoman noto'g'riligini ko'rsatadi. Haqiqat shundan iboratki, 6 doston orasida dominanta asarga eng yaqin qilib bitilgani – aynan "Lison ut-tayr".

Doston sujeti so'zlana turib, Hudhudning ayrim-ayrim qushlarga alohida-alohida murojaat qilaroq ularni Simurg' sari parvozga da'vat etishi haqida gap ketishidan oldin: "Qushlarda Simurg'ga katta havas uyg'onadi va ular Hudhuddan Simurg'ga borishda rahbarlik qilishni iltimos qiladilar" (326-bet), – deb yoziladi. Holbuki, asarning bu o'rnida qushlar hali Hudhuddan rahbarlik qilishni so'ragani yo'q edi. Bu keyinroq, aniqrog'i, qushlarning ikkinchi bor parvoz etib, qo'nganidan keyin yuz beradi. Bob muallifi bu o'rinni sharhlayotganda: "Qushlarda Simurg'ga bo'lgan ishtiyok yanada kuchayadi. Ular bu mashaqqatli yo'lda bir sardor bo'lmog'i darkor, deya uni rahbar qilmoqchi bo'ladilar" (326-bet), deb endi to'g'ri qayd etadi.

Bobda "Lison ut-tayr"da 63 ta hikoyat borligi aytiladi (328-bet). Bizning sanog'imiz bo'yicha esa – 64 ta. Aftidan, "Parvonalar majma'i sham'i haqiqiy sharhida" deb nomlangan 164-bob hikoyatlar sirasiga kiritilmagan, biz esa, mazmun-mohiyatiga ko'ra, uni ham "hikoyat" deb hisoblaymiz va shuning hisobiga ularning soni bittaga ko'payadi.

Shayx San'onning Rumdagi nasroniylar ibodatxonasida tarso, ya'ni nasroniy qizni ko'rib qolgan haqida so'z ketar ekan, bobda: "Shu paytda shamol esib, qizning yuzidan pardani ko'taradi" (329-bet), – deb yoziladi. Shamol yuzidagi pardani ko'tarishi voqeasi "Sab'ayi sayyor"da Farruxning yorini ko'rib qolishi hodisasi bayonida bor.⁶ Ya'ni kuchli shamol esib, kutilmagan tuya ustidagi kajavaning pardasini ochadi, xuddi bulut ochilib, Quyosh namoyon bo'lgani kabi Farrux tushiga kirgan yorini ko'radi, lekin shu lahzada parda yana yopiladi.

Lekin "Lison ut-tayr"da bunday tasvir yo'q. Chunki: Sho'x ochqoch shu'layi ruxsorini, – misrasi Tarso qizning yuzini o'zi ochganini tasdiqlab turibdi.

Shayx San'on haqidagi hikoya voqealari bayonida yana shunday jumalarni o'qiyimiz: "Shayx o'ziga kela boshlaydi, muridlariga uzrxohlik qilib, ular bilan Ka'baga qaytib ketadi. Shundan keyin Tarso qizga tushida Isodan Ka'baga borishi, Shayxdan uzr so'rashi, uning diniga kirib, birga bo'lishi lozimligi haqida xabar keladi. Qiz Ka'baga yo'l oladi. Ancha azob-u uqubatlar, sargashtaliklardan so'ng u yerga yetib keladi. Shayx bilan uchrashadi, undan uzr so'raydi. Uning diniga kiradi va o'sha zamonaoq dunyodan o'tadi. Oradan ko'p o'tmay, Shayx San'on ham qazo qiladi" (331-bet). Holbuki, asarda tasvirlanishicha, Tarso qiz Shayx ortidan Ka'ba sari sahro bo'ylab yo'lga chiqadi-yu, yo'lda hushdan ketib, yiqiladi. Hali Ka'ba – ancha uzoq. Shayx va uning muridlari ham manzilga yetib borganicha yo'q. Shunda karomat yuz berib, Shayx va uning sodiq muridi Tarso qizning ular ortidan kelayotib, yo'lda hushdan ketib qolganidan g'oyiban xabar topishadi. Ular orqaga qaytib, Tarso qiz yiqilib qolgan tomon shoshilishadi. Qizni topishadi, u uzr so'rab, iymon keltiradi, Shayx qo'lida jon beradi. Uning jasadini olib borib, Ka'bada dafn etishadi. Keyin Shayx ham vafot etadi.

Mana bu jumalarda ham "Lison ut-tayr" mohiyati va shoirning uni yozishdan ko'zlagan bosh maqsadini anglamaslik sezilib turibdi: "...Navoiy o'zining shaxsiy muhabbati haqida alohida doston yaratish niyatini borligini xuddi shu asarida e'tirof etgan edi... Biroq shoirning bu niyati amalga oshmay qoldi" (331-bet). Holbuki, keyinchalik, ilmimizda ulug' shoirning o'z shaxsiy muhabbati haqida bitgan asari – aynan ana shu "Lison ut-tayr", degan fikr ilgari surildi⁹ va bu – haqiqatga mos xulosa.

Mana bu fikrda sho'ro davri mafkurasining kuchli ta'siri shundoqqina sezilib turibdi: "Lison ut-tayr"da ijtimoiy jarangga ega bo'lgan qator hikoyatlar ham mavjud bo'lib, ularda inson mehnatining qadrsizligi, boylikka hirs qo'yishning fojiali oqibati, darveshlik va tarkidunyochilikning behudaligi, tamagirlik va tekinxo'rlikning yomon illat ekanligi qalamga olinadi" (331-bet). Dostonning tub mohiyatiga kirib borgan o'quvchi yaxshi biladiki, bu asarda darveshlik yo'li haddi a'losida targ'ib qilingan, qushlar aynan darvesh timsoli bo'lib kelgan-ku.

Biz tahlil qilgan jihatlar "Lison ut-tayr" mohiyatini anglashdagi xato va kamchiliklarning ayrimlarigina xolos. Asarning asl mohiyatini tushunish tadqiqotchidan ham, o'quvchidan ham katta mas'uliyat talab qilishini shu misollardan ham bilib olsa bo'ladi.

¹Sh.Sattorov. Mir Alisher Navoiy haqida 15 ma'lumot, 10 hikmat va bir rivoyat / Janob, 2017-yil. 1-son. 6-bet; Qarang: Jomboy tongi, 2015-yil 7-fevral.

²K.Mullaxo'jayeva. Goh zavq, goh iztirob / Tafakkur, 2019. 1-son. 110-bet.

³Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 12-jild. – Toshkent: Fan, 1996. 293-bet. (Bundan keyin shu nashrdan olingan parchalarning sahifasi qavsda berib boriladi.)

⁴Sh.Sattorov. Mir Alisher Navoiy haqida 15 ma'lumot. 10 hikmat va bir rivoyat. / Janob, 2017. 6-bet.

⁵V.Zohidov. Hayotbaxsh badiiyat taronalari. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1975. 91-bet.

⁶Lison ut-tayr // O'zbek adabiyoti tarixi. Besh jildlik. 2-jild. XV asrning ikkinchi yarmi. – Toshkent: Fan, 1977. 323–336-betlar. (Bundan keyin shu nashrdan olingan iqtiboslar sahifasi qavsda berib boriladi.)

⁷"Turkiston viloyatining gazetasi", 1891-yil 12-mart. 10-son. Filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov transkripsiyasi: Qarang: N.Jabborov. Furqat she'riyatida Islom ma'rifati va tasavvuf axloqi targ'ibi // Naqshbandiya, 2019. 2-son. 18-bet.

⁸Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 10-jild. – Toshkent: Fan, 1992. 148-bet.

⁹Qarang: S.Olim. Ishq, oshiq va ma'shuq. – Toshkent: Fan, 1992. 48–50-betlar.

KREATIV O'QUV TOPSHIRIQLARI – ZAMONAVIY ONA TILI TA'LIMINING ASOSI

Fanlar o'z-o'zidan rivojlana olmaydi, tabiiyki, ularning harakatga kelishini metodikalar ta'minlab beradi. Qaysi fan sohasida e'tiborsizlik bo'lsa, o'sha soha rivojlanishdan ortda qoladi. Xuddiki mamlakatimizda ona tili ta'limining orqada qolgani kabi. Garchi tilshunoslik va adabiyotshunoslikda qator dolzarb ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, soha mutaxassisleri aksariyat hollarda ilmiy va amaliy ahamiyati kam, jamiyat ehtiyoji uchun deyarli xizmat qilmaydigan, ko'p hollarda amaliyot bilan bog'lanmagan tadqiqotlarni amalga oshirib keldi, deyish mumkin. Garchi filolog-olimlarimiz tomonidan metodika sohasini rivojlantirishga doir ayrim harakatlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, ona tili o'qitishda shu kunga qadar o'quvchi mashg'ulotlar orqali nimani o'rganishi kerakligi, qaysi o'quv materialini yoddan bilish, qaysi o'quv materialini o'qib tushunish yetariligi, qaysi bo'limlarni o'qitishda, asosan, mashqlardan, qaysilarida topshiriqlar ustida ko'proq ishlash, mashq, topshiriq va savollarni bir-biridan farqlash, tahlil materiali uchun qanday misollar, matnlar olish lozimligi, ularni tanlash va qo'llash mezonlari aniqlanmagan, o'quvchilar egallashi muhim bo'lgan grammatik maksimum, leksik minimumlar ishlab chiqilmagan edi.

Ta'kidlash lozimki, ham o'zbek filologiyasi, ham ona tili ta'limining taraqqiy etishiga salmoqli hissa qo'shayotgan professor B. Mengliyev umumiy o'rta ta'lim o'quvchilari uchun ilk bor grammatik maksimumni ishlab chiqdi. Ona tili o'qitish metodikasi tarixida ortiqcha grammatizmni qisqartirish, qoidalarni soddalashtirishga erishdi. Uning hammuallifligida 2019-yilda nashr qilingan "Ona tili" darsligi grammatik ma'lumotlarning soddalashtirilganligi, tanlangan o'quv materiallari o'quvchilarning nutqiy malakalarini rivojlantirishga qaratilganligi, o'quv topshiriqlari davr talablariga mosligi bilan boshqalaridan farq qiladi. Mazkur darslik mazmun-mohiyatiga ko'ra zamonaviy darsliklar yaratish tomon tashlangan muhim va dadil qadamdir.¹

Ta'lim sifatini belgilab beruvchi eng muhim indikator ham shakllantiruvchi, ham sinash jarayonida qatnashuvchi vositalar – mashqlar tizimi, shuningdek, savol va topshiriqlardir. Bular – ona tili ta'limi mazmuni, o'qitish metodikasining asosini tashkil etadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimining "Ona tili" darsliklarida ham, oliy ta'lim darsliklarida ham savol, mashq va topshiriqlar sifati, uning zamon talablariga qay darajada mosligiga e'tibor qaratilmaydi. Bu holat o'zbek tilining o'quvchi va talabalar – bo'lajak mutaxassislar tomonidan yetarlicha o'zlashtirilmay qolishiga sabab bo'lib qolmoqda. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, malaka hosil qiluvchi, takrorga asoslangan mashqlar, sinash uchun qo'llanuvchi topshiriqlar, fikrlashga o'rgatuvchi savollar o'zbek tili fan sifatida shakllangan dastlabki yillarda chop etilgan

darsliklarda ham, bugun amalda bo'lgan darsliklarda ham uchramaydi, darsliklar yaratishda mazkur masalaga tizimli yondashilmagan. Umumiy mashq atamasi ostida oddiy topshiriq xarakteridagi tavsiyalar o'rin olgan, mashq va topshiriq o'zaro farqlanmagan. Savollar tartib bilan fikrlashga undamaydi. Umuman, o'zbek tili ta'limida o'quv topshiriqlarini yaratishning konseptual asoslari ishlab chiqilmagan.

Shu nuqtayi nazardan "mashq", "topshiriq" va "savol" tushunchalarini mohiyatan farqlash, ularning lingvodidaktikadagi o'rni va ahamiyatiga to'xtalish lozim. Metodist-olim M. Saidov o'z tadqiqotlarida faqat tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlariga asosiy e'tibor qaratadi. O'quv materiallari sirasida o'quv topshiriqlarini uch turga bo'lib, ularni o'zaro farqlaydi va, ko'pincha, o'qituvchilar o'z ish-faoliyatlarida davomida "mashq", "topshiriq" va "masala" tushunchalarini qorishtirib yuborishlarini ta'kidlaydi. Olim pedagogika fanlari doktori Asqar G'ulomovning "mashq ham o'quv topshirig'ining bir shakli, ham o'qitishning muayyan bir usuli", degan fikriga qo'shiladi va topshiriq mashqning bir bo'lami, u, asosan, mashq shartida o'z ifodasini topishi, topshiriq mashqqa qaraganda torroq tushunchani ifodalashini e'tirof etadi.²

Bizningcha, topshiriq mashqni o'z ichiga oladi, topshiriqlar o'quvchini yo'naltiradi, bilim va malakalarini sinaydi; takrorga asoslangan mashqlar esa ko'nikma va malaka hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Darslik va qo'llanmalarda ko'p uchraydigan "mashq", "topshiriq" atamaları o'zaro uyadoshlik hosil qilsa-da, ular orasida sinonimik munosabat yo'q. Biroq kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, uzoq yillardan beri amalda bo'lgan qator darslik va qo'llanmalarda mazkur ikki tushunchaning berilishida chalkashlik, birining o'rnida boshqasining qo'llanilishi kabi holatlarni ko'rish mumkin. 5- va 8-sinf "Ona tili" darsliklaridan olingan quyidagi namunalar fikrimizni tasdiqlaydi:

"333-mashq. Berilgan she'riy misradagi so'zlarni unli va undoshga ajrating.

*Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir³.*

"2-topshiriq. Gapni aniqlovchili, to'ldiruvchili, hollari birikmalarga ajrating⁴.

Keltirilgan misollardan ko'rish mumkinki, darsliklarda mashq va topshiriqlarning mazmuni bir-biridan farqlanmaydi. Ikkalasida ham "ajrating" topshirig'i berilgan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da mashq atamasi shunday ta'rif berilgan: "**Mashq** 1. [arabcha. – husnixat, rasm chizish uchun namunalar] biror faoliyatni puxta o'rganish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg'uloti. *Harbiy mashq. Mashq qilmoq. Siddiqjon ko'kragini sandalga berib, xat mashq*

qilar, *Kanizak uning ro'parasida kitob o'qib o'tirar edi*. A.Qahhor, "Qo'shchinor chiroqlari"⁵.

"Pedagogika ensiklopediyasi"da mashqqa berilgan ta'rifning ancha takomillashgan va ta'lim sohasiga moslashtirilgan shaklini ko'rish mumkin: "Mashq (arabcha – husnixat, rasm chizish uchun namunalar) – biror faoliyatni puxta o'zlashtirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida ko'p marta takrorlash. Mas., o'qish, yozish. Mashq ta'limda ko'nikma va malakalar hosil qilishda muhim o'rin tutadi"⁶.

Topshiriq atamasiga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha ta'rif berilgan: "**Topshiriq** 1. Kimsaning zimmasiga yuklatiladigan ish, vazifa. Hukumat topshirig'i. Topshiriq bermoq. *Tergovchi ham xit bo'ldi. Axir u bu yerga o'ynagani kelmagan-ku. Maxsus topshiriq bilan oqni oqqa, qorani qoraga ajratgani kelgan*"⁷.

Ko'rinib turibdiki, har bir termin o'z mazmun-mohiyatiga ega. Ya'ni **mashq** muayyan harakatni bir necha bor aynan takrorlash orqali shu mashg'ulotdan ko'zlangan ko'nikma va malakaga ega bo'lishni nazarda tutsa, topshiriq kishi, jumladan, o'quvchining zimmasiga biror mavzuni mustahkamlash maqsadida bir marta bajarish uchun beriladigan ish, vazifani anglatadi.

Demak, mashq – ko'nikma yoki malaka hosil qilish vositasi. Topshiriq esa egallangan ko'nikmalarni sinash vazifasini bajaradi. U yo'naltiruvchi xususiyatga ega. Nazariy ma'lumotlar, ya'ni grammatik qoidalar o'quvchida belgilangan mavzu doirasida bilim, tushuncha hosil qiladi. Maktab darsliklarida millat tafakkurining eng ilg'or namunalarini aks etishi kerak. Ajdodlardan, umuman, insoniyat daholaridan bugungi kungacha yetib kelgan tafakkurning eng ilg'or mahsuli bo'lgan *maqol, matal, hikmatli so'zlar, tasviriy ifodalar, iboralar* ona tili ta'limining mazmunini tashkil etishi kerak, ulardan onda-sonda emas, balki har darsda, har o'quv topshiriq tarkibida unumli foydalanish maqsadga muvofiq. O'z o'rnida va o'z vaqtida o'quvchilar tafakkuriga singdirilgan bu kabi xalqona, milliy durdonalar ularning fikrlarini teranlashtirish, dunyoqarashlarini kengaytirish va o'zlarida hosil bo'lgan ijodiy tafakkur mahsulini ravon, aniq hamda tushunarli tarzda bayon eta olishlariga zamin yaratadi.

Amaldagi dastur va darsliklar o'quvchini ona tili ta'limi maqsadiga muvofiq mustaqil izlanishga undashi lozim. Bunday sharoitda darslikning eng muhim qismini nazariy ma'lumotlar bazasi emas, balki o'quvchiga ona tilimizning son-sanoqsiz imkoniyatlaridan unumli va o'rinli foydalanishni o'rgatadigan o'quv topshiriqlari tashkil etmog'i lozim. Chunki maktabda ona tili ta'limi tilshunos emas, til imkoniyatlaridan keng foydalana oladigan ijodiy tafakkur sohibini jamiyatga yetkazib berishni maq-

sad qilishi lozim. Demak, o'quv topshiriqlari o'quvchini izlanishga unday olsagina, ularni talab darajasida deb hisoblash mumkin. Hozir amalda bo'lgan maktab darsliklaridagi o'quv topshiriqlarini talab darajasida deysish qiyin. Chunonchi, ona tili mashg'ulotlarida, odatda, qo'llanilib kelayotgan "*Matndan unililarni topib tavsiflang*" kabi o'quv topshiriqlari o'quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirmaydi, ko'nikma va malakasini rivojlantirishga ham xizmat qilmaydi.

Mashq uzluksiz takrorga asoslangandagina samara beradi. O'quv materiallarining o'quvchi tomonidan samarali o'zlashtirilishi takror bilan bog'liq.

Ma'lumki, psixologik nuqtayi nazardan inson xotirasi muayyan turlarga bo'linadi. Ma'lumotlarni bir marta o'qish oddiy xotirada vaqtincha saqlanadi va qisqa muddatda unutiladi. Agar uzluksiz takrorlansa, u doimiy xotiraga o'tadi. G.Ebbingauz⁸ning o'quvchi eslab qolishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar tarkibi, miqdori va sifati haqidagi xulosalari nihoyatda qimmatli va asosli. Bu mashq haqida edi, endi topshiriqlar xususida muxtasar xulosaga kelish lozim.

Topshiriqlar – o'quvchilarni mavzu ustida maqsadli, samarali ishlashlarini ta'minlashi, shu bilan birga mashg'ulotda egallagan ko'nikma va malakalarni baholash, sinab ko'rish uchun ham ishlatilishi kerak. Ta'limda topshiriqlardan samarali foydalana olsak, ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali bajarishga erishish mumkin.

Metodikada yana bir muhim masala mavjud bo'lib, uni ham ilmiy-metodik tekshirishga zarurat bor. Bu – har bir mashg'ulot oxirida doimiy keltiriladigan savollar.

Savol ham o'quv topshirig'i hisoblanib, hali alohida tadqiq etilmagan. Uning ona tili o'qitish metodikasida qanday ahamiyat kasb etishi, vazifasi, turlari, tasnifi, qo'llanilish o'rinlari va tarkibi o'rganilmagan, mezonlari ishlab chiqilmagan. Metodik qo'llanmalar, darsliklarda topshiriqlar bilan birga qo'llaniladi, ko'pincha, topshiriq bilan almashtiriladi, topshiriqning tarkibiga kiritib yuboriladi. Aslida metodikada savolning o'z o'rnini va vazifasi bor. U topshiriqdan aniq farq qiladi. Ba'zan topshiriq bilan bir xil vazifalarni bajarishi mumkin, ammo bu bir narsa degani emas. Amaldagi darsliklarda "Savol va topshiriqlar" rukni ostida faqat savollar beriladi. Bu – mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini yondosh tushunchalarga nisbatan farqlab olish zarurligini ko'rsatadi.

Zero, ijtimoiy hayotda ham savol muhim ahamiyatga ega. Javob – savolning qanday berilganiga bog'liq. Demak, o'quvchilarga to'g'ri, o'rinli va maqsadli savol bera olsak, ularning bergan javobi jamiyat uchun foydali bo'ladi.

¹M.Qodirov va boshq. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent: Cho'lpon, 2019. 198-bet.

²M.Saidov. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi: ped. fan. nom-di diss... avtoref. TDPU. – Toshkent 2000. 25-bet.

³N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboieva. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. – Toshkent, 2015. 224-bet.

⁴M.Qodirov va boshq. Ona tili. Umumta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent 2014. 229-bet.

⁵O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 2-jild. – Toshkent: O'zME, 2004. 562-bet.

⁶Pedagogika ensiklopediyasi. 2-jild. – Toshkent, 2012. 2

⁷O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 4-jild. – Toshkent: O'zME, 2004. 150-bet.

⁸E.G'oziyev. Umumiy pedagogika. – Toshkent, 2010. 221–222-betlar.



Gulnoza BOBOJONOVA,
 Buxoro shahridagi 23-maktabning
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

X VA H HARFLARI

(5-sinf, III chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga Xx va Hh harflari haqida ma'lumot berish, bu harflarni farqlash, og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarda ona tabiatga muhabbat tuyg'usini kuchaytirish, insoniylik tushunchalarini shakllantirish, ularni ahil bo'lishga undash;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilar savodxonligini oshirish, yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish, tafakkurini o'stirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Darsda foydalaniladigan usullar: Venn diagrammasi, "Fikrlar hujumi", "Qiyoslang", "Bingo", "Assessment".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: Xx va Hh harflari ishtirokidagi so'zlar yozilgan plakat, slayd, alifbodaga harflar, "Bingo" tarqatmasi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, davomat aniqlanadi. Sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Navbatchi o'quvchining axboroti tinglanadi.

Dars musobaqa tarzida olib borilishi e'lon qilinib, sinf o'quvchilari 3 guruhga ajratiladi: **"Zukkolar"**, **"Chaqqonlar"**, **"Donolar"**.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Alifbodagi harflar 3 xil rangdagi (ko'k, yashil, oq) kartochkalarda ajratib yozib qo'yiladi. Teskarisiga o'girib qo'yilgan bu kartochkalarni har bir o'quvchi bittadan tanlab oladi va olgan harfini hosil bo'lish o'rniga ko'ra izohlab beradi. Masalan:

B – undosh tovush, lab-lab tovushi, alifboda ikkinchi o'rinda turadi.

S – undosh tovush, til oldi tovushi, alifboda o'n sakkizinchi o'rinda turadi.

G' – undosh tovush, chuqur til orqa tovushi, alifboda yigirma oltinchi o'rinda turadi.

O'zi tanlagan harfga izoh bera olmagan o'quvchilar sonidan kelib chiqib guruhlarga ball beriladi. So'ng **"Fikrlar hujumi"** usulidan foydalanib guruhlarga bittadan savol beriladi:

1. Jj harfi qanday tovushlarni ifodalash uchun qo'llaniladi? (*Ikkita tovushni ifodalaydi*)

2. Jj harfining ikkita tovushni ifodalab kelishiga misollar keltiring? (*Jirafa, jurnal, jo'ja, jahon, jahl, jaji, juma*)

3. Jj harfi bilan tugaydigan so'zlarga 5 ta misol keltiring. (*Talon-taroj, toj, boj, muhtoj*)

III. Yangi mavzu bayoni.

1-topshiriq. Bahor, hokim, goh-goh so'zlaridagi **h** harfining qanday tovushni ifodalashini ayting. (*Bo'g'iz tovushini ifodalayapti.*)

2-topshiriq. Xon, xor, hovuch, hol so'zlaridagi **x** va **h** tovushlarining farqini tushuntiring. (*Xon, xor so'zlarida chuqur til orqa tovushi, hovuch, hol so'zlarida esa bo'g'iz tovushi ishtirok etgan*)

Berilgan javoblardan kelib chiqqan holda tovushlarning o'xshash va farqli jihatlari tushuntiriladi.

Slayd orqali **"Alifbo"** ertagi o'qib beriladi.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan. Yaqin emas uzoqda, uzoq emas tomoqda bir makon bor ekan. Unda harflar hamfikir, hamnafas va hammaslak bo'lib yashar ekan.

Kunlardan bir kun ular sal narida – tog' orqasida ajoyib bir go'zallik borligini eshitib qolishibdi va "Lison ut-tayr" qushlari misoli sayr qilmoqchi bo'lishibdi.

Birinchi bo'lib H tovushi men boshqa yurolmayman, deb "Bo'g'iz" shahrida qolib ketibdi.

So'ng Q, G', X tovushlari do'stimizdan uzoqlashmaylik, deb "Chuqur til orqa" shahrida qolishibdi. G, K, Nglar "Til orqa" shahrida to'xtashibdi. Nima qilishni bilmay o'rtada qolgan Y esa "Til o'rta shahrida" joylashibdi.

Shu payt tog' paydo bo'libdi. G'orning eshigi ochilib-yopilab turar ekan. B, P, M va V, F lar turtinib chiqishibdi. A, O, I, U, O', E kabi dugonalar g'or ochilganda emin-erkin chiqib olishibdi. Tog'-u toshlarga urilgan do'stlarini ko'rgan R titrab qolibdi.

B-P, V-F, D-T, Z-S, J-Sh, G-K, G'-X tovushlari egizaklar singari juft bo'lib, (jarangli-jarangsiz), M, N, L, R, Ng, Y hamda Q, H tovushlari yolg'izlikni afzal ko'rishib har biri alohida yashay boshlabdi.

Shunday qilib, harflar o'zlariga makon topishibdi. Ular doim bir-biridan xabar olib, hamkor bo'lib yashashda davom etishibdi.

Darslikdan tashqari quyidagi ma'lumotlar ham beriladi:

Birinchi bo'g'ini *is-* bo'lgan so'zlarda *h* bo'g'iz undoshi ishlatiladi:

Is-loh, is-tehkom, is-tehzo, is-tihola, is-tirohat.

Q harfi bilan boshlanuvchi so'zlarda *h* bo'g'iz undoshi yoziladi:

Qabih – qabohat, qahat – qahatchilik, qah-qah, qahr, qahramon, qahva.

O'zbek tiliga rus tilidan kirgan barcha so'zlarda *x* undoshi yoziladi:

kinomexanik	porox
kinoxronika	psixiatr
malaxit	psixika
matriarxat	raxit
papax	texnolog
paraxod	xokkey

E unlisidan so'ng *H* undoshi keladi:

Ehhe, ehrom, ehson, ehtimol, ehtiom, ehtiros, ehtiyoj, ehtiyot.

I unlisidan so'ng (ihramoq so'zidan tashqari) doimo *x* chuqur til orqa undoshi yoziladi:

Ixlos, ixtilof, ixtiro, ixtisoslik, ixtiyor, ixcham.

J harfi bilan boshlanuvchi so'zlarda (*jigarso'xta* va *jo'xori* so'zlaridan tashqari) *h* undoshi yoziladi:

jabha	jarohat	jihod
jahannam	jarroh	jihoz
jahd	javhar	jahl
javohir	jahon	

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

417- va 418-mashqlar shartiga ko'ra, o'quvchilar *x* va *h* undoshlarining talaffuzdagi farqini aniqlashga e'tibor qaratadilar. Bu undoshlar yordamida ma'nolari farqlanayotgan so'zlar qiyoslanib, talaffuzdagi farqlanishga alohida ahamiyat beriladi. Har bir guruhdan navbat bilan o'quvchilar doskaga chiqib, slaydda aks etgan so'zlarning ma'nosini izohlaydilar. Berilgan javoblar asosida guruhlarga ball beriladi.

Ektranda avval so'zlar, so'ng to'g'ri javoblar namoyish etiladi.

Qiyoslash

X – chuqur til orqa tovushi,
H – bo'g'iz tovushi.

Hol – xol

Hol – insonning holati, salomatligi: *Hol-ahvolingiz* yaxshimi? – so'radi yo'lovchi.

Xol – inson badanidagi qora dog': Malikaning o'ng yuzida *xoli* bor edi.

Hil – xil

Hil – ezilib pishgan: Shaftolilar hil-hil pishibdi.

Xil – tur ma'nosida qo'llanadi: *Gulzorga turli xil* gullar ekildi.

Ham – xam

Ham – yuklama: Ovchilar ikkovini ham tutib olishdi.

Xam – fors-tojik tilidan o'zlashgan so'z. Boshni egmoq ma'nosini bildiradi: Olim bu gapni eshitib boshini *xam* qildi.

Hush – xush

Hush – insonning sog'lomligi: Es-hushi joyidami?

Xush – yaxshi, yoqimli ma'nosida: *xush* kelibsiz, *xushsurat* ekan.

Shoh – shox

Shoh – davlat boshlig'i, hukmdor: O'zga yurtda *shoh* bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l. (Maqol)

Shox – daraxtning shoxi: Yerdan mayda-chuyda *shoxlar* sochilib yotardi.

419-mashqda berilgan matn mazmunidan kelib chiqib, o'quvchilar *x* va *h* undoshlaridan mosini tanlaydilar.

Berilgan so'zlar: No'xatpolvon, ogohlik, halol, harom, harf, Rohat, xotin.

Guruhlardan bir nafardan o'quvchi chiqib diagrammadagi doiralarni to'ldiradi.

"Bingo" usuli uchun tayyorlangan tarqatmalar o'quvchilarga tarqatiladi. Savollar o'qib boriladi, o'quvchilar esa to'g'ri javoblarni belgilab borishadi va bir qator to'liq belgilanganda "Bingo" deb qo'l ko'tarishadi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. *v, f* tovushlari qaysi guruhga kiradi?

2. Gul – ...

3. Portlovchi *j* tovushi qatnashgan so'z?

BINGO: lab-tish, flower, jajji.

4. Jarangsiz jufti bo'lmagan jaranglilar?

5. "Jurnal" so'zidagi *j* harfi qanday tovush?

BINGO: sirg'aluvchi, b, d, g, j, z, g', jajji.

6. Til oldi tovushlari?

7. Qo'shimcha qo'shilishi natijasida tovush o'zgarishiga uchragan so'z?

BINGO: qishlog'im, flower, t, d, z, s, sh, ch, n, l, r.

8. *m* harfidan oldin kelgan *n* tovushining *m* ga yaqin talaffuz qilinishi qaysi so'zda mavjud?

BINGO: lab-tish, yo'llanma, m, n, ng, l, r.

V. Baholash va rag'batlantirish.

"Assessment" texnologiyasi asosida tayyorlangan tarqatmalar o'quvchilarga tarqatiladi. Topshiriq bajarilgach, ektranda to'g'ri javoblar ko'rsatiladi. O'quvchilar o'zlarini tekshirib baholashadi.

"Assessment" texnologiyasi	
Test. Bo'g'iz undoshi bilan yoziladigan so'zni belgilang? A. Xazina B. Nihol C. No'xat D. Xarita	Muammoli vaziyat Nuqtalar o'rnini to'ldiring: – holva – maxfiy
Simptom "X" undoshini izohlang. Chuqur til oldi undoshi; jarangsiz undosh	Amaliy ko'nikma Lug'at diktant. 1. Xayr-ehson. 2. Xayrixoh. 3. Xohish. 4. Husnixat.

Guruhlarning ballari umumlashtirilib, g'olib guruh e'lon qilinadi. O'quvchilar baholanadi. Faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uygaz vazifa.

420-mashq. "Halol va harom" mavzusida o'z fikringizni bayon qiling. Badiiy asar *tarkibidan bir so'z tarkibida* ham *Xx*, ham *Hh* harfi qatnashgan so'zlarga misol yozing.

Ro'zmat ISMOILOV,

Toshkent viloyati G'azalkent shahridagi
2-maktabning o'zbek tili fani o'qituvchisi

QADIMIY SHAHARLAR

(O'zbek tili, 5-sinf, IV chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarga mamlakatimizdagi qadimiy shaharlar, ularning diqqatga sazovor joylari, yodgorlik va obidalarini, buyuk allomalari haqida ma'lumot berish orqali ularni Vatanga muhabbatlarini oshirish;

b) tarbiyaviy maqsad: o'quvchilar qalbida iftixor tuyg'usini shakllantirish, hayot go'zalliklarini qadrlashga o'rgatish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatish.

Darsda foydalaniladigan usullar: "4x4" texnologiyasi, "Koptok", boshqotirma, "Ha va yo'q".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: shaharlarning rangli tasvirlari, 5-sinf darsligi, kompyuter, ekran, multimedia, rag'bat kartochkalari.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashilgach, davomat aniqlanadi. Sinf xonasi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Navbatchi o'quvchining "**Bugungi kun ta'rifi**" bo'yicha axboroti tinglanadi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'qituvchi: Hurmatli o'quvchilar, hammangizga ma'lumki, avvalgi darsimizda yozilgan nazorat ishi bo'yicha xatolar ustida ishlagan edik. Shuning uchun sizlarga yangi mavzuga tayyorlanib kelish vazifasi berilgan edi. Shu sababli bugungi darsimizda "4x4" texnologiyasi asosida sizlarning bilimlaringizni sinovdan o'tkazamiz.

O'quvchilarga raqamli kartochkalar tarqatildi. 1 raqamini olgan o'quvchilar – "**Buxoro**", 2 – "**Samarqand**", 3 – "**Xiva**" hamda 4 raqami egalari "**Toshkent**" guruhiga jamlanadilar.

III. Yangi mavzu bayoni.

Yangi mavzu uyga vazifa qilib berilganligi sababli har bir jamoaning kichik taqdimotlari tinglanadi. Bunda o'quvchilar tomonidan chizilgan rasmlar og'zaki tarzda izohlab berilishi mumkin. Sardorlar o'z jamoa a'zolarining faol bo'lishlarini ta'minlaydilar. Masalan, "**Xiva**" guruhining taqdimoti quyidagi mazmunda bo'lishi mumkin:

Xiva – Xorazm viloyatining qadimiy shahri sanaladi.

Bu yerda obidalar juda ko'p. Ayniqsa, Xivaning Ichan qal'asi noyob muzey hisoblanadi. Ko'hna ark, Kalta minor, Toshhovuz saroyi, Juma masjidi, Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi kabi obidalar shaharning ko'rkli sanaladi. Sayyohlar bu yodgorliklarni zo'r qiziqish bilan tomosha qiladilar. Biz ham yurtimizning bu qadimiy shahrini sayohat qilishni istaymiz.

Shu tarzda "**Buxoro**", "**Samarqand**", "**Toshkent**" guruhlari ham tayyorlab kelgan ma'lumotlarini taqdim etadilar. Jamoalarning vakillari ekran orqali slaydli taqdimot qilishlari ham mumkin. Guruhlar tomonidan berilgan ma'lumotlar "**Barakalla**", "**Balli**", "**O'farin**" kabi rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantirib boriladi. Har bir jamoaning chiqishlari nihoyasiga yetgach, o'qituvchi yangi mavzuni to'ldiradi; o'quvchilar tomonidan berilgan va ularni qiziqtirgan savollarga javob qaytaradi.

So'ng 1-topshiriqda berilgan rasmlar asosida savollarga javob beriladi. Ekran orqali rangli tasvirlarda tarixiy shaharlar faoliyatiga oid fotolavhalar namoyish etiladi (Samarqanddagi Registon maydoni, Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasi, Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasi, Buxorodagi Mir Arab madrasasi) va "Tarixiy shaharlar" matni o'qiladi. O'quvchilarga matn mazmunini o'zlashtirish, qayta hikoya qilish hamda lug'at ustida ishlash topshirig'i beriladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darsning ushbu bosqichida "**Koptok**" o'yinidan foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi qadimiy shaharlardan birining nomini aytib, koptokni o'quvchilardan biriga ulotiradi, koptokni olgan o'quvchi esa shu shaharga oid atamani aytilishi kerak bo'ladi. Deylik, "**Toshkent**" deyilganda, o'quvchi tomonidan "**Ko'kaldosh madrasasi**" deyiladi. "**Samarqand**" deyilsa, Registon maydoni tilga olinadi. Xullas, har bir o'quvchi shu tarzda o'yinni davom ettirar ekan, atamalarni to'g'ri talaffuz etishi va eslab qolishi talab etiladi.

Shundan keyin ikkita kichik guruhga bo'lingan holda quyidagi boshqotirmaning javoblarini topishga kirishadilar.

1-BOSHQOTIRMA

		Q						
		A						
		D						
		I						
		M						
		I						
		Y						

1-boshqotirmaning savollari:

1. Rus tilidagi "древний", "старинный" so'zining tarjimasini. (*Qadimiy*)


2. Kamalakdek tovlanadigan atlaslari bilan dunyoga mashhur bo'lgan shahar. (*Marg'ilon*)

3. "Yodgorlik" so'zining ma'nodoshi. (*Obida*)

4. Xorazm vohasidagi qadimiy shahar. (*Xiva*)

5. "Sayqali ro'yi zamin" nomi bilan tanilgan shahar. (*Samarqand*)
6. Samarqanddagi mashhur joy. (*Registon*)
7. "Турист" so'zining tarjimasini. (*Sayyoh*)

2-BOSHQOTIRMA



2-boshqotirmaning savollari:

1. Ko'kaldosh madrasasi qayerda joylashgan? (*Toshkent*)
2. Xivadagi noyob muzey. (*Ichan qal'a*)
3. Qashqadaryo viloyatidagi qadimiy shahar. (*Shahrisabz*)
4. Ichan qal'ada nechta darvoza bor? (*To'rtta*)
5. "Ювелир" so'zining tarjimasini. (*Zargar*)
6. Samarqandda 40 yil hukmronlik qilgan podsho. (*Ulug'bek*)

7. Buxorodagi qadimiy obida. (*Labihovuz*)
 8. Samarqanddagi qadimiy madrasa. (*Sherdor*)
- So'ng "HA" va "YO'Q" o'yinidan foydalanish mumkin. Tayyorlangan savollarga o'quvchilar tezkorlik bilan javob beradilar. Har bir to'g'ri javob sohibiga rag'bat kartochkasi beriladi.

1. Somoniylar maqbarasi Toshkentda qad rostlagan. (*Yo'q, Buxoroda*)
2. Samarqand shahri Amir Temur ordeni bilan taqdirlangan. (*Ha*)
3. Abu Ali ibn Sino buxorolikmi? (*Ha*)
4. "Sharq taronalari" festivali Xivada o'tkaziladi. (*Yo'q, Samarqandda*)
5. Toshkent – non shahri. (*Ha*)
6. Najmiddin Kubro xivalikmi? (*Ha*)
7. Pahlavon Mahmud Buxoroda tug'ilgan. (*Yo'q, Xivada*)
8. "Binkat" – Shahrisabz shahrining qadimgi nomi. (*Yo'q, Toshkentning*)

V. Baholash va rag'batlantirish.

Darsda faol ishtirok etgan o'quvchilar individual, guruhlar umumiy baholanadi, past o'zlashtirgan o'quvchilarga qo'shimcha topshiriq beriladi. G'olib guruh e'lon qilinadi. Baholar izohlanadi.

VI. Uyga vazifa. "Qadimiy shaharlar" mavzusi bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar topib, yozib kelish.



Tahlil

Tolib ENAZAROV,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori

"MUHOKAMATU-L-LUG'ATAYN"DAGI DIALEKTAL SO'ZLAR VA OBRAZLI NOMLANISHLAR TALQINI

Alisher Navoiy "...avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultoni..." (I.Karimov) va Xurosonning mashhur davlat arbobi, o'z ona tilini mukammal bilgan hamda uni boshqa tillar bilan qiyoslay olgan zamonasining tilshunos olimi ham bo'lgan.

Ushbu asar yozilganda¹ turkiy tilning ming bir ko'rinishli so'z shakllari-yu ma'no mo'jizalari bilan Navoiy dahosi "ilm-u ulus" oldida quyosh misoli charaqlab turgan bo'lsa-da, ba'zilar forsiy tilni ulug'lab, "Bu tildan o'zga tillarda ijod qilib bo'lmaydi. Turkiy til esa askariy til. Unda nafis, latif va serma'no g'azallarni bitib bo'lmaydi", deb yurishgan bir paytda bu ulug' shoirning mazmun-u mohiyati betakrorligi bilan ajralib turadigan "Muhokamat ul-lug'atayn" nomli asari yozilgan. Bu – boshqa tillarni kamsitmasdan o'z ona tilini ulug'lagan Alisher Navoiyga xos bo'lgan ma'naviy jasorat namunasi. Asarning nomlanishi "Ikki til muhokamasi" ma'nosini bildirda-da, bugungi kungacha "Muhokamat ul-lug'atayn" (4–28-betlar)

va "Muhokamatu-l-lug'atayn"² tarzida ikki xil yozilgan. Bizningcha, asarning ikkinchi xil yozilishi to'g'ri.

Uning bu asaridagi birgina *yig'lamoq* so'ziga yuzta sinonimni keltirishining o'zi ijodkorlar uchun bitmas tuganmas xazina ekanligini ko'rsatib, bunga asos sifatida shoir o'zining asarlarini ham mazkur risolasida qisqa sharhlagan. Unda omonim, ko'p ma'nolilik va so'z yasalishi jarayonlariga qisqa bo'lsa-da, to'xtalangan.³ Bular Alisher Navoiy ham lug'atshunos sifatida "Sab'atu abhur" nomli lug'at tuzganligini asoslaydi.

XX asrning 60-yillari oxirida Alibek Rustamov shoir asarlarining fonetikasi⁴, shu asrning 80-yillarida akademiklar G'.Abdurahmonov va A.Rustamov shoir asarlarining grammatikasini tadqiq etganlar.⁵ XX asrning 70–80-yillarida professor X.Doniyorov va D.Abdurahmonov shoir asarlaridagi so'zlarning ko'pchiligi qarluq hamda qipchoq lahjalariga xosligini unli va undoshlar tahlili asosida ko'rsatib bergan.

Asarni qayta-qayta o'qir ekanmiz⁶, ayni vaqtda bir qancha kishilarning "Men shoirman, ijodkorman", deb bir hovuchgina so'zlarga yopishib olganini sezamiz. Alisher Navoiy esa adabiy til bo'lgan saroy tili hamda shevalarimiz boyligi bo'lgan dialektal so'zlardan o'rinli foydalangan. Ushbu asarda keltirilgan "yig'lamoq" so'zining sinonimlariga e'tibor bersak, shoarning bu so'zga keltirgan sinonim so'zlarning qariyb teng yarmi o'sha vaqtda ham dialektal so'z hisoblangan. Qarang: "quvormoq, quruqshamoq, usharmak, jinjaymoq, o'ng-daymoq, chekrimak, do'msaymoq, umunmoq, o'sanma-q, igirmak, egarmak, o'xranmak, toriqmoq, aldamoq, arg'adamoq, ishanmak, iglanmak, aylanmoq, erikmak, igranmak, ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo'zg'almoq, sovrulmoq, chayqalmoq, devdashimoq, qiymanmoq, qizg'anmoq, nikamak, siylanmoq, tanlamoq, qimirda-moq, serpmak, sirmamak, ganorgamak, sig'riqmoq, sig'inmoq, qilimoq, yolinmoq, munglanmoq, indamak, tergamak, tevrarak, qingg'aymoq, shig'aldamaq, singramoq, yashqamoq, isqarmoq, ko'ngranmak, sux-ranmoq, siypamoq, qoralamoq, surkanmak, kuyman-mak, ingramoq, tushalmak, mung'aymoq, tanchiqa-moq, tanchiqolmoq, ko'ruksamak, bushurg'anmoq, bo'xsamoq, kirkinmak, sukadamak, bo'smoq, burmak, turmak, tomshimoq, qahamoq, sipqormoq, chicharka-mak, jurkanmak, o'rtanmak, sizg'urmoq, gурpaklash-mak, chuprutmoq, jirg'amoq, bichimoq, qiqzanmoq, sin-gurmak, kundalatmak, qumurmaq, bikirmak, ko'ngur-damak, kinarkamak, kezarmak, do'ptulmoq, chidamoq, tuzmak, qazg'anmoq, qichig'lamoq, gangiramak, yada-moq, qadamoq, chiqanmoq, ko'ndurmak, so'ndurmak, suqlatmoq"⁷.

Ushbu so'zlardan "umunmoq, o'sanmaq, igirmak, egarmak, o'xranmak, toriqmoq, aldamoq, arg'ada-moq, aylanmoq, ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo'zg'almoq, sovrulmoq, ganorgamak, sig'riqmoq, sig'inmoq, qilimoq, indamak, tergamak, tevrarak, sux-ranmoq, siypamoq, qoralamoq, surkanmak, tanchiqa-moq, tanchiqolmoq, ko'ruksamak, bushurg'anmoq, bo'xsamoq, kirkinmak, burmak, turmak, tomshimoq, qa-hamoq, sipqormoq, chicharkamak, jurkanmak, sizg'ur-moq, gурpaklashmak, chuprutmoq, jirg'amoq, bichimoq, singurmak, kundalatmak, qumurmaq, ko'ngurdamak, kinarkamak, do'ptulmoq, chidamoq, tuzmak, qadamoq, chiqanmoq, suqlatmoq" so'zlari eski o'zbek adabiy ti-lida kam ishlatiladigan so'zlar bo'lgan. Bu so'zlar Hirot shahri yaqinidagi o'zbek shevalarida faol ishlatilgan-ki, ularni shoir jamlab, yig'ib, o'rganib, o'rganilayotgan asarida keltirilgan yig'lamoq so'zining ma'nodoshligini "g'arib maqosid adosida", ya'ni ingichka ma'no nozikligi bilan asoslashga intilgan: "Bu yuz lafz durki, g'arib ma-qosid adosida ta'yin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlarki, barchasi muhtojun ilayhdur-ki, takallum chog'ida kishi anga muhtoj bo'lur"⁸, ya'ni "Bu yuzta so'zni ingichka (nozik) maqsadlarini ifoda-lash uchun belgilabdurlarki, bularning hech biri uchun sart tilida so'z yasamabdirlar. Lekin bularning barchasi-ga kishining ehtiyoji tushadi, so'zlashish chog'ida kishi unga muhtoj bo'ladi"⁹.

Shoir Abusaid mirzoning farmoniga muvofiq Hirot-dan Samarqandga "ixroj", ya'ni surgun qilingach¹⁰, Termiz, Shahrizabz va Samarqandni o'z ko'zi bilan ko'rgan: "Va bu so'zning tanavvui taaqquldin nari va tasavvur-din tashqaridur. Agar mubolag'asiz ijmol yuzidin qalam surulsa va ixtisor jonibidin raqam urulsa, yetmish ikki nav' bila taqsim toparida xud hech so'z yo'qturki, yet-mish ikki firqa kalomig'a dalolat qilg'ay; ammo ulcha taf-siliydur. Har jamoat alfozi, o'zgalaridin va har guruh ibo-rati yonalaridin mutag'ayyir va bir necha xususiyat bila mutamayyazdurki, o'zgalarda yo'qtur"¹¹, ya'ni "So'zning turlari shu qadar ko'pki, o'ylash va tasvirlab chiqish mumkin emas. Agar mubolag'a qilmasdan yuzaki ba-yon qilinsa va qisqalik bilan yozib chiqilsa, yetmish ikki nav'ga bo'linib, yetmish ikki xil xalqning so'ziga ayla-nishida hech bir so'z yo'q, lekin bundan ham ko'pdir. U shundayki, yer yuzining yetti iqlimining har birida necha mamlakat bor, har bir mamlakatda necha shahar, sha-harcha va kent bor va har dashtda necha xil sahran-ishin xalq, har bir tog'niig kamarlarida va yuqorisida, har bir daryoning orolida va qirg'og'ida necha guruh odam-lar bor. Har bir jamoaning tillari o'zgalaridan va har gu-ruhning so'zlashuvlari yana birlaridan o'zgacha va bir necha xususiyatlar bilan farqlidirki, bu ayirma o'zgalar-da yo'qdir"¹². X.Doniyorov shoir ishlatgan "yig'lamoq" so'zining yuzta sinonimidan oltmish to'qqiztasi qipchoq shevalarida uchrashini aytgan.¹³

Shoir bu asarini "Muhokamatu-l-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") deb arabcha nomlagani ham obrazli nomlanishning bir shaklidir; *sart tili*, *sart lafzi*, *sart ibo-rati* deb fors tilini; *hindi* deb hind tilini; *arab tili*, *arabi til*, *arabi alfaz* deb arab tilini; *turk tili*, *turk lafzi*, *turk alfazi*, *turk iborati*, *turkcha*, *turki*, *turki alfaz* deb turkiy tilni; *turk*, *turklar*, *turk eli*, *turk ulusi*, *atrok* deb turkiy (o'zbek)lar-ning o'sha davrdagi nomini; *turki* va *sart lug'ati* jumlas-i bilan turkiy va *sart* (forsiy) tillarni ifodalashi esa bugungi kunda "O'zbek onomastikasi" fanida ilmiy o'rganilishi endi boshlanayotgan obrazli nomlanishlarning umumiy hamda ilk ko'rinishlari deyish o'rinli.¹⁴ Shoir bu bilan onomastik nomlanishga oddiy obrazli nomlanishlarning amaliy namunalarini shoirona iboralarida keltirgan. Ularda obrazlilik turlicha holatda berilgan.

Shoir *til* so'zi bilan birga *lison* so'zini ham zarurat-dan kelib chiqib ishlatadi va ular o'rtasidagi farqni ajrata olganligi uning tilshunoslikdagi tajribasidan dalolat be-radi.¹⁵ Bu ikki so'zni farqlagani kabi ularni yonma-yon qo'llash ham obrazli nomlanishning bir ko'rinishi. Shoir bu asarida "yig'lamoq" so'zining shevalardagi ko'ri-nishlari bilan dialektal so'zlarni yig'ish, qo'llash yoki o'zlashtirishning namunasini ko'rsatgan. Navoiy sheva-ni lug'aviy boyligidan xabardor bo'lib, asarlarida ba-diyyilni ta'minlash uchun ulardan o'rinli foydalangan.

Nutqimizda singarmonizmga xos ohangdoshlik ho-latini ham bilib, so'zlarni nafosat bilan aytishda labial hamda tanglay singarmonizmga xos xususiyatlar maj-muyi yetishmayotganligini anglaymiz.¹⁶ Shunda shoir-ning bu asari ona tilimizni avaylab asrash va o'zbek xalq shevalari tadqiqiga da'vatdek jaranglaydi. Navoiy asar-

larini o'rganish jarayonida tarixshunos, nomshunos, tilshunos, adabiyotshunos, geograf, dialektolog, shuningdek, fizik ham o'z sohasi uchun noyob narsalarni topa oladi. Shuning uchun shoirni "Eski o'zbek adabiy tilining asoschisi" va yana "Alisher Navoiy – nomshunos alloma" deb atashganda haq bo'lishgan.¹⁷

Shu o'rinda o'ttiz yillik kuzatishlarimiga asoslangan qiyosni ham aytib o'tishni o'rinli deb bilaman. XV asrda Alisher Navoiy ijod qilish bilan birga tilshunoslikka daxldor "Muhokamatu-l-lug'atayn" nomli asarni yozgan bo'lsa, O'zbekiston xalq shoiri va qahramoni Erkin Vohidov bir qancha she'r hamda maqolalarida va "So'z latofati" nomli asarida¹⁸ xalq tili, xalq shevalaridagi so'zlarga e'tibor berish, ularni yig'ib, o'rganib, amalda ishlatish kerakligiga bir necha so'zlarning leksik-semantik xususiyatlariga to'xtalgan holda ishora qilgan.¹⁹ Bu ikki shoirning she'r-u g'azallarini jumlayi jahonga tanitgan narsa adabiy tilimiz, albatta, qonimiz-u ongimizga singigan shevalarimizning dialektal leksikasidir.

Ayni vaqtda 2006-yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da **sakson mingdan ortiqroq ona tilimiz so'zlari qayd etilgan xolos**. Bu – ona tilimiz, ulug' va mustaqil mamlakatimiz, qadimiy xalqlardan biri bo'lgan o'zbek xalq qdrati, salohiyati va imkoniyati oldida juda kam... O'zbek xalq shevalaridagi so'zlar bo'yicha nomiga tadqiqot olib borilgan va bor-yo'g'i 4505 (to'rt ming besh yuz besh) ta so'zdan iborat "O'zbek xalq shevalari lug'ati" nashr etilgan.²⁰ Sheva vakillari nutqida

esa haligacha o'rganilmagan million-million so'zlarimiz e'tiborsiz qolmoqda. Qarang, shevalarimizdagi dialektal so'zlarni yig'ish, sheva vakillari nutqini yozib olish va undagi dialektal so'zlar asosida lug'at maqolalari tayyorlansa, ikki milliondan ortiq so'zlik, yuz jildli dialektal lug'atni nashr etgan va shu orqali, sheva so'zlarimizni saqlab qolgan bo'lar edik.

Shevalarimizning sinonim, omonim, paronimligi haligacha tadqiq etilmagani bois shevalarda so'z yasali-shi, dialektal leksikaning xilma-xil ko'rinishlarini tuzilajak ko'p jildli dialektal lug'at tarkibiga kiritish nafaqat uning qimmatini oshiradi, balki mukammalligini ham ta'minlaydi. Bu muammo – "O'zbek dialektologiyasi" fanining hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biri. U – tadqiq etilishi unutilgan shevaning dialektal so'zlarini yig'ish, to'plash va ilmiy tahlil qilish hamda tilimizga xos obrazli nomlanishlarni o'rganishga da'vat, "so'z shunday gavhardirki, martabasini aniqlashdan nutq egalari oqizdirlar..."²¹ desak yangilishmaymiz. Chunki u ensiklopedik mohiyatga ega.

Demak, shevalarimiz va obrazli nomlanishlarni o'rganish da'vat etib yozilgan Alisher Navoiyning "Muhokamatu-l-lug'atayn" asari til va adabiyot ta'limi sohasidagi dolzarb masalalarni ilgari surish barobarida qadim tarixga ega o'zbek xalqining million-million dialektal so'zlarini o'rganish va ilmiy tadqiq etishga ham rag'batlantira oladi.

¹⁷Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug'atayn. Q.Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. – Toshkent: Akadernashr, 2017. 90-bet.

¹⁸Qiyoslang: 1) Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Matnini P.Shamsiyev nashri asosida izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlovchi S.G'aniyeva. – Toshkent: Fan, 2000. 4–28-betlar; 2) Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug'atayn. Q.Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. – Toshkent: Akadernashr, 2017.

¹⁹Qarang: Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Matnini P.Shamsiyev nashri asosida izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlovchi S.G'aniyeva. – Toshkent: Fan, 2000. 18–19-betlar.

²⁰A.Rustamov. Navoiy tilining fonetik xususiyatlari // Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. – Toshkent, 1968. 258–278-betlar.

²¹G'.Abdurahmonov, A.Rustamov. Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. – Toshkent, 1984.

²²Bu asarning bir necha nashri bor: Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev. Asarlar. XIV jild. – Toshkent, 1967. 103–132-betlar; Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. P.Shamsiyev nashri asosida izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlovchi S.G'aniyeva // Mukammal asarlar to'plami. XVI jild. – Toshkent, 2000. 6–40-betlar.

²³Bu asarning bir necha nashri bor: Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Nashrga tayyorlovchi P.Shamsiyev. Asarlar. XIV jild. – Toshkent, 1967. 103–132-betlar; Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. P.Shamsiyev nashri asosida izoh va tarjimalar bilan nashrga tayyorlovchi S.G'aniyeva // Mukammal asarlar to'plami. XVI jild. – Toshkent, 2000. 6–40-betlar.

²⁴Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug'atayn. Q.Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. – Toshkent: Akadernashr, 2017. 32-bet.

²⁵Bu shoirning asardagi o'z so'zi.

²⁶Ushbu fikrlar esa shoir asaridagi fikrlarining tabdil qilingan ko'rinishi sanaladi.

²⁷Bu tarixiy dalil (fakt) bo'lib, o'sha davrning tarixiy manbalarida ham o'z ifodasini topgan.

²⁸Mazkur fikr shoirning asaridagi o'z so'zi hisoblanadi.

²⁹Ayni shu fikrlar esa shoir asaridagi fikrlarining tabdil qilingan ko'rinishi.

³⁰Qarang: X.Doniyorov. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent: Fan, 1968. X.Doniyorov. Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 1972. X.Doniyorov. Eski o'zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari. – Toshkent, 1976. X.Doniyorov. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979.

³¹Obrazli nomlanishlar haqidagi tadqiqotimizni shoirning ushbu asariga e'tibor berish bilan boshlash uchun bu maqolaga qo'l urganmiz. Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug'atayn. Q.Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. – Toshkent: Akadernashr, 2017. 86–89-betlar.

³²Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug'atayn. Q.Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. – Toshkent: Akadernashr, 2017. 87-bet.

³³Zero, tilimizga ruscha-baynalmilal so'zlarning kirib kelishi sho'ro davriga xos xususiyat edi. Shu tufayli sho'ro davrida va hozir ham "O'zbek adabiy tilida singarmonizm hodisasi yo'q", deb kitoblarda yozilgan. Aslida ushbu hodisa adabiy tilimizda qoldiq hodisa sifatida saqlanib qolgan, lahja hamda shevalarimiz esa bu fonetik hodisa bilan o'z nufuzi va turkiy tillardan birilgini asoslaydi. Chunki o'zga turkiy tillarda ushbu hodisaga chegara qo'yilmagan. Shu o'rinda adabiy tilimizdagi imlo va orfoepik me'yorni qayta ko'rish ehtiyoji paydo bo'lmoqda.

³⁴Bunday nomlanish bilan shoirni e'tirof etish va ulug'lash XX asrning 40-yillaridan to bugungi kungacha ilmiy adabiyotlarda aytilgan. T.Enazarov, A.Esemurodov. Alisher Navoiy – nomshunos alloma ham // Temuriy davrida til, madaniyat va san'at taraqqiyoti. – Toshkent, 2016.

³⁵E.Vohidov. So'z latofati. – Toshkent: O'zbekiston, Sharq, 2014.

³⁶Ular ona tilimizning go'zalligini ko'rsatuvchi sheva so'zlarini yig'ib, ulardan o'rinli foydalanishgan.

³⁷Qarang: O'zbek xalq shevalari lug'ati. – Toshkent: Fan, 1971.

Alisher AXROROV,

Guliston davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

MAQOLLARDA TINGLASH, SUKUT SAQLASH ODOBI MASALASI

Aql-u hush egasi, tadbirli inson

So'z boshlar suhbatdoshi jim bo'lgan zamon.

Tan olish lozimki, bugungi kungacha tilimiz tarixi, to'vushlar tizimi, shevalari, lug'at tarkibi, iboralari, grammatik qurilishi, badiiy asar tili, xalq og'zaki ijodi namunalari tilini tadqiq etish bilan bog'liq masalalar uslubiy, kognitiv, lingvopragmatik jihatlardan ma'lum darajada tahlilga tortildi va buning samarasi o'laroq, qator darslik va qo'llanmalar, turli mavzudagi risola va maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yaratildi. Albatta, bular o'zbek tilshunosligining jahon ilm-fani bilan hamohang qadam tashlayotganligi, ko'zga ko'rinarli yutuqlarni qo'lga kiritayotganligini ko'rsatadi. Biroq shunday bo'lsa-da, hali tilshunosligimizda yetarlicha o'rganilmagan, o'z ilmiy mavqeyiga ega bo'lmagan, o'rganilishi muhim bo'lgan masalalar ham talaygina. Ana shunday masalalardan biri o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalardan biri bo'lgan maqollarda nutq madaniyati, muloqot odobi, muomala madaniyati masalasi va ularning nutqdagi imkoniyatlarini tadqiq etish hisoblanadi. Maqollarning muloqot, muomala odobini shakllantirishdagi o'rni, komil insonni yetishtirishdagi mavqeyi kabi masalalar, nutqning ta'sirchanligini ta'minlashdagi ahamiyati, inson komilligini belgilovchi asosiy omillardan ekanligi kabi yana ko'p holatlar izchil tarzda o'rganilmagan. Ma'lumki, hamma davrlarda ham so'z ustalari, notiq, madaniyatli kishilar tilga hurmat bilan munosabatda bo'lganlar, uning barcha imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanishga harakat qilganlar. Ayniqsa, xalq maqollari, iboralardan o'z nutqiy faoliyatlarida unumli foydalanish. Maqollarning nutq ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni va ahamiyati, muloqot jarayonidagi mavqeyini yaxshi bilganlar. Nutqiy madaniyat inson komilligini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib, xalq maqollarida bu masalaga aloqador dono fikrlar o'z ifodasini topgan.

Komil insonni shakllantirishda nutq madaniyatiga bevosita aloqador bo'lgan bir masala – kishilarda sukut saqlash, tinglay olish ko'nikmasini hosil qilish masalasi muhim. Hozirgi kunda, bu xususiyatlarni kishilarda shakllantirish murakkab masalalardan biriga aylandi, deyish mumkin. Agar Rossiya teleko'rsatuvlarini kuzatsak, ikki kishi bir vaqtning o'zida tinimsiz gapiraveradi, bu jarayon ba'zan janjalga aylanib ketadi. Ushbu salbiy jihat O'zbekiston teledasturlarida, ba'zan ma'ruza va suhbatlar jarayonlarida ham kuzatilmoqda. Madaniyatimiz tarixida bunday salbiy holat, odatda, qoralangan. Bu haqida Sa'diy Sheroziy quyidagi fikrni aytadi:

*Ey oqil, so'zning ham bosh-oyog'i bor,
O'zga so'zga so'zing qistirma, zinhor.*

Alisher Navoiy hazratlari *"Tilni tiya olgan odam – donishmand oqil"*, *"So'zga erk bergan odam – beandisha va pastkash"*, *"So'zi hisobsiz – o'zi hisobsiz"* tarzidagi hikmatlarni bejiz ta'kidlamagan.

Ko'rinib turibdiki, sukut saqlash, tinglay bilish, boshqalar fikrini qanoat, sabot bilan eshitish xususiyatiga ega bo'lish shaxs madaniyatini belgilovchi asosiy omil bo'lib, bunday shaxslar qadimdan qadrlangan. Shu muhim masalaga o'zbek xalq maqollari – hikmatlarida alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, *"Til beruvchi bo'lma, til oluvchi bo'l"*, *"Sihat tilasang, ko'p yema, izzat tilasang, ko'p dema"*, *"So'z – kumush, sukut – oltin"*, *"So'zlaganing kumush bo'lsa, so'zlamaganing oltin"*, *"So'zlovchi nodon bo'lsa, eshituvchi dono bo'lmog'i kerak"* kabi maqollar; *"Ko'p so'zlashdan ortiqcha naf ko'rmaganman, so'zning ko'pidan foyda ham topmaganman"*, *"Qizil til umringni qisqa qiladi. Omonlik istasang, tilga juda ehtiyot bo'l"*, *"So'zning bir ulushi so'zlanadigan va to'qqiz ulushi tiyladigan bo'ladi"* (Yusuf Xos Hojib) [1]; *"Keraksiz so'zlar yonar o't kabidir, uni og'izdan chiqarmaslik kerak"*, *"Odamlar oldida bo'la turib tilini tiya olgan va izzat orttirgan odam haqiqiy odamdur"*, *"Yaxshi suhbatdosh – yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir"* (Deyl Karnegi) kabi hikmatlarni yana davom ettirish mumkin.

Husayn Voiz Koshifiyning *"Axloqi Muhsiniy"*, Alisher Navoiyning *"Mahbub ul-qulub"*, Kaykovusning *"Qobusnoma"*, Ahmad Yassaviyning *"Hikmat"* asarlari va boshqa juda ko'p manbalarda so'zlash, sukut saqlash, tinglash odobi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Husayn Voiz Koshifiy bu masalaga juda keng va murakkab masala sifatida qaraydi: *"Odob bu – qalbni yomon so'zlardan va nojo'ya xulqdan saqlay olish, o'zini va o'zgalarni hurmat qila bilish, shu bilan birga o'zining va o'zgalarning obro'yini tushurmaslikdir"*. U, eng avval, yomon so'zlardan saqlanish, nojo'ya so'z aytmaslikka e'tiborni qaratyapti. U *"Mahmadonalik – insonni doimo obro'sizlantiradi"*, – degan gapni ko'p ta'kidlaydi [2]. Adib va tilshunos Siddiq Mo'min o'zining *"So'zlashish san'ati"* kitobida nutq madaniyati, muomala odobi kabi masalalar haqida so'z yuritgan. Kitob so'z boshisi *"Yaxshining so'zi moy..."* maqoli bilan boshlangan bo'lib, *"Avval tinglashni o'rgan"* sarlavhali birinchi maqolada shoir Azim Suyundan ikki misra she'r keltirib o'tadi:

*Azizlarim, tinglasangiz jim,
Bir suhbatning keldi-da gali.*

“Indamasdan indashni bilasizmi?” sarlavhali maqolada esa: “Sukutda hikmat ko’p, Bulutda – himmat” maqolini keltiriladi [3]. Tinglay bilish, sukut, saqlash, o’rinli gapirish malakasiga egalik insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri ekanligini muallif xalq maqollari, hikmatlari orqali ochib beradi. Ulug’bek Saidov o’zining “Boshqaruv va notqlik san’ati” kitobida sukut-saqlash, tinglash odobi, nutq madaniyati, muloqot madaniyatiga aloqador masalalarning eng muhimlaridan biri ekanligiga alohida to’xtalib o’tadi. Muallif fikrini dalillash uchun fransuz tilshunosi P.Buastning quyidagi fikrini keltiradi: “Gapirayotgan odam ekadi, eshitayotgan odam hosil yig’adi”. Kitobdagi dunyo donishmandlarining sukut saqlash, tinglash haqidagi fikrlari ham katta ahamiyatga ega: “Sukut – hech qachon xiyonat qilmaydigan

sodiq do’st” (Konfutsiy); “Ko’p bilgan sukut saqlaydi, ko’p gapirgan esa hech narsani bilmaydi” (Lao-Uzi); “Tildan ko’ra quloqlardan foydalan” (Demonant); “Sukut saqlashni bilmagan odam, gapirishga ham qodir emas” (Seneka).

Ana shu keltirilgan fikrlarning ayrimlari maqol tusini olgan bo’lsa, ayrimlari hikmatlar tarzida nutq madaniyatiga aloqador muhim masalaga nisbatan munosabat bildirishni maqsad qilib aytilganligi bilan ahamiyatlidir. Xullas, o’zgarar fikrini tinglay bilish, sukut saqlay bilish odobi komil inson uchun xos bo’lgan asosiy ijobiy belgilardan bo’lib, bu masalaga xalq e’tibori o’zbek xalq maqollarida, hikmatlarida o’z ifodasini topgan, ular inson tarbiyasida o’z ahamiyatini yo’qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qadimgi hikmatlar. Tuzuvchi N.Rahmonov. – Toshkent, 1987. 432-bet.
2. R.Mahmudov. Degonimni ulusqa marg’ub et... – Toshkent, 1992. 15-bet.
3. S.Mo’min. So’zlashish san’ati. – Farg’ona, 1997. 3–100-betlar.
4. O’zbek xalq maqollari. Akademik nashr. II tomlik. – Toshkent, 1987–1988.

Qo’shimcha material

Ro’zixon USMONOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti o’qituvchisi

TIL BILGAN – EL BILAR

Bugungi kunda mamlakatimizda chet tillarni mukammal o’rganish uchun yaratilgan shart-sharoitlar yoshlarning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari, dunyo xorijiy yangiliklaridan xabardor bo’lishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarini o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Prezident qaroriga binoan respublikamizning barcha qishloq va shahar maktablarida bolalarga ingliz tili darslari 1-sinf dan boshlab o’tila boshlandi. O’quv muassasalarida chet til fanlaridan samaradorlikka erishishda esa yuqori salohiyatli va bilimdon fan o’qituvchilariga bo’lgan ehtiyoj ortadi. Shu sababli bugungi kunda malakali ingliz tili o’qituvchilariga bo’lgan talab katta. Ushbu talabdan kelib chiqqan holda mamlakatimiz tomonidan bir qancha xorijiy davlatlar bilan shartnomalar imzolangan. Jumladan, O’zbekiston–Shvetsiya biznes-forumida Xalq ta’limi vazirligi va “EF Language Learning Solutions” kompaniyasi o’zaro anglashuv memorandumini imzoladi. Bu kompaniya yurtimizda faoliyat olib borayotgan o’qituvchilarning ingliz tili bo’yicha bilim darajasini aniqlash hamda ushbu test sinovlardan muvaffaqiyatli o’tganlarni Yevropa va Amerika oliy o’quv yurtlariga o’qish va malaka oshirish uchun yuborish bilan shug’ullanadi.

Shuningdek, kompaniya O’zbekistondagi o’qituvchilarga IELTS va TOEFL uchun mos keluvchi,

xalqaro miqyosda tan olingan “EF Standart English Test” ta’lim sertifikatini asosida ingliz tilini o’rgatish bo’yicha ham taklif kiritgan. 1996-yilda tashkil topgan O’zbekiston ingliz tili o’qituvchilari assosiativasi – UzTEAning bugungi kunda mamlakat bo’ylab 14 ta filiali faoliyat ko’rsatmoqda. UzTEA (Uzbekistan Teachers of English Association)ning bosh maqsadi – O’zbekistonda ingliz tilini o’rgatish mahoratini rivojlantirish, o’rgatuvchilarni zaruriy o’quv vositalari va materiallar bilan ta’minlash, shuningdek, ingliz tilini o’rgatish haqidagi bilimlarini boyitishdan iborat. Statistik ma’lumotlarga ko’ra UzTEAga mingdan ziyod o’qituvchilar doimiy a’zo hisoblanadi. Assosiativada har yili a’lo darajada faoliyat olib borayotgan o’qituvchilar Britaniya Kengashi homiylikidagi “Ingliz tili o’qitishda yuksak mahorat mukofoti”ni qo’lga kiritadi. Jumladan, 2002-yilda UzTEA Samarqand va Farg’ona filiallari Britaniya Kengashi loyihasi doirasida Ingliz tilini o’qitish vositalari bilan ta’minlangan resurs markazga ega bo’ldi.

Xullas, chet tillarini o’rganishdan asosiy maqsad faqatgina jahon yangiliklaridan xabardor bo’lish, dunyo kezish, o’zga millat madaniyati, urf-odatlarini, hayot tarzini o’rganish emas, balki ko’hna tarixga ega Vatanimiz, undagi qadimiy yodgorliklar-u osori atiqalar, muqaddas qadamjolar, xalqimiz madaniyati, urf-odatlarini dunyo mamlakatlariga tanitishdir. Bunda esa bizga chet tillarini bilish juda muhim.

Dilbar NORMURODOVA,

Termiz shahridagi 11-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

JAHON FOLKLORI NAMUNALARIDA POETIK YONDASHUVNI QIYOSLAB O'RGANISH

Jahon adabiyotida shunday janrlar borki, ular qaysidir jihati bilan bir-biriga o'xshab ketadi. Jumladan, o'zbek nikoh to'yi marosimida aytiladigan yor-yorlar va antik she'riyatda shakllangan epitalamalar ijro o'rni va maqsadi, mazmun-mohiyati jihatidan bir-biriga o'xshaydi. Shunga ko'ra ularni o'zaro qiyoslab o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Epitalamalar grek tilidagi "epithalamios" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, odatda, yangi turmush qurgan yosh kelin-kuyovlarga baxt tilash uchun kuylanadigan to'y qo'shiqlari hisoblangan. Ular antik she'riyatda shakllanib, xalq marosim qo'shiqlaridan rivojlangan. Dastlab bunday qo'shiqlar xor bo'lib, jamoa tarzida kuylashga mo'ljallangan. Epitalamalarning ilk namunalari qadimiy yunon poeziyasida ko'zga tashlanadi hamda Sapfo Katuun, keyinchalik IV–V asrlarda Avzoni, Klavdian, Sidoniy, Apollinariylar ijodida uchraydi. Ammo Vizantiya she'riyatida ushbu janr mavjud emas.

Rus she'riyatida V.K.Trediakovskiy ham epitalamalar yaratgani haqida ma'lumotlar yetib kelgan.

Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra epitalamalar nikohdan oldin, kelina osoyishtalik va tinchlik tilash maqsadida kuylanadigan qo'shiqlar bo'lib, uning manbai gimeney naqoratli xalq qo'shiqlari sanaladi. Bunday qo'shiqlar aslida nikoh xudosi Gimeney sharafiga bag'ishlangan va "gimeney" deb yuritilgan. Gimeney qo'shiqlari kelinni kuyovning uyiga kiritayotganda xor bo'lib ijro etiladi. Kelin va kuyovni olqishlash, ularga baxt-sodat tilash kabi folklor motivlari hozirda ham saqlanib qolgan.

Qadimgi Yunon shoirasi Sapfoning gimeneylarida mifologik obrazlar qo'llanilgan. Ularda kuyov urush xudosi Aresga qiyoslangan. Nikoh qo'shig'ida sevgi xudosi Afrodita marosim uchun maxsus bezatilgan aravada qo'shiq jo'rligida kelgan. Sapfoning epitalamalari yigit va qizlar xorining musobaqasi shaklida yozilgan. Bu borada Sapfoning Gektor va Andromaxning to'yini tasvirlovchi epitalamasi juda mashhur bo'lib, u olti misrali yoki an'anaviy lirik shakllarda yozilgan.

Buyuk mutafakkir, shoir va xamsanavis Alisher Navoiy ham "Mezon ul-avzon" asarida xalq orasida qiz uzatishda kuylanadigan "yor-yor" qo'shiqlarini "bag'oyat ta'sirli surud" deya izohlab, ularning el orasida "chinka" deya yuritilishini ma'lum qiladi. Yor-yorlarning aksariyati uzatilayotgan qiz tilidan kuylansa, ba'zilar qizning dugonasi, akasi, onasi, momolari, yangalari (ba'zan yor visoliga yetmagan oshiq yigit) tilidan ham ijro etiladi.

Epitalamalar va yor-yorlarni o'zaro solishtirib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Epitalamalar hamda yor-yorlar nikoh to'yi qo'shiqlarining Sharq va G'arbdagi turli ko'rinishlaridir. Ularda, asosan, kelin-kuyov olqishlanadi.

2. Epitalamalar xalq qo'shiqlari asosida yaratiladi. Yor-yorlar esa, ko'pincha, xalq tomonidan yaratilgan bo'lib, ma'lum bir muallif qalamiga mansub emas. Lekin o'z mualliflariga ega yor-yorlar ham borligini inkor etib bo'lmaydi. Bunga Qul Ubaydiyning yor-yorlar vazni va ohangida yaratilgan qo'shiqlarini misol qilib keltirish mumkin.

3. Epitalamalarda har bir band "O, Gimeney" hayqirig'i bilan tugallansa, yor-yor qo'shiqlarining har ikki misrasidan so'ng "yor-yor" so'zi go'yo radif misol qofiyadan keyin takrorlanib keladi.

4. Epitalamalar gensametr shaklida tuziladi. A.Navoiy o'zbek yor-yor (chinka)larining aruzga xos munsarihi matviy mavquf (muftailun foilun muftailun foilun) bahrida yaratilishini ma'lum qiladi. Ularning har bir bandi 2 yoki 4 misradan iborat bo'ladi. Masalan:

Qaysi chamandan esib keldi sabo, yor-yor,

-V V- - V- - V - V - V -

Kim damidan tushti o't jonim aro, yor-yor.

- V V - - VV - - V V - V -

5. Epitalamalar va yor-yorlar ham xor (jamoa) bo'lib, ham yakka holda ijro etiladi. Yor-yorlar respublikamizning turli hududlarida turlicha ijro etilishi kuzatiladi. Jumladan, Farg'ona vodiysidagi yor-yor ijrosi Buxorodagidan va, o'z navbatida, Xorazmdagi yor-yorlar bularning har ikkalasidan ham farq qiladi. Bu farq ohangidagina emas, hatto naqoratida ham seziladi. Farg'ona va Toshkent vohasida "yor-yor" naqorati (radifi) ommaviyroqdir.

6. Epitalamalar yigit va qizlar xorining musobaqasi shaklida yozilgan, yor-yorlarda esa yigit va qizlar aytishuvi kuzatiladi. Chunki o'zbek to'y marosim folklorida yigit va qizlar o'rtasidagi o'lan, lapar kabi boshqa janrlar mavjud.

7. Yor-yorlar uch bosqichda, ya'ni dastlab kelinning uyida uning dugonalari, yangalari tomonidan, keyin esa kelinni to kuyovnikiga yetkazib borguncha, yo'l davomida hamda uchinchi bosqichda kuyov xonadonida ijro qilingan. Epitalamalar esa ikki bosqichda: to'y va kelin-kuyovning uyiga kelganida ijro etiladi.

Xulosa qilib aytganda, epitalamalar hamda yor-yorlarning ayrim o'xshash jihatlarga egaligi kuzatilsa-da, ular orasida ma'lum bir farqlar ham mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Византиеский словарь в 2-х томах / сост. общ. ред. К.А.Филатова. – СПб.: т2. ТИД.

2. Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. – Toshkent, 68-bet.

QIZIQMACHOQLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Ma'lumki, qiziqmachoqlar kattalarning bolalar bilan so'z o'yiniga o'xshab ketadi. Ularda so'zga e'tibor kuchli bo'lib, qiziqmachoqlarning badiiy til xususiyatlariga alohida ahamiyat qaratish talab etiladi.

Odatda, qiziqmachoqlar bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqish doirasini inobatga olib yaratiladi. Aytaylik, yosh bolalar turli tovushlar, so'z takrorlarini yoqtiradilar. To'g'ri, kichik yoshdagi bolalar so'zlarning ma'nolarini hali chuqur tushunavermaydi, ularning lug'at boyligi ham kam bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, kattalar qiziqmachoqlar yaratganda ohangdorlikni kuchaytirish uchun turli (lug'aviy ma'noga ega bo'lgan va bo'lmagan) so'z takrorlaridan unumli foydalanishlari kuzatiladi. Aytaylik, "Laqashiqildoq" qiziqmachog'ida aynan shu so'zning o'zidan leksik takror sifatida foydalanilgan va u orqali qiziqmachoqning biror shaqildoqli ovozga ega o'yinchoq jo'rligida yoki qo'l barmoqlarini shaqillatib turish yordamida ijro qilinishi bildiriladi. Demak, aytish mumkinki, qiziqmachoqlarning shaqildoqlar jo'rligida ijro qilinishi bolalarda musiqiy ko'nikmalarning shakllanishi hamda ularning musiqiy asboblari haqidagi tasavvurlari paydo bo'lishiga yordam ko'rsatadi.

*Yantog'ingning yog'i yo'q,
Laqashiqildoq.
Odamingning sog'i yo'q,
Laqashiqildoq,
Shavla yemay o'layin,
Laqashiqildoq. [1: 98]*

Ma'lumki, yosh bolalarga yog'sizroq yengil hazmi taom sifatida shavla, bo'tqa ko'p yegiziladi. Lekin bolalar shavla va bo'tqani ko'p yeganligidan me'dasiga tegib, uni yoqtirmay qolishadi. Shuning uchun qiziqmachoqda bolaga yoqimsiz tuyilgan bu ovqat turlarini "yomonlash" xush yoqib, zavqini oshirishi tabiiy.

Qiziqmachoqlar kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallanganligi bois ko'proq sodda, tushunarli tilda yaratiladi. Shunday bo'lsa-da, ayrim qiziqmachoqlarda an'anaviy poetik ramzlar ham uchraydi va o'ziga xos badiiy vazifa bajarib kelishi kuzatiladi:

*Qizil olma tishladim,
Samarqandda qishladim. [1: 93]*

Xalq qo'shiqlarida qizil olma timsoli, ko'pincha, sevgi ramzini ifodalab keladi. Jumladan, bu misralarda ham shu ma'noda talqin qilinib, sevganiga erishgan va

uning yurtidan qo'nim topgan yor timsolini gavdalantirgan. Aslida lirik mazmun va lirik talqinga ega bu kabi misralar yosh bolalar uchun kuylanadigan qiziqmachoqlarga xos emas. Qolaversa, kichkintoylar hali bunday gaplarni tushunmaydi. Shunday esa-da, ba'zi qiziqmachoqlar tarkibiga bunday murakkab tushunchalar kiritilgan hollar ham kuzatiladi. Bunga qiziqmachoqlarning kattalar tomonidan yaratilishi sabab bo'lgan, deyish mumkin. Garchi bola qizil olmani ramziy-timsoliy ma'noda anglamasa-da, uni real qabul qila olishi inobatga olinadi.

Umuman aytganda, lingvopoetik vositalar qiziqmachoqlarning ta'sirchanligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jihatdan **tazod** ham qiziqmachoqlarda eng ko'p qo'llaniladigan tasvir vositalaridan biri sanaladi:

*Katta-katta baliqlar
Bola bosib yotibdi.
Kichik-kichik baliqlar
Kindik kesib yotibdi.
Zochak degan yer yutkur
Yupqa yozib yuribdi. [1: 93]*

Zochak – qizaloqlar sevib o'ynaydigan o'yinchoqlardan biri. Ammo xalq orasida zochak bilan bog'liq turli qarashlar vositasida ayrim urf-odatlar, irimlar shakllangan. Jumladan, etnograf A.L.Troitskaya Toshkentning ayrim joylarida marhumning kafani ichiga qo'g'irchoq (zochak)ni hamroh sifatida qo'shib ko'mish odati bo'lganligi haqida ma'lumot beradi. Uning ta'kidlashicha, marhumni yuvish vaqtida agar uning tanasi juda nimjon, yumshoq bo'lsa, o'lgan kishi yordamchi-hamrohga muhtoj, deb yoniga qo'g'irchoq qo'shib ko'milgan [2: 224]. Folklorshunos D.O'rayevaning fikricha, bu odatning kelib chiqish asosi bevosita marhumning narigi dunyoga safarida unga hamroh, yo'ldosh belgilash masalasi bilan bog'liq. Bunda qo'g'irchoq – marhumning yoniga qo'shib ko'milgan tirik inson yo'ldoshning o'rnini egallagan ramziy belgidir [3].

Xullas, qo'g'irchoqning motam marosimi bilan aloqadorligi sabab qiziqmachoqda uning "yupqa yozib yurganligi" ta'kidlanmoqda. Chunki yupqa – motam marosimida pishiriladigan ritual yegulik.

Xalq orasida ajinaning zochak ko'rinishida namoyon bo'lishiga ishonch mavjudligi bois qiziqmachoqda unga qarata qarq'ish aytilayotir. Bundan tashqari bola-

ga oldidan chiqqan har qanday o'yinchoqni olib o'ynab ketavermaslik tayinlanib, ogohlikka da'vat etilgan.

Qiziqmachoqlarda burga qo'shiq aytishi, qarg'a raqs tushishi mumkin. Albatta, bunda majoz hamda jonlantirish san'atidan foydalaniladi. Masalan, quyidagi qiziqmachoqda burganing xatti-harakati insonlardagidek tasvirlangan. U mitti bo'lishiga qaramay, o'zidan katta insonning tizzasiga tepib, uni olti oyga to'shakka mixlab qo'ymoqda:

*Burgam burgamdan botir,
Burgam choponda yotir.
Choponni suvga bossam,
Ko'zi miltirab yotir.
Burgam tepdi tizimga,
Olti oyda keldim o'zimga. [1: 94]*

Mubolag'a qiziqmachoqlarda eng ko'p qo'llaniladigan badiiy tasvir vositalaridan biri bo'lib, ushbu qiziqmachoqda yumoristik ruh bag'ishlash bilan birga satrdan satrga kuchayib boradi:

*Burgamni egarladim,
Astagina sudralib,
Qo'limdan qocha qoldi.
Burgamni ko'rgan bormi?
Burgamni bilgan bormi?
– Amudaryo qarshisida,
Surxondaryo berisida.
O'tini o'tlab yuribdi,
Suvini suvlab yuribdi...
Borib asta ushladim,
Chakkasiga mush(t)ladim.
Yetmish botmon tuz ortdim,
Oltmish botmon muz ortdim.
Tuzini tuzchiga berdim,
Muzini muzchiga berdim.
Burgamga xaridor keldi,
To'qqiz tangaga sotdim. [1: 94]*

Kichkinagina burgani egarlash, yana uning chakkasiga mushtlab, ustiga yetmish botmon tuz-u, oltmish botmon muz ortish mubolag'adan boshqa narsa emas. Bunday mubolag'aviylik bolalarda lofni anglash va undan hayotda foydalanish tuyg'usini ham hosil qila boradi. "Jon burgam, azamat burgam" deb boshlanuvchi qiziqmachoqda mubolag'a bundan-da kuchaytirilganligi kuzatiladi:



*Jon burgam, azamat burgam,
Men burgamni yo'qotdim,
Eski chopondan topdim.
Burgam burgonda yotur,
Eski choponda yotur.*

Bundan tashqari qiziqmachoqlarda takror va juft so'zlardan ham unumli foydalaniladi. Masalan:

*Oqsaroyning nesi bor?
Uchar-uchar qushi bor.
Uchdi-ketdi havoga,
Bordi-tushdi daryoga. [1: 97]*

Umuman aytganda, alliteratsiya (bir xil tovushlar takrori), anafora (so'zlarning misralar boshida o'zaro takrorlanib kelishi) kabi poetik san'atlar qiziqmachoqlarda o'ta faolligi bilan e'tiborni tortadi:

*Kun chiqdi, kunon chiqdi,
Kunning ko'pagi chiqdi.
Yoki:
Yangam suvni yalaydi.
Yangam – yamoq, men – chapoq.*

Xullas, o'zbek xalq bolalar qiziqmachoqlarida turli so'z takrorlari, ramz, jonlantirish, o'xshatish, mubolag'a, tazod, epitet, alliteratsiya, anafora, parallelizm singari qator badiiy-tasvir va ifoda vositalari ohangdorlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallanganligi bois qiziqmachoqlar sodda va tushunarli tilda yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boychechak. Ko'p tomlik. Bolalar folklori. Mehnat qo'shiqlari. To'plab, nashrga tayyorlovchilar O.Safarov, K.Ochilov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. 245–255-betlar.
2. Троицкая А.Л. Некоторые старинные обычаи, обряды и поверья таджиков долины Верхнего Зерафшана // В кн.: Занятия и быт народов Средней Азии. – Ленинград: Наука, 1971. – С. 224.
3. D.O'rayeva. O'zbek motam marosimi folklori. – Toshkent: Fan, 2004.
4. O.Safarov. O'zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. 250-bet.
5. Chittigul / To'plab nashrga tayyorlovchilar: Y.Sultonov, N.Rahmonov, Sh.Turdimov. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. 43-bet.

Surayyo MUQIMOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zbek tili kafedrasida o'qituvchisi

ETIMON VA HOZIRGI MA'NO

O'zbek tilida yasama so'zlar juda ko'p. Tarixan yasama bo'lgan so'z hozirgi kunda yasama so'z hisoblanmaydi. Bunday so'zlar maxsus tekshiruv, tarixiy jihatdan kuzatishlar orqali aniqlanadi.

Etimon (yun. "haqiqat") – muayyan leksemaning kelib chiqishiga asos bo'lgan so'z (tub yoki yasama) yoxud so'z birikmasi¹ bo'lib, ularning kelib chiqish yoki yasalish asosi turli ma'no va komponentlardan iborat bo'lishi mumkin. Chunki leksik, grammatik taraqqiyot asrlar davomida shakllanadi.

Etimologiya – tilshunoslik fanining muhim va murakkab sohasi. Etimologiya sohasida so'zlarning asl shakli va ma'nosini aniqlash bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Shavkat Rahmatullayev tomonidan nashr qilingan "O'zbek tilining etimologik lug'ati"²dan so'z boyligimizni boyitishda keng foydalanamiz. Mazkur lug'at tilimizdagi ba'zi so'zlarning ma'no-mohiyatini chuqur o'rganish, tilimiz imkoniyatlarini to'laroq egallashda muhim rol o'ynaydi.

Tarkibli so'zlarda ularning ma'nosi, ko'pincha, tarkibidagi qismlar ma'nosining yig'indisiga teng bo'ladi. Bunda tarkibli so'z qismlari tarixan mustaqil ishlatilib, bugungi kunda iste'moldan chiqib ketgan bo'lsagina etimologik talqinga ehtiyoj seziladi. "O'zbek tilining etimologik lug'ati"ga kiritilgan so'zlarning anchagina qismida shunday holat mavjud. Masalan, *idish* so'zi hozirgi o'zbek tilida ma'noli qismlarga ajratilmaydi. Asli bu ot qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lgan va *yig'* ma'nosini anglatgan *idi* fe'liga *-sh* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. Hozirgi o'zbek tilida *idi* fe'li ham, narsa oti yasovchi *-sh* qo'shimchasi ham mustaqilligini yo'qotgan. *Idish* so'zining asli *narsa solib qo'yiladigan buyum* ma'nosini anglatganini qismlari ma'nosidan bilib olamiz.

So'zlarning kelib chiqish ma'nolari haqida aniq bilish ularning ma'no xususiyatlarini to'g'ri anglash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, shu so'zlarning polisemantik xususiyatlarini aniqroq izohlashda muhim ahamiyat kasb etadi. *Yashin*, *yashna* so'zlari kelib chiqish asoslariga ko'ra o'zakkdosh ekanligini ko'rish mumkin:

YASHIN (*chaqmoq*). Bu ot qadimgi turkiy tildagi *yaraqla* ma'nosini anglatgan *yashы-* fe'liga *-n* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan va *ы* unlisining qattqlik belgisi yo'qolgan: *yashы+n = yashын – yashin*.

YASHNA. Bu fe'l qadimgi turkiy tilda *chaqna* ma'nosini bildiruvchi *yashin* otiga *-a* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan: *yashin+a*. Shuning uchun etimonning *yorug'lik* semasi bilan bog'liq ma'nosi asl bosh ma'no

hisoblanishi lozim. Bu fe'l dastlab *yarqiramoq* ma'nosini anglatgan va *barq urib o's* ko'chma ma'nosi shu ma'nodan o'sib chiqqan. (O'TEL, 147-bet)

Yulduzlar charog'on bo'lib yashnamoqda. Demak, bu gapda *yashna* fe'li takibidagi *yorug'lik* semasi bosh ma'noda qo'llangan. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu fe'lning quyidagi ma'nolari qayd etilgan³:

1. *Barq urib o'smoq, gullamoq, guli ochilmoq*: oldin ekilgan g'o'zalarimiz esa kun sayin **yashnayapti**. (R.Azizxo'jayev)

2. *O'ziga tortadigan go'zal holga kelmoq, ko'rkamlik baxsh etmoq; go'zallashmoq*: Tabassum qilsangiz yuzlar **yashnagay**... (M.To'ir)

3. *Rivoj topmoq, kamolga erishmoq*: Odamlarda g'ayrat va tashabbus **yashnab ketdi**. (A.Qahhor) Gulla, **yashna**, hur O'zbekiston!

4. *Yayramoq, yozilmoq*: Yangi turmush, bog'laringda yosh ko'ngillar **yashnasin**.

Hozirgi o'zbek tilidagi *yashar*, *yashamoq*, *yasharmoq* so'zlarining kelib chiqishiga nazar solsak, bu uch so'zning yasalish vositalari har xil ekanligi tufayli turli ma'nodagi so'zlar ekanini ko'rish mumkin.

YASHA so'zi qadimgi turkiy tildagi ko'p ma'noli *yash* sifatining *bir yilga teng umr* ma'nosidan *-a* qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan: *yosh+a>yasha*. Bu yasama so'z quyidagi *yashar* so'zi uchun asos bo'lib xizmat qilgan:

YASHAR. Sanoq sonlar bilan kishi va hayvon yoshini bildirishda ishlatiladigan so'z. Bu so'z yuqoridagi *yasha* fe'liga *-r* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan sifatdosh shakli bo'lib, ma'no taraqqiyoti natijasida alohida so'zga aylangan: *yashagan*; *yoshga ega*. (O'TEL. 147-bet)

YASHAR. Bu fe'l qadimgi turkiy tildagi ko'p ma'noli *ya:sh* sifatining *navqiron* ma'nosidan *-(a)r* qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan, keyinroq *a*: unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan: *ya:sh + ar = ya:shar > yashar*. (O'TEL. 147-bet)

Yasharmoq so'zi *yosh ko'rinmoq* ma'nosini ifodalaydi: *Yasharib ketibsizmi?* Bu so'z *yosharmoq* tarzida ham qo'llaniladi.

O'zbek tilidagi *ildiz*, *ilon*, *jildiramoq*, *jilmaymoq*, *jilov* so'zlari ham aslida o'zakkdosh so'zlar bo'lgan, ya'ni so'zlarning asosida *silji*, *biroz suril* ma'nosini ifodalovchi *jil* so'zi bo'lgan:

ILDIZ – o'simlikning ozuqa va suv so'rib oluvchi yerosti qismi. Qadimgi turkiy tildagi *jilish* ma'nosini ang-



latgan *yil* otiga *-diz (-tiz)* affiksini qo'shish orqali yasalgan. (O'TEL. 114-bet)

ILON – uzun dumaloq tanali, terisi yordamida sudralib harakatlanadigan, ko'zlarida qovog'i yo'q jonivor. Qadimgi turkiy tildagi *qimirla*, *jil* ma'nosini ifodalagan *yil* fe'lga *-(a)n* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. O'zbek tilida so'z boshidagi *y* unlisi talaffuz qilinmay qolgan. (O'TEL. 116-bet)

JILDIRAMOQ. *Oz miqdorda oqib turmoq* ma'nosini ifodalovchi bu so'z *silji* ma'nosini anglatuvchi *yil* fe'lga *-(i)m* qo'shimchasi bilan yasalgan otga *-(a)y* qo'shimchasini qo'shib yasalgan. Keyinchalik, so'z boshlanishidagi *j* undoshi *y* undoshiga almashgan. (O'TEL. 102-bet)

JILMAYMOQ. Qadimgi turkiy tildagi *silji* ma'nosini anglatuvchi *yil* fe'lga *-(i)m* qo'shimchasi bilan yasalgan otga *-(a)y* qo'shimchasini qo'shib yasalgan. So'z boshidagi *y* undoshi *j* undoshiga almashgan: *yil+im+ay = yilmay > jilmay*.

YULDUZ so'zi qadimgi turkiy tilda nurlanishni ifodalovchi *yalt*, *yult* (taqlid) tasvir so'ziga *-i* va *-z* yasovchi vositalari qo'shilishi bilan yasalgan so'z hisoblanadi. (O'TEL. 183-bet) Hozirda bu so'z tub holga kelib qolgan. Hozirgi o'zbek tilida bosh ma'noda *osmon jismi*, ko'chma *mashhur bo'lib tanilgan*, *shuhrat qozongan shaxs* ma'nosida ham qo'llaniladi.

QIZIL so'zining o'zagi *qiz* fe'lidir. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu sifat *qizil tus ol* ma'nosini bildiruvchi *qiz* fe'lga *-(i:l)* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. Keyinchalik, *i* unlisining qat'ligi yo'qolgan. (O'TEL. 539-bet) Bu so'zning etimon ma'nosi deyarli unutilgan. Hozirgi o'zbek tilida bu so'z rang ma'nosini ifodalovchi so'z sifatida bir qancha qo'shma so'zlar tarkibida qo'llanilishi qayd etilgan⁴ (*qizilmag'iz*, *qizilbosh*, *qizilishton*, *qizilmiya*, *qiziloyoq*, *qizilurug'*, *qizilo'ngach*, *qizilquyruq* kabi).

SUYUQ *suyultirilgan holatdagi, suvi me'yor-dan ortiq* ma'nosini ifodalaydi. Qadimgi turkiy tilda ham shu ma'noni anglatgan bu sifat tarkibida *iste'mol uchun ishlatiladigan tussiz shaffof suyuqlik* ma'nosini ifodalovchi *suv* (qadimda bu so'z *su* shaklida bo'lgan) oti mavjud.

YEMISH – yeydigan narsa, ovqat. Bu ot qadimgi turkiy tilda *iste'mol qil* ma'nosini anglatgan *ye* fe'lga *-mish* o'shimchasini qo'shish orqali yasagan: *ye+mish*. Bu ot aslida *meva-cheva* ma'nosini anglatgan. Ovqat ma'nosi keyinchalik yuzaga kelgan. (O'TEL. 153-bet)

YAQIN. *Uncha uzoq bo'lmagan* ma'nosini bildiruvchi bu sifat qadimgi turkiy tildagi *tomon* ma'nosini anglatuvchi *yaq* otidan qadimgi vosita kelishigining *-(i)n* qo'shimchasi qo'shib yasalgan. (O'TEL. 148-bet)

ALLA – go'dakni uxlatish paytida kuylab aytiladigan misralar. Bu ot qadimgi turkiy tildagi *tinchlanish* ma'nosini bildirgan *ala (ala-ala)* undov so'zidan o'sib chiqqan (Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida qayd etilgan); *l* undoshi qavatlangan: *ala-ala – alla-alla*. Kuylanadigan misralar oxirida kelganida bu so'z undovlik xususiyatini saqlaydi, shunday misralarning nomi sifatida esa otga teng bo'ladi. (O'TEL. 28-bet)

ILG'OR – oldinda boruvchi, peshqadam. Asli qadimgi turkiy tilda old ma'nosini anglatgan *il* otining *yl* shaklidan *-g'a* qo'shimchasi bilan yasalgan *ilg'a* bo'lib, *-r* qo'shimchasini qo'shish orqali bu fe'lning (*oldinda boruvchi* ma'nosidagi) sifatdosh shakli hosil qilingan; bu sifatdosh ma'no taraqqiyoti natijasida sifatga aylangan. (O'TEL. 116-bet)

AXTAR. *Ko'p narsalar orasidan titib qidir* ma'nosidagi bu so'z qadimgi turkiy tildagi *bir tomonga egil* ma'nosini anglatgan *a:g'* fe'lining *ax* shakliga *-tar* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan: *ax+tar*. Asli bu fe'l *ko'p narsalarni ag'dar* ma'nosini bildirgan, *qidir* ma'nosi keyin paydo bo'lgan. (O'TEL. 35-bet)

Tilimizdagi ba'zi so'zlarning kelib chiqish asoslari – ildizlari mavjud. Ba'zi so'zlarning semantik xususiyatlari haqida fikr yuritganda bevosita etimon ma'nolar ham sezilib turadi. Biz ularni tilimizda yaxlitligicha qo'llaymiz. Lekin qayd etib o'tilgan etimonlar hozirgi ma'nolarning yuzaga kelishida ma'lum darajada asos vazifasini bajargan. Bu so'zlarning etimologiyasi bilan tanishish jarayonida ularning qadimda qaysi so'zlardan yasalgani, hozirgi ma'nolari, asosiy (bosh) va ko'chma ma'nolarining semantik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni havola qildik.

¹H. Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005. 163-bet.

²Misollar izohi shu kitobdan olingan: Sh. Rahmatullayev. O'zbek tilining etimologik lug'ati. – Toshkent, 2000. (Keyingi o'rinlarda ushbu manbadan olingan misollar O'TEL qisqartmasi bilan beriladi va sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi).

³O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jild. – Toshkent, 2008. 128-bet.

⁴O'sha manba. 277-bet.

Umida SHERMATOVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

KUNDUZSIZ KECHALAR YOG'DUSI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning adabiy ta'lim bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni o'zlashtirishida XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakili Cho'lpon ijodini o'rganish muhim o'rin tutadi. 7-sinfda "Go'zal", "Xalq", "Binafsha", "Buzilgan o'lkaga" she'rlari bilan tanishgan o'quvchilarga 9-sinfda "Qalandar ishqı", "Ko'ngil", "Kishan", "Yong'in", "Vijdon erki" she'rlari misolida Cho'lpon lirik shoir sifatida tanishtirilsa, "Kecha va kunduz" romani orqali nosir sifatida ham tavsiya etiladi.

Cho'lpon ijodiga "adabiy-tarixiy davrlar va adiblar ijodiga to'g'ri baho berish" nuqtayi nazaridan yondashish darslik materiallari bilan cheklanmasdan, adib asarlarining badiiy-estetik xususiyatlari tahlilida o'quvchilarning shoir lirikasining o'ziga xosligini tushunib yetishi uchun uning g'oyatda ziddiyatli kechgan umr yo'li va u yashagan tarixiy muhit (ijtimoiy hamda adabiy muhit) bilan yaqindan tanishtirishni taqozo qiladi. Bu borada O.Sharafiddinov, H.Yoqubov, N.Karimov, D.Quronov, N.Boqiy, U.Azim kabi ijodkorlar qalamiga mansub tarixiy, adabiy-badiiy manbalardan foydalanish ulug' adibning shaxs va ijodkor sifatidagi qiyofasini to'laroq tasavvur qilishga yordam beradi.

Ma'lumki, Cho'lpon adabiyot tarixida buyuk shoir sifatidagina emas, balki ustoz nosir sifatida ham yuksak maqomda turadi. Adib qalamiga mansub "Kecha va kunduz" romanining 9-sinf adabiyot darsligidan joy olishining bosh sabablaridan biri ham aynan shudir.

Amaldagi darslikdan mingboshi dodoxning zaharlanib o'lishi, Zebining kishanlanib, sudlanish jarayonlari aks etgan parcha o'rin olgan. Darslikda ta'kidlanishicha, "Romanda Zebi ishtirokidagi voqealar tasviriga ko'p o'rin berilgan. Asar sujetida ko'pchilik personajlar shu timsolga daxldor tarzda" harakatlanadi. Shu tufayli bo'lsa kerak, darslikda ham aynan Zebi ishtirokidagi voqealar tasviriga oid parcha keltirilgan. O'quvchilar asar mutolaasi jarayonida mavjud jamiyat tanazzuli Zebi, Sultonxon, Poshshaxon, Xadicha, Razzoq so'fi kabi obrazlar taqdirida aks etganligi bilan tanishadilar.

G'oyaviy-estetik nuqtayi nazardan qaraganda, romanda mavjud jamiyat tanazzulining asl sabablari va milliy ozodlik g'oyasi aks etgan voqealar tasviriga ham o'rin berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero, adabiyot dasturida "mamlakatimiz mustaqilligi va bayramlari haqidagi ona-Vatanga muhabbat uyg'otuvchi adabiy asarlar mazmunini anglagan holda so'zlab berish" tarzida qo'yilgan talabni amalga oshirishda "Kecha va kunduz" romanidagi Miryoqub timsoli bilan bog'liq voqealar tasviri to'laqonli manba vazifasini o'tashi mumkin. Chunonchi, roman sarlavhasida nazarda tutilgan jamiyatdagi kecha va kunduz muammosi mohiyatini ochishda Miryoqub timsoli alohida o'rin tutadi.

Miryoqub asardagi qahramonlar ichida ziddiyatli shaxs ekanligi bilan ajralib turadi. Cho'lpon bu obraz tasvirida faqat muallif nuqtayi nazaridan tashqari ("asl ming-

boshi", "Xudoning sevimli bandasi qorako'z Miryoqub..." kabi) Akbarali mingboshi, noyib to'ra, mingboshining to'ng'ich xotini Xadicha, ishratxona egasi, Maryam nomini olgan Mariya Ostrova, Miryoqubning ikkinchi MENI kabilar nutqidan unumli foydalangan.

Asar tahlilida boshqalarning Miryoqubga bergan ta'rif-tavsiflari ustida to'xtalib o'tish uning xarakter xususiyatlari ko'lamini to'laroq ochishga xizmat qiladi. Masalan, noyib to'raning Miryoqubga bergan ta'rifida har ikkala qahramonning o'zaro munosabatlariga ham bir qadar oydinlik kiritilganini anglash mumkin. Miryoqubni injenerga tanishtirar ekan, noyib to'ra. "Bizning Miryoqub bilan tanishmisiz, azizim?" – deydi. So'ngra qo'shib qo'yadi: "Noyob odamlardan!"

Bo'lib o'tgan suhbatdan so'ng (suhbatdan poyezd uchun temiryo'l yotqizilishini bilgach, Miryoqub o'tkaziladigan yerlarni arzon narxda sotib oladi, barcha ishlarni hal qilib bo'lgach, bu haqida noyib to'raga ma'lum qiladi) berilgan ta'rif yanada o'z isbotini topadi: "Sen xuddi bir amerikalikka o'xshaysan, Miryoqub! – dedi to'ra. – Lekin ko'nglingga og'ir olma, chakki shu sartiya ichida tug'ilib qolgansan!"²

Cho'lpon noyib to'ra nutqi vositasida Miryoqubning tadbirkorligiga baho beribgina qolmay, butun sartiya xalqiga nopisandlik bilan qaraganini mahorat bilan ko'rsatib bergan.

Aslida noyib to'ra va Miryoqub orasidagi munosabatlar ajib bir mahorat bilan aks ettirilganki, ikki tomonning bir-biriga munosabatidan har birining xarakter xususiyatlari namoyon bo'ladi. Miryoqub navbatdagi noyob sovg'asi – qadimiy qo'lyozmani berar ekan, noyib to'raning: "Limuharririhu..." Chiroylik xat... Mavlono Ado shuncha xushxat ekanmi? Sharqda, islom sharqida suratkashlik din tomonidan man qilingani uchun rivoj topmasdan, din tomonidan tarvij etilgan bu xattotlik san'ati yaxshi taraqqiy qilgan edi", – kabi so'zlaridan uning "...yerli xalqning tili va adabiyoti, ayniqsa, fors tili va adabiyotini juda yaxshi biladigan ma'murlardan"³ ekanligi anglashiladi.

Buning ziddi o'laroq, nafaqat Miryoqub, balki mahalliy xalqqa ta'lim berayotgan domlarning ham savodi pastligini to'raning: "Qozi Abdillatif... Sayyid al-musulmin Amir Umar... Chinakam, bu xat Umarxon davrining asari ekan ma'lum bo'ldi. Ammo buni yozgan Ado bo'lmasa kerak. Mavlono Adoning nomi Sul-tonxon bo'lsa kerak... Men o'qib edim. Abdillatif emas. Shahobiddin xato qilibdi. Sizning domlaringiz munaqa narsalarni yaxshi bilishmaydi..."⁴ qabilidagi gapidan anglash qiyin emas.

Noyib to'ra tili bilan bayon etilgan, Cho'lpon e'tiboridan chetda qolmagan bir hodisa ham kitobxonni xalqimiz tarixining yana bir ayanchli kecmishi bilan tanishtiradi: "...Senlarning Xudoyorxonning "o'ruslar Oqmachitni olib qo'ydı", deganlar. Xudoyorxon "u yurtim necha kunlik yo'lda?" deb so'ragan, "bir oylik yo'lda", deganlar.



"Unday bo'lsa, menga unaqa olis joydagi yurtning keragi yo'q. Olsa, ola bersin!" degan... Bizniki ham, vallohi a'lam, undan qolishmas"⁵. (148-bet)

Aslini olganda yozuvchi Miryoqubdagi har bir xislatni boshqalarning unga bo'lgan munosabati misolida ochishga harakat qilgan. Masalan, qishloqni boshqarish ishlari borasidagi epchilligini Akbarali mingboshi (unga "epaqa" deb laqab qo'yilishida), tadbirkorligini noyib to'ra, did-farosat bobida boshqalardan ustunligini ish-raxona egasi munosabatida ko'rsatib beradi.

Miryoqub tasvirida uning o'z shaxsiga bergan ta'ri-fi, ayniqsa, muhim. Uning o'zini Akbarali mingboshidan yuqori qo'yishi (Miryoqub – Miryoqub, mingboshi esa – bir Akbarali, xolos... Akbarali degan bir odamning yonida hukumat muhridan, zoti past bir itlikdan boshqa narsasi yo'q. Miryoqubning kattakon miyasi, o'tkir aqli bor! Mingboshi o'ylaydiki, Miryoqub ishonadiki, mingboshi – tuya, burniga ip o'tkazilgan, ipning uchi – sarbonda, ya'ni tuyachida, sarbonning nomini Miryoqub qo'yganlar...⁶ (130-bet) yoki qilayotgan ishlaridan ilk bor o'zi norozi bo'lib ichki ovozigacha quloq tutishi ("Hay Miryoqub! Pismiqlik Miryoqub! Ayyor. Miryoqub! Tulki Miryoqub! Shayton Miryoqub! Nafsining bandasi, buzuq, sharmanda Miryoqub!"⁷ (143-bet) va yoki xayolidagi sud jarayonida javob berishida ("Sen – bizning olamimizda ulkan kishilardansan. O'rislar senga o'xshaganlarni kitoblarda maqtaydilar. Sening hamma hunaring – yeng uchida ish ko'rib, shuncha pul topishingda"⁸ (180-bet) inson sifatida fe'l-atvori o'zining yorqin aksini topgan.

Miryoqub siyosiy jarayonlarni tushunmaydi. Uning tuzukroq bilimi, savodi yo'q. Roman davomida toshkentlik bir ish-bilarmon jadid yigit – Sharafiddin Xo'jayev (ehtimol, Ubaydulla Asadullaxo'jayevning prototipi bo'lishi mumkin) poyezdda ketish chog'ida jadidchilik harakati bilan tanishtirish asnosida Miryoqubning milliy, siyosiy ongini tarbiya qiladi.

Roman so'ngida Miryoqub qat'iy xulosaga keladi: "Agar jadid shunday bo'lsa, men ham jadidman!"⁹. (198-bet)

Miryoqub o'zini qiynagan savollarga javob izlaydi. Alaloqibat topadi: "Bizning do'stimiz – o'zimiz. Bizning do'stimiz – millat!"¹⁰. (200-bet)

Millat taraqqiyoti uchun qayg'urishni adib tarbiyadan boshlash kerakligini uqtiradi. Uning fikricha, ibtidoiy (boshlang'ich) tarbiyani milliy maktabdan boshlash lozim. Shu o'rinda savol tug'iladi: milliy maktab qanday maktab bo'lishi kerak?

Javobni Cho'lponning o'zidan eshitamiz: milliy maktab milliy hisni o'stirib, o'z millatini tanitishga"¹¹ (211-bet) xizmat qiladi.

Miryoqub timsolining yana bir ko'z ilg'amas, lekin nihoyatda bir muhim jihatini yoritish maqsadga muvofiq. Adabiyotshunos D.Quronov o'zining "Cho'lpon nasri poetikasi" nomli risolasida Miryoqub timsoli, ko'p jihatdan L.N.Tolstoyning "Tirilish" romani qahramoni knyaz Nexlyudovga yaqin turishini e'tirof etgan. Olimning bu fikriga qo'shilgan holda, Miryoqubning Nexlyudovdan farqi faqat o'z vijdonini tozalash emas, balki butun jamiyat vijdonini tozalash maqsadini o'z oldiga qo'yganligi bilan ajralib turishi sezilib turadi. Miryoqub Maryam bilan nikoh o'qitgach: "...dushmanning bu fitnachi qizini qo'ynimga olarkan... millatni, uning johil onalarini, bechora qizim, singlim va opalarimni o'ylashim kerak..."¹² deya o'y suradi.

Asar g'oyasi haqida gap ketganda adabiyotshunos D.Quronovning quyidagi fikrini keltirib o'tish joiz: "Ertangi o'quvchi, – deb yozgan edi olim, – uni ("Kecha va kunduz"ni – Sh.U.) g'oyaviy jihatdan emas, ko'proq badiiyat nuqtayi nazaridan baholaydi, qadrlaydi."¹³

Cho'lponshunos olimning bu mulohazasiga qo'shilgan holda aytish joizki, barcha zamonlarda ham vatanparvarlik adabiyot va san'atning yetakchi mavzularidan bo'lib kelganligi, "Kecha va kunduz" badiiyati aynan vatan taqdiri bilan chambarchas bog'liqligi nazarda tutilsa, asar g'oyasi asrlar osha o'z dolzarbligini yo'qotmasligi tayin. Bugungi o'quvchi roman tahlilida uning badiiyligigagina baho berib qolmay, balki ijtimoiy-tarixiy, tarbiyaviy ahamiyati yuzasidan ham to'g'ri xulosa chiqarishga o'rganishi zarur. Negaki mustamlakachilik kishanlarini parchalab tashlash maqsadida tashkil topgan milliy uyg'onish davridagi jadidchilik harakati dastlab xalq maorifini milliy-ozodlik yo'lida ishonchli qurol deb bilgan, "qora xalqni oqartirmoq va ko'zin ochmoq chorasiga" (A.Avloniy) kirishgan bo'lsa, ko'p o'tmay, qonsiragan qizil imperiya siyosati bilan yuzma-yuz kelgach, "bolshhevik balosi"ga (Fitrat) qarshi goh oshkora, goh pinhona hayot-mamot kurashiga da'vat qilishga kirishadi.

Qatag'on yillari milliy uyg'onish harakatida xalqni ilm-ma'rifatli qilish diqqat markazida tutilgan bo'lsa, hozirgi globallashuv sharoitida yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish – o'ta sharafli vazifadir"¹⁴.

Bu borada, shubhasiz, bizga "Kecha va kunduz" romani mutolaasi va tahlilidan kelib chiqadigan saboqlar yordamga keladi.

¹Adabiyot. 9-sinf uchun darslik / Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. – Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis, 2014. 33-bet.

²Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: Nihol media, 2019. 65-bet.

³O'sha asar. 145-bet.

⁴O'sha joy. (Ushbu manbadan olingan keyingi misollar sahifasi qavs ichida beriladi).

⁵D.Quronov. Cho'lpon nashri poetikasi – Toshkent: Sharq, 2004. 2-bet.



Shoira SODIQOVA,

Toshkent shahar Chilonzor tumanidagi 202-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION METODLAR SAMARADORLIGI

Mumtoz adabiyotimiz nodir namunalarning mazmun va mohiyatini o'quvchilarga innovatsion metod va usullar orqali tushuntirishga erishilsa, ularning ma'naviy olami boyiydi, badiiy adabiyotga qiziqishlari yanada ortadi. Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodiy merosini o'rganish o'quvchilarda komil shaxs sifatlarini shakllantirish, ona Vatanga mehr va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ezgulik, oliyanoblik tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganishda quyidagi metoddan foydalanish mumkin:

"Tanla va top" o'yini. Bu o'yinni musobaqa tarzida guruhlarda tashkil qilish mumkin. Bunda mavzu yuzasidan savollar tuziladi va ular guruhlanadi. Har bir savolga qiyinlik darajasiga ko'ra ball belgilanadi. Guruhlar belgilangan ballarni tanlab, ular ortiga yashiringan savollarga javob topishadi.

Tanla va top				
Hayot yo'li	90	80	60	70
Lirikasi	60	100	80	90
"Boburnoma"	70	80	100	90

Bobur lirikasida g'azal va ruboiylar yetakchi o'rin tutadi. Adib ushbu janrlarning ijtimoiy motivlar bilan boyitilishiga katta hissa qo'shdi. Bobur g'azallarining katta qismi 5 va 6 baytdan tashkil topgan. O'quvchilarda Boburning o'ziga xos lirik merosini o'rganish, unga qiziqish, mehr uyg'otishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

"Mozaika" metodi. Boburning she'rlarini o'rganish-

1 Tishing	2 dur	3 labing	4 marjon	5 xating	6 gul	7 xating	8 rayhon
9 Yuzing	10 hur	11 soching	12 anbar	13 so'zung	14 mul	15 menging	16 mo'lton
16 Mo'lton	15 menging	14 so'zing	13 mul	12 anbar	11 soching	10 yuzing	9 hur
8 Rayhon	7 xating	5 xating	6 gul	4 marjon	3 labing	1 tishing	2 dur

da ushbu metod o'quvchilarning xotirasini mustahkamlash nutqiy hamda lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bunda she'rdagi bir xil so'zlar bir xil rangli qog'ozga yozib chiqiladi va o'quvchilardan so'zlarni o'rni-o'rniga qo'yib, mos ravishda, misralar hosil qilish talab etiladi.

	1	2	3	4
1	Yetti mani	o'lturg'ali	oxir	hijron
2	O'lturg'ali	qo'ymani	qutqar	ey jon
3	Oxir	mani qutqar	bu firoq	asr-u yomon
4	Hijron	ey jon	asr-u yomon	oh-u fig'on

*Tishing dur, labing marjon, xating gul, xating rayhon,
Yuzung hur, soching anbar, so'zung mul, menging mo'lton.
Mo'lton menging, so'zing mul, anbar soching, yuzung hur,
Rayhon xating, xating gul, marjon labing, tishing dur.*

Bu yerda birinchi misradagi so'zlar oxirgi misrada o'rinlarini deyarli to'la tarzda almashtirgan holda takrorlangan. Faqat **tishing dur** va **xating gul** takrorlarini tashkil etuvchi so'zlarning o'rni almashmay qolgan, xolos. Ikkinchi va uchinchi misralarda ham shu usul mavjud. Bularning barchasi Boburning mahorati naqadar balandligini ko'rsatadi.

“Harfi jam”. Bobur qalamiga mansub ruboiy yoki g'azalning bosh harflariga yozilgan tarqatmalar tayyorlanadi. O'quvchilar o'sha she'ni topib, uni to'ldirishlari kerak.

H...	k...	v...	q...	v...	t...
H...	k...	j...	q...	j...	t...
Y...	k...	k...	y...	h...	
H...	k...	y...	b...	j...	t...

Javob:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rماغay yomonlik hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

“Matndagi mantiq” o'yini. Bunda Boburning biror

g'azali yoki ruboiysining mazmuni yuzasidan ma'lumotlar e'lon qilinadi. O'quvchilar ma'lumotlarga tayanib nazarda tutilgan g'azal yoki ruboiyni topadilar.

Boburning nazarida olamning munavvarligi odamning istaklari, shu istaklarning amalga oshishi bilan bog'liq. Agar inson istaklari, tilak va xohishlari amalga oshsa, bu olam yanada go'zal bo'ladi, aksincha olam uning ko'zlariga tor va qorong'i ko'rinishi mumkin. Unday kishi uchun olamda yashashning ma'no va mazmuni yo'qoladi.

Javob: “Ko'ngli tilagan murodig'a yetsa kishi”, deb boshlanuvchi ruboiy.

Bu ruboiyda insoniy fazilatlar, o'zaro hamjihatlik, umrning qisqaligi va uning qadriga yetish g'oyalari tarannum etiladi.

Javob: “Ahhob, yig'ilmoqni farog'at qilingiz”, deb boshlanuvchi ruboiy.

Qo'shimcha material

Dono ZULPIYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

PRODUKTIV YONDASHUV ORQALI O'QITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ma'lumki, har qanday tilda to'rtta asosiy ko'nikma mavjud: *retseptiv* ko'nikmalar – o'qish va tinglash; *produktiv* ko'nikmalar – gapirish va yozish. Bularning barchasi birdek muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularni darslarga tatbiq etishga harakat qilish lozim. Ushbu maqolada ko'proq produktiv ko'nikmalarga e'tibor qaratildi, chunki gapirish va yozish ko'p jihatdan bir-biridan tubdan farq qilishiga qaramasdan, bir xil maqsad – muloqotda qo'llaniladi.

Yozuv darslarida, ko'pincha, uy vazifalar berishga o'tib ketiladi, buning natijasida talabalarda muloqot mahorati deyarli yaxshi rivojlanmaydi. Yozish – ko'proq aniqlikni talab etadigan murakkab mahorat. Og'zaki nutq mobaynida har qanday tushunmovchilikni “joyida” bartaraf etish mumkin, lekin yozma nutqda buning iloji yo'q. O'z navbatida, gapirish ko'proq ravonlikni talab qiladi:

Muloqot – juda murakkab va o'zgaruvchan jarayon. Ammo bizda tillarni o'rganish va o'rgatish uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan umumiylik mavjud. Ikki yoki undan ortiq odam muloqotiga quyidagilardan biri sabab bo'ladi

- ular qandaydir kommunikativ maqsadga ega;
- ular nimadir demoqchi;
- ular nimanidir tinglashni xohlashadi;
- ular aytilayotgan narsalarga qiziqish bildirishadi.

Agar o'qituvchi talabalarni o'zaro muloqotga kirishtirmoqchi bo'lsa, u yuqorida aytib o'tilgan omillarni keltirishi kerak. O'qituvchi talabalarda muloqotga kirishishga qiziqish uyg'otgandagina o'zi kutgan muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

Til o'qituvchi tomonidan boshqariladi. Bunda talabalar o'zlashtirishlarini kuzatib turish muhim. E'tibor markazida talabalar bajara oladigan mashqlar bajara olmaydigan mashqlarga nisbatan ko'proq bo'lgani yaxshi. Ba'zida darslarni video yoki audioga yozib olish, uni qayta ko'rib chiqish va eshitish ijobiy samara beradi. E'tibor xatolarga emas, to'g'rilash mumkin bo'lgan jihatlarga qaratiladi. Surunkali takrorlangan no-

to'g'ri javoblar yozib olinib, ular ustida talabalar bilan guruhda, lozim bo'lsa yakka tartibda ishlash yaxshi samara beradi.

Gapirishdan farqli o'laroq yozuv mahoratining bir qancha farqli jihatlari mavjud. Bu farqlar nafaqat grammatika, so'zlar, balki ularning yozilishi, joylashish tartibi va talaffuzida ham ko'rinadi. Noto'g'ri talaffuz qilingan so'zlar nafaqat tushunmovchilikka olib keladi, balki so'zlovchining yetarli bilimiga ega emasligini ham namoyon etadi. Ingliz tilidagi so'zlar bir xil yozilib, turlicha talaffuz etilishi yoki, aksincha, turlicha yozilib, bir xil talaffuz etilishi yoinki bitta tovush turli xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkin. Bunda o'qituvchi talabalar e'tiborini turli talaffuzlarga qaratishi va qoidalarni o'rganishlari uchun mashqlarni bajarishga undashi maqsadga muvofiq.

Talabalarga yozish va talaffuzda yordam berishning bir yo'li bu *extensive reading* – kengaytirilgan o'qishdir.

Talabalarni yozuvning turli ko'rinishlari bilan tanishtirish va ularga o'z bilimlarini turli mashqlar yordamida mustahkamlashga imkon berish muhim ahamiyatga ega. Biror yozma ishni yakunlagach, ular grammatika, so'z boyligi, tinish va imlo qoidalarni tekshirishadi.

Talabalar bilan ko'proq ijodiy yozish mashg'ulotlarini o'tkazish lozim. Agar ularda yozishga istak bo'lmasa, natija kutilgandan biroq kamroq bo'lishi mumkin. Ijodiy yozishni rag'batlantirish kerak, chunki rag'bat o'quvchilarni ruhlantiradi va ularga g'urur hissini beradi.

Odatda, ijodiy yozma vazifalar she'r, hikoya va pyesani o'z ichiga oladi. Yozuv darslari, ko'pincha, individual bo'lib, o'qituvchi talabalarga juft yoki guruh bo'lib ishlashni ham taklif etishi mumkin.

Nullas, tinglash va o'qishdan farqli o'laroq, yozish va gapirish samarali bo'lib, ikkalasi ham har xil o'qitish uslublarini talab qiladi va turli pedagogik qiyinchiliklarni yengib o'tishni taqozo etadi.



Muqaddas OQMAMATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti magistri

BIR LAVHA TALQINI: TARJIMA VA SO'Z

Badiiy asar tarjimasiga qo'l urgan har qanday tarjimonning o'zi ham, albatta, ijodkor bo'lishi shart. Chunki tarjimada har bir millat qadriyatlari, milliy an'analari, dunyoqarashini aks ettirish zarur bo'ladi.

Darhaqiqat, millat ma'naviyati, milliy qadriyatlari va ularning ona tilidagi jozibasini saqlagan holda tarjima qilingan asar tarjimon mahorati bilan asliyatidan ham yaxshiroq chiqishi mumkin. Bularga Rashod Nuri Guntekinning "Choliqushi" asari (turk tilidan mohir tarjimon Mirzakalon Ismoiliiy tarjimasi), Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" asari (rus tilidan Sotvoldi Yo'ldoshev tarjimasi), L.N.Tolstoyning "Anna Karenina", N.V.Gogolning "Dikanka qishlog'i oqshomlari" asari (rus tilidan Nabi Alimuhammedov tarjimasi), Stendalning "Qizil va qora" asari (rus tilidan Pirmat Shermuhammedov tarjimasi), Daniel Defoning "Robinson Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" va boshqalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Aslida bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinganda asar g'oyasi, sujeti saqlanib qolsa-da, badiiyatini aks ettirish juda mushkul.

A.Qahhor so'z haqida: "So'z qaziga o'xshaydi, chaynaganing sayin mazasi chiqaveradi", – deganidek, tarjimadan tarjimaga ma'no nozikliklarini saqlab qolish o'ta mashaqqatli vazifadir.

Ingliz yozuvchisi Daniel Defoning mashhur "Robinson Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" [1] asari nafaqat ingliz, balki rus va o'zbek kitobxonlari orasida ham qiziqish bilan o'qiladi. Bu asar o'zbek tilida Yo'ldosh Shamsharov tomonidan bir necha bor tarjima qilinib, chop etilgan bo'lsada, undan avval XX asr boshlarida, aniqrog'i, 1911-yilda Muhammad Fozil Otabek

o'g'li tomonidan asar original sujeti qisqartirilib, o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Asar yozilish uslubining o'ziga xosligi shundaki, voqealar qahramon tilidan hikoya qilinadi. Asar qissa janriga mansub. Asarning tarjimasiga qo'l urgan tarjimon uning tilini, qahramonlar ruhiyatini yaxshi anglamog'i va uni boricha, kerak bo'lsa, undan ham ta'sirliroq ifodalashi uning mahoratini belgilovchi omildir.

Asar katta yoshdagi o'quvchilarga qancha manzur bo'lsa, bolalarga ham katta qiziqish uyg'otishi tabiiydir.

Asardagi eng ta'sirli sujetlardan biri Robinzonning ekin ekish jarayoni tasvirlangan qismidir. Chunki barcha asarlarda hatto eng sinchkov o'quvchini ham diqqatini o'ziga tortadigan, qahramon ruhiyatini ochib beradigan shunday lavhalar bo'ladiki, ular bevosita asarning badiiy qiymatini belgilaydi. Shu bois, biz to'liq asar tarjimasi borasida to'xtalmay, balki ma'lum bir lavhada tarjimaning uch tildagi muqoyasasiga e'tibor qaratib, undagi yutuq va kamchiliklar borasida fikr yuritimiz.

Asarning original variantida bosh qahramon Robinzonning kimsasiz orolda och qolmaslik uchun o'ziga don bilan hayotini saqlab qolgani har qanday o'quvchini ta'sirlantiradi. Shu sababli, muqoyasa uchun aynan shu lavhani tanlab, asli bilan rus va o'zbek tillaridagi tarjimalarini baholi qudrat o'rgandik. Xo'sh, tarjimonlar asarning aslidagi mazkur lavhalarni qanchalik yorita olishdi?!

Daniel Defoning "Robinson Kruzo" asaridagi Robinzonning yashashga bo'lgan ishtiyoqini tasvirlaydigan don ekish voqeasini tarjimon Yo'ldosh Shamsharov ingliz tilidan o'zbek tiliga qanday o'g'irganligini jadval asosida solishtirib ko'ramiz:

Asliyatdagi parcha

"I have mentioned that I had saved the few *ears of barley and rice*, which I had so surprisingly found spring up, as I thought, of themselves, and I believe there were about thirty stalks of *rice*, and about twenty of *barley*: and now I thought it a proper time to sow it, after the rains, the sun being in its southern position, going from me. Accordingly, I dug up a piece of ground as well as I could with my wooden spade, and dividing it into two parts, I sowed my *grains*; but as I was sowing, it casually occurred to my thoughts that I would not sow it all at first, because I did not know when was the proper time for it, so I sowed about two-thirds of the seed, leaving about a handful of each. It was a great comfort to me afterwards that I did so, for not one grain of what I sowed this time came to anything: for the *dry months* following, the earth having had no rain after the seed was sown, it had no moisture to assist its growth, and never came up at all till the wet season had come again, and then it grew as if it had been but newly sown. Finding my first seed did not grow, which I easily imagined was by the drought, I sought for a moister piece of ground to make another trial in..." [2: 166]

O'zbek tilida

"Yog'inlar to'xtab, quyosh janubiy yarim doiraga o'tgan hamono oz-moz *sholi va arpamni* sepmaq uchun qulay fursat keldi, deb o'ylaganligim o'quvchiga yuqorida ma'lum bo'lgan edi. *Sholi va arpani* sepib qo'yib, hosilni kuta boshladim. Lekin *quruqqarchilik* oylari boshlanib ketdi, yerda bir qatra ham nam qolmadi va bitta ham *don* unib chiqmadi. Yaxshiki, *sholi va arpadan* bir siqimdan olib qolgan ekanman..." [1: 66]

O'zbek tilidagi parcha rus tilidan tarjima qilinganligi sababli ingliz tilidagi asardan olingan parchaning ayrim joylari tarjimada to'liq aks etmaganligiga guvoh bo'lamiz. Bizningcha, qahramonning fikrlarini o'quvchi-

ga yanada aniqroq tushuntirish uchun asardan olingan parchani rus tilidan o'zbek tiliga emas, balki ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilib, quyidagi uslubda bersak, maqsadga muvofiq bo'lar edi:

Rus tilidan Yo'ldosh Shamsharov tarjimasi

"Yog'inlar to'xtab, quyosh janubiy yarim doiraga o'tgan hamono oz-moz *sholi va arpani* sepmaq uchun qulay fursat keldi, deb o'ylaganligim o'quvchiga yuqorida ma'lum bo'lgan edi. *Sholi va arpani* sepib qo'yib, hosilni kuta boshladim. Lekin *quruqqarchilik* oylari boshlanib ketdi, yerda bir qatra ham nam qolmadi va bitta ham *don* unib chiqmadi. Yaxshiki, *sholi va arpadan* bir siqimdan olib qolgan ekanman..." [1: 166]

Ingliz tilidan tarjima

Uyim yaqinida kutilmaganda bir necha boshqoq arpa hamda sholi paydo bo'lganidan qanchalik hayratda qolganimni, ular o'z-o'zidan unib chiqqan bo'lsa kerak deb o'ylaganimni yuqorida ta'kidlagan edim. Eslashimcha, u yerda o'ttiz tupcha arpa va yigirma tupcha sholi bor edi. Endi esa yog'inlar to'xtab, quyosh janubiy yarim doiraga o'tgan hamono oz-moz sholi va arpani sepmaq uchun qulay fursat keldi deb o'yladim. Shundan so'ng yog'och belkurak yordamida bir parcha yerni imkonim boricha ag'darib, so'ng uni ikki qismga bo'ldim va donlarimni ekdim. Lekin donlarni ekayotganimda birdan xayolimga bir fikr keldi, ya'ni men avval dehqonchilik bilan shug'ullanmaganligim bois, donlarimni sepmaq uchun qulay fursat qachonligini bilmas edim. Shuning uchun donlarning uchdan ikki qismini ekib, ularning har biridan bir hovuchdan olib qo'ydim.

Bunday ehtiyot chorasini ko'rganimdan keyinchalik juda xursand bo'ldim, chunki shu ekan donlarimning birortasi ham unib chiqmadi. Bunga urug'larni ekanimdan keyin qurg'oqchilik oylari boshlanib yomg'ir yog'maganligi, tuproqda urug'larning unishi uchun namlik bo'lmaganligi sabab bo'lgan edi. Ammo yog'ingarchilik mavsumi boshlangach esa, ular go'yo yangi ekilgandek unib chiqdi.

Men avval ekan urug'larim qurg'oqchilik tufayli unib chiqmaganligini tushunib yetgach, yana tajriba qilib ko'rish uchun boshqa bir nam yer izlay boshladim ...

Yuqoridagi parchani asarning ingliz tilidagi bir variantidan o'zbek tiliga o'girishga harakat qildik. Yo'ldosh Shamsharovning rus tilidan qilgan tarjimasi va biz ingliz tilidan o'girgan variant o'rtasida ancha farq borligini ko'rishingiz mumkin, ya'ni asar qahramonining uyi yaqinda paydo bo'lgan bir necha boshqoq arpa va sholi o'z-o'zidan unib chiqqan bo'lsa kerak, degan xayolga borgani, yog'och belkurak yordamida yerni ikki qismga bo'lgan holda donlarini sepishi, oldin dehqonchilik bilan shug'ullanmaganligi, donlarning uchdan ikki qismini sepib, har biridan bir hovuchdan olib qolganligi,

donlarning unib chiqmaganligi, namli yer qidira boshlashi Y.Shamsharov tomonidan talqin etilgan asar parchasida uchramaydi.

Tarjimon asar ma'nosini saqlagan holda tarjima qilgan bo'lsa-da, asardagi mayda detallarga e'tibor berilmagan. Holbuki, ana shunday ayrim detallar inson qadami yetmagan orolga tushib qolgan asar qahramoni uchun bir dona donning qanchalik qadrli ekanligini anglatishi mumkin.

Xuddi shu parchani ingliz tilidan rus tilidagi tarjima bilan ham solishtirib ko'ramiz:

O'zbek tilidagi tarjima

"Yog'inlar to'xtab, quyosh janubiy yarim doiraga o'tgan hamono oz-moz *sholi va arpani* sepmaq uchun qulay fursat keldi, deb o'ylaganligim o'quvchiga yuqorida ma'lum bo'lgan edi. *Sholi va arpani* sepib qo'yib, hosilni kuta boshladim. Lekin *quruqqarchilik* oylari boshlanib ketdi, yerda bir qatra ham nam qolmadi va bitta ham *don* unib chiqmadi. Yaxshiki, *sholi va arpadan* bir siqimdan olib qolgan ekanman..." [1: 66]

Rus tilidagi tarjima

«Помнится, было около тридцати колосьев риса и колосьев двадцать ячменя. И вот после дождей, когда солнце перешло в южное полушарие, я решил что наступило самое подводящее время для посева. Я вскопал, как мог, небольшой клочок земли деревянной лопатой, разделил его пополам и засеял одну половину рисом, а другую ячменем, но во время посева мне пришло в голову, что лучше на первый раз не высевать всех семян, так как я все таки не знаю наверно, когда нужно сеять. И я посеял около двух третей всего запаса зерна, оставив по горсточке каждого сорта про запас. Большим было для меня счастьем, что я принял эту предосторожность, ибо из первого моего посева ни одно зерно не возшло; наступили сухие месяцы, и с того дня, как я засеял свое поле, влаги совсем не было, и зерно не могло взойти. Впоследствии же, когда начались дожди, оно возшло, как будто я только что посеял его. Видя, что мой первый посев не всходит, что я вполне естественно объяснил засухой, я стал искать другого места с более влажной почвой, чтобы произвести новый опыт.» [3: 92–93]

Rus tiliga tarjima qilingan parchani o'zbek tilidagi tarjima bilan solishtiradigan bo'lsak, rus tilidagi tarjima ancha mukammal ekanligiga guvoh bo'lamiz. Chunki rus tarjimoni asarni aynan ingliz tilidan tarjima qilganligi

uning tarjimada katta yutuqqa erishganligini ko'rsatadi. Rus tilidagi asardan olingan parchaning ma'nosi ingliz tilidagi parchaning ma'nosini deyarli to'liq ochib bergan. Ingliz tilidan o'zbek tiliga rus tili orqali o'girilgan ad-

abiyotlar tarjimasida original asarning ma'nosiga putur yetkazuvchi leksik va frazeologik birliklar uchraydi. Yuqoridagi tarjimalarda ham ana shunday holatni kuza-tishimiz mumkin. Asardagi badiiy tarjimada ingliz tilidan *barley, rice, dry months, grain, wooden spade* leksema-

lari o'zbek tilida *don, g'alla, sholi, quruqqarchilik oylari, belkurak, rus tilida рис, ячмень, сухие месяцы, зерно, деревянной лопатой kabi talqin etilgan.*

Quyida mazkur asarning yana bir rus tilidagi tarjima-sidan olingan parchaga e'tibor qaratamiz:

Birinchi rus tilidagi tarjima	Ikkinchi rus tilidagi tarjima
<p>«Помнится, было около тридцати колосьев риса и колосьев двадцать ячменя. И вот после дождей, когда солнце перешло в южное полушарие, я решил что наступило самое подходящее время для посева. Я вскопал, как мог, небольшой клочок земли деревянной лопатой, разделил его пополам и засеял одну половину рисом, а другую ячменем, но во время посева мне пришло в голову, что лучше на первый раз не высевать всех семян, так как я все таки не знаю наверно, когда нужно сеять. И я посеял около двух третей всего запаса зерна, оставив по горсточке каждого сорта про запас.</p> <p>Большим было для меня счастьем, что я принял эту предосторожность, ибо из первого моего посева ни одно зерно не взошло; наступили сухие месяцы, и с того дня, как я засеял свое поле, влаги совсем не было, и зерно не могло взойти. Впоследствии же, когда начались дожди, оно взошло, как будто я только что посеял его. Видя, что мой первый посев не всходит, что я вполне естественно объяснил засухой, я стал искать другого места с более влажной почвой, чтобы произвести новый опыт.» [3: 92–93]</p>	<p>«Помнится, было около тридцати колосьев риса и колосьев двадцать ячменя. И вот после дождей, когда солнце перешло в южное полушарие, я решил что наступило самое подходящее время для посева. Я как мог вскопал небольшой клочок земли деревянной лопатой, разделил его пополам и засеял одну половину рисом, а другую – ячменём. К счастью, мне пришло в голову, что лучше на первый раз не расхोждать всех семян, так как я всё-таки не знаю наверно, когда здесь самое благоприятное время года для посева. И я посеял около двух третей всего запаса зерна, оставив по горсточке каждого сорта про запас. Я хорошо сделал, что принял эту предосторожность, потому что первый мой посев оказался крайне неудачным: наступил засушливый период, - с того дня, как я засеял своё поле, дождей совсем не было, и зерно не могла взойти. Но впоследствии, когда снова начались дожди, оно взошло, как будто я только что посеял его. Видя, что мой первый посев не всходит, что я вполне естественно объяснил засухой, я стал искать другого места с более влажной почвой, чтобы произвести новый опыт.» [4: 83]</p>

Ikkala tarjimada ham ma'no bir xil bo'lsa-da, aynan bir xil so'zning ma'nosini beruvchi turli ekvivalentlardan foydalanilgan. Masalan, ingliz tilidagi *dry months, the rains* so'zlari ikki tarjimon tomonidan ikki xil o'g'irilgan: *сухие месяцы – засушливый период, влаги – дождей...*

Сухие месяцы birikmasi ingliz tilida *dry seasons* birikmasi bilan izohlanadi. Ammo ingliz yozuvchisi *dry months*, ya'ni rus tilidagi *сухие месяцы* birikmasiga to'g'ri keladigan birikma qo'llagan va u to'g'ri tarjima qilingan.

Влаги va дождей so'zlari esa ingliz tilidagi *the rains* so'zidan o'g'irilgan. *The rains* so'zi ingliz tilida "the large amounts of rain that fall in tropical regions during a particular season" [5], ya'ni "tropik mintaqalarda ma'lum bir mavsumda yog'adigan ko'p miqdordagi yomg'ir" tarzida izohlangan. Shu sababli, *влаги* so'zi ingliz tilidagi *the rain* so'zini to'liq ochib bera olgan. Bu so'zning ingliz tilida *moisture, humidity, damp* kabi sinonimlari ham mavjud.

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, rus tilidagi birinchi tarjima ikkinchi tarjimaga nisbatan mukammalroq.

Gap alohida olingan biror so'z yoki jumlani qaysi tarjimon qanday o'g'irganida emas. Chunki har bir tarjimon qadr-qimmatida unda ayrim lug'aviy unsurlarning qanday berilgani bilan o'chanmaydi.

"Badiiy tarjimada baholash mezonni talqindir. Uni qayta yaratish jarayoni esa uch bosqichda voqe bo'ladi:

1) asl (original)ni tarjimon qanday qabul qilishi (tushunishi);

2) asarning g'oyasi, avtorning maqsad-muddaosi va uning tasvirda o'ziga xos uslubini qanday talqin qilishi;

3) so'z san'ati namunasini o'z ona tilida qayta tiklashda muqobil vosita, tadbir va tadorik topa olishi". [6: 106]

Shuningdek, tarjimonlarning so'z qo'llash mahorati ham tarjimada katta ahamiyatga ega. Holbuki, shunday tarjima asarlar borki, ular tarjimada asliyatidan ko'ra mashhurroq bo'ladi. Yuqoridagi asarning ikki tilidagi, ya'ni ingliz tili asliyatidan rus va o'zbek tillaridagi tarjimalarida bu jihatlar har doim ham muvaffaqiyatli chiqadi deyish qiyin.

"Tarjimon aslida kasb egasi. Mutaxassis. Tolstoy o'zi juda e'zozlagan yaqinlariga o'z qo'li bilan chiroyli pishiq etiklar tikib bergan. Ammo kosibning choki doim bilinib turadi. Tarjimada chok bilinmay, ko'rinmay ketishi zarur. Lekin aksar tarjimalarning choki qing'ir-qiyshiq, ko'zguna xunuk tashlanib turadi", degan edi buyuk adib, tarjimon, munaqqid Ibrohim G'ofurov.

Ba'zi mumtoz asarlarni bir necha tarjimonlar o'z uslubida o'giradi va, odatda, bulardan ayrimlari, ko'pincha, bittasi o'quvchilarga manzur bo'ladi.

Masalan, Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romanini Oybek domla hamda iste'dodli shoir Mirzo Kenjabek tarjimalarida o'qiganmiz. Ularning har biri o'ziga xos mahoratli ijodkor bo'lishiga qaramay, asar shoir uslubidan kelib chiqib talqin qilinadi.

Demak, adabiyotimizdagi eng sara asarlarni dunyo tillariga tarjima qilishda tarjimon oldida juda katta mas'uliyat bo'ladi. U har ikki tilning nozik jihatlarini, millatning milliy qarashlarini ham yaxshi anglamog'i zarur. Bu esa tarjimonda ikki barobar ko'proq bilim va mahorat bo'lishini talab etadi.

Ozodakhon GULYAMOVA,
Tashkent State University of the Uzbek Language and
Literature named after Navoi, English teacher

SOME LEXICAL AND MORPHOLOGICAL FEATURES OF TRANSLATION

(on the example of translations of "A Farewell to Arms!" by Ernest Hemingway
into Russian and Uzbek languages)

The issue of transmitting individual identity, unique author's style, originality of the original in another language is one of the main issues in the translation of fiction. Moreover, given all the critical importance and complexity, this aspect is considered to be one of the central ones. Since the characteristic features of fiction are the manifestation of the individual artistic manner of the writer, due to his worldview, the influence of the aesthetics of the era and the literary school, the vast variety of both lexical and grammatical means of the language in their various correlations with each other, the variety of combinations of written and spoken language refracted stylistic varieties of both. This article will consider examples of translation of the works of E. Hemingway, an American writer, twentieth-century modernist, whose work is of great interest for the study of literary scholars and linguists around the world. This author's style reflects a unique writing talent, which was formed under the influence of unique personal qualities and rich life experience. The originality of the writing style is determined by the individual nature of the choice of language tools that give out his creative manner, so the author's stylistic techniques are motivated by context and are found in repeating stylistic schemes. Halliday considered this motivation of stylistic devices as "a deviation that has motivation". [2:104]

When comparing the data of the original with the means of reproducing them in the translation, certain patterns are observed. First of all, these are regularities of the general order, such as, for example, the constant need to deviate from literal accuracy, determine the choice of an individual element in a translation depending on its functions in the context, and not on the degree of direct formal correspondence to the original element. Secondly, these are the laws of a specific and private order.

So, for example, when analyzing some lexical features of translation from English into Russian and Uzbek, the following patterns were identified when translating the so-called "false equivalents" or "false friends of the translator" by definition of V. Akulenko. It should be noted that false equivalents do not represent any fundamental problem or particular difficulty of translation, but they deserve mention. Firstly, due to inaccuracies in existing translations of literary texts, and secondly, due to the possibility of cases where the use of a false equivalent, deceptively coexisting in a specific context, does not cause self-evident contradictions.

In chapter XXIV, in the dialogue between the main characters of E. Hemingway's novel "Farewell to Arms," the word "extravagant" is found:

– *I'll be very extravagant, darling, she said, but it's a fine nightgown.* [1:157]

An inexperienced translator, faced with this word, and,

based on the sound and graphic proximity of the words "экстравагантный" in Russian and "extravagant" in English, could well have made a mistake and translated as follows:

– *Ночная сорочка довольно экстравагантна, милый, но она действительно хороша.* [6:106]

But, taking into account the character of the main character, as well as taking into consideration the aspect on which the author focuses attention throughout the whole narrative, and more specifically the fact that Katherine is a "simple girl", who primarily cares about others, it becomes obvious that she terribly embarrassing for the large amount spent. Therefore, translating the word "extravagant" is worth stopping at the choice of "wasteful" ("расточительная")

– *Я ужасная транжирка, милый, – сказала она, – но сорочка такая красивая.* [6:106]

In the Uzbek version of the translation, the most correct version is also selected:

– *Judayam sovurmachimanda, jonim, – dedi u, – lekin ko'ylak shunaqayam chiroyli ekanki.* [7:222]

The vast majority of words in any language are more or less multilingual. In this regard, there is also a multiplicity of dictionary correspondences, both for a multi-valued and for a single-valued original word in other languages – correspondences used in translations depending on the context. But irrespective of this word with a relatively limited number of meanings, or even used in a context in one, well-defined meaning, it can cause several variants during translation.

The actual translation is never limited to choosing from among those elements that are recorded in dictionaries (even similar ones) as matching a certain word of the original. In the practice of translation work, there are many cases where words directly not provided by the dictionary are used, because the dictionary is not able to anticipate all the possible combinations that the language unit falls into, and which extremely diversifies its content.

For example, in the third chapter we come across the following sentence:

We two stopped talking and the captain shouted, "Priest not happy. Priest not happy without girls." [1:14]

Glancing at the dictionary, we will see several translation options for the adjective "not happy": sad, unhappy; therefore, we can translate the phrase "Priest not happy without girls" as "священник несчастен без девочек", or "священнику грустно без девочек", or "священнику печально без девочек", which to a greater or lesser extent conveys the meaning of the English version. But, given the style of this passage, and, taking into account the context, the most accurate translation, which was used by the translator:

"The priest is bored. The priest is bored without girls." [6:16]

In the Uzbek version of the translation, Ibrohim Gofurov not only managed to apply the word most accurately conveying the adjective "unhappy", but also retained the stylistic coloring of the whole sentence:

"*Ruhoniy zerikib qoldi. Ruhoniy oyimillalar bo'lmasa o'tirolmaydi.*" [7:158]

The questions of synonyms in translation also arise in relation to the lexical stratum of words denoting nationally specific realities of social life and material life, as well as in the transfer of proper names, nicknames, etc., questions of their phonetic design in translation. Although it would seem that we are talking here about concepts and things that allow an accurate description and definition, which receive an almost terminological expression in one language, but when they are transmitted by means of another language, significant fluctuations and variations are possible. This is due to the fact that by the frequency of use, by the role in the language, by the general significance of the content or by their everyday nature, the words serving as the name of such realities have no terminological coloring. They do not contrast even with the most mundane context in the original, do not stand out stylistically in it, being familiar to recipients of the original language and, therefore, constitute a particular difficulty in translation.

It goes without saying that the ability to correctly and as accurately as possible convey the designation of the things discussed in the original, and the images associated with them, involves certain knowledge of the reality that is depicted in the translated work (regardless of whether such knowledge is acquired through direct acquaintance with her or gleaned from books or other sources). This knowledge, both in regional geography and in comparative linguistics and translation theory, is assigned the definition of "background knowledge". As the very meaning of the term implies, we have in mind the totality of ideas about what constitutes the real background against which the picture of the life of another country, another people unfolds. E.M. Vereshchagin and V.G. Kostomarov define them as "common to participants in a communicative act of knowledge" [5:126]. Background information – sociocultural information that is characteristic only for a particular nation or nationality, mastered by the mass of their representatives and reflected in the language of a given national community. [4:87] National-specific realities are numerous within each specific culture and various groups of them can be established and subgroups on the basis of belonging to a particular sphere of material life, social activity, natural world, spiritual life of man. The closer the peoples-carriers of the original language of a work and the language of its translation are closer to each other, the easier it is for a translator to convey a word or expression denoting a particular national-specific reality. In Hemingway's novel, the names of biblical characters such as the Blessed Virgin Mary, Jesus Christ, St. Paul, etc., often fly off the lips of heroes. Translating them into Russian is not difficult, because basically the Russian-speaking reader is famil-

iar with these names, and in the Russian language there are their universally used equivalents. When transmitting them to the Uzbek language, the recipient of which, most likely, is a representative of a different faith, the task of the translator is much more complicated.

For example, in chapter nine we become witness to the terrible crest of death of a young Italian and his dying prayer:

He bit his arm and moaned:

– *Oh mamma mia, mamma mia ... Oh Jesus shoot me ...*

Christ shoot me ... mamma mia. Oh purest lovely Mary, shoot me. [1:57]

In the Russian version:

Он закусил свою руку и стонал:

– *О татта тиа, татта тиа ... О Иисус, дай мне умереть. Христос, дай мне умереть... татта тиа.*

Пречистая дева Мария, дай мне умереть. [6:44]

To convey the biblical names, E. Kalashnikova used direct constant correspondences that were understandable and fully accessible to the recipient of the Russian language. The Italian phrase *mamma mia* is preserved, as thanks to these words, the dying monologue gains the maximum of sincerity and helps the reader's imagination to more clearly outline the picture of the dying Italian, to feel his suffering more deeply.

In the Uzbek version:

U o'z qo'lini tishlab turib, ingradi:

– *Oh mamma mia, mamma mia... Yo Iso, tezroq jonimni ol ... Xristos, jonimni ol, mamma mia... Bokira bibi Mariyam, jonimni ol.* [7:139]

Ibrohim Gofurov selected very accurately in this case the names of the saints with the most widespread use in the Uzbek language: *Iso, bokira bibi Mariyam*, but used in English and Russian Christ-linked in the Uzbek translation darkens the meaning, breaking out of a phonetic and lexical structure. Obviously, the phrase Jesus Christ would be much more appropriate to translate as *Iso Payg'ambar*, which accurately reflects the meaning of the original.

At all levels of the linguistic structure, the description of correspondences within the framework of the private theory of translation does not boil down to listing the possible ways of conveying the meaning of a particular unit of the original language in the translation language, but sets itself the task of revealing typical features of creating and selecting correspondences for a sufficiently large group of language units. The description of the correspondence system is accompanied by the identification of conditions that determine the possibility of using matches of one type or another. Thus, the concept of a translation correspondence system is not static, but dynamic. This is not just a pair of correlated units in two languages, but also a system of relations between communicatively equivalent units, on which the real interchangeability of such units depends on the translation process, as well as a set of ways to create occasional correspondences in cases where context conditions preclude the use of standard translation methods.

Reference

1. Hemingway Ernest. Farewell to Arms. – Leningrad: Enlightenment, 1971.
2. Halliday, E.M. Explorations in the function of language. – New York: Elsevier, 1979.
3. Akulenko V.V. The English-Russian and Russian-English Dictionary of the Translator's False Friends. – Moscow, 1969.
4. Vinogradov V.S. Lexical questions of the translation of fiction. – Moscow, 1978. – p.87.
5. Orudzheva I.G. The problem of adequate transmission of the metaphor of Ernest Hemingway in Russian translations / Young scientist, 2014. – No.4. – p.1220.
6. Hemingway E. Farewell to Arms! – Tashkent: Uzbekistan, 1989.
7. Hemingway E. Alvido Qurol! – Tashkent: Uzbekistan, 1989.



Nigora ABDULLAEVA,
 teacher of the National University
 of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

THE ROLE OF COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING IN UZBEKISTAN

CEFR (Common European Framework of Reference) is an international framework within which the language ability of learner is explained and assessed identically (assessment). However, CEFR is not limited to assessment. It is also about teaching and learning. Within CEFR, teaching and learning are based on communicative language teaching (CLT) within which four competences are taught during the lessons.

Communicative competence is a capability and skill that you get from experience or education of a language user about how, what and where to speak appropriately from the view point of culture, traditions, shared rules and norms. It consists of four aspects: linguistic, sociolinguistic, pragmatic and strategic competence.

In CLT, language learning emphasizes learning to communicate as opposed to learning a set of grammatical rules. Most teachers acknowledge the importance of adopting CLT approach in the classrooms to develop students' communicative competence in English language. Although there are still some who are reluctant to genuinely practice it, there are still those who believe of the effectiveness of CLT approach in enhancing oral competency amongst language receivers. This article investigates the role of CLT approach in enhancing oral competencies among second language learners.

The objectives of the project is to practice students' writing skill through authentic materials. It is after all useless if students "know" the grammar and lexis of a language but are unable to use them. Increased pairwork and/or groupwork means that more students can be practicing their writing at the same time. Presenting language in context – using a situation or a scenario, new language becomes more memorable than if presented randomly; a chance for learners to personalize their interactions, therefore making the language more relevant to themselves; creating a need to communicate: people communicate because there is an information gap, i.e. there is something we want to say that the other person does know; there is something the other person knows that we would like to find out about.

The aim is to develop students' linguistic, pragmatic, sociolinguistic competences through authentic materials as well as writing skills. In Uzbek educational system, the EFL learners' writing achievements are not enough. The learners can face to many problems in writing letters or e-mails because of low experiences. According to the problem, the study is going to focus on the importance of CLT on teaching writing through authentic materials.

Theoretical and practical value of the topic is to demonstrate how theory can be brought into practice with the help of language tasks that illustrate how CLT can be implemented in classes. Theoretical value of the project work

presents the core idea of CLT which is explored in the context of the author.

According to Nivis Deda, "The study of pragmatics explores the ability of language users to match utterances with contexts in which they are appropriate; in Stalnaker's words, pragmatics is "the study of linguistic acts and the contexts in which they are performed". The teaching of pragmatics aims to facilitate learners' sense of being able to find socially appropriate language for the situations that they encounter. Within second language studies and teaching, pragmatics encompasses speech acts, conversational structure, conversational implicative, conversational management, discourse organization, and sociolinguistic aspects of language use such as choice of address forms".

Generally speaking, the role of pragmatic competence in the process of teaching and learning a second language is very high. "We don't learn from experience. We learn from reflecting on experience." In Nivis Deda's words, "Dewey makes a simple but powerful point: experience is not the source of learning, but rather it is reflection on this experience; the four skills in language learning: reading writing, listening and speaking do not occur in isolation in communicative texts or activities. In order to shape a good pragmatic competence for the language learner, the following should be taken into consideration: the goals and the objectives of a language course should be designed to meet the needs of the language learner to help them develop and improve their communicative competence. Since the primary goal of learning a second language is to provide fluency and accuracy in written and spoken modes of communication, first, the language teacher and the learner should pay attention to design communicative activities which would help to develop the communicative competence. Obviously, the term competence invites both the teacher and the learner to develop linguistic and sociolinguistic skills, in order to achieve complete and accurate communication".

Secondly, the facilitators must plan the course program to involve the students in the pragmatic, coherent and functional uses of language for communicative purposes. The functional study of language means studying how language is used. For instance, trying to find out what the specific purposes that language serves for us, and how the members of a language community achieve and react to these purposes through speaking, reading, writing and listening. The pragmatic competence of the student must be dramatically developed; consequently, he or she will be able to make a communication with accuracy. The improvement of coherence and cohesion, the ability to react in variety situations illustrate an excellent level of functional competence. The target language in grammar should not be taught in isolation with its use. The student should

be able to use his or her skills of language into rehearsal and in social life.

Thirdly, there are variety of functions which are necessary for the improvement of pragmatic competence. In addition, they should increase students' experience of the significance of similar competence in the procedure of developing the source language. As Mey states, "Linguistic behavior is social behavior. People talk because they want to socialize, in the widest possible sense of the world: either for fun, or to express themselves to other humans, or for some "serious" purposes, such as building a house, closing a deal, solving a problem and so on."

We want to mention that the aim of the application of dissimilar training and practicing tasks is to help learners become more efficient, eloquent and succeeding speakers and listeners in the source language.

EFL teachers need to have a strong will in teaching those who are not majoring English as their main subject. They often have difficulties in understanding a context when and where they need to apply the English. Here the ESP teachers must be creative, thoughtful and also helpful to bridge the needs of the students toward English. Not only good at selecting materials, but more importantly is good and getting students take parts in the learning where they can actually make use of the skills in English based on the major of study. Once the teachers have had good report and ability to attract and activate learners' interest in learning, this is when the actual learning takes place. To sum up, willingness to teach, to deal with learners' problems, and ability to get involved in the learning are the ingredients of an ideal EFL teachers.

During our teaching experience we tried to show our confidence in order to build a good rapport with students. During teaching process, teachers overcame the obstacles of choosing suitable materials for multi-level classes. Some students are extremely gifted with huge interest in learning language. Instructors always consider to be empathic, authentic and confident with their listeners during the lessons. Moreover, each hearer has an individual mental ability and character. Some of them do not hesitate to ask questions or express their viewpoints apart from some of them shy and worry about embarrassing themselves in front of their groupmates due to their inaccuracy. Facilitators' best possibility is that they are able to memorize their learners' name in the first lesson and they rely on them owning to show their confidence. Educators use body language, additionally, they are careful to express their speech/voice which should be clear and loud. Teachers believe that a teacher should know how to motivate his/her learners and encourage and engage their interest in the lesson and evaluate them with high scores.

For each lesson we try to bring authentic materials such as videos, tracks, articles, handouts, cards and so on which refer to the theme in our calendar plan. These materials can develop each learner's learning style. For instance, visual learners while watching the video can do comprehension tasks immediately, auditory learners who are keen on listening skills practice are able to do gap fill, true or false and matching tasks easily, kinesthetic learners prefer movement or using their hands, touching the things consequently; working with cards is essential for them in order to achieve knowledge about specific topic.

Now we want to share our one lesson experience from communicative lexis with you. The participants were 2nd year students. Our topic was called Mass media. We stuck colorful stickers on the wall. When our students entered the room, we invited them to collect the words which refer to only mass media. Consequently, our learners tried to get authentic terminology cards from room walls. The next task was to give definition for unfamiliar words. Behind their desks were hidden cards with pictures for two students. They worked in pairs. The task was without showing their pictures to another group to describe the situation which was illustrated on their cards. When they finished we allowed them to look at all their pictures together and gave them instruction to arrange the pictures into the correct sequence. The last task was, while watching the video, to check their answers. As a result, we achieved success in teaching new vocabulary, in order to describe the picture, they used grammar, new words which they learned from the stickers. They also developed their listening skills by listening each other's situations according to the cards.

As we know, CLT is employed within CEFR and the approach is much dissimilar than the rule-based on language teaching the language teachers are accustomed to in Uzbekistan.

Klapper points out that the lack of prescribed classroom techniques makes CLT "fizzy" in teacher's understanding. This "fuzziness" gave CLT flexibility and space for teacher creativity and own interpretations. Some teachers consider it "a little more than an integration of grammatical and functional teaching" and others accept it as "procedures where learners work in pairs or groups employing available language resources in problem-solving tasks". Larsen-Freeman and Anderson admit that "It is probably fair to say that there is no single agreed upon version of CLT". More than that, Richards and Rogers also note that there is no single text or authority on it, nor any single model that is universally accepted as authoritative. As a result, the most significant features of CLT are that learners can develop their knowledge in communication and can use their skills outside the classroom, in their social life.

References

1. David L. Chiesa, PhD (Ed.), Ulugbek Azizov, PhD, Svetlana Khan, Klara Nazmutdinova, Komila Tangirova. Reconceptualizing language teaching. – Baktria Press, 2019. – 19 p.
2. Larsen-Freeman and Anderson. Techniques and Principles in Language Teaching. 3rd edition, 2011. – 115 p.
3. Mey, L.Jacob. Pragmatics: an introduction. – Oxford: Blackwell Publishers, 1993. – 40 p.
4. Nivis Deda MA. Academic Journal of Interdisciplinary Studies Published by MCSER-CEMAS-Sapienza University of Rome, May 2013. – 67 p.
5. Richards, J.C. and Rodgers, T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 2nd edition. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – 40 p.



Ra'no TOSHNIYOZOVA,
 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
 va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ALISHER NAVOIY ONTOLOGIK TAFAKKURIDA VAQT KATEGORIYASI

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning ilohiyotga oid qarashlari tahlili o'z aksini topgan. Vaqt konsepsiyasi islom ilohiyotida alohida e'tibor bilan o'rganilgan mavzudir. Olamdagi har qanday jism o'z mohiyati va tabiati nuqtayi nazaridan doimiy yangilanishi va o'zgarishi, takomillashishi, harakati vaqt tushunchasi bilan bog'liq. Vaqt muhim ontologik xususiyat sifatida tasavvuf adabiyotining istilohlari, obrazlar tizimi mazmunini aniqlashtiradi.

Kalit so'zlar: vaqt, harakat va sukunot, xalqi jadid, jabarut olami, tajalliyot.

Аннотация. В статье дан анализ богословских взглядов Алишера Навои. Концепция времени – тема, которая была тщательно изучена в исламском богословии. Каждая вещь во вселенной, с точки зрения его сущности и природы, постоянно обновляется и трансформируется, ее самосовершенствование, движение связано с понятием времени. Время как значимая онтологическая категория уточняет сущность суфийской поэтики, содержание системы образов.

Ключевые слова: время, движение и покой, непрерывное новое творение (халки жадид), мир могущества (жабарут), эманация.

Annotation. The article contains an analysis of the theological views of Alisher Navai. The concept of time is a topic that has been carefully studied in Islamic theology. Every thing in the universe, from the point of view of its essence and nature, is constantly updated and transformed and its self-improvement and movement are associated with the concept of time. Time as a significant ontological category clarifies the essence of Sufi poetics and the content of the image system.

Key words: time, movement and peace, continuous new creation (khalqi jadid), world of power (jabarut), emanation.

Alisher Navoiyning ontologik tafakkuri zamirida yotgan Yagona borliqning bir-biridan ajralmas ikki tomoni – g'ayb va shuhud olami o'rtasidagi vujudiy hamda irfoniy taqsimot va tizimga asoslangan ichki mantig'i, falsafiy mazmundagi intuitiv va tizimli dunyoqarashini belgilash ulug' mutafakkirimiz badiiy tafakkurini anglashda muhimdir. Borliqshunoslikda metakategoriyalar sirasidagi javhar va jarayon, harakat va moddiylik, fazo va vaqt, imkoniylik va zaruriylik munosabatlari juftligi muhim o'rin tutadi. Ushbu kategoriyalar Alloh va odam, ilohiy olam va kasrat olami munosabatlarini aniqlashtiradi.

Vaqt konsepsiyasi – Islom ilohiyotida alohida e'tibor bilan o'rganilgan mavzu. Islom ontologik tafakkurida ko'pchilik olimlar vaqtni javhari o'zgarimas bir yoki bir nechta narsalar harakatining natijasi deb hisoblashadi. Ilohiyotshunoslar vaqtga mavhum hodisa deb qarashadi. O'rta asr xristian faylasuf va ilohiyotchilarining bir qismi moddiy va ruhiy vaqt haqida ta'lim berishdi. Ishroqiylar esa borliq va vaqt bir-biridan ajralmas tushunchalar deb hisoblashdi. Barcha vaqt doirasidagi narsalar moddiy mohiyatlar bo'lib, ularda harakat mavjud. Nomoddiy mohiyatlar vaqtni qabul qilmaydi, ular vaqtdan tashqari olamga tegishli. "Islom falsafasining muhim mavzularidan biri bu vaqtdan tashqari olamdir. Islom ontologik qarashlariga ko'ra yaratilmish olam vaqtinchalik, o'zgaruvchan hamda vaqtdan tashqari, o'zgarimasga bo'linadi. Vaqt tomirida mavjud vaqtinchalik mohiyatlarning o'ziga xos xususiyati bu – ularning o'z kamolotiga erishish yo'lidagi o'zgaruvchan va bir tarafdama harakatidir. Kasratda miqdor va sifat kabi kategoriyalar narsalar mohiyatida, tabiatida mavjud, ya'ni namlik suvning o'ziga xos xususiyati bo'lganidek, harakat mavjud mohiyatlarning ontologik xususiyatidir. Shuning uchun har qanday jism, mohiyati va tabiati

nuqtayi nazaridan doim yangilanish va o'zgarishda, o'zini takomillashtirish harakatida. Agar moddiylikni harakatdan ajratmoqchi bo'lsak, moddiylikning o'zi ham yo'qoladi. Barcha mavjud moddiy narsalar o'zgaruvchan, ma'lum bir nuqtada turmaydi. Vaqt jism tabiatidagi harakat chiziqlari majmuyi bo'lib, shu jismlar harakatining natijasi, substansial harakatining o'lchovidir" [2: 105–112].

Vaqt abadiylikka qarama-qarshi qo'yilmaydi, balki ikki olam almashinib turishining imkonidir. "...Agar kim vaqt qobig'idan chiqsa, uning ko'zidagi parda mahv etilsa, u Borliqni yaxlit holda, (turlı timsollarning) ibtidosi ham, intihosi ham bo'lmagan holda mavjudlik kasb etayotgan, vaqtinchalik olamga bog'lanmagan holatini ko'radi" [3: 143]. Shu tariqa vaqt abadiylikning qanday bo'lsa, shu holatda paydo bo'lishidir.

Mutakallimlarning atomistik nazariyasida ikki vaqt atomi oralig'idagi *vaqafot*, *sukunot* haqida bahslar kechgan. Ular narsada bir vaqtda ham harakat, ham sukunot mavjud degan to'xtamga kelishdi [1: 191–192]. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror"ning birinchi bobida ushbu g'oyaga alohida to'xtalib o'tadi.

Ham harakotidin ionat etib,

Etgali maqsudqa tahrik etib.

Ham sakanoti qilib ifshosukun,

Anda tavaqqufqa bo'lub rahnamun. [4: 1-bob]

Moddiy olamning uzluksizligi g'oyasi uzluksiz tajalliy nazariyasi asosidir. Alloh tajalliyda ilohiy olamni lahzada (*vaqt*, *on*), mulk olamini esa davomiy (*zamon*) yaratdi. Nomoddiy mavjudliklar Allohning yaxlit holda to'liq o'z-o'zini namoyon etishi bo'lsa, moddiy olam adadsiz davomiy hamda takroriy tajalliydir (*foy*). Birinchi tajalliy vaqt, harakat doirasidan tashqarida, o'zgarimas xususiyatga ega bo'lsa, ikkinchi tajalliyda narsalar o'z haqiqiy manziliga ye-

tishi uchun davomiy, uzluksiz harakatlanib, vaqt tomirida bir qancha maqomotlarni bosib o'tishi lozim. Kamolotning har bir darajasida solikning borlig'ida bir xususiyat ortib boradi. Kamolot sayridagi muttasil, doimiy o'zgarish va yangilanish (tajaddud) kasrat tabiatiga xos xususiyatdir. O'z-o'zini yangilash, poklash, takomillashtirish jarayoni va narsalar substansial harakatining mahsuli bo'lgan vaqtni davomiy ilohiy tajalliyning o'lchovi deb hisoblash mumkin. Alloh ilmi va irodasi, Uning mutlaq cheksiz borlig'idan taralayotgan tajalliyotni moddiy borliqning "hayot tomiri, pulsi" bilan qiyoslash mumkin. Olam – Xoliqning (Mutlaq Borliqning) uzluksiz tajalliyi, vaqt esa – ushbu tajalliyning moddiy va miqdoriy ifodasi. Ushbu nazariyaga ko'ra butun olamning bir chiziqli va bir tomonlama harakati natijasida har bir vaqt atomi (on) bir hodisani yaratadi. Vaqt kategoriyasi abadiylik va vaqtinchalikning o'zaro bir-biriga o'tishini bildiradi.

*Har nafasing javhari erur nafis,
Kim sanga ul bir nafas erur anis.
Dema nafas, javhari zot ushbu dir,
Javhari yo'q, obi hayot ushbu dir.
Bas muni anfosi muqaddas degil,
Balki muqaddas dema, aqdas degil.* [4: 222]

Ibn Arabiy ijodi tadqiqotchisi T.Isutsu ilmiy izlanishlarida ulug' shayx zotiy tajalliyi *fiyzi aqdas* hamda vujudiy-shuhudiy tajalliyi *fiyzi muqaddas* deb atagani aytilgan. Alisher Navoiy esa *ism va sifatlar* tajalliyoti mistik mushohadasi jarayonini "anfosi aqdas" (zotiy tajalliy) va anfosi muqaddas (shuhudiy tajalliy) deb ifodalaydi va davom etadi:

*Ondin o'lub sayr-u saboting sening,
Sayr-u saboting ne, hayoting sening.
Kirmagi bir ne'mat erur mug'tanam,
O'ylaki kirmakligi chiqmog'i ham.* [4: 223]

"Birinchi bosqichda Haq a'yoni sobita shaklida O'z ilmda zuhur etadi. Ikkinchisi birinchi bosqichning davomi bo'lib, unda Haq a'yoni sobitaning ko'rinishga ega bo'lgan belgilari va sifatlari borliqdagi mavjudotlarda tajalliy etadi" [7: 73]. Insondagi hol va sifat (a'roz) o'zgarishlari, kamolot har bir vaqt atomida kasratdagi *xalqi jadid*, doimiy tajalliy tufaylidir. Shuning uchun "kirmagi-yu chiqmog'i" baxt va ruhiy quvvat bilan ta'minlab turadi, har nafasning holidan ogoh bo'lishga, hush ila hamroh bo'lishga chaqiradi:

*Biri erur quti hayoting seni,
Yana biri quvvati zoting seni.* [4: 56-bob]

Xalqi jadid tufayli, moddiy va ruhoniy (ilohiy) olamdagi muttasil o'zgarish tufayli boqiylik yo'q:

*Chunki jahon bog'i vafosiz durur,
Umr guli anda baqosiz durur.
Bog'ki, vardig'a baqo bo'limg'ay,
Vardki bog'ig'a vafo bo'limg'ay.* [4: 121]

Demak, vaqt kategoriyasi hamda tajalliyot (xalqi jadid) Alisher Navoiy badiiy tafakkurida asosiy g'oyalardandir.

*Husnung aylab o'kush sifot ichra,
Har zamon jilva koinot ichra.
Barqi husnung chu har nafas choqilib,
G'ayr o'shul barq o'tig'a yoqilib.* [6: 5]

Me'roj kechasida bo'lib o'tgan voqealar, Muhammad (s.a.v.)ning ikki olam o'rtasida vositachi sifatida namoyon bo'lishi vaqt nuqtayi nazaridan ikki vaqt atomi orasida kechgani ta'kidlanadi:

*Bormog'u kelmagi bo'lubiki dam,
Qaysi dam burna erkani mubham.* [6: 18]

*Yonib gulshan agarchi g'uncha borib,
Ko'z ochquncha kelib, yumg'uncha borib.
Borib kelmoqligi darki qilinmay,
Burunmu bordi yo keldi bilinmay.* [5: 5]

"Hayrat ul-abror"dagi vaqt xususidagi (o'n sakkizinchi) maqolat e'tiborga molik. Chin mulkidagi husnda tengsiz nozanin ishqida kuygan oshiq yigit va boshqa mazlum asirlar u tomon nazar solgani uchun o'sha podshohlik xoni ularni paxsaning orasiga olib, devor qilishni hukm etadi. Bu azobga sabr qilgan, yordan boshqani tilga olmagan oshiq yigitgina maqsadiga yetdi, qat'iyati sabab ozod qilindi, yorning haramiga xos mahram bo'ldi. Maqolotdagi *devor* – vaqt timsoli ikki olam munosabatlari ta'minoti, vahdat uchun imkon bo'lgan vaqt kategoriyasidir. "Farhod va Shirin"dan:

*Dedi Shopur: "Kel, ey farxunda yovar,
Budur sen tushta ko'rgan mulk-u kishvar.
Tamosho ayla-yu bo'lsun xiroming,
Yo'luqquncha talab qilg'on maqoming.
"Bu yanglig'kim sanga men hamdam o'ldum,
Bori maxfiy ishingga mahram o'ldum."* (5: 170-bet)

Islom ilohiyotshunosligidagi vaqt konsepsiyasi, uning ontologik poetikasi muxtasar tahliliga xulosa qilib aytish mumkinki, Alisher Navoiyning uzluksiz tajalliy nazariyasi bilan birgalikda vaqt va vaqtinchalik narsalar muammosiga munosabati, kechinmalarining badiiy in'ikosi ulug' mutafakkirimizning taxayyul sarhadlarini anglash, asarlari majoziy qatlami ostidagi ontologik ilmini talqin etishga chorlaydi. Tahlilda vaqt konsepsiyasi harakat va sukunot, mahrumlik va vasl kabi juft tushunchalar asosida talqin etildi. Vaqt muhim ontologik xususiyat sifatida tasavvuf adabiyoti istilohlari mohiyatini aniqlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ибрагим Т.К. Религиозная философия ислама: калам. Казань. – Казан. унив-т, 2013. – С. 191–192.
2. Саййид Муҳаммад Хаменей. Инсан дар гузаргах-и хаст (маджмуъа-и мақолот), жлд-и аввал. Техрон. Бунйод-и хикмат-и исломи Садри. 1386 с. х. С. 89–98 / Форс тилидан таржима / Ишрак: ежегодник исламской философии. – Москва: 2010. №1. – С. 105–113.
3. Ибн Арабий. Ал-Футухот ал-маккийя./ Перевод с арабского, вводная статья и комментарии И.Р.Насырова. – Москва: Языки славянской культуры: ООО «Садра», 2013. – С. 216. Философская мысль исламского мира: Переводы. Т. 1.
4. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1991. 7-jild. 392-bet.
5. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1991. 8-jild. 544-bet.
6. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. MAT. 20 jildlik. – Toshkent: Fan, 1992. 9-jild. 356-bet.

Gulnoza QURBONOVA,

Buxoro tibbiyot instituti Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY-OPERATIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. Maqola ta'lim jarayonida bo'lajak mutaxassislar kasbiy-operativ tafakkurini rivojlantirishni o'rganishga bag'ishlangan hamda tibbiy pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy-operativ tafakkurining pedagogik-psixologik vazifalarni yechishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, kasb, operativ, muloqot, bo'lajak o'qituvchi, rivojlanish, vazifa, vaziyat, yechim.

Аннотация. Статья посвящена изучению развития профессионально-оперативного мышления будущих специалистов в образовательном процессе и направлена на решение педагогико-психологических задач профессионально-оперативного мышления студентов образовательного направления медицинской педагогики.

Ключевые слова: мышление, профессия, оперативный, общение, будущий учитель, развитие, задача, ситуация, решение.

Annotation. The article is devoted to the study of the development of professional and operative thinking of future specialists in the educational process and is aimed at solving the pedagogical and psychological problems of professional and operative thinking of students of the educational direction of medical pedagogy.

Key words: thinking, profession, operative, communication, future teacher, development, task, situation, solution.

Talabalarning kasbiy tafakkurini shakllantirish zaruriyati bir qator obyektiv holatlar bilan bog'liq. Zamonaviy ta'lim muassasasi, avvalo, talabalar o'quv-biluv faoliyati samaradorligini ta'minlaydigan, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, qobiliyat va iste'dodini rivojlantiradigan mustaqil ijodiy tafakkur maktabi hisoblanadi.

Ko'pgina olimlar (V.S.Ilina, N.V.Kuzmina, Y.N.Kulyutkin, O.Roziqov, B.Adizov va boshqalar) fikricha, zamonaviy oliy ta'limning salbiy tomonlaridan biri unda ijodiy hamda kasbiy tafakkur o'rniga verbal-mantiqiy tafakkurni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etiladi. O'qituvchining kasbiy tafakkurini rivojlantirish muammosi amaliy tafakkurni tadqiq etish doirasida amalga oshiriladi.

Muammo bo'yicha dastlabki tadqiqotlar E.N.Torndayk, V.Keller, K.Byuler, K.Kofka, N.A.Ruger, M.Y.Basov, S.L.Rubinshteyn tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarda o'z aksini topgan. Ular kasbiy tafakkur namoyon bo'lishini amaliy faoliyat nuqtayi nazaridan o'rgangan bo'lsalar, S.L.Rubinshteyn birinchilardan bo'lib kasbiy tafakkurning sinchkovlik asosida kuzatuvchanlik, ma'lum muammoli vaziyatlarda o'ziga xos va yagona qaror qabul qila olish, qisqa vaqtda tafakkur qilishdan amaliy faoliyatga o'tish kabi o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatgan.

O'z navbatida, amaliy tafakkur muammosi tadqiqotchilar tomonidan yaqin vaqtlardan boshlab o'rganila boshlandi. G'arb psixologiyasida amaliy faoliyatga yo'naltirilgan tafakkur elementar noijodiy hisoblanib, nazariy tafakkurga nisbatan ikkilamchi shakl sifatida qarab kelingan. Shu nuqtayi nazardan turli kasblarda tafakkurning murakkab shakllari hamda ko'rgazmali-faoliyatli komponentlari namoyon bo'lishi mumkin emas, deb hisoblangan.

Amaliy tafakkur muammosi rus olimlari F.N.Gonobolin, N.V.Kuzmina hamda B.M.Teplov tadqiqotlarida o'z yechimini birmuncha topgan. Chunonchi, B.M.Teplov fikricha, amaliy tafakkur yaxlit tafakkur mexanizmlari (analiz, sintez, taqqoslash, tizimlashtirish, abstraksiya va aniqlashtirish) birligi asosida namoyon bo'ladi hamda u tafakkur faoliyatining alohida shakli hisoblanib, uning o'ziga xosligi amaliy faoliyatda inson tomonidan u yoki bu vazifalar yechimini topishga qaratiladi. "Inson intellekti va tafakkur mexanizmlari yagona, ammo tafakkur shakllari turlicha, chunki u yoki bu holatda inson aqli tomonidan yechimini topishi kerak bo'lgan vazifalar har xildir" [4: 224].

Amaliy aql – amaliy faoliyatning tarkibiy qismi sifatida xususiy va aniq vazifalar maqsadini amalga oshirishga qaratiladi. Kasban yetuk amaliyotchi aqli ushbu vazifalarni doimiy ravishda izlaydi va yechimini topishga harakat qiladi. O'z navbatida, o'qituvchi ham doimiy ravishda o'z faoliyatida axborotni yig'ish va qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish kabi kasbiy vazifalarni izlaydi va yechishga harakat qiladi.

Yechim natijasi – amalga oshirishga tayyor bo'lgan harakat rejaları hisoblanadi. O'qituvchi aqli doimiy ravishda rejalashtirish bilan band bo'ladi. Shu sababli rejalar oddiyliigi, aniqligi bilan ajralib turishi, amalga oshirib bo'lmaydigan, keng ko'lamli va uzoq muddatli bo'lmasligi lozim. Ular tirik organizmga o'xshab har daqiqada vaqti-vaqti bilan o'zgaruvchan va yangilanuvchan, shu sababli ishchanligi va hayotchanligini saqlab qolishi bilan ajralib turishi kerak.

O'qituvchi tafakkuri murakkab hamda tizimli bilimlarga asoslanadi va kasbiy nuqtayi nazardan bu bilimlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

– jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida ta'lim muassasalari rivojlanishini belgilaydigan davlat ta'lim standartlarini bilish;

– barcha fanlarning metodologik asosini tashkil etuvchi nazariy konsepsiyalar mazmunini tushunish va bilish;

– ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy asoslarini bilish;

– ta'lim-tarbiya jarayonining metodologik hamda pedagogik-psixologik asoslarini bilish;

– tahsil oluvchilarning anatomik-fiziologik, yosh hamda psixologik xususiyatlarini bilish;

– ta'lim-tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni, o'quvchilar faoliyatini boshqarish shakllari, metodlari va usullarini bilish;

– mutaxassislik fanini bilish;

– mutaxassislik fanini o'qitish metodikasini bilish;

o'zi va o'quvchilar ish faoliyati natijalarini hisobga olish va tahlil qilish metodikasi va metodlarini bilish;

– ta'lim va tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsiyalar, pedagogik hamda axborot texnologiyalarini qo'llay olish.

O'qituvchi kasbiy faoliyatida operativ tafakkur alohida ahamiyatga ega. Bunda amaliy masalalar, jumladan, boshqarish masalalarini hal qilish natijasida qo'yilgan masalaning hal qilinishini ta'minlaydigan, harakatlar (operatsiyalar)ning taxmin qilinayotgan jamlanmasining subyektiv modeli shakllanadi.

Rus olimi V.N.Pushkin "Katta tizimlarda operativ tafakkur", nemis tadqiqotchisi Ditrix Derner "Muvaffaqiyatsizlik mantig'i" asarlarida operativ tafakkurning inson faoliyatidagi ta'siri, uning amalga oshirish jarayoni, mexanizmlari to'g'risida fikr yuritib, turli vaziyatlarda uning namoyon bo'lishini eksperimental tadqiq etganlar.

Haqiqatan ham o'qituvchining mehnat faoliyati uni tez hamda samarali tashkil etish va amalga oshirishga yuqori talablar qo'yilishi bilan xarakterlanadi. O'qituvchining operativ tafakkuri tizim boshqaruvchisi sifatida rejalashtirish, tadbirlarni ishlab chiqish va boshqarish, pedagogik jarayonda yuzaga keladigan keskin vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha vazifalarni amalga oshirish operatsiyalaridan iborat bo'ladi. Bu operatsiyalarni amalga oshirishda operativ tafakkur funksiyalarini amalga oshirish mexanizmi quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

TAFAKKUR FUNKSIYALARI	MOHIYATI
ANGLASH-BILISH	<ul style="list-style-type: none"> – pedagogik-psixologik kategoriyalar mohiyatini anglash va tushunish; <ul style="list-style-type: none"> – aql mahsuldorligi; – tafakkur operatsiyalari shakllanganligi; – ma'lumotlarni tez tahlil qilish; – murakkab hamda qarama-qarshi hodisalar mohiyatini tushunish.

EMPATIK	<ul style="list-style-type: none"> – adekvat persepsiya; – bilish faoliyatidagi muvaffaqiyatlarga erishishga ko'maklashish; – qadriyatli yondashuv.
METODOLOGIK	<ul style="list-style-type: none"> – kasbiy faoliyatning umumiy holati; – ta'lim jarayoni konsepsiyasining shakllanganligi.
BASHORATLOVCHI	<ul style="list-style-type: none"> – maqsadni anglash; – bashoratlash, loyihalash; – ta'lim jarayonini modellashtirish.
REFLEKSIV	<ul style="list-style-type: none"> – maqsadni tushunish; – faoliyatga motivatsiya; – tahlilga intilish; – o'z-o'zini tanqidiy baholash; – mukammallikka intilish.
BOSHQARUVCHI	<ul style="list-style-type: none"> – faoliyatning maqsadli yo'nalganligi; – emotsional-irodaviy holatning shakllanganligi; – masalalar tahlili uchun ijobiy muhit yaratish; – ta'lim jarayonini boshqarish bo'yicha ko'nikmalar hosil bo'lishi.

Shu o'rinda pedagogik jarayonda yuzaga keladigan keskin vaziyatlarni bartaraf etish bo'yicha vazifalarni yechishga e'tibor qaratsak. Muammoli masalalar ijodiy xarakterga ega bo'ladi. Ularni yechish uchun standart algoritm mavjud emas, balki operativ tafakkur zarur bo'ladi. O'qituvchi mehnat faoliyatida shunday vaziyatlar yuzaga kelishi mumkinki, birinchidan, pedagogik jarayonda rejalashtirilgan va amaldagi holat o'rtasida nomuvofiqlik kelib chiqishi; ikkinchidan, o'qituvchida bu nomuvofiqlikni bartaraf etish bo'yicha aniq reja, tasavvur va faoliyat usulining yo'qligi kuzatiladi. Bu vaziyatda 2 xil variant yuzaga keladi: a) o'qituvchida yechim usuli yo'q, chunki bu vaziyatni u hozirgi kunga qadar shaxsiy tajribasida uchratmagan va yo'riqnomalarda yechim to'g'risida axborot yo'q; b) bunday vaziyat ilgari uchramaganiga qaramasdan o'qituvchi tasarrufida alohida bartaraf etish usullari mavjud bo'lib, ularning o'zaro uyg'unlikda qo'llanishi vazifani yechish imkonini beradi. Shu sababdan ta'lim muassasalaridagi amaliy muammolar bilan ishlab chiqilgan nazariy ishlanmalar o'rtasidagi nomuvofiqliklarni bartaraf etish masalasi dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik-psixologik vazifalarni yechishda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-operativ tafakkurini rivojlantirishga e'tibor qaratilishi lozimligini keltirib chiqaradi.

Tajriba-sinov ishlari ko'rsatishicha, talabalarning kasbiy-operativ tafakkuri xotira, diqqat, oliy nerv faoliya-

ti, sensomotor reaksiyalar kabi psixik xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq. Bu esa o'rganilayotgan hodisaning inson rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-biologik xususiyatini isbotlaydi.

Bizning fikrimizcha, talabalarning kasbiy-operativ tafakkuri rivojlanishi bo'lajak o'qituvchilar shaxsi xususiyatlarini namoyon qiladigan 3 bosqichda amalga oshadi. **Birinchi bosqich**da gumanitar, tabiiy-ilmiy hamda maxsus fanlar blokidan tegishli bilim, malaka va ko'nikmalar fondi shakllanadi. **Ikkinchi bosqich**da shakllangan bilimlar fondini nazorat qilish va undan foydalanish koeffitsiyenti ko'tariladi. Ya'ni talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar pedagogik-psixologik vazifalarni yechish imkonini beradi. **Uchinchi bosqich**da talabalar oldiga "maxsus"

qiyinchilik darajalariga ega bo'lgan vaziyatlarda kasbiy-operativ tafakkurni qo'llagan holda adekvat, tez va ratsional yechimlarni topish vazifasi qo'yiladi.

Xullas, kasbiy-operativ tafakkurni rivojlantirish bo'lajak o'qituvchilarda har xil vaziyatlarda turli pedagogik-psixologik vazifalarni yechish imkonini beradi, ular ongida shakllangan bilim, malaka va ko'nikmalarini tez vaqt ichida xotirada tiklab, samarali natijalarga erishish mumkin bo'ladi. Kasbiy-operativ tafakkurni rivojlantirish orqali bo'lajak o'qituvchilarda real pedagogik jarayonda yuz beradigan muammoli vaziyatlar, stress holatlarining oldini olish, vaqt tanqisligi hamda zamonaviy o'quvchilarning intellektini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Karimov, A.Qalandarov. Ong va ruhiyat falsafasi. – Buxoro: Durдона. 624-bet.
2. Мышление учителя: Личностные механизмы и понятийный аппарат / Под ред. Ю.Н.Кулюткина, Г.С.Сухобской. – Москва: Педагогика, 1990. – С. 104.
3. Рубинштейн С.Л. Принципы детерминизма и психологическая теория мышления. – Москва: Наука, 1959. – С. 203.
4. Теплов Б.М. Практическое мышление / Б.М. Теплов. – Москва. // Психология мышления: хрестоматия / – Издание 2-е, переработанное и дополненное. – Москва: АСТ: Астрель, 2008. – С. 224.
5. E.G'oziyev. Shaxs psixologiyasi va kasb tanlash. – Toshkent, 1987.

Jumanazar ESHONQULOV,

Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi;

Iltom ESHONQULOV,

filologiya fanlari nomzodi

MUHAMMADSIDDIQ HAYRAT BUXORIY TAZKIRANAVISLAR NAZDIDA

(XIX–XX asrlardagi tazkiralalar asosida)

Muhammadsiddiq Hayrat Buxoriy XIX oxiri va XX asr avvalidagi tojik adabiyotining taniqli vakili bo'lib, uning she'rlari o'z davridagi tazkiranavislar tomonidan so'z san'atining oliy namunasi sifatida e'tirof etilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yozilgan barcha tazkiralarda Muhammadsiddiq Hayratning shoirlik mahorati va shaxsiyati to'g'risida diqqatga sazovor ma'lumotlar keltirilgan. Aytish joizki, bu davrgacha Buxoroda yettita tazkira yozilgan bo'lib, ular Qori Rahmatulla Vozeh, Mirsiddiqxon Hashmat, Afzal maxdum Pirmastiy, Abdulloxo'ja Abdiy, Hoji Ne'matullo, Sharifjon maxdum Sadri Ziyo, Sadriddin Ayniy qalamiga mansub.

Muhammadsiddiq Hayratning eng yaqin do'stlari – tojik adabiyotining mohir shoir va yozuvchilari Sadriddin Ayniy va Mirzo Abdulvohid Munzim shoirning asarlari va "Ash'ori muntaxab" ("Saylanma she'rlari")ning kitob holida nashr etilishiga munosib hissa qo'shganlar.

Manbalarda keltirilishicha, Muhammadsiddiq Hayrat bilan ko'plab tazkiranavislar o'rtasida uzviy ma'naviy aloqalar mavjud bo'lgan. Masalan, Sadriddin Ayniy shoir Hayratni eng yaqin do'sti va mehribon shaxs sifatida muhabbat bilan shunday xotirlaydi: "Men bilan Hayrat oramizdagi muloqot yaqin do'st yanglig' nihoyatda issiq munosabatda davom etdi, u mendan o'zim ijod qilgan she'rimni so'radi. Men ham ibo qilmasdan, darhol unga "Ayniy" taxallusi bilan ijod qilgan she'rimni ko'rsatdim. Men bu she'rni ijod qilganimdanoq, Sharifjon maxdum huzurida o'qib, uning maqtoviga sazovor bo'lgan edim, hatto u bu she'r meniki ekanligidan shubhalangan edi.

Hayrat u she'rni o'qib eshittirganimdan so'ng, musavvadani qo'limdan olib, uni qaytadan uzun va uzoq mulohaza bilan ichida mutolaa qilib, keyin menga baland ovoz bilan o'qib, kamchiligini ko'rsatib, (she'rni) qayta ishlab chiqishimni maslahat berdi". [1: 207–209]

Shu tariqa S.Ayniy "Namunayi adabiyoti tojik" asarida Hayratning 1905-yilda 27 yoshida vafot etganini yozadi va shoir ijodidan 4 ta g'azal (26 bayt atrofida), 1 ta musaddas (15 bayt va 5 banddan iborat), 1 ta qasida (24 bayt), 1 ta qit'a (4 bayt), tarkibbanddan 1 band (8 bayt), 1 ta musaddas (6 bayt), 3 ta ruboiy (6 bayt), 6 ta fardiyot (12 bayt) va bolalar she'riyatidan bir band (2 bayt) keltiradi.

Adib bu haqida: "Hayrat faqirning sabaqdoshlaridan edi, ammo iste'dod kamoloti hamda adabiyotga muhabbat bog'lash bobida, bolalik davridan ustozlik martabasiga yetishgan edi... Sochilgan varaqlar yaqin orada nashr qilinishi ko'zda tutilmaganligi sababli, uning asarlaridan ko'proq namunalar saylandi", – deb ta'kidlaydi. [2: 182–189]

Tazkiranavislardan biri Sharifjon maxdum Sadri Ziyo ham "Tazkori ash'or" asarida Muhammadsiddiq Hayrat haqida aniq va muhim ma'lumotlar keltirgan. Uning ta'kidlashicha, shoir Hayrat o'z davrining "yetuk darajadagi fikr egasi", "yuqori badiiy tab" va "bilimdonlar maydonining yetuk kishisi" sifatida tanilgan.

Manbalarda yozilishicha, Muhammadsiddiq Hayrat va Sharifjon maxdum Sadri Ziyo o'rtalarida ma'naviy yaqinlik va mustahkam hamkorlik mavjud bo'lgan. Sharifjon maxdum Sadri Ziyo shoir Hayrat va Ustoz Ayniy hamda Abdulvohid Munzimlar o'rtasidagi do'stlik va ma'naviy munosabatlar haqida xabar berib, shunday yozgan:

... Hamesha ba Aynivu Munzim ba ham
Budandi ba shodivu bo ham ba ham.
Ba darsu ba she'ru ba digar hunar,
Shariku rafiqand bo hamdigar. [4]

She'r mazmuni: U shodlig-u qayg'ularda Ayniy va Munzim bilan doimiy tarzda birga bo'lgan, ular dars-u, she'r-u hunar sohasida bir-birlari bilan hamjihat-u o'rtoq edilar.

Sharifjon maxdum Sadri Ziyo shoir Hayrat ijodidan 2 ta qit'a (35 bayt atrofida), 1 ta tarjimayi hol xarakteriga ega bo'lgan qasida (33 bayt) hamda Sadridin Ayniy tomonidan shoirning vafotiga bag'ishlangan 1 ta tarixiy qit'ani keltirgan bo'lib, mazkur manba shoirning hayoti va ijodini o'rganishda muhim ahamiyatga molik.

Hayrat Buxoriyning shaxsiyati va shoirlik iste'dodi shu davrdagi boshqa tazkiranavislardan biri Hoji Ne'matullo Muhtaram tomonidan yanada yangicha ba-

diy did va xarakter asosida yondashilgan holda talqin qilingan. Muallif o'zining "Tazkirat ush-shuaro" asarida, avvalo, Muhammadsiddiq Hayratning tug'ilgan joyi, uning adabiyotdagi o'rni haqida mulohaza yuritib, unda o'zi va Hayrat o'rtasidagi mushoiralar va ma'naviy munosabatlar to'g'risida ma'lumot yozib qoldirgan. [3] U Hayrat ijodidan 1 ta qasida (33 bayt atrofida), 5 ta g'azal (34 bayt), 1 ta muxammas (25 misra atrofida), 1 ta qit'a (2 bayt) va 2 ta fard (2 bayt)dan iborat she'riy namunalar keltirgan.

XIX oxiri hamda XX asr boshidagi tazkiranavislardan Hoji Ne'matullo Muhtaram, Sadri Ziyo va Sadridin Ayniy Hayratning shoirlik qobiliyati, she'riyatining o'ziga xosligi to'g'risida ilmiy ahamiyatga molik ma'lumotlar keltirgan bo'lsalar-da, biroq uning she'riy devoni mavjudligi haqida yozishmagan. Sadridin Ayniy o'zining "Esdaliklar" asarida shoirning "Ash'ori muntaxab" asari mavjudligidan xabar bergan bo'lsa ham, bu Hayratning mukammal she'riy devoni borligini ang'latmaydi.

"Ash'ori muntaxab"ning nisbatan to'liq va ishonchli nusxasi bugungi kunda Tojikiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharq qo'lyozmalari zaxirasi ro'yxatida 1247-raqami bilan saqlangan bo'lib, mazkur qo'lyozma Sadridin Ayniy topshirig'iga ko'ra Mirzo Abdulvohid Munzim tomonidan kitob holida ko'chirilgan. Adabiyotshunos olim Rasulxon Hodizodaning ta'kidlashicha, "Ushbu devon nihoyatda a'losifat bo'lgan daftar varaqlarida, nasta'liq yozuvida kitobat qilingan. She'rlar sarlavhalari qizil bo'yoq, matnlari esa qora rangda yozilgan bo'lib, she'rlar matni har bir betda ikki qatorda joylashgan. Ba'zi betlarning hoshiyalarida Hayratning ilova tariqasidagi she'rlari qora va jo'sha (qizil bo'yoq) rangida yozilgan". [6: 34–35]

Tazkiralarda keltirilgan ma'lumotlar nihoyatda bahsli va munozarali bo'lib, shoir devonining mavjudligini aniq ko'rsata olmaydi. Shu sababdan bu masala alohida ilmiy tadqiqotni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, Hoji Ne'matullo Muhtaramning "Tazkirat ush-shuaro" asari, Sharifjon maxdum Sadri Ziyoning "Tazkori ash'or" asari hamda Sadridin Ayniyning "Namunayi adabiyoti tojik" ("Tojik adabiyoti namunasi") asarida keltirilgan ma'lumotlar adabiy-tarixiy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, Muhammadsiddiq Hayratning she'riyat dunyosidagi nufuzi hamda yuqori darajadagi shoirlik mahoratidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayniy Sadridin. Yoddoshtho. Qismhoi 3–4. – Stalinobod: Nashriyoti davlatii Tojikiston, 1957.
2. Ayniy Sadridin. Namunayi adabiyoti tojik. Az xati forsi tahiya va tas'hehi Mubashshiri Akbarzod. – Dushanbe: Adib, 2010. 438-s.
3. Muhtaram, Hoji Ne'matullo. Tazkirat ush-shuaro. Bo tas'heh va muqaddimai Asg'ari Jonfido. Zeri nazari Kamol Ayniy. – Dushanbe: Donish, 1975. 399-s.
4. Sadri Ziyo, Sharifjon maxdum. Tazkori ash'or. Sharhi holi barxe az shoiri muosiri Tojikiston va namunahoe az ash'ori onon. Bo tas'hehi Sahobiddini Siddiq. Bo ko'shishi Muhammadjon Shakurii Buxoriy. Chopi avval. – Tehron: Surush, 1380–2001. 428-s.
5. Hayrat. Ash'ori muntaxab. – Dushanbe: Kombinati Poligrafii Davlati Soveti vazironi Respublikai Tojikiston oid ba matbuot, 1964.
6. Hodizoda Rasul. Adabiyoti tojik dar nimmai duvvumi asri XIX. – Dushanbe: Donish, 1968. 291-s.

Dilorom KAMALOVA,
Nazokat SAMINOVA,

Toshkent farmatsevtika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchilari

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS USULLARI

Sharqda ustoz-shogirdlik an'analari chuqur rivojlangan. Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan manbalarda ustozlarga ehtirom haqida alohida o'rin ajratilgan. Jumladan, Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida shunday hikoya keltirilgan: bir kuni Buxoroning olimlaridan biri ilm dargohida shogirdlariga dars berib o'tirar ekan, dars asnosida goh-goh o'rnidan turib, so'ng yana o'tirardi. Bu hol bir necha bor qaytarilgandan so'ng, shogirdlari sababini so'rashdi. U zot: "Ustozimning kichik o'g'li bolalar bilan ko'chada o'ynab yuribdi, gohida eshik oldiga kelyapti, har kelganida ustozimga hurmat o'laroq o'rnimdan turyapman", deb javob bergan ekan. Mazkur hikoyadan ota-bobolarimizning ustozlarga mehri, hurmati, itoatkorligi, har bir vazifani sidqidildan sabr ila bajarishi kabi axloqiy munosabatlarini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda ham, bizningcha, yosh-u tajribali pedagoglarga birdek zarur bo'lgan pedagogik madaniyatni rivojlantirish ta'lim jarayonidagi ayrim munosabatlarni hal etuvchi muhim kasbiy vazifalardandir. Pedagogika sohasida yangi tushunchalardan bo'lgan pedagogik madaniyat tushunchasi o'qituvchi (tarbiyachi) shaxsiy sifatlarining o'quv-tarbiyaviy jarayonda aks etishi bo'lib, uning shaxsiy sifatlarida pedagogik madaniyatga xos, ya'ni puxta egallangan bilim, pedagogik salohiyat, har bir ishga kreativ yondashish, samimiylik va, eng asosiysi, yon-atrofdagilar fikrini tinglab, ularga hurmat ko'rsata olish kabi fazilatlar mavjud bo'lsagina o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi, aks holda bir qator oqsashlar, ko'ngilsiz holatlarga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik madaniyatni tarbiyalashning an'anaviy shakllari, asosan, bilim o'zlashtirishning reproduktiv usullariga qaratilgan bo'lib, bir paytning o'zida shaxsiy pedagogik malakani anglash va qayta ko'rib chiqish, pedagogik yangiliklarni yaratish, shaxsiy pedagogik tizimni rivojlantirish, pedagogik faoliyatning individual uslubi va kasbiy "men"ga yo'naltiruvchi pedagogik madaniyatning individual, innovatsion-refleksiv shakllarini ishlab chiqishga zarurat tug' ilmoqda. Shunday qilib, o'qituvchining kasbiy-pedagogik madaniyatini takomillashtirish bu – pedagogik faoliyat va muloqotning mavjud stereotiplaridan voz kechish va kasbiy o'zini o'zi namoyon etishning yangi usullariga ega bo'lish demakdir.

O'qituvchidan madaniyatli pedagog darajasiga erishishda quyidagi bir qancha vazifalarni bajarish ta'lab etiladi: o'z bilimini to'g'ri yetkaza olish; o'z bilimni shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirish; intellektual kuch va qobiliyatini rivojlantirish; ish-faoliyatida his-tuyg'ularini boshqara olish; bolalar sog'lig'ini mustahkamlash, ularning jismoniy kuch va qobiliyatlarini rivojlantira olish.

O'qituvchining o'z pedagogik "men"ini shakllantirish orqali quyidagi kasbiy sifatning rivojlanishi kuzatiladi: umumta'lim fanlarini atroflicha, o'z fanini chuqur bilish; har bir ishga rasolik, mukammallik bilan yondashish; doimiy ravishda pedagogik bilim va tushunchalarni o'rganib, takomillashtirib borish; pedagogik kasbini sevis; haqqoniylik, ziyraklik, e'tiborlilik kabi sifatlarga ega bo'lish.

Pedagogik madaniyatni rivojlantirishda pedagogik ziddiyatlarni oqilona bartaraf qilishning turli usullaridan foydalaniladi. O'qituvchi kasbiy-pedagogik madaniyati shakllanishi va rivojlanishida ziddiyatlarning uch guruhi ajratilish mumkin: ijtimoiy-madaniy, umumpedagogik va shaxsiy-ijodiy. [1]

Biz ajratgan ichki (shaxsiy-ijodiy) va tashqi (ijtimoiy-madaniy va umumpedagogik) ziddiyatlar o'zaro bog'langan bo'lib, ular oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisining kasbiy-pedagogik madaniyati rivojlanishida harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ushbu ziddiyatlar bartaraf etish oliy ta'lim muassasasi kasbiy-pedagogik madaniyati o'qituvchisi rivojlanish tendensiyalarini o'rganishga imkon beradi. [2]

Pedagogik madaniyatni o'lchash muammosi uning shakllanganlik mezonlari va darajalari muammosi bilan bog'liq. Mezon bu – uning asosida baholash, mulohaza amalga oshiriladigan belgi. Pedagogik madaniyat mezonlari madaniyatni tizimli tushunish, uning tizimli va funksional komponentlarini ajratish, madaniyatni ijodiy o'zlashtirish jarayoni va natijasi sifatida tushunish pedagogik qadriyatlar, texnologiyalarni yaratishdan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Bo'lajak pedagoglarda pedagogik madaniyatning shakllanganlik darajasi ko'rsatkichi quyidagi mezonlar orqali belgilanadi:

- 1) pedagogik faoliyatga nisbatan qadriyatli munosabat;
- 2) texnologik-pedagogik tayyorgarlik;

- 3) talaba shaxsining ijodiy faolligi, intellektual faollik;
- 4) pedagogik fikrlashning rivojlanganligi;
- 5) pedagogik takomillashishga intilish.

Bo'lajak pedagoglarda pedagogik madaniyatni shakllantirish texnologiyasi hamda mazkur texnologiya asosida maxsus "Zamonaviy pedagog" psixologik-pedagogik dasturi ishlab chiqilib, unga binonan amaliy-metodik faoliyat tashkil etilishi maqsadga

muvofiq. Bunda o'qituvchilar, talabalar faoliyatini bevosita va bilvosita psixologik-pedagogik kuzatish, ular ishtirokida pedagogik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan psixologik treninglar, davra suhbatlari, amaliy mashg'ulotlar, anketa-so'rovnomalari, testlar, keys topshiriqlar o'tkazish ularning mustaqil hayotga madaniyatli shaxs sifatida munosabatda bo'lishlari uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джураева Б.Р. Формирование педагогической культуры у будущих учителей в процессе профессиональной подготовки при изучении дисциплин педагогического цикла: Автореф. дис... канд. пед. наук. – Ташкент, 2002. – С. 22.

2. N.Azizxo'jayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 160-bet.

Sayyora HALIMOVA,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

"SADOYI TURKISTON" GAZETASIDA MILLIY TIL VA IMLO MUAMMOLARI

Har bir tarixiy jarayon o'zbek adabiy tiliga kuchli ta'sir etgan. Bu XX asrning boshlarida chop etilgan milliy matbuotimiz nashrlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, istiqlol fidoyilarining chinakam so'z minbariga aylangan "Sadoyi Turkiston" gazetasi chop etilgan 1914–1915-yillarda Turkistonning ijtimoiy hayotida bir qator o'zgarishlar yuz berdi, savdo va sanoat, temiryo'l, pochta-telegraf tashkil topdi, matbuot, nashriyot ishlari, teatr truppalari taraqqiy etdi. Bu jarayon tabiiyki, o'zbek adabiy tilining yangi so'z va iboralar bilan boyishiga olib keldi. Shu bilan birga ruscha, tatarcha, turkcha, ozarbayjoncha til unsurlari mahalliy matbuot tiliga kirib bordi. "Sadoyi Turkiston"ning butun faoliyati davomida 80 dan ortiq ruscha so'zlar ishlatilgan. Jumladan, politiya, ko'piya, zagranitsya, zakun, ukaz, siezd, nolug, otsinka, uchitel va hakozi.

Turkistonda matbuot, teatr tashkil qilish, yangi usul maktablari ochishda tatarlarning bevosita ishtiroki o'sha davr adabiy tiliga ham kuchli ta'sir qilgan. "Sadoyi Turkiston" gazetasining eng faol muharrirlaridan biri Rauf Muzaffarzoda tatar millatiga mansub bo'lgan. Uning maqolalarida o'z ona tilining unsurlari ko'p uchraydi. Hatto gazetada bosilgan maqolalarning sarlavhalarida ham buni aniq ko'rish mumkin. Masalan, "Hozirgi madrasalarimizda o'quv" (20-son), "Bizda o'quv va o'qituv" (8-son), "Milliy tashbirlar" (7-son), "To'y" masalasina" (6-son) va boshqalar. Shu o'rinda gazetaning bosh muharriri Ubaydulla Asadullaxo'jayevning (gazeta Ubaydulla Xo'jayev deb bergan) "Maqsad va maslak" maqo-

lasidan bir jumla keltiraylik: "Ishta, bu so'zlardan shoyad bizim yuqorida yozgan "Maqsad va maslak"imizdan anglashilg'on bo'lsa kerak"¹.

Rauf Muzaffarzodaning "Turkistonda tijorat va ziroat" maqolasidagi: "Chet mamlakatlaridan meva olishqa ehtiyoj qolmayajaq va millionlarcha pullar o'z kissamizg'a kirajakdur"² jumalari o'sha davr tili va uslubini yaqqol ko'rsatadi.

Gazetada g'arbiy turk tili shakli "o'l" bilan o'zbekcha "bo'l" fe'li parallel ishlatilgan. Abdulla Avloniyning "O'z maishatimizdan" she'rida fikrimiz isbotini ko'ramiz:

*Gar faqir o'lsa, ochligidan kim,
Bo'lmag'ay boyni zarra parvosi,
To'y qilib osh berur g'aniylarga,
Kambag'al kirs, hayda-haydosi.*³

Gazetada o'g'iz tiliga xos so'zlar, grammatik shakllar ham ko'p uchraydi. Masalan, cho'juq (bola):

*Yotma emdi, millatim, ko'ngil taraqqiyga qadam,
Bil, g'animatdur nafas, o'tkazmagil damni bu dam.
Ey, cho'juqlar, ilm o'qung bizlarni qilmay muttaham.
Bir muammodur tiriklik, o'z yukingdan urma dam.*

Tavallo Toshkandiy ⁴

Yana bir e'tiborli jihati, "Sadoyi Turkiston" gazetasida neologizmlar – yangi so'zlar ham uchraydi. Masalan, **jadalgoh** so'zi **dunyo** ma'nosida ishlatilgan (2-son). **Sanoatxona – korxon**a ma'nosida kelgan (3-son).

"Sadoyi Turkiston" gazetasida har bir yangi so'zning o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun harakat qilingan. Shu bois boshqa tillardan kirgan so'zlarga izoh berib

o'tilgan. Jumladan, **novometodniy** – usuli jadida shaklida, **amala** – ishchi shaklida izohlangan (3-son). O'zbek so'zlarining ruscha muqobillari yonma-yon keltirilgan. Anglashiladiki, gazeta o'zbek tili taraqqiyotida yuz berayotgan o'zgarishlardan o'quvchilarini doimo xabardor etib borgan. "Xalq o'z foydasini anglab milliy maktab va madrasalar ochsa, Ovrupo dorulfununlariga bolalarin yuborsalar, duxtur, advokat, muharrir va hunarmand, savdogar va **muhandis (injener)**lar chiqsa, bularning har biri o'z vazifasida turub ishlarini tartib ila yurguzsalar va xalqimizning foydasini kuzatsalar, na qadar oliy va na qadar go'zal bo'lur edi"⁵.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, "Sadoyi Turkiston"-da mumtoz adabiyotimiz tiliga xos so'z va birikmalar bilan birga oddiy so'zlashuvga xos so'z va birikmalar ham uchraydi:

*Yetubdur vaqt biza xatlar yozishmoq,
Yetar bizga bu kun yo'ldin ozishmoq.
Jaridaga maqolalar yozingiz,
Kerakdur bir-birimizni tonishmoq.*

Tavallo⁶

"Sadoyi Turkiston" gazetasi milliy til va imlo masalasiga jiddiy e'tibor qaratdi. Gazetaning 1914-yil 28-may sonida Abdulla Avloniyning "Hifzi lison" sarlavhali katta maqolasi bosiladi. "Hifzi lison deb – deydi muallif, – har bir millat o'z ona til va adabiyotining saqlamagini aytillar. Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurg'on oyinayi, hayoti til va adabiyotidir". Bu mulohazalarda mustamlaka qilingan millatning yeri, boyligigina emas, tili ham tortib olinayotgani o'ziga xos ifodasini topgan. Tarixning bu og'ir qismati "Sadoyi Turkiston" tevaragiga yig'ilgan millat fidoyilarini alam va iztirobga soladi. Hukumatga yozma va og'zaki arz faqat davlat tili – rus tilida qabul qilinardi. "Durust, bizlarg'a hukumatimiz o'lan rus lisonini bilmak hayot va saodatimiz uchun osh va non kabi keraklik narsadur. Lekin o'z yerinda ishlatmak va so'zlamak lozimdur. Yevropo qalpog'ini kiyub kulku bo'lmak zo'r ayb va uyatdur", – deydi Avloniy.

Gazeta til va imlo masalalariga doimo rivojlanishdagi, taraqqiyotdagi hodisa deb qaraydi. Bu jarayonda ijobiy hodisalar bo'lganidek, salbiy voqealarning uchrashi ham tabiiy. "Til va imlosi isloh etilgan millatning matbuoti, adabiyoti asrlarcha aralashub kelgan kirlari-la qoralong'on holda bo'lur"⁷, – deydi Rauf Muzaffarzoda "Til va imlo masalasi" sarlavhali maqolasida. Buni to'g'ri anglagan gazeta ziyolilarni sof adabiy tilda yozishga chaqiradi. "Bu ishni qachon bo'lsa ham avom qilub bermas", deydi. Gazeta faoliyat ko'rsatgan paytlari turkiy tilga e'tibor yetarli darajada emas edi. Ko'pgina turkiy so'zlar o'rniga ajnabiy so'zlar qo'llanilardi. "So'zlaganda, yozganda ajnabiy so'zlarni aralashtirish – bu jaholatdur", – deb yozadi muallif. U xalq ruhiyatini uyg'otib

olish uchun yozilayotgan asarlar, chop etilayotgan matbuot nashrlari sodda va tushunarli bo'lishi lozim degan talabni qo'yadi. Ikki qismdan iborat maqolaning davomi gazeta yopilgani sababli e'lon qilinmay qolgan. Gazeta xodimlarining ona tili muammolari yuzasidan chiqishlaridan keyin Turkistonning ko'pgina shaharlaridan tahririyatga ushbu masalaga munosabat bildirilgan maktublar kelgan. Jumladan, Muharram Namangoniy qalamiga mansub "Til masalasi"⁸ sarlavhali maktubda "lison masalasi hayot va mamot masalasi" deb ta'riflanadi. Maktub muallifining fikricha, turkiy qavmlar tushunadigan o'rta (umumiy) bir tilning bo'lishi foydalidir. Shundaygina ular bir-birlarining matbuoti va adabiyotidan bema'lol bahramand bo'ladi. Taraqqiy etgan mamlakatlar matbuoti, adabiyoti bir tilda chop etilishi millat uchun zarur ekanligini ta'kidlaydi. "O'rta shevada, butun millat ifrodi tushunarlik qilub, lisoni milliyamizga bir "qoida" yozmoqingizni butun millat ifrodi tarafidan o'tinaman".

"Rus lisonining ahamiyati" deb nomlangan maqolada milliy til va rus lisonining ahamiyati jamiyatning mavjud ehtiyojlaridan kelib chiqib belgilangan. Hukumat ishlariga aralashish, umumaloqada qiynalmaslik uchun mahalliy aholining rus tilini bilishi foydadan xoli emas. Savdogarlar ish usullarida doimo tarjimonlarga muhtoj, barcha mahkamalarda tarjimon orqali musulmonlar o'z maqsadlarini hukumatga tushuntiradilar. Davlat dumasiga saylangan vakillar o'z ehtiyojlarini rus tilida tushuntira olmaganlari uchun "hukumat turkistonlilarni saylov huquqidan mahrum qildi". Demak, turkistonlilar uchun rus tilini bilish boshqa millat bilan aloqada qiynalmaslik uchun ham zarur. "Buning chorasi, – deb ta'kidlaydi muallif, – bolalarini o'z maktablarida milliy va diniy tarbiya berganlari so'ngida ularni rus maktablariga, gimnaziya va tijorat maktablariga berub o'qutmak va shul soyasida millatga foydali ziyoli yetushdirmak lozimdur".

Xulosa qilib aytganda, "Sadoyi Turkiston" gazetasi "Milliy tilni asrash – millatni asrash demakdir" degan yuksak g'oyani o'rta taga tashladi. O'zbek adabiy tili eng murakkab tarixiy jarayonda ham til va imlo softligi uchun kurashdi. Keltirilgan manbalarga tayangan holda shunday xulosa qilish mumkin:

1. "Sadoyi Turkiston" gazetasi o'zbek adabiy tili taraqqiyotiga munosib hissa qo'shdi.
2. U tilning sodda va ravonligi bilan o'z davri nashrlari orasida alohida ajralib turdi.
3. Gazeta mustabidlik asoratiga tushgan mahalliy xalqning milliy adabiy tilini saqlab qolishga harakat qildi.
4. "Sadoyi Turkiston" matbuot – millatning tili, umumdarsxonasi degan qat'iy xulosaga keldi.
5. U matbuot nafaqat xabar beruvchi vosita, balki milliy til va imlo masalasida bosh islohotchi, degan ilg'or g'oyani ilgari surdi.

¹"Sadoyi Turkiston" gazetasi. 1914-yil 4-aprel.

²O'sha manba. 1914-yil 13-iyun.

³O'sha manba. 1914-yil 20-iyun.

⁴O'sha manba. 1914-yil 11-may.

⁵O'sha manba. 1914-yil 24-oktabr.

⁶O'sha manba. 1914-yil 4-iyul.

⁷O'sha manba. 1915-yil 23-fevral.

⁸O'sha manba. 1915-yil 20-mart.

Aziza RAXMANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti
ingliz tili o'qituvchisi

PARALLEL MATNLAR KORPUSINING MILLIY TIL XUSUSIYATLARINI YORITISHDAGI AHAMIYATI

Kompyuter lingvistikasi taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy lingvistik omil elektron matnlar korpusi yoki parallel matnlar korpuslaridir. "Korpus so'z, so'z birikmasi, grammatik shakllarni, so'z ma'nosini muayyan qidiruv tizimi orqali topishni anglatuvchi elektron ko'rinishdagi matnlar jamlanmasidir". [1]

Kompyuter lingvistikasida "korpus" tushunchasi "matnlar korpusi" termini keng qo'llaniladi. "Matnlar korpusi – elektron holda saqlanadigan ma'lum til birliklari bo'lib, ular tilshunoslar uchun turli muammolarni hal etish maqsadida va turli yo'nalishdagi tadqiqotlar uchun zaruratga qarab turli shakllarda tuziladi. Bular fonema, grafema, morfemalardan tortib undan katta-roq birliklar – leksema, gap va matnlar (badiiy yoki ilmiy asar, gazeta va jurnal matnlari)dan tashkil topishi mumkin. Ularning qay tarzda saqlanishiga qarab, maxsus dasturlar yordamida har bir kerakli so'z yoki so'z birikasining misollari, imlo bo'yicha variantlari, sinonimik qatorlari topilishi mumkin. Matnlar korpusiga oid ilmiy tadqiqotlar salmog'ining ko'payishi natijasida tilshunoslikda korpus lingvistikasi yo'nalishi shakllandi". [2]

Tadqiqotlarda korpus kompyuter lingvistikasidan alohida yo'nalish sifatida qaralmoqda. Biz korpus, korpus yaratish muammolarining maqsadi, vazifalarini nazarda tutib, uni kompyuter lingvistikasi yo'nalishi sifatida talqin qiluvchi qarashlarni quvvatlaymiz. Kompyuter lingvistikasi tabiiy tilni qayta ishlash, til masalalarini kompyuter tizimi orqali hal qilish, til o'rgatish, matnni tahrir qilish, tarjima qilish muammolari bilan shug'ullanar ekan, korpuslar ham bevosita til birliklari, til boyligini aks ettiradigan katta hajmdagi butunlik, lingvistik tadqiqotlar uchun ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Shu bois korpusni kompyuter lingvistikasi yo'nalishi sifatida, korpus lingvistikasini esa korpus turlari, korpus yaratish tamoyillari, kompyuter usullari, muammolari bilan shug'ullanuvchi alohida soha sifatida talqin qilish o'rinli bo'ladi.

Korpuslarning bir qator turlari bor: bir muallif korpusi, bir kitob korpusi, milliy korpus. Milliy korpus til taraqqiyotining ma'lum bir davridagi janrlar, uslublar, hududiy va sotsial variantlar – barcha jihatlarni qamragan holda namoyon etishdir. Rus tilining milliy korpusi Internet tizimida 2003-yildan beri amal qilib kelmoqda va hozirgi vaqtda 140 million so'z qo'llanishiga ega bo'lgan har xil ruscha matnlarni o'z ichiga olgan. Istiqbolda rus tilining milliy korpusi 200 million so'z qo'llanishini o'z ichiga olgan matnlardan iborat bo'lishi ko'zda tutilgan. [1]

Korpuslar adabiy til va jonli muloqot nutqining asosiy jihatlarni qamrab olar ekan, so'zlarning tarixiylikiga ko'ra turlari: arxaizm, istorizm, neologizm; so'zlarning qo'llanish doirasiga ko'ra ko'rinishlari: dialektal so'zlar,

terminlar, argo va jargonlar, nutq uslubi xususiyatlarini ham ajratib olish imkonini beradi. Korpuslar lug'at fondini aks ettiruvchi manba bo'lishi bilan bir qatorda nutq jarayonigacha bo'lgan leksik birliklar, leksemalar, grammatik shakllar, grammatik vositalar haqida ham axborot beradi.

"Korpusning boshqa vazifasi leksika, grammatika, aksentologiya, til tarixi sohalarining barcha imkoniyatlarini namoyon qilishdir. Avvallari mutaxassislar matnni qarab chiqib, undan zarur misollarni qo'lda ko'chirib yozar edi: bu faoliyat ko'p mehnatni talab qilar va katta hajmdagi materialni ishlashga imkon bermas edi. Endi esa o'rganilayotgan material hajmi va axborot qidirish tezligi cheklanmaydi, bu esa olim yoki o'qituvchining har xil tipdagi matnlar ko'lami bilan ishlashiga imkon beradi. Korpus foydalanuvchilari cheklanmagan. Muayyan davr yoki yozuvchi uslubi haqidagi ishonchli statistik ma'lumotlar adabiyotshunoslarni, tarixchi va boshqa gumanitar soha vakillarini qiziqtiradi". [1]

Korpusning bir necha jihatlari mavjud bo'lib, ularning xususiyati ma'lum bir tilning muammolarini to'liq qamrab oladi.

Milliy korpus shu millat tilida yaratilgan korpuslarning barcha turini o'zida jamlaydi. Natijada muayyan tilda shu tilning barcha imkoniyatlarini o'zida aks ettirgan ma'lumotlar bazasi shakllanadi. Milliy korpusni shakllantiruvchi har bir korpus o'zining xususiyatlariga ko'ra ahamiyatlidir.

Korpus lingvistikasida parallel matnlar korpusi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Parallel matnlar korpusi badiiy asar, qo'llanma, ommaviy axborot vositalari, turli xil hujjatlarining ikki yoki undan ko'p tillardagi elektron ko'rinishlaridir. Parallel korpuslar yordamida bir so'z, jumla, xatboshi, supersintaktik butunliklarning turli tillardagi variantlarini bilish mumkin. Parallel korpuslar madaniyatlararo muloqot keng yoyilgan hozirgi davr uchun muhim voqelik hisoblanadi. Parallel korpuslar orqali turli til muhitidagi, madaniyatlardagi universalialar hamda tillarning o'ziga xos mental xususiyatlari, realiya va lakunar birliklarni ham aniqlash mumkin bo'ladi. Parallel matnlar korpusi avtomatik tarjima rivoji uchun ham xizmat qiladi, kompyuter leksikografiyasining taraqqiyotini ta'minlaydi. Parallel matnlar korpusi yordamida maxsus dasturlar ishlab chiqiladi va turli xil ixtisoslik lug'atlari tuzish imkoniyati yuzaga keladi.

Badiiy asar bo'yicha parallel matnlar korpusi, avvalo, ikki yoki bir necha tillar grammatikasidagi o'xshash va farqli jihatlarni tahlil qilish imkonini beradi. Parallel matnlar korpusi har ikki tildagi badiiy uslub xususiyatlarini qiyoslashda ahamiyatlidir. Badiiy uslubda tasvir

vositalari, ko'chimlar, obrazli ifodalar har bir til an'anasi-ga mos ravishda aks etadi. Masalan, "mushk" (qora rangli xushbo'y modda)ning qoshga, sochga, "lola", "yoqut"ning labga, egik qo'matning "yoy" yoki "kamon"-ga nisbat berilishi, tuya, karvon, rabot, ot, it kabilar-ning badiiy timsollar sifatida ishlatilishi o'zbek mumtoz matnlariga xos tasvir uslubini namoyon etadi. Muallif nutqida tillarning grammatik xususiyatlari o'z ifodasini topsa, qahramonlar nutqida adabiy til va sheva so'zla-rining uyg'un ravishda qo'llanilishi obrazli tasvir mahora-tini yoritishga xizmat qiladi. Badiiy matnlar asosidagi korpus muayyan tillarga xos birliklar – realiya birliklarni ham o'z ichiga oladi.

Parallel matnlar korpusi realiya birliklar tarjimasida-gi tamoyillarni ham aniqlashga imkon beradi. Realiya birliklarning kalkalash, semantik kalkalash, ekvivalent so'zni tanlash kabi usullardagi tarjimasida borasida ma'lumotlar olish mumkin bo'ladi. Badiiy asarlar asosida-gi parallel matnlar korpusida frazemalar bilan bog'liq muammolar bo'lishi aniq. O'zbek tilidagi frazemalar ikki yoki undan ortiq so'zdan tuzilib, shu so'zlar semantika-si asosida yangi ko'chma lug'aviy ma'noni shakllanti-rishga xizmat qiladi. Shu bois parallel matnlar korpusini

shakllantirishda to'g'ridan to'g'ri mashina tarjimasidan foydalanilsa, semantikani to'g'ri yoritishda muammolar kelib chiqadi. Frazemalar tarjimasida, albatta, mutaxas-sis nazorati kerak bo'ladi.

Qo'llanma, o'quv adabiyotlari matni bo'yicha tuzilgan korpuslar ilmiy uslub xususiyatlarini yoritish, muayyan soha bo'yicha nazariy ma'lumot berishga mo'ljallangan. Ommaviy axborot vositalari doirasida tuzilgan parallel matnlar korpusi ommaviy nashrlarning turi, mazmu-ni haqida to'liq ma'lumot beradi; matbuot nashrlarida yoritilayotgan masalalar mazmunini o'zlashtirishga yor-dam beradi. Parallel matnlar korpusiga televideniye va radiomatnlarining og'zaki varianti (audiomatnlar)ni joy-lashtirish ma'lumotlar bazasining illyustrativligini oshiradi.

Rasmiy ish yuritish hujjatlariga oid parallel matn-lar turli tillardagi rasmiy ish yuritish uslubi, me'yori-y-huquqiy hujjatlar qolipini aniqlashga yordam beradi.

Parallel matnlar korpusidan til ta'limi, til o'qitish tizimida lingvistik ma'lumotlar bazasi sifatida foydala-nish mumkin. Badiiy asarlar mazmunini o'zlashtirish, konseptual tahlil qilish, matn lingvistikasi asoslari, tur-li tillarga xos matn xususiyatlarini o'rganishda parallel matnlar korpusining ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <http://ruscorpora.ru>; <http://ruscorpora.ru>.
2. Баранов А.Н. Введение в прикладную лингвистику. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. – С. 61.

Visola TASHPULATOVA,

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

BADIIY ASARLARDA ANTROPONIMLAR TARJIMASI

Tilshunoslikda *antroponim* tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Antroponim bu – shaxsga berilgan shaxsiy ism (turdosh ot), uning otasining ismi (patronim), oilasining ismi (familiya), uning ijtimoiy holatidan kelib chiqqan taxallusi yoki laqabi, uni muayyan bir guruhdan ajratib olish uchun ishlatiladigan rasmiy hamda norasmiy nomlanishidir. Har bir millat barcha davrlarda o'zining antroponimikoni, ya'ni shaxsiy ismlar reyestriga ega bo'lgan. Antroponimlar majmuasi antroponimiya deb ataladi. Aynan bu shaxslarni individuallashtirib, bir-biridan ajratib olishga yordam beradi. Ammo ismlar reyestri cheklangan bo'lib, ular takrorlanib keladi, bu esa ismga qo'shimcha ism qo'shishni taqozo etadi.

Tarjimonlar xorijiy adabiyotlarni tarjima qilish jarayonida, ko'pincha, antroponimlarda muammoga duch keladilar. Asar qahramoni ismi yoki familiyasida yashiringan ma'no, mazmun original tilga maksimal darajada yaqin hamda jarangdor talaffuzga ega bo'lishi kerak.

Antroponimlar muloqot va odamlar o'rtasidagi o'zaro hamfikrligni anglashda muhim ahamiyat kasb

etadi va turdosh so'zlardan farqli o'laroq, ulardan universal foydalanishga moyillik kuzatiladi. Odamning ismi har qanday tilda bir xil talaffuzga ega va to'siqqa uchramaydi, shuning uchun ism va nomlar tarjima jarayonida alohida yondashuvni talab etmaydi, degan tushuncha mutlaqo noto'g'ri. Dastlabki lisoniy muhitda antroponimlar murakkab semantik tuzilish, shakl va etimologiyaning o'ziga xos xususiyatlariga, so'zlarni shakllantirish va o'zgartirish qobiliyatiga, tilning boshqa birliklar va toifalari bilan ko'p sonli munosabatlarga ega. Ismlarni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida bu xususiyatlarning aksariyati yo'qoladi.¹

Atoqli otlarni o'rganishga bo'lgan alohida qiziqish bizni Joan Rouling asarlari tarjimasida bilan yaqindan tanishishga undadi. Atoqli otlarga boy Rouling asarlari tarjimasida tarjimonlarning atoqli otlarni tarjima qilish borasidagi qarashlari xilma-xil. Bu ushbu toifadagi antroponimlarni tarjima qilishning ko'p jihatlari hali ham to'liq o'rganilmaganligi, tarjima jarayonida ularning asl ma'nosi o'zgarib ketishi va, shubhasiz, tarjima sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatishi bilan bog'liq.

S.I.Zinin, O.I.Fonyakova, A.V.Fedorov kabi ko'plab olimlar tomonidan atoqli otlar tarjimasini masalasi atroflicha o'rganib chiqilgan bo'lsa-da, badiiy asarlardagi shaxsiy ismlar va realiyalarni turli tillarga tarjima qilish borasidagi muammolar hanuzgacha o'z yechimini to'liq topmasdan qolmoqda.²

Tabiiyki, har bir yozuvchi ism tanlashda ekspressiv ohangni ifodalovchi fonemika, morfemikaga e'tibor qaratadi. Badiiy adabiyotda mohirlik bilan tanlangan ism nafaqat asar qahramoni, balki u asardagi voqelikning yorqin ifodalangan mazmuni, yashiringan muhit, milliy, mahalliy va ijtimoiy xususiyat, tarixiy davrni ifodalab kelishi mumkin. Matndagi atoqli otlarning funksiyasi o'ziga xos xususiyatlarga ega, shuning uchun ism va nomlar badiiy asar shakllarining ajralmas elementi, yozuvchi uslubining tarkibiy qismi, badiiy tasvirni yaratuvchi vositalardan biri sanaladi. Ular fonida g'ayrioddiy tovush jarangi, yashirin, ko'chma va aniq ifodalangan ma'no yetkazilishi namoyon bo'ladi. Atoqli otlar uslub jihatidan to'g'ri va aniq bo'lishi, o'zida madaniy uyg'unlikni ifoda etishi, ba'zan o'ziga xos maxsus ma'noni ham anglatishi talab etiladi.

Roulingning Garri Potter seriyasidagi asarlari personajlar turli nomlar bilan, ba'zan ismlari bir nechta variantda keltirilgan. Masalan:

1. Voldemort (Volan-de-Mort/Voldemort).

2. You-Know-Who (Siz-Bilasiz-Kim)

Asarda so'z birikmalari kategoriyalarini ham ko'rish mumkin:

1) bir hadli so'z birliklari (Nott/Not, Moon/Mun);

2) familiya, ism va taxallus tuzilmalari bilan ifodalangan ikki hadli model mavjud bo'lib, ular orasida

an'anaviy ismlar+familiyalar konstruksiyalari ustunlik qiladi (Bill Weasley / Bill Weasley, Persi Weasley / Pery Weasley);

3) ism+taxallus uch hadli model (SIR NICHOLAS DE MIMSY-PORPINGTON/ser Nikolas de Mimsi-Porpington/janob Nikolas de Myumzi-Porpington/ser Nikolas de Mimsi-Porpinon), Nearly Headless Nick (Deyarli Boshsiz Nik). Qahramonga taxallus muvaffaqiyatsiz qatl ijrosi natijasida berilgan.³

Yuqorida aytib o'tilganidek, Rouling asarlari qahramonlarining ismlarida, asosan, ularning kasbi, faoliyati, ijtimoiy mavqeyi va ularning xarakteri aks etgan. Masalan: Argus Filch/Argus Filch – Xogvarts qo'riqchisi. Dadli Dursli/Dadli Dursli – “dud”, ya'ni “a boring person” zerikarli odam degan ma'noni anglatadi; Drako Malfoy/Drako Malfoy (fransuz tilida “Mal foi” = yomon niyat, ya'ni yomon imon degani; The Sorting Hat/Tartiblash shlapasi, shlapa boshga kiyilgan paytda insonning fikri, idrokini o'qiy oladi va shu bilan Hogwart/Xogvars, Xogvarts fakultetlariga mos keluvchi talabalarni ajratib beradi. Bu yerda “sorting” so'zi shlapaning maqsadini anglatadi: “to sort” fe'li “ajratish”, “tarqatish” ma'nolarini bildiradi.⁴

Xullas, Rouling asarlari janr xususiyatlari, muallif uslubining o'ziga xosligi va antroponimlarning qiyosiy tahlili nafaqat tarjima usullari nuqtayi nazaridan, balki forenizatsiya asosida tarjima tadqiqotlarining global strategiyasini ishlab chiqish, ona tilining lingvistik nomlari, chet tilning lingvistik va madaniy me'yorlari yaqinlashish usuli nuqtayi nazaridan ham ko'rib chiqilishi zarurligi to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

¹Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – Москва, 1988. – С. 72.

²Влахов С.Н., Флорин С.В. Непереводимое в переводе. – Москва, 1986. – С. 42.

³Rowling J.K. Harry Potter and the Philosopher's Stone. – London: Bloomsbury, 2001. – P. 46.

⁴Rowling J.K. Harry Potter

⁴Галинская И.Л. Добро и зло в романах Джоан Роулинг о Гарри Поттере // Исторические и литературные источники романов о Гарри Поттере, 2011. – С. 54.

Dildora TASHMUXAMEDOVA,

Toshkent davlat sharqshunoslik instituti 3-bosqich talabasi

XITOIY TILIDA UNDOV SO'ZLARINING TURKUMLANISHI

Har bir tilda insonning gapga munosabatini bildiruvchi tovushlarning yozuvdagi aksi borki, ular o'zbek tilida undov so'zlar deb ataladi. Undov so'zlar insonning turli kayfiyat, vaziyat va holatga munosabatini aks ettiradi. Til o'rganishda grammatika eng muhim vositalardan biri hisoblanadi, lekin har bir tilning o'ziga xos grammatik tuzilishi, turli yondashuvlar asosida tasniflanishi mavjud. Xitoy tili nisbatan murakkab tillar oilasiga kirgani bois so'z turkumlari, xususan, his-hayajonni ifodalovchi so'zlarning turkumlanishi olimlar tomonidan turlicha tavsiflangan. XX asr o'rtalarida yashagan xitoy tilshunosi olimi Li Jinxi va Wang Li izlanishlari natijasida yuzaga kelgan nazariyalar orasida ba'zi farqlar mavjudki, quyida ularning o'xshash va farqli jihatlarini ko'rib chiqamiz.

So'zni turkumlarga ajratib o'rganish ularning xususiyatlarini yaxshi anglash, vazifalarini aniq belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Li Jinxi o'zining 新著国语法 “xīnzhe guóyǔ wénfǎ” asarida so'z turkumlarini ma'lum bir so'zning tabiatini ko'rsatib beruvchi sinf sifatida tavsiflaydi. Tilshunos his-hayajonni ifodalovchi so'zlarni ham 9 kichik so'z turkumlari guruhiga kiritadi, lekin umumiy olib qaraganda, his-hayajon so'zlar ham beshta katta turkumning biri bo'lgan emotional so'zlarning bir qismi sifatida talqin etiladi. Li Jinxi grammatik qarashlariga ko'ra, inson ongiga singa oladigan, ko'z oldida gavdalanadigan tushunchalar uch jihatiga ko'ra 5 ta katta guruhga bo'linadi, ularning har birini soddalashtirganda esa 9 ta so'z turkumi hosil bo'ladi.¹

Birinchi guruh **实体词** *shǐtǐ cí* (mustaqil soʻz turkumi) boʻlib, moddiy olamdagi mavjud soʻzlarni jamlaydi. Bu katta guruhga olim ot (名词 *míngcí*) va olmosh (代词 *dàicí*) soʻz turkumlarini kiritadi. Ikkinchi guruh **述说词** *shùshuō cí* (tavsiflovchi tushunchalar) boʻlib, unga turli harakatni bildiruvchi soʻzlar kiritiladi va bu aynan feʼl (动词 *dòngcí*) turkumidir. Uchinchi guruh esa **区别词** *qūbié cí* (farqlarni bildiruvchi tushunchalar) boʻlib, unda, asosan, tushunchaning belgi va xususiyatlari aks etadi. Bu guruhga sifat (形容词 *xíngróngcí*) (narsa-buyum belgisini bildiradi) va ravish (副词 *fùcí*) (harakat belgisini bildiradi) kiradi.

Li Jinxi bir-biriga bogʻlovchi, qoʻshimcha emotsional maʼno beruvchi va faqat grammatik vazifaga xoslangan soʻzlarni ham soʻz turkumlarining kichik guruhi sifatida taʼkidlaydi. Toʻrtinchi guruh **关系词** *guānxì cí* (bogʻlovchi turkum) boʻlib, unga predlog (介词 *jiècí*) va bogʻlovchilar (连词 *liáncí*) kiradi. Beshinchi katta guruh esa **形态词** *xíngtài cí* (soʻzlovchining munosabati, hissiyotlarini anglatuvchi guruh) boʻlib, unga yordamchi soʻzlar (助词 *zhùcí*) va his-hayajonni ifodalovchi soʻzlar (叹词 *tàncí*) kiritiladi.

His-hayajonni anglatuvchi soʻzlarni yordamchi soʻzlar (助词 *zhùcí*) bilan bir qatorda holat turkumi (形态词 *xíngtài cí*) ga kiritadi. Buning sababi esa xitoy tilida 助词 *zhùcí*, yaʼni yordamchi soʻzlar tarkibiga gapning grammatik shakllanishida ahamiyatli soʻzlardan tashqari, gap mazmuniga taʼsir koʻrsatmaydigan, faqatgina uslubiy boʻyoqdorlikni oshirishga xizmat qilib, hech qanday maʼno anglatmaydigan soʻzlar ham qoʻshiladi. Umuman, undov soʻzlar va yordamchi soʻzlar soʻzlovchining holati va gapga munosabatini bildiruvchi **形态词** *xíngtài cí* turkumiga kiradi.

Li Jinxining bunday turkumlashi biroz noaniq boʻlib, yordamchi soʻzlar va his-hayajonni ifodalovchi soʻzlar turkumlanishiga koʻra bir xil nisbatda olingan. Ammo hech qanday maʼno anglatmaydigan, birorta soʻroqqa javob boʻla olmaydigan, gapga faqatgina uslubiy boʻyoqdorlik berib, kuchaytirish maʼnolarini ifodalagan qoʻshimchalar insonning butun vaziyatga nisbatan tuygʻularini oʻzida jamlagan birgina soʻzdan farq qiladi. Buni quyidagi gap orqali yaxshiroq tushunib olish mumkin:

1. 太阳要到什么时候才出来“呢”? Quyosh qachon chiqadi?
2. 唉, 太阳怎么还不出来? Eh, nega quyosh hali ham chiqmadi?

1-gapda 呢 yuklamasi faqatgina qoʻshimcha, u bir insonning quyosh chiqishini kutayotganligini bildirsam ham, hissiyotlari (xursand yoki xafaligi)ni ochib berolmaydi. Gapni uslubiy jihatdan boyitib bergan. 2-gapda 唉 soʻzi orqali soʻzlovchining biroz maʼyus tortgani yaqqol sezilgan. Bundan tashqari his-hayajon soʻzlar barcha tillarda mavjud boʻlgani uchun ham maʼnosiga koʻra turli tillarga tarjima qilinadi, biroq yordamchi qoʻshimchalar deyarli tarjima qilinmaydi.

Li Jinxi his-hayajon soʻzlar taʼrifiga toʻxtalib, nutq vaqti-biror holatga nisbatan soʻzlovchida paydo boʻlgan, vaziyatdan xursand yoki xafalik, hayron boʻlish va qoʻrquv kabi oʻz tuygʻularini aks ettirgan soʻzlar (soʻzlovchidan chiqqan ovoz)ni his-hayajonni bildiruvchi soʻzlar sifatida taʼriflaydi. His-hayajon soʻzlar mustaqil boʻlib, gap yoki gapdagi boshqa soʻzlar bilan aloqaga kirishmaydi, tub mohiyatan hech qanday maʼno anglatmaydi.

Li Jinxi his-hayajonni ifodalovchi soʻzlarni maʼnosiga koʻra quyidagi turlarga boʻladi:

1. Ajablanish va hayrat undovlari.
2. G'am-qayg'u undovlari.
3. Xursandchilik undovlari.
4. G'azab undovlari.
5. Savol-javob undovlari.

Xitoyning yana bir mashhur tilshunos olimi Wang Li soʻzlovchining gapga nisbatan munosabatini bildiruvchi soʻzlarni 呼声 *hūshēng* (tovushni ifodalovchi) deb ataydi va bunga ikkita sabab keltiradi.² Avvalo, biz doimiy ravishda ataydigan his-hayajon soʻzlar faqatgina hayajonni emas, balki qoʻrquv, hayronlik, hatto tan olish, mamnunlik va qoniqish tuygʻularini ham bildiradi. Ingliz tilida undov soʻzlarni bildiruvchi “interjection” soʻzi etimologik tomondan olib qaralganda, “orasida”, “oʻrtasida” degan maʼnoni bildiradi. Lekin xitoy tilida tovushni anglatuvchi soʻzlarning gapga sintaktik bogʻlanmasligini, asosan, gap boshida kelib, gapdan alohida ajratilishini hisobga olsak, “interjection” atamasi ham inson tovushlarini bildiruvchi soʻzlarni toʻliq ochib berolmaydi.

Ikkinchidan, tovushni bildiruvchi soʻzlarning xususiyatlari aslida “soʻz” deb atalishga kamlik qiladi. Bu esa xitoy tilida soʻzlar va ularni tashkil qiluvchi belgilar (iyerogʻlif) bilan bogʻliq. Xitoy tilida undov soʻzlar yozuvda, asosan, bitta belgi (iyerogʻlif), mukammal soʻzlar esa ikki va undan koʻp iyerogʻlifdan iborat boʻladi. Shuning uchun ham xitoy tilida insonga xos hissiyot tovushlari soʻz darajasigacha oʻsib chiqmaydi. Bundan tashqari soʻzlar aniq maʼnoga ega boʻlib, gapda biror sintaktik vazifa bajaradi va gap boʻlagi boʻlib keladi yoki gap boʻlaklarini bogʻlashga xizmat qiladi. Wang Li nazarda tutgan undov soʻzlar esa hech qachon gapga bogʻlanmaydi va vazifa bajar olmaydi. Wang Li aytgan his-hayajonni ifodalovchi tovushlar faqatgina qoʻshimcha emotsional maʼno berishga xoslangan.

Tilshunos hissiyot tovushlarining oddiy soʻzlardan farqini fransuz olimi Ferdinand Brunot³ fikrlariga tayanib asoslaydi. Brunot fikricha, inson oʻz munosabatini xuddi hayvonlardek tovushlarda (*ah, eh, oh, hm* kabi) aks ettira oladi, lekin bu faqatgina hissiyotlari aksi boʻlib hisoblanadi. Ammo baʼzi soʻzlar oʻz vazifasidan chekinib, undov soʻz vazifasiga oʻtadi (xitoy tilidagi 好 *Hǎo* kabi). Bu esa oddiy soʻz va tovush oʻrtasidagi farqlarni aniq ochib beradi.

Wang Li soʻz turkumlarini ikki katta guruhga boʻladi. Biri **实词** *shící* (moddiy soʻzlar) va 半 *bàn* *dàngni* oʻz ichiga olgan **理解成分** *lǐjiě chéngfèn* (mustaqil soʻzlar), 半 **虚词** *bàn xūcí* (yarim yordamchi soʻzlar) va **虚词** *xūcí* (yordamchi soʻzlar)ni oʻz ichiga olgan **语法成分** *yǔfǎ chéngfèn* (grammatik vazifa bajaruvchi soʻzlar)dir. Undov soʻzlarni 呼声 *hūshēng* nomi bilan yordamchi soʻzlar tarkibiga kiritadi va ularning oʻzini ham ikki turga ajratadi: **情绪的呼声** *qíngxù de hūshēng* (kayfiyatni ifodalovchi undovlar) va **意义的呼声** *yìyì de hūshēng* (maʼnoga ega his-hayajonni ifodalovchi soʻzlar).

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, xitoy tilida his-hayajonni ifodalovchi soʻzlar soʻzlovchining vaziyat va holatga munosabatini ifodalaydi. His-hayajonni ifodalovchi soʻzlar ham maʼno anglatib, oʻz ichida maʼnolariga koʻra turlarga ajratilishi ularning alohida soʻz turkumi boʻla olishi uchun yetarli asosga ega.

¹新著国语文法 *Xīnzhē guóyǔ wénfǎ* 黎锦熙 *Lǐjīn xī*. - 湖南教育出版社 *húnán jiàoyù chūbǎn shè*, 2007, 17 - 18.

²中国语法理论 *Zhōngguó yǔfǎ lǐlùn* (第一卷) *yī juǎn* 王力文集 *Wáng lì Wénjí* di. - 山东教育出版社出版 *shāndōng jiàoyù chūbǎn shè chūbǎn*, 1984年, 424-432.

³La pensée et la langue: méthode, principes et plan d'une théorie nouvelle du langage appliquée au français. Ferdinand Brunot, Troisième édition revue Masson et cie, Éditeurs 120, Boulevard Saint-germain, Paris-vie.1936, 3. 1040



Dilnoza QURBONOVA,
Jizzax politexnika instituti assistenti,
Qori Niyoziy nomidagi ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

O'QUVCHILARDA MADANIYATLARARO BAG'RIKENGLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Jamiyat turli ijtimoiy qatlamlar, etnik, madaniy, lisoniy, konfessional guruhlardan iborat bo'lgan hozirgi davrda bag'rikenglik o'zaro muloqotning hurmat va eng yuksak insoniy qadriyatlarga asoslanishini, jamiyatda totuvlik va hamjihatlik, barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi¹.

Yoshlar ongiga bag'rikenglik g'oyalari singdirishda ta'lim tizimi alohida ahamiyatga ega. Sababi inson farzandlari aynan ta'lim muassasalarida to'plangan ijtimoiy tajriba va qadriyatlarni ilmiy asosda va tizimli tarzda o'zlashtirib boradi. Qolaversa, ta'lim tizimi bosqichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tufayli tarbiya jarayonida tadrjijylik ta'minlanadi. Shuning uchun ham xalqaro hujjatlarda masalaning bu jihatiga doimo alohida e'tibor beriladi. Xususan, "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"da tarbiya muhosasizlikning oldini oladigan eng samarali vositalardan biri ekani, "Ta'lim sohasidagi siyosat va dasturlar alohida odamlar, etnik, ijtimoiy, madaniy, diniy va til jihatidan alohida guruhlar, shuningdek, millatlar o'rtasida tushunishni yaxshilash, o'zaro hamjihatlikni va bag'rikenglikni mustahkamlashga yordam berishi lozim"ligi qayd etib o'tilgan².

Ma'lumki, tarbiya o'sib kelayotgan yosh avlodda bag'rikenglik madaniyatini shakllantirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi, o'z navbatida, tarbiya oila instituti bilan uzviy aloqador bo'lgan ma'naviy-axloqiy hodisadir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, tarbiya ijtimoiy bag'rikenglik madaniyatini kamol toptirishning asosiy shartlaridan biri sifatida insonni hayotga tayyorlash maqsadidan kelib chiqadigan uni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan maqsadga muvofiq xatti-harakat va chora-tadbirlar tizimini anglatadi.³

Shuni aytish joizki, ta'limning amaldagi mazmunida tolerantlik tushunchasini o'quvchi ongiga singdirib borishga yetarlicha e'tibor berilmagan. O'quvchining hayotiy nuqtayi nazarini axloqiy me'yorlar doirasida shakllantirish alohida ijtimoiy pedagogik ahamiyat kasb etadi. O'quvchi yoshlarni tarbiyalashda tolerantlikni rivojlantirish har bir pedagogning asosiy maqsadiga aylanishi lozim. Chunki jamiyatda insonlar orasidagi anglashilmovchiliklarning aksariyat qismi ularda tolerantlikka oid bilimning yetarli darajada shakllanmaganligi natijasida vujudga kelmoqda. Tolerantlikning yetarlicha tarkib topmaganligi uchun ham odamlar qalbida qo'rquv paydo qilish, ularni vahimaga solish, turli diniy ekstremistik oqimlarga tortish, diniy nizolarni keltirib chiqarish, u yoki bu millatga xos bo'lgan madaniy obidalarni buzish, xalqning faxri, iftixori, g'ururi, milliy boyliklariga daxl qilish holatlari tez-tez uchrab turmoqda.

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borgan kuzatishlarimiz asosida aytish mumkinki, darslarda

tolerantlik tarbiyasi jamiyat talab qilayotgan mantiq asosida amalga oshirilmayapti. Bu esa o'quvchilarning imkoniyatlarini pasaytiradi. Afsuski, o'qituvchilarning o'zlarini ham ba'zi hollarda o'quvchilarga nisbatan beqaror, sabrsizlik bilan munosabatda bo'ladi. Ayniqsa, ko'p millatli o'quvchilar tahsil olayotgan maktablarda o'quvchilararo hamda o'qituvchi va o'quvchilar orasida kamsitishlar, o'zga millat va din madaniyatini pisand qilmaslik hollari ham uchraydi. Ular, ko'p hollarda, bir-birlariga toqat qila olmaydilar. Maktabda beriladigan tolerantlik tarbiyasi, birinchi navbatda, o'quv jarayoni mazmuniga mos ravishda amalga oshirilishi lozim. Pedagoglardan talab qilinadigan esa, o'quvchilarga tolerantlikka oid birlamchi tajribalarni yetkazishdir. Bu harakat, asosan, o'quv-tarbiya jarayonida amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu holat ingliz tili darslarida osonroq kechadi. O'qituvchi o'zga xalq tilini o'quvchilarga o'rgatar ekan, o'sha xalq madaniyati va urf-odatlarini chetlab o'tmaydi. U bu harakati bilan o'quvchilarda madaniyatlararo bag'rikenglik tuyg'usini shakllantiradi.

O'quvchi ongida tolerantlikni shakllantirishda individual ishlar bilan birga guruhli mashg'ulotlardan ham keng foydalanish talab qilinadi. Bu jarayonda o'quvchilar guruhining jamoa sifatidagi fikri shakllanib boradi. Bunda har bir o'quvchi o'z atrofida uni qo'llab-quvvatlovchi yaqinlari borligini his etadi. Biroq butun sinf o'quvchilari bilan majmuaviy tarzda tolerantlik tarbiyasini amalga oshirishning mazmuni va shakllari shu kungacha aniqlanmagan. Atrofmuhitdagilar, tengdoshlar bilan yaqin muloqotda bo'lish natijasida o'quvchi shaxsi rivojlanib boradi. Chunki jamiyat a'zolarining o'zaro muloqoti shaxs rivojlanishiga yordam beruvchi muhim manba sanaladi. Shuningdek, o'quvchi shaxsi uning istiqboldagi rivoji uchun yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qila oladi.

Xulosa qilganda, shaxslararo tolerantlikni shakllantirmasdan turib millatlararo etnik va ijtimoiy qadriyat sifatidagi tolerantlikni ifoda eta olmaymiz. Chunki inson o'zini o'rab turgan kishilar bilan tolerantlik munosabatlari asosida shirinso'z, sabr-toqatli bo'lishi uning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga asos bo'ladi.⁴

Kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan tolerantlik o'zida ko'p o'lchamli, xilma-xil bilim va tafakkur natijalarini aks ettiradi. Olam manzarasi murakkab ko'rinishga ega bo'lib, turli-tuman qarashlardan yagona haqiqatga kelish oson emas.

Bixevioristik yondashuv tolerantlikni insonning "boshqalar" bilan konstruktiv o'zaro harakatiga yo'nalgan xulq-atvori, boshqa insonlarni o'zi bilan teng ko'rish, ularni shaxs sifatida e'tirof etishini tavsiflovchi sifat deb sharhlaydi.

Dialogli yondashuv tolerantlikning muhim turi sifatida boshqa kishilar bilan o'zaro munosabat, shaxslararo o'zaro harakat va muloqotni yo'lga qo'yishning muhim usuli – shaxslararo tolerantlikni taqozo etadi. Aynan tolerantlikning mazkur turida tolerantlik muammosining barcha (uni ham o'rganish, ham o'rgatish va rivojlantirish nuqtayi nazaridan) jihatlari yorqin namoyon bo'ladi.

Fasilitativ yondashuvda tolerantlikni rivojlantirishning adekvat psixologik-pedagogik taktikasini izlash, tolerantlikning tabiiy, refleksiv va individual shakllanishi uchun har bir subyektda shaxsiy, mustaqil va erkin nuqtayi nazarni ishlab chiqish, ko'proq ijobiy shart-sharoitni yaratishga asosiy e'tibor qaratiladi.

Ijtimoiy-madaniy yondashuv tolerantlikni hayotiy faoliyat strategiyasida namoyon bo'luvchi shaxs fazilati sifatida ko'rib chiqishni talab etadi. Aynan mazkur yondashuv shaxsda etnik tolerantlikni shakllantirishda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi⁵.

Mazkur yondashuvlarga asoslangan holda o'quvchilarda tolerant ong va xulq-atvorni shakllantirishga oid qator modellar ishlab chiqilgan bo'lib, ular orasida, asosan, integratsion, institutsional, modulli va fanlararo modellar keng tarqalgan.

Tolerant ong va xulq-atvorni shakllantirishning fanlararo modeli, mazmuni va yo'nalganligidan qat'i nazar, tolerantlik madaniyatini shakllantirishning barcha pedagogik metod va usullarini o'zida birlashtirishni talab etadi. Har bir ta'lim muassasasi o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, laboratoriyalar tashkil etishi va tolerantlik madaniyatini shakllantirish metodikalarini ishlab chiqishi yo'lga qo'yiladi⁶.

G.N.Serikov ta'limotiga ko'ra ta'lim-tarbiya tizimi muhitida tolerantlik uchun makon yaratishda quyidagi omillar bo'lishi talab etiladi: 1) har bir pedagogning tolerantligi; 2) rahbariyatning tolerantligi; 3) pedagogik jamoaning tolerantligi; 4) o'quvchilarning tolerantligi; 5) o'quvchilarning ota-onalari tolerantligi. Bu omillarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyati natijasidagina o'quvchilarda qat'iy tizimning ishlashi kuzatilgan.

G.Tillayevaning ta'riflashicha, "Tolerantlik shaxs shakllanishining asosiy omillaridan bo'lib, u millatlararo totuvlikni ta'minlash, sivilizatsiyalar almashinuvi davrida yuz beradigan ziddiyatli vaziyatlarda jamiyatga munosabat, uning barqarorligini ta'minlashning asosiy omilidir". Chunki, o'quvchi va talabalarda shaxslararo tolerantlikni rivojlantirish natijasida ularning ijtimoiy hayotga munosabati o'zgaradi; ularning modellashtirish, turli projeklarni yaratish,

turli-tuman suhbatlarda muzokara va munozaralarga qatnashish imkoniyati kengayadi.

Tolerantlikni tarbiyalash uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur:

1) boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarga odamlar har-xil bo'lishi, ular bilan yaxshi muomala qilib yashash kerakligini tushuntirish;

2) har bir narsa takrorlanmas, qadri xususiyatlarga egaligi, shuning uchun bunga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerakligini tushuntirish;

3) o'z xalqining madaniyati, hayot tarzini boshqalarnikidan ustun deb hisoblamaslikka o'rgatish.

Yosh avlodga tolerantlikni tarbiyalash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) dunyodagi barcha narsalarning (materiklar, davlatlar, ularda yashovchi xalqlar, hayvonlar, o'simliklar va b.) turlicha ekanligini tushuntirish;

2) millatlarning irqi, dini, hayot-tarzi har xil ekanligini tushuntirish;

3) millatlar bir-biridan farq qilishini tushuntirish;

4) kishilardagi o'zgachalikka bag'rikenglik va sabr bilan munosabatda bo'lish;

5) fuqarolarni o'zaro tinch-totuvlikda yashashga o'rgatish;

6) yoshlarga, mas'uliyatni sezgan holda, javobgarlikni oshirish yo'nalishida tarbiya berish;

7) yosh avlodga vazminlikni kuchaytirish, bag'rikenglik, sabrlik, chidamlilik kabi xususiyatlarni tarbiyalash.⁷

Bag'rikenglik madaniyatining ikkinchi asosiy unsuri muayyan bilimlar zamirida shakllanadigan qadriyatlar, baholar tizimidir. Bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga keladigan qadriyatlar, baholar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Sababi bilimsiz, malakasiz insonlar o'rtasida mehr-oqibat yo'qolib, tushunmovchiliklar yuzaga kelishi juda ko'p kuzatiladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, buyuk ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning "odamlar bilmagan narsalariga dushmanlik ko'zi bilan qaraydilar"⁸, degan fikri chuqur mazmunga ega ekanligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Shunday qilib, bizning ta'lim tizimimiz uchun bugungi kunda tolerantlik tafakkurini shakllantirish bo'yicha zamonaviy, demokratik va fuqarolik jamiyati talablariga javob bera oladigan pedagogik tavsiyalarga ehtiyoj mavjud. Shuningdek, pedagogik jarayonni yangi g'oyalar bilan boyitish va qurollantirish talab etiladi. Oilada yoshlar tolerantlik tafakkurini shakllantirishda ota-ona, maktab, nodavlat tashkilotlarining faolligi va strategik sa'y-harakatlari ta'lim jarayonining samaradorligiga asos bo'lib xizmat qiladi.

¹O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti. Bag'rikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2007.

²Bag'rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi // UNESCO Xalqaro me'yoriy hujjatleri. – Toshkent: Adolat, 2004.

³U.R.Qo'shayev. "Ijtimoiy bag'rikenglikning namoyon bo'lish shakllari va darajalari. The culture of tolerance in a context of globalization: methodology of research, reality and prospect" mavzusidagi 4-Xalqaro ilmiy anjuman to'plami, 13–14-may, 2017-yil.

⁴U.Kudratova. "Ta'lim-tarbiya jarayonida shaxslararo tolerantlikni shakllantirish omillari va unda pedagog-o'qituvchilar faoliyati". library.ziyonet.uz

⁵Кабылбекова З. К изучению современных педагогических условий для развития толерантных качеств личности учащегося // J. Falsafa va huquq. №1. – Toshkent, 2010. 107–108-betlar.

⁶Миротворская И.В. Формирование толерантности у учащихся старших классов общеобразовательных школ в процессе правового образования: Дисс. ... канд.пед.наук. – Чебоксары, 2004. – С. 82–84.

⁷T.X.Akbarov, U.B.Orunboyev. "Ta'lim jarayonida tolerantlikni shakllantirish muammolari" library.ziyonet.uz

⁸Abu Rayhon Beruniy. Tarvihalar. – Toshkent: Meros, 1991.



Дилором ШОДИЕВА,
преподаватель Бухарского государственного медицинского института
имени Абу Али ибн Сины

НАВРУЗ И МАСЛЕНИЦА. НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПРАЗДНИКИ, ТРАДИЦИИ, ОБЫЧАИ И ОБРЯДЫ

(урок русского языка с применением педагогических технологий)

Цели: ознакомить учащихся с национальными праздниками узбекского и русского народов для сопоставления традиций и обычаев, сообщения информации и рассказа на русском языке об особенностях и различиях праздников.

В Узбекистане праздник Навруз связан с новыми надеждами и ожиданиями. Поэтому в этот день принято прощать даже злейшим своим врагам, не ссориться, помогать слабым и нуждающимся. Всё это приманит удачу в дом, – верят люди... Еще одной доброй приметой считается угощение. В этот день хозяйки готовят особые пирожки с зеленью, нишалду – сладкий десерт из яичных белков, взбитых с сахаром и душистыми кореньями трав, пекут слоеную самсу, в котлах дымится ароматный плов ... Стол в этот день ломится от вкусностей.

В Навруз дома не усидишь! Особенно интересны народные гуляния в селах, где устраиваются традиционные состязания купкари, борьба джигитов, конные турниры, а также народные ярмарки, где можно купить всё – от сувениров до национальной выпечки.

Махалля в переводе с узбекского языка означает квартал. Это целая система отношений между жителями одного квартала, улицы или группы многоэтажек, формировавшаяся в Узбекистане в течение многих столетий и существенно повлиявшая на становление и развитие узбекских традиций быта. В некотором роде – это форма общины на меньшей территории.

Навруз в махалле по традиции встречают все вместе. Готовится не только угощение, но и концертная программа, спортивные состязания, в которых принимает участие каждый. Есть среди жителей исполнители народных песен и танцев, молодые поэты, признанные палваны. В махалле привыкли вместе работать и также дружно отдыхать.

Наргуза Мамарасулова,
директор школы № 22 Галляральского района

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TALIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

L LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahririyat manzili: Mirobod tumani Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz / veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Telefon raqamlarimiz:

Bosh muharrir o'rinbosari: (71) 233-03-62
Mas'ul kotib: (71) 233-03-10
Adabiyot o'qitish metodikasi bo'limi:
(71) 233-03-45
Til o'qitish metodikasi bo'limi:
(71) 233-03-67
Chet til o'qitish metodikasi bo'limi:
(71) 233-03-67
Prepodavanie yozika i literatury:
(71) 233-03-67
Hisobxona: (71) 233-03-68

ISSN 2010-5584



INDEKS 872



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

1991-yildan
chiqa boshlagan

2020-yil. 4-son.

ISSN 2010-5584

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz



Dolzarb mavzu

Davlat tilining nufuzi
va mavqeyi: uni tubdan
oshirishda qanday dolzarb
muammo va to'siqlar
mavjud?

3
bet



Dars – muqaddas

Ravishlarning yasalishi

12
bet



Tadqiqotlar

Reduplikatsiyaning
gap kommunikativ
tuzilishidagi o'rni

45
bet



Актуальное слово дня

«Никто не забыт, ничто
не забыто»

49
bet

Ushbu sonda



ZULFIYAXONIM IZDOSHI



XABIBULLAYEVA NOZIMA XAYRULLO QIZI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHENTDO‘TAU UNIVERSITETI
OLII ADABIYOT KURSI 1- BOSQICH MAGISTRANTI

“ADABIYOT – TAQDIRIM”

So‘z ahli, ijod ahli borliqning cheksiz siyrati, millatning vijdoni, xalqning dardini boricha ko‘rsatadigan ko‘zgudir. Buni qalban his qila biladigan yosh ijodkorlarning bo‘y cho‘zayotgani kishini quvontiradi, albatta.

Ana shunday yoshlardan biri Nozima Habibullayeva yaqinda “Zulfiya” nomidagi davlat mukofotini adabiyotning she‘riyat yo‘nalishi bo‘yicha qo‘lga kiritdi. Asli farg‘onalik Nozima yoshligidan adabiyotga o‘zgacha mehr qo‘yib ulg‘aydi. U o‘zi ta‘lim olayotgan dargohda fanlarni a‘lo baholarga o‘zlashtirish bilan birga Vatanga muhabbat, tabiatga mehr tuyg‘ulari aks etgan ijod namunalari bilan “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi, “Yoshlik” jurnali kabi nashrlarda qatnashib, taniqli ustoz-shoirilar e‘tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

2014-yilda O‘zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi tomonidan Muhammad Yusuf tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan “Iste‘dod maktabi” VI yosh ijodkorlar Respublika seminarida faol ishtirok etgan Nozima xuddi shu yili “Yuksak ma‘naviyatli avlod” festivalining Respublika bosqichida, keyinroq Yosh ijodkorlar kengashining “Respublika yosh ijodkorlarining I forumi”da ham muvaffaqiyatli qatnashdi.

O‘tgan yili O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi va “Ijod” jamoat fondi tomonidan “Birinchi kitobim” loyihasi doirasida “Moviy qo‘shiq” nomli kitobi 10 000 nusxada chop etilishi yosh shoirani yanada ilhomlantirdi.

Nozimaning ta‘kidlashicha, Yosh ijodkorlar kengashi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi hamkorligida Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “Samarqand she‘r oqshomlari” xalqaro Turkiy tilli yoshlar anjumanidagi ishtiroki chet ellik tengdoshlari bilan ijod, she‘riyat, adabiyot borasida o‘zaro tajriba almashishiga katta zamin bo‘lgan.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2020-yil. 4-son.

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Maqsudxon YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONOQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)
Nilufar Namozova

Jamoatchilik kengashi:

Muhammadjon ALIYEV
Ergesh ABDUVALITOV
Manzura DADAXO'JAYEVA
Ehson TURDIQULOV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyu MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,

(71) 233-03-10,

(71) 233-03-45,

(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalidan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 20.04.2020-yilda topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84^{1/8}. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Times" gamiturasasi. 10, 11 kegl. "SANO-STANDART" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh. Olmazor tum., Shiroq ko'chasi. Buyurtma № 117/C. Adadi 3900 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

Nusratullo JUMAXO'JA. Davlat tilining nufuzi va mavqeyi: uni tubdan oshirishda qanday dolzarb muammo va to'siqlar mavjud?	3
Umid XODJAMQULOV. "Maktab-laboratoriya": Toshkent viloyati tajribasi	6
Bashorat BAHRIDDINOVA. O'zbek o'quv lug'atchiligi istiqbollari	8
ADABIY TAQVIM	
Dilfuza AVAZOVA. Abdulla Oripov izlagan uzuk	10
DARS MUQADDAS	
Luiza MEYLIYEVA. Ravishlarning yasalishi	12
Gulchehra ORTIQOVA. Eng faol tadbirkor	14
Saida UMAROVA. How to teach young learners in english in primary classes	16
NAVOYDAN NAVOLAR KELUR	
Asror MO'MIN. Qush tili	17
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Nazokat JIYANOVA. Og'zaki va yozma savodxonlikka qanday erishish mumkin?	19
Muazzam DEDAXANOVA. "Ifodalilik va ko'chimlar" nazariyasi umumta'limda	20
TILSHUNOSLK	
Jumanazar ABDULLAYEV. Insoniyatning eng buyuk kashfiyoti nima?	23
TARJIMASHUNOSLIK	
Mohira OTABOYEVA. Bolalar va olimlarni boshda turishga o'rgatgan ertak	24
TAHLIL	
Dilmurod ISLOMOV. Eng qadimgi, eng buyuk va umrboqiy qo'shiq	27
Dilnavoz TOSHNAZAROVA, Anaxon IBRAGIMOVA. "So'z birikmalari" ta'rifi yangicha yondashuv	29
Iroda ERNAZAROVA. Muallif so'z ijodkorligi tushunchasi	31
Oybibu ISKANDAROVA. Chingiz Aytmatov ijodida fojialar talqini	32
Ozoda DADAJONOVA. Muhammad Yusuf she'riyatida maqollar	34
Shoira RAXIMOVA. "Davlatyorbek" dostonining o'zbek versiyasi	35
Sharofat BO'RIBAYEVA, G'ayrat HAFIZOV. Passiv konstruksiyalarining sintaktik klassifikatsiyasi va ularning o'zbek tilida ifodalanishi	36
Nigora URALOVA. Tarixiy haqiqatning badiiy talqini	38
METODIK TAVSIYA	
Shahodat OBIDOVA, Shohista JO'RAYEVA. Ingliz tili darslarida fanlararo bog'liqlikni reallashtirish	40
Nodira GAPPAROVA. Nemis tili mashg'ulotlarida gapirishni o'rgatish tajribasidan	41
TADQIQOTLAR	
Durdona EGAMNAZAROVA. Reduplikatsiyaning gap kommunikativ tuzilishidagi o'rni	43
Azamata URALOV. Kengaygan shakllarning til tizimidagi o'rni	45
QO'SHIMSHA MATERIAL	
Alisher UBAYDULLAYEV. Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarida frazeologizmlarning qo'llanilishi	47
Shahlo ALIMBAYEVA. Xalqning mental xususiyati tilida ham namoyon(mi?)	48
AKTUALNOE SLOVO DNYA	
Klara USMONOVA. «Никто не забыт, ничто не забыто»	49
ИЗ ОПЫТА ПРЕПОДАТЕЛЯ	
Азиза АРИПОВА. Роль информационно-коммуникационных технологий и Интернета в воспитании молодежи	51
Розанна АБДУЛЛАЕВА. Информационно-компьютерные технологии в образовательном процессе	52
ЯЗЫКОЗНАНИЕ	
Барно КАДИРОВА. Лингвокультурологические особенности лексем с семой «образ»	54
Бекенбауэр РЕЙМОВ, Айшолпан НИЯЗОВА. Каракалпакские фразеологизмы, содержащие некротизм, на фоне национальных узоров	56
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ	
Рубен НАЗАРЬЯН. Сюжетно-повествовательные различия в стихах и прозе русских классиков	58
Тарана ГАШИМОВА. Творческие взаимосвязи и параллели: Чингиз Айтматов и Бахтияр Вагабзаде	59
Улугмурод АМОНОВ. Новые грани творческого наследия Элбека	62
Людмила КОРОТЬКО. Человек и мир в трех песнях Булата Окуджавы	63
Зухриддин НУРИДИНОВ. Трагедия человека абсурда в творчестве Альбера Камю	66
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ	
Светлана ИМ. Значимость морфонологических явлений во внутрикатегориальном словообразовании	68
ПРОБЛЕМЫ ПОИСКОВ РЕШЕНИЯ	
Лола АКРАМОВА. Современный подход к преподаванию русского языка как иностранного	71
СВЕТ НЕГАСНУЩИХ ИМЕН	
Анатолий ЛИХОДЗИЕВСКИЙ. «Логика и ясность, вот что создает прекрасный стиль»	73
ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ	
Шавкат НИШАНОВ. Творческое самовыражение – основа педагогики	76
Феруза ТАШПУЛATOVA. Анкетирование как метод педагогического исследования	76
Дилфуза АБДУЛЛАЕВА. Преподавание и изучение иностранных языков	78
ВНЕКЛАССНОЕ МЕРОПРИЯТИЕ	
Лейла ТАГИЕВА. Творческий вечер, посвященный узбекскому писателю Абдулле Кадыри	79

J Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK




Millatimiz aslini
aks ettiruvchi


Til bayrami

muborak bo'lsin!

Prezident Sh.Mirziyoyev 10-aprel kuni "O'zbek tili bayrami kunini belgilash to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Unga ko'ra 21-oktabr O'zbek tili bayrami kuni etib belgilandi.



O'zbekistonda koronavirus infeksiyasi tarqalishining oldini olish va ta'lim muassasalarida sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash maqsadida barcha oliy ta'lim muassasalari talabarlari, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari hamda maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun 2020-yilning 16-mart kundan e'tiboran qo'shimcha ta'lim e'lon qilindi. Karantin davrida ular tashkil etilayotgan masofaviy ta'lim orqali tahsil oladilar



Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani xitoy tiliga tarjima qilinib, 2000 nusxada Xitoyda chop etildi.



Hind adabiyoti, madaniyati va kinofilmlarini o'zbek muxlislariga mohirona yetkazib bergan hindshunos ijodkor, tarjimon Amir Fayzullo Hindistonning "Dr.Jorj Grirson" xalqaro mukofotiga sazovor bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri Sh.Shermatov O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasida videodarslarni suratga olishda ishtirok etgan pedagoglar bilan uchrashdi. Uchrashuvda fidokorona mehnat qilayotgan va o'quvchilarga har qanday sharoitda bilim berishga tayyor bo'lgan o'qituvchilarga minnatdorchilik bildirilib, yaxshi natijalar ko'rsatgan 60 nafarga yaqin soha vakillariga "Xalq ta'limi a'lochisi", "Xalq ta'limi fidoyisi" ko'krak nishonlari hamda faxriy yorliqlar topshirildi.

Muxlisa DO'STMUHAMEDOVA tayyorladi.




Nusratullo JUMAXO'JA,

Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrası professori,
filologiya fanlari doktori

DAVLAT TILINING NUFUZI VA MAVQEYI:

uni tubdan oshirishda qanday dolzarb muammo va to'siqlar mavjud?



ONA TILIMIZGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILISHI MUSTAQILLIKNING ILK G'ALABASI SIFATIDA QO'LGA KIRITILGANDI. ZERO, MILLIY TILINING YUKSAK MAQOMGA ERISHISHI XALQNING ERKI, HUQUQI VA, ALBATTA, DAVLAT MUSTAQILLIGI UCHUN KURASH TARIXDA TUG' RAMZI SIFATIDA MUHURLANADI.

oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ayni muddao bo'ldi. **Mazkur Farmon davlat tili qismatiga najot, yangi hayot bag'ishladi. "Davlat tili haqida"gi Qonun amaliyotini tubdan yangilash va to'g'ri izga solishga asos yaratdi.** Ayniqsa, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklan-

2004-yili "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinganiga 15 yil to'lishi munosabati bilan tahliliy, sarhisob maqolalar (*qarang: "Tilga e'tibor – elga e'tibor", "Xalq so'zi", 2004-yil 5-avgust; "Fikr quyushqoni yoxud o'lik nutq – fikriy bo'shliq saltanati", "Fidokor", 2004-yil 21-oktabr; "Istiqloq tildan boshlangan", "Fidokor", 2004-yil 26-oktabr*) e'lon qildik va ularda davlat tiliga e'tibor pasayib ketayotganligi, "Davlat tili haqida"gi Qonunni amalga oshirishda sustkashlik yuz berayotganligiga jamoatchilik e'tiborini tortishga harakat qildik.

Qonun amaliyotini kuchaytirishda yordami tegar, degan ilinjda uning 1989-yil 21-oktabrda qabul qilingan ilk matni hamda ularga tegishli barcha hujjatlarni bir muqovaga jamlab, o'quv qo'llanma – majmua yaratib, 2 marta nashr ettirdik (*"Ona tili – davlat tili", "Davlat va millat ramzlari" seriyasi. – Toshkent: "Adolat", 2004; "Davlat tili haqida". – Toshkent: "Fan", 2008*). Qonunlarimiz tilini ilmiy-tanqidiy nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etib, "Qonun tili mezonlari" nomli risola chop ettirdik (*"Qonun tili mezonlari". – Toshkent: "Muharrir" nashriyoti, 2010*). Lekin ko'targan muammolarimiz, qo'yg'an savollarimiz uzoq muddat muallaq qoldi. Davlat tili amaliyoti hayotda qonunda belgilangan maqomdan o'zgacharoq kechdi. Nazarimizda, qonunchilik asoslari mustahkamligi, uning hayotiy amaliyoti muammolariga yanada jiddiyroq e'tibor lozim ko'rinardi.

Nihoyat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan

gan soni 9 ta shtat birligidan iborat **Davlat tilini rivojlantirish departamenti** tashkil etilishi" haqidagi modda juda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Bu "Davlat tili haqida"gi Qonun ijrosiga doir eng zarur va ko'pdan beri kutilayotgan **amaliy mexanizm**dir.

Endi Qonun ijrosining qanday tus olishi ko'p jihatdan ana shu **mexanizmning sifatli tashkil topishi va ishlashiga** bog'liq bo'ladi. Ishning taqdirini mazkur Departamentga qanday kadrlar tanlanishi hal etadi. Munosib kadrlar tanlangandagina ishda kutilgan siljish bo'ladi, aks holda har qanday oliy mexanizm ham natija berishi qiyin. Biz bir ona tili jonkuyari sifatida Departament muvaffaqiyatli tashkil topishi va mahsuldor faoliyat ko'rsatishidan umidvormiz.

Nazarimizda, "Davlat tilini rivojlantirish departamenti"da ona tili va adabiyot mutaxassisi hamda davlat tilining haqiqiy jonkuyarlari faoliyat yuritishi lozim. Albatta, bunday mutaxassisni topish oson emas. Lekin maqsadga erishish uchun, albatta, uni topish shart. Zero, davlat tilining mamlakat miqyosidagi muammolarini muvofiqlashtirish, mutaxassislarining boshini qovush-tirish uchun, tabiiyki, soha mutaxassisi layoqati (kompetentligi)ga ega bo'lishi zarur. Bu ahvolda Prezident talabidagi natijaga erishib bo'lmaydi.

Men Davlat tilini rivojlantirish departamenti rahbari tashkilotchiligidagi tuzilgan Davlat tilini rivojlantirish Konsepsiyasining so'nggi nusxasi bilan tanishib chiqdim. Rasmana Konsepsiya yaratilgan. Konsepsiya bormi – bor. Lekin, mening nazarimda, u amalda bajari-ladigan uslubda yaratilmagan. Ba'zi qonun matnlariga

o'xshab rasmiy, tumtaroq, yirik jumlar bilan tuzilgan. Ijrosi ta'minlanmaydigan, qog'ozda qolib ketadigan uslubda yozilgan.

2020-yil mart oyida Xalqaro press-klubda bo'lib o'tgan, davlat tili muammolariga bag'ishlangan mu-nozaralarda Davlat tilini rivojlantirish departamentining rahbari: "Davlat tili haqida"gi Qonunning qayta ishlangan yangi matni tuzildi va Oliy Majlis muhokamasiga taqdim etildi", – dedi. Zotan, bu ham Prezident Farmonidagi talablardan biridir. Lekin ochig'ini aytish joizki, mamlakat va millat istiqboli va keyingi taqdiriga daxldor bunday Qonunning qayta ishlangan yangi matni bunchalar tez yaratilganiga hayron qoldik. U qaysi mutaxassislar bilan birga qayta ishlandi, qanday o'zgartish va tuzatishlar kiritilgan ekan? Qolaversa, shunday dolzarb **Qonunning yangi matni xalq muhokamasiga qo'yilmaydimi?**

Axir, 1989-yilda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonun loyihasi bir emas, ikki marta umumxalq muhokamasiga qo'yilgan edi-ku? Radio, televideniye, tashkilotlarda, ochiq maydonlardagi keng xalq ommasi orasida jonli muhokamalar bo'lib o'tgan edi. Yodimda, muhokama jarayonlarida Davlat tili komissiyasiga 800 000 dan ortiq taklif-mulohazalar tushgan va ular Qonun matnini takomillashtirishda inobatga olingandi.

Nega biz 30 yil oldingi darajada uyg'oq va demokrat emasmiz? Bu borada bizning takliflarimiz shundan iboratki, "Davlat tili haqida"gi **Qonunning qayta ishlangan yangi matnini umumxalq muhokamasidan o'tkazib, undan keyin Oliy Majlisda muhokama qilib tasdiqlash kerak.**

Prezident farmonida Davlat tilini rivojlantirish departamenti huzurida Atamashunoslik komissiyasini tashkil etish belgilangan. Bu ham davlat tili sohasidagi adolat va haqiqatni tiklashning bir yo'li. Chunki mustaqillikning dastlabki yillarida Atamashunoslik qo'mitasi tuzilgan va u samarali faoliyat ko'rsatgan edi. Ammo farmon e'lon qilinganidan beri ko'p oylar o'tib bormoqdaki, biz mutaxassislar hanuzgacha atamashunoslik komissiyasi tuzildimi yo tuzilmadimi, kim rais, kim a'zo bo'ldi – bundan bexabarmiz.

O'z o'rnida yodga olish joizki, dastlabki Atamashunoslik qo'mitasining raisi o'z asarlari bilan jahon adabiyoti maydonidan o'rin olgan adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov edi. Qo'mita huzurida fan, xo'jalik, ishlab chiqarishning turli tarmoqlari bo'yicha shu'balar shakllantirilgan, shu'ba raisi o'z sohasining akademigi, shu'ba a'zolari o'nlab olimlar edi. Har bir soha bo'yicha termin va atamalar to'planar, saralanar, muhokama qilinar, matbuotda e'lon qilinar. Ana shu yo'l bilan 40 dan ortiq sohalar bo'yicha terminlar lug'atlari tuzilgan va nashr etilgan edi.

Shundoq shakllangan Atamashunoslik qo'mitasini qisqartirib yuborish davrning katta xatolaridan biri bo'lgandi. Hozirgi Atamashunoslik komissiyasi yopiq joyda tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasiga kirish-chiqish juda qiyin, hamma ham kira olmaydi. **Atamashunoslik komissiyasi xalqqa ochiq bo'lishi kerak.** Oldingi Atamashunoslik qo'mitasiga xohlagan kishi kira olar, fikr almashib chiqib ketardi. U O'zR FA Til va adabi-

yot ilmiy tadqiqot institutida joylashgan edi. Hali ham bo'lsa, ushbu tashkilotni avvalgiday nufuzli etib qayta ochish kerak.

Nazarimizda, avvalo, atamashunoslikmi, terminshunoslikmi, komissiyami, qo'mitami – buni yaxshilab o'ylab, muhokama qilib olish lozim. Atama bilan termin bitta narsa emas. Atama biror predmetni nomlash uchun tanlangan ot. Bir atama bilan bir necha turdagi narsalar nomlanishi mumkin. Termin esa maxsus bir sohaga rasmiylashgan ilmiy so'z. Atama ko'p ma'noli bo'lishi mumkin, termin esa faqat bir ma'noga ega bo'ladi. Buni ilmiy sharhlash ko'p vaqtni oladi. Balki Termin va atamalar qo'mitasi deiyish maqsadga muvofiqdir. Qo'mita ham komissiyadan ko'ra katta tushuncha. **Yangi tashkilot 30 yil oldingisidan zaif emas, kuchli va mahsuldor qilib shakllantirilishi zarur.**

QONUN VA QAT'IYAT

"Qonun" degan tushunchaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri qat'iyatlilikdir. **Qat'iyati bor qonun – kuchli. Qat'iyatini yo'qotgan qonun zaiflashadi. Bu hol qonunga itoatsizlikni keltirib chiqaradi. Fuqarolarning qonunga rioya qilish immunitetini susaytiradi. Bunday qonunni amalga oshirish ham imkonsiz bo'lib qoladi. Qat'iyatsizlik rahna solsa, qonun ustuvorligi tantana qilolmaydi.** Shu jihatdan 2019-yil 21-oktabrgacha o'tkazilgan ayrim tashkiliy-huquqiy tadbirlar shundoq ham qator moddalarini ishlamayotgan "Davlat tili haqida"gi Qonunning nufuziga ijobiy ta'sir etmadi.

2004-yil 30-aprel kuni "Davlat tili haqida"gi Qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritildi. Unga binoan yangi o'zbek lotin alifbosi va imlo qoidalariga to'liq, uzil-kesil o'tish muhlati 2005-yildan 2010-yilga uzaytirildi. Ushbu o'zgartish 1995-yil 21-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga mohiyatan zid edi. Chunki u asosiy ikki maqsadni ko'zlagandi. Bular: 1) "davlat tilini izchil joriy etish jarayonini takomillashtirish va 2) lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga o'tilishini ta'minlash". Oradan to'qqiz yil o'tib, keskin ravishda besh yil orqaga surish ana shu "izchil joriy etish" va yangi yozuvga "mukammal o'tish" jarayonlarini sezilarli sekinlashtirdi.

Aslida bunga hayotiy zaruriyat bormidi? Yo'q. Qonun amaliyoti izchil davom etardi. Maktab ta'limi bosqichma-bosqich lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuviga o'tib bo'lgandi, respublikaning barcha jamoalaridagi fuqarolar yangi imloga davlat tomonidan bepul o'qitib o'rgatilgandi. Mantiqan, endi amaliyotga to'liq o'tish va yangi alifboda savodxonlikni shakllantirishga kirishish mumkin edi.

Qo'shimcha va o'zgartishlar keng xalq ommasi orasida "lotinga o'tarmikinmiz yo kirildda qolarmikinmiz?" degan ikkilanish, taraddud kayfiyatini ham uyg'otdi. Holbuki, bunday maqsad yo'q edi. Mabodo shunaqa bo'lsa, **birrov referendum o'tkazib, xalqning fikrini aniqlab olgan ma'qul bo'lardi.**

Yozuv va savodxonlik – uzoq yillar davomida shakllanadigan hodisa. Yangi bir yozuvni o'rganish va unda

savod chiqarish uchun jamiyat juda sermashaqqat jarayonni boshidan kechirishi, bu sohadagi bilimdan tashqari ko'z xotirasi, qo'l ko'nikmasini shakllantirishi shart. Bu esa yillar mobaynida ming betlab matnlarni o'qish, yozish, uzluksiz va muttasil shug'ullanishni taqozo etadi. Til va yozuv amaliyot bilan tirik va rivojlanishda. 2004-yilgi qo'shimcha va o'zgartishlardan keyin yozuvni o'rgangan, malaka hosil qilayotgan fuqarolar bu mashg'ulotni kamida besh yilga to'xtatdilar. O'rganmaganlar esa bu ishga kirishmay qo'ya qoldilar. "Davlat tili haqida"gi Qonunga yana bir qo'shimcha va o'zgartishlar kiritilsa-yu, lotin yozuviga o'tish yana besh o'n yil orqaga surilsa, ungacha biz avlodimiz bilan nafaqaga chiqib ketamiz, o'rnimizga lotinda savod chiqargan avlod kelib o'rmasadi, deya xulosa chiqarib yurgan toifa kishilar ham yo'q emas. Qonunda qat'iyatdan chekinish ularning shunday taxmin-gumonlariga asos berib qo'ydi. **Bu – masalaning ma'naviy tomoni.**

Masalaning siyosiy mohiyati ham bor. "Davlat tili haqida"gi Qonunni hayotga tatbiq etish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti siyosatining tarkibiy qismiga aylangan, Qonunni izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi tuzilgan va joriy qilingan edi. Qo'shimcha va o'zgartishlar kiritaverish yo'li bilan qonun amaliyoti muddatini uzaytiraverish davlat dasturi bajarilmasligiga olib keldi.

Nihoyat **masala iqtisodiy mohiyatga ham ega.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 16-iyunda qabul qilingan "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirishni ta'minlash yuzasidan davlat dasturini tasdiqlash haqida"gi qarori 3-moddasida shunday deyiladi: "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi har yilgi davlat budjetini shakllantirish chog'ida budjetdagi tashkilotlar uchun lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish bilan bog'liq masalalarni hal qilishga zarur mablag'lar ajratishni nazarda tutsin".

Darhaqiqat, milliy mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatning barcha tashkilotlarida ishlaydigan mutaxassislar millati va yoshidan qat'i nazar, davlat tili va yangi o'zbek-lotin yozuviga davlat hisobidan o'qitib o'rgatildi. Ammo, afsuski, Qonun amaliyotida qat'iyat bo'lmaganligi va davlat tili hamda lotin yozuviga ish yuritishga talab, ehtiyoj, majburiyat sezilmaganligi tufayli o'rgangan fuqarolar amal qilmadilar, unutilib yubordilar. Demak, o'n yil mobaynida lotin yozuvini o'qitishga sarflangan mablag' zoye ketgan, davlat budjetiga zarar yetkazilgan bo'lib chiqadi. Ehtimol, yangi alifboni o'rganib, amal qilmagan fuqarolar yana besh yilgacha uni unutar va ularni qayta o'qitish, qanchadan qancha savodsizlikni tugatish kurslari ochib, ularni ham mablag' bilan ta'minlashga to'g'ri kelar. Bular uchun davlat xazinasidan hazilakam xarajat sarflanmaydi. Yangi yozuvga o'z izchilligida o'tib ketilganida, yangi alifboni o'rganishga tabiiy ehtiyoj, zaruriyat, balki majburiyat sezilardi va ko'zlangan maqsadga tejamli ravishda erishilardi.

Xo'sh, 1929–1940-yillardagi yangi o'zbek-lotin yozuvi amaliyoti davrida keng xalq ommasi qanday qilib

savodxonlikka erishgan? Bu – hayratomuz emas, oddiy hayotiy tajriba. Zavodlar, fabrikalar, sexlar, kolxozlar, brigadalar, zvenolar, mahallalarda **savodsizlikni tugatish kurslari** ochilgan. Natijada butun xalq yangi alifbo bo'yicha ham qisqa muddatda savodxon bo'lgan. O'n yillik tarixiy davrda yangi o'zbek-lotin yozuviga katta qamrovdagi madaniy meros yaratib qoldirilgan.

Shu nuqtayi nazardan bizning bu sohadagi taklifimiz shuki, **mamlakat miqyosida jamiyatning har bir bo'g'inida zudlik bilan mana shunday o'quv kurslarini ochish lozim.**

O'zbekiston teleradiokompaniyasi, matbuot va nashriyot shoxobchalari, boshqa nufuzli tashkilotlarda **savodxonlik va nutq madaniyatini nazorat qiluvchi mexanizm joriy etilishi zarur.** Chunki aksariyat hollarda tilni suxandonlar, jurnalistlar, aktyorlarimiz buzmoqda. Ularni xizmat joylarida til madaniyati nuqtayi nazardan nazorat qiladigan, tuzatadigan mutaxassis yo'q.

Xuddi shunday chalkashliklarni ayrim shoir va jurnalistlar tomonidan e'lon qilinayotgan yuzaki, taxminiy etimologiyalar ham yuzaga keltiryapti. **Har bir so'z – milliy boyligimiz. Uni asrab-avaylashga burchlimiz.** So'z-tushunchalarga nisbatan bunday xo'jasizlarcha munosabatda bo'lish insofdan emas. Bunday chalkashliklar xalqni chalg'itadi, oddiy odamlarning tushunchalarini noto'g'ri o'zamlarga yo'naltirib yuboradi. Til va, ayniqsa, etimologiya haqidagi maqolalarda hamma narsa aniq bo'lishi kerak. Bu sohada chala, dumbul fikrlar faqat zarar keltiradi.

Yangi tashkilotlarni nomlashda yuz berayotgan xatolarni to'xtatish lozim. Keyingi 15–20 yillar mobaynida **hukumat qarorlarida** yangi tashkil etilayotgan muassasalar nomida imloviy xatolar o'tib ketmoqda va ularning nomlari xato yozilmoqda. **Hukumat qarorida shunday bo'lgani uchun uni tuzatish imkoniyati yo'q.** Masalan, "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti" nomini olaylik. Bu nomdagi "G'afur G'ulom" nashriyot nomi emas. Nashriyot G'afur G'ulom nomiga atab, uning xotirasini abadiylashtirish maqsadida, hurmati uchun ochilgan. Nashriyotning haqiqiy nomi esa "Adabiyot va san'at". Chunki u adabiyot va san'at sohasidagi kitoblarni nashr etishga ixtisoslashtirilgan. Shuning uchun bu nomda "Adabiyot va san'at" – atoqli ot. U bosh harf bilan yozilishi kerak. Yoki "Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti", "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti" nomlarida ham xuddi shunday. "O'zbek tili va adabiyoti" – ularning ixtisosini bildiradi va u atoqli ot, bosh harf bilan yozilishi kerak. Hukumat qarorlarida esa kichik harf bilan yozilgan. Yoki avvalgi "Toshkent davlat Yuridik instituti" nomida "yuridik" so'zi ixtisosni bildirgani uchun atoqli ot sifatida bosh harf bilan yozilardi. Yangi ochilgan "Toshkent davlat Yuridik universiteti" nomida esa "yuridik" so'zi kichik harf bilan xato yozilmoqda. Chunki hukumat qarorida shunday. Bunday xato yuzlab muassasa nomlarida uchraydi. Buni tuzatish lozim. Chunki imlo qoidalari ham ma'muriyat va fuqaro uchun bab-barobar.

(Davomi kelasi sonda)

Umid XODJAMQULOV,
 Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti,
 filologiya fanlari nomzodi

“MAKTAB-LABORATORIYA”: TOSHKENT VILOYATI TAJRIBASI

Jamiyat taraqqiyotini ta'lim, fan va ishlab chiqarishning faol integratsiyalashuviz tasavvur qilib bo'lmaydi. Integratsiya termini lotin tilidagi “integration” so'zidan olingan bo'lib, muayyan birliklarni tiklash, to'ldirish ma'nolarini bildiradi. Amaliyotda bu termin ikki va undan ortiq subyektlarning bir maqsad atrofida birlashishi bilan bog'liq jarayonlarni anglatadi.

Innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish tizimdagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Buning uchun tizimning innovatsion muhiti va uning shakllarini takomillashtirish, innovatsion markazlar faoliyatini yaxshilash lozim bo'ladi. Bu boradagi texnologiyalar va obyektiv qonuniyatlarni taraqqiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilish ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Har qanday innovatsiyalar bilimlar integratsiyalashuvining mahsuli bo'lib, pirovardida ta'lim, fan va ishlab chiqarish jarayonlarida o'z in'ikosini topadi. Bu esa jamiyatni yangilikka, farovonlikka va iqtisodiy rivojlanish darajasiga olib chiqish omili hisoblanadi. Innovatsion jarayonlar muayyan faoliyatni tashkil etish, boshqarish, jamoaning umumiy saviyasi va qiziqishlari, millat mentaliteti, davlatning aloqador sohalari bo'yicha olib borayotgan siyosati, ilm-fan yutuqlari va ta'lim tizimi salohiyati, inson kapitali kabi bir qancha omillarga bog'liq ravishda kechadi.

Ta'limda innovatsiyalar nazariya va amaliyot uyg'unlashuvining son va sifat o'zgarishiga olib keladi. Shu ma'noda **ta'lim innovatsiyasi** tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: **ta'lim tizimi bilan bog'liq muammolarni rivojlantirish tamoyiliga asosan hal qilishga qaratilgan yangicha shakl va metodlar, yondashuv hamda texnologik jarayonlarni tizimli qo'llash orqali sifat o'zgarishlariga erishish bilan bog'liq jarayon.**

Chirchiq davlat pedagogika instituti tomonidan ta'lim tizimiga tatbiq etilayotgan klaster modeli tizimga aloqador faoliyat mexanizmlarini to'raligicha harakatga keltiradi. Ushbu model ta'lim tizimidagi boshqaruv, ta'lim subyektlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlari, ilmiy tadqiqot sohalari va ta'lim vositalarini ishlab chiqish kabi eng muhim yo'nalishlarni qamrab oladi va ularga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etishni taqozo etadi. Demak, butun tizimga aloqadorligi va keng qamrovligi, uzoq muddatga mo'ljallanganligi, faoliyatga nisbatan yondashuvning yangilanganligi kabi xususiyatlari bilan pedagogik ta'lim klasteri modelini sohaga taalluqli innovatsiya sifatida qarash mumkin.

Chirchiq davlat pedagogika instituti tomonidan hududdagi 22 ta umumta'lim maktablarida innovatsion

loyiha sifatida tashkil qilingan “Maktab-laboratoriya” tajriba maydonchalari pedagogik ta'lim innovatsion klasterini amaliyotga tatbiq etishning shakli va subyekti hisoblanadi.

“Maktab-laboratoriya” loyihasi milliy pedagogika sohasida yangi tushuncha sanaladi. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri institutning asosiy strategik tadqiqot yo'nalishi bo'lib, “Maktab-laboratoriya” uning yadrosi hisoblanadi. “Maktab-laboratoriya”lar ilmiy-pedagogik innovatsion loyihalarni yaratish va tajriba-sinovdan o'tkazish bilan bog'liq vazifalarni bajaradi. Bundan ko'zlangan maqsad – ta'lim bo'g'inlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, muammolarga nisbatan yakdillik bilan yondashish, pedagogik ta'limni yaxlit tizim sifatida tadqiq qilishdan iborat. “Maktab-laboratoriya”larida ishlar institutning ilmiy salohiyati va maktablarning tajribasini bir nuqtaga jamlash prinsipida tashkil qilingan.

Loyihaning mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatidan kelib chiqqan holda “Maktab-laboratoriya” tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: **“Maktab-laboratoriya” – pedagogik ta'lim innovatsion klasterining subyekti bo'lib, ta'lim turlarining ilmiy, uslubiy va ta'limiy faoliyatini rivojlantirish maqsadiga qaratilgan innovatsion loyihalar bo'yicha tajriba-sinov maydonchalaridir.**

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri bir guruh ta'lim subyektlarining innovatsion mahsulotni yaratishga va uning raqobatbardoshligini oshirishga imkon beradigan yangi tizim bo'lib, u sohaning milliy va mintaqaviy darajada rivojlanishi uchun kuchli rag'bat beradi. Shunga ko'ra klaster yondashuvi fan va ta'limni, pirovardida amaliyotda jamiyatni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni izlash va amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Klaster doirasida bir nechta subyektlarni o'zaro integratsiyalash jarayoni murakkab, ko'p tarmoqli ilmiy-amaliy jarayondir. O'zaro bog'liq bir nechta faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish aniq hisob-kitoblarni va ilmiy yechimlar, natijasi kafolatlangan loyihalarni talab qiladi va shundagina klaster subyektlarining ishonchini qozonadi. Shunday ekan, pedagogik ta'lim innovatsion klasteri doirasidagi ilmiy-pedagogik loyihalarni amalda sinab ko'rish muayyan tajriba-maydonchalari bo'lishini talab etadi. “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalari bu borada asosiy bo'g'inlardan biri bo'lib xizmat qiladi va *pedagogik inkubator* vazifasini bajaradi.

Maqsadga erishish uchun “Maktab-laboratoriya” innovatsion tajriba maydonchalari o'zining muayyan **vazifalariga** ega bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda faoliyat olib boradi:

1) ta'limning yangilangan mazmunini amaliyotga tatbiq etish va aprotatsiyadan o'tkazish; kasbgacha va kasbiy pedagogik tayyorlov bo'yicha ta'lim va tarbiyaning innovatsion usullari, shakllari va texnologiyalari bo'yicha innovatsion loyihalar ishlab chiqish, aprotatsiya qilish va tatbiq etish – *tajriba-innovatsion yo'nalishda*;

2) pedagoglarning innovatsion faoliyatida ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish; konferensiyalar, seminarlar, master-klasslar, ochiq mashg'ulotlar, stajirovkalar, guruh va individual maslahatlar tashkil etish orqali pedagogik kadrlar kasbiy mahoratini oshirish va "Maktab-laboratoriya"da to'plangan innovatsion usullarni tarqatish – *ilmiy-uslubiy yo'nalishda*;

3) psixologik-pedagogik tadqiqotlarni ta'lim amaliyotlarida qo'llash va ekspertiza qilish, pedagogik ta'limni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishda samaradorlikni tadqiq qilish – *ilmiy tadqiqot yo'nalishida*;

4) kasbgacha va kasbiy-pedagogik tayyorlashning ilg'or usullarini o'rganish va umumlashtirish; ta'limga oid axborot resurslarini yaratish, jamlash va yangilab borish; ommaviy axborot vositalarida pedagogik ta'limning jozibadorligini oshiruvchi va uning mavqeyini ko'taruvchi reklama mahsulotlari, maqolalar hamda videoroliklar tayyorlash – *axborot-tahliliy yo'nalishda*.

Innovatsion jarayonlar innovatsiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Innovatsion jarayonlar sohada o'zgarishlar qilishga tayyorgarlik ko'rish, o'zgarishlarni ilmiy nuqtayi nazardan asoslash va uni amalga oshirish bilan bog'liq jarayonlardir. Pedagogik ta'limda bu soha bilan bog'liq yangicha yondashuvlar, pedagogik metod va shakllarning o'zgarishi, kiritilayotgan yangiliklarning ilmiy pedagogik hamjamiyat tomonidan o'zlashtirishi va ularning ilmiy asoslanishi bilan bog'liq jarayonlarda ko'zga tashlanadi. "Maktab-laboratoriya" tajriba maydonchalarini tashkil qilish institut tashabbusi bilan amalga oshirilgan bo'lsa-da, uning faoliyatida umumta'lim maktab o'qituvchilarining faolligi katta rol o'ynaydi. Taqdim qilinayotgan ilmiy-pedagogik loyihalarni amaliyotga tatbiq etish va uning natijadorligini ta'minlash maktab o'qituvchilarining professional salohiyati va mas'uliyatiga bog'liq.

"Maktab-laboratoriya"da o'qituvchining tajriba-sinov ishlari natijasi sifatida adabiyotlarga sharh, ilg'or va innovatsion tajribalarni taqdim etish, o'qituvchilarning ochiq yoki tajriba darslari, yangi avlod didaktik materiallar bankini tuzish, o'qituvchilarning rivojlanishida pedagogik natijalar tashxisi, o'qituvchilarning o'quv va o'quv-metodik qo'llanmalari, tajriba-sinov ishlarining tahlillarini aytib o'tish mumkin.

"Maktab-laboratoriya" doirasida rahbar va o'qituvchilar tarkibidan bir nechta yo'nalishlarda loyiha guruhlarini tuzish uning faoliyatini tizimli va ko'p tarmoqli bo'lishini ta'minlaydi. Mavjud muammolarni o'rganish natijasida Toshkent viloyatida tashkil qilingan "Maktab-laboratoriya"larida quyidagi yo'nalishlarda loyiha guruhlarini tuzish maqsadga muvofiq deb topildi:

– **"Boshqaruv laboratoriya"** – bir nechta innovatsion tajriba-sinov oqimlari sharoitida innovatsiyalarni boshqarish samaradorligini aniqlashning mezonlarini belgilovchi resurslarni ishlab chiqish;

– **"Innovatsion boshlang'ich maktab"** – boshlang'ich ta'limda o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish jarayonining insonparvarlik g'oyasiga asoslanuvchi pedagogika modeli loyahasini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish; yangi avlod standartlarini amalga oshirish;

– **"Iqtidor"** – iqtidorli bolalarni aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash, o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha axborot resurslarini ishlab chiqish; iqtidorli o'quvchilarning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish va uni ro'yobga chiqarishga ko'maklashish muhitini yaratish;

– **"Innovator o'qituvchi"** – innovatsion jarayonlarni ta'lim tizimiga faol tatbiq etish muhiti va axborot ta'minotini yaratish, o'qituvchilarning innovatsion loyihalarga rag'batlantirish hamda uni qo'llab-quvvatlash;

– **"Ta'lim sifatini boshqarish tizimining axborot ta'minoti"** – ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar, loyihalar, ilmiy-pedagogik adabiyotlar bilan ta'minlash, ta'lim sifatini ko'tarish bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirish;

– **"Maktab birodarligi"** o'quvchilar hamjamiyati faoliyati doirasida bolalar va yoshlarning samarali ijtimoiylashuvi uchun pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yaratish.

Umuman olganda, "Maktab-laboratoriya" tajriba maydonchalari pedagogik ta'lim innovatsion klasterini amaliyotga tatbiq etish shakli sifatida ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya munosabatlarini ta'minlash, umumta'lim maktablari faoliyatini innovatsion jarayonlarga tortish, ta'lim va tarbiya uyg'unligi borasida samaradorlikka erishish, ta'lim sifatini boshqarish va yaxshilash, iqtidorli o'quvchilarni yuzaga chiqarish, o'qituvchilar faoliyatini nazorat qilish va ularni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq sifat ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi. Tajriba-sinov ishlariga qo'yilgan loyihalarning dastlabki natijalari ko'rinda boshladi va uning ijobiy ekanligi quvonarli. Demak, pedagogik ta'lim innovatsion klasterining istiqboli bor. Toshkent viloyati tajribasi sifatida uni ommalashtirish, shubhasiz, pedagogik ta'limda o'zining ijobiy samarasini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ягодина Н.В. К вопросам теории кластера // Социально-экономические системы: современное видение и подходы. Материалы четвертой международной научно-практической конференции. – Омск: Изд-во «СИБИТ», 2009. – С. 194.
2. O.Abduraxmanov. Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
3. Ашихмина Я.Г. Интеграционные проекты в современной России: виды и характеристики//Научный ежегодник института философии и права УрОПАН, 2010. – Вып. 10.
4. Беспалова Л. Что такое кластер? URL: <http://siok.rightside.ru/siok/2009-12-01-06-24-41>. Загл. с экрана.
5. Гордеева А.Н., Пучкова М.В. Правовое обеспечение интеграции науки и образования//Закон, 2006. №4.
6. Портер М. Конкуренция. СПб. – Москва–Киев: Издат. дом «Вильямс», 2001.

Bashorat BAHRIDINOVA,
Qarshi davlat universiteti o'zbek tilshunosligi
kafedrası mudiri, filologiya fanlari nomzodi

O'ZBEK O'QUV LUG'ATCHILIGI ISTIQBOLLARI

So'nggi o'n yillik leksikografiya – tilshunoslikning eng tez taraqqiy etayotgan va eng tez o'zgaruvchan sohasi ekanligini yana bir bor isbotladi. Lug'at – davr mahsuli, xalq tarixidagi muayyan davr ko'zgusi. Uning yuzaga kelishi muayyan tarixiy-madaniy sharoit, nazariy va amaliy tilshunoslik holati, lug'atlarga ehtiyoji bo'lgan turli sohalar taraqqiyoti va yana ko'pgina jihatlarga bog'liq. Muayyan tilda davrga aloqador turli omillarga bog'liq ravishda lug'atlarning rang-barang ko'rinishlari yuzaga kelishi, umuman, lug'atchilik taraqqiyoti – til va uning egasi bo'lgan millat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, bu uning ke-lajagi haqida gapirish imkonini beradi.

O'quv lug'atlari – borliqning lisoniy tasnifi, uning bilish shakliga solingan ko'rinishi. O'quv lug'ati ta'lim oluvchiga ilk yoshlaridan boshlab olamning milliy lisoniy manzarasi bilan tanishish imkonini beradi. Istiqloq yillarida yaratilgan o'quv lug'atlarida ona tili va boshqa xorijiy tillar, milliy tilning leksik qatlamlari, yozma va og'zaki nutq me'yorlarini o'rganish, o'quvchilarning so'z boyligi, tafakkurini kengaytirish, yozma savodxonligini oshirish bosh vazifa qilib olingan bo'lsa, ayni paytda o'quv leksikografiyasi oldida davr talablaridan kelib chiqib yangi avlod o'quv lug'atlarini yaratish, mavjud lug'atlarni kompyuterlashtirish bilan bog'liq vazifalar turibdi.

Ayni paytda dunyoning o'quv leksikografiyasi taraqqiy etgan mamlakatlarda internetda bolalar uchun mo'ljallangan elektron o'quv lug'atlarining maxsus saytlari yuzaga kelgani, birgina ingliz tilini dunyo xalqlariga tez, oson va qulay o'rganishning lingvometodik ta'minoti hisoblangan *Cambridge Learner's Dictionary*, *Cambridge Advanced Learner's Dictionary*, *Longman Dictionary of Contemporary English*, *Macmillan Dictionary*, *Merriam-Webster Learner's Dictionary*, *Oxford Advanced Learner's Dictionary*, *Online English-English learner dictionaries* kabi dunyoga mashhur son-sanoqsiz lug'atlar yaratilgani, o'quv lug'atlarining *Vebster*, *Oksford*, *Longman*, *Robber*, *Laruss*, *Duden* kabi mashhur brendlari paydo bo'lgani kuzatiladi. Jumladan, global tarmoqda Britaniya kengashi-ning turli yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan son-sanoqsiz saytlarini uchratish mumkin.

O'z-o'zidan ma'lumki, leksikografiyaning rivojlani-shi boshqa fanlar, xususan, informatika va tilshunoslik taraqqiyoti bilan bog'liq. Kompyuter lug'atchiligi ikki yo'nalishni qamrab oladi: 1) kompyuter texnologiyalaridan foydalanib bosma lug'atlar tuzish; 2) faqat elektron qurilmada onlayn yoki oflayn tarzda ishlaydigan lug'atlarni tuzish.

Ayni paytda internetda o'zbek tilida yaratilgan nafaqat umumiy elektron lug'atlar, balki o'quv elektron lug'atlarni ham uchratish mumkin. Xususan, *software.uz* Dasturchilar dasturiy mahsulotlar milliy katalogi, Q.Qosimovning elektron lug'atlar bazasi, *youtube.com*, *translatos* Onlayn lug'at va tarjimon tarmoqlarida o'zbek tilida yaratilgan bir necha nomdagi elektron lug'atlar joylanganiga guvoh bo'lamiz. (2) Lug'at ishini kompyuterlashtirish, albatta, lug'atshunoslarning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bugungi kunda o'quv lug'atlari ta'lim jarayonining bir bo'lagiga aylandi, yuqorida ko'rib o'tilganidek, xalqaro elektron axborot tizimi – internetda o'zbek tilida yaratilgan elektron lug'at namunalari ham paydo bo'ldi. Biroq ushbu lug'atlardan foydalanuvchilar *leksikografik kompetensiyaga* egami, undan samarali foydalanilyaptimi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Lug'at undan muntazam foydalana bilgan kishi uchun chinakam xazina. Hatto o'ta shiddatkor va axborot texnologiyalari misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etgan hozirgi davrda ham zarur ma'lumotlarni tezkor va qulay izlab topa bilish zamonaviy shaxsning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Inson hamma narsani bilishga qodir emas, ammo har qanday vaziyatda bilishi zarur bo'lgan narsalarni topish imkoniga ega. Lug'at aynan shu ish uchun maxsus yaratilgan. Bunga misol sifatida XX asr mo'jizalaridan biri mashhur Vikipediyanı keltirish mumkin. Biroq lug'atdan samarali foydalana bilish uchun "leksikografik kompetensiya"ga ega bo'lish talab etiladi. Umuman, bugungi kunda ona tili ta'limi samardorligini oshirishda bolalarning lug'atlardan foydalanish ko'nikmasini o'stirish ham muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga zamonaviy o'quv lug'atchiligining joriy an'analarga ko'ra mamlakatimizda ta'limning yuqori bosqichlaridagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan katta o'quv lug'atlarini yaratish va keyingi bosqichda ularni elektronlashtirish vazifalari ham turibdi.

Tilshunos N.Uluqov o'zbek tilida maktablar uchun yaratilgan o'quv lug'ati namunalarini e'tirof etgan holda ta'limning yuqori bo'g'inlarida ta'lim oluvchilar uchun ham mo'ljallangan o'quv lug'atlari, xususan, ensiklopedik va terminologik o'quv lug'atlarini yaratish davr talabiga aylanganligini ta'kidlaydi (3; 16–18).

Shuningdek, nafaqat ona tili ta'limi, balki boshqa fanlarni o'qitish vositalariga ko'mak beradigan o'quv terminologik lug'atlarni ham yaratish bugungi kunda oldimizda turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Zamonaviy maktab uchun maxsus lug'at yaratish harakatining paydo bo'lishi ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalarni kiritish, xususan, retroskopik ta'limdan verbal kognitiv ta'lim usuliga o'tish davriga to'g'ri keladi. Ma'lumki, kognitiv ta'lim retroskopik ta'limdan yordamchi o'quv materialining darslik materialidan bir necha marotaba kattaligi, o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlashi, zaruriy ma'lumotlarni axborot banki – lug'atlar, qomuslar, ma'lumotnomalar kabi ona tili xazinalaridan izlashi bilan farqlanadi. Zero, darslikdan yetarli ma'lumotni olgan o'quvchida izlanish, mustaqil ishlashga ehtiyoj bo'lmaydi. O'quvchini izlab topish, mustaqil xulosalar chiqarishga yo'naltiradigan kognitiv ta'lim texnologiyasi zamonaviy pedagogik amaliyotda eng samarali usul deb topilgan va jahonning qator ilg'or davlatlarida XX asr boshlaridayoq ta'lim tizimiga joriy etilgan.

Istiqloq yillarida o'zbek o'quv lug'atchiligi birmuncha yutuqlarga erishdi. XXI asr boshlaridan mamlakatimizda chet tillarni o'qitishga e'tiborning oshishi, ilm-fan, texni-

ka taraqqiyoti bilan bog'liq holda uzluksiz ta'limning turli bog'inlarida chet tili darslarining o'qitilishida ko'mak beruvchi axborot banklari, professional lug'atlar ham paydo bo'la boshladi. Dunyoning yetakchi tillari, xususan, ingliz tilini o'rganishga qiziqishning ortishi xorijiy tillarni tez va oson o'rgatish uchun xizmat qiladigan har qanday ko'rinishdagi turli-tuman kichik, o'rta hajmdagi lug'at va so'zlashgichlar, ularning elektron shakllari, mobil ilovalar, onlayn-lug'atlar, interfaol lug'atlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. O'zbekcha-inglizcha lug'at nezigida yaratilgan ko'p tilli – uch, to'rt, olti tilli lug'atlar yuzaga keldi. Uzluksiz ta'limning maktabgacha ta'lim bo'g'inidan oliy ta'limgacha bo'lgan bosqichida tahsil oluvchilar uchun turli seriyali lug'atlar, ensiklopediyalar, terminologik lug'atlar yaratildi.

Biroq mamlakatimizda o'quv lug'atlarini yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan maxsus shug'ullanadigan sohalar to'la shakllanmaganligi, o'quv leksikografiyasining nazariy masalalari maxsus o'rganilmaganligi, bu toifaga mansub lug'atlarni nashr qilish bilan bog'liq moliyalashtirish tizimi yaratilmaganligi sababli bu sohadagi ishlarni jahon o'quv lug'atchiligi talablari darajasida deb bo'lmaydi. Jumladan:

– ushbu lug'atlarning aksariyati tijorat mahsuli sifatida yuzaga kelgan bo'lib, ularda so'zlikni tanlashda ham, izohlarning berilishida ham, lug'at strukturasi shakllantirishda ham o'quv lug'atchiligi, umuman, leksikografiyaning muayyan mezonlari, talablariga amal qilinmagan;

– mazkur lug'at va so'zlashgichlar, cho'ntak lug'atlarining ko'pchiligi boshqa tillarda yaratilgan shu tipdagi lug'atlar negizida, ularni tarjima qilish yo'li bilan yaratilganligi bois so'zlikni tanlash, izohlarni berishda milliy madaniyatimiz, urf-odat va qadriyatlarimiz aks etmagan, milliy ruh sezilmaydi;

– aksariyat o'quv lug'atlari o'zbek tilida avvaldan mavjud bo'lgan katta lug'atlarni maxsuslashtirish, ixchamlashtirish yo'li bilan yuzaga kelganligi bois ularda o'z maqsadidan uzoqlashish kuzatiladi;

– mamlakatimizda o'quv lug'atlarini moliyalashtirish tizimi mavjud bo'lmaganligi bois mazkur lug'atlarni chop etishda o'quv lug'atchiligining poligrafik talab (harf o'lchamiga doir talablar, rang, illyustratsiya, qog'oz sifati, muqova bezagi va boshqa)larga amal qilinmagan.

Yuqoridagilar o'zbek o'quv lug'atchiligi oldiga quyidagi strategik vazifalar turganidan dalolat bermoqda:

1) jahon o'quv leksikografiyasining so'nggi yutuqlari, zamon talablari hamda o'zbek o'quv lug'atchiligi tamoyillari asosida bosma va elektron shakldagi yangi avlod o'quv lug'atlarini yaratish;

2) mavjud o'quv lug'atlari turlarini takomillashtirish;

3) jahon o'quv leksikografiyasi, jumladan, o'zbek o'quv lug'atchiligining eng dolzarb masalalaridan biri – ta'lim oluvchining psixo-fiziologik holati, qobiliyati, so'zning semantik qiymati va boshqa bir qator ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda muayyan til leksikasidan

muloqot jarayonida maksimal darajada foydalanishi uchun eng kamida bilishi zarur bo'lgan so'zlar ro'yxati, ayni paytda huquqiy-me'yoriy hujjatga tenglashtiriladigan *leksik minimum* (*word lists, vocabulary lists, словник, лексический минимум*)larni tuzish;

4) o'zbek tilida o'quv leksikografiyasining bir necha lug'at tiplarini o'zida birlashtirgan, ham lug'at, ham leksik minimum vazifasini bajaradigan, til leksik sathining barcha qirralarini bittada aks ettirish imkoniyatiga ega bo'lgan ko'p funksiyali janri – kompleks o'quv lug'atlarini yaratish;

5) jahon lug'at xazinasida mavjud bo'lgan o'quv lug'atlarining xalqaro janrlari asosida shakllangan seriyali o'quv lug'atlarini yaratish, o'zbek tilida yaratilgan seriyali o'quv lug'atlarini takomillashtirish va ularni elektron versiyalarini yaratish;

6) muayyan maqsad va mavzudagi lug'atning turli yoshdagi bolalar uchun bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi turi darajali o'quv lug'atlarini yaratish;

7) axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuter lingvistikasi yutuqlariga tayanib mavjud bosma o'quv lug'atlarini elektronlashtirish;

8) ta'lim oluvchining turli toifalari – iqtidorli yoki kam o'zlashtiruvchi o'quvchilar, imkoniyati cheklangan bolalar, shuningdek, tilni ona tili sifatida o'rganmaydiganlar uchun ixtisoslashgan, ma'lumotni tezkor va qulay izlash imkonini beradigan interfaol elektron o'quv lug'atlari, korpus lug'atlar, WordNet, Wikipediya, Lingvo, Multitran tipidagi o'quv-tezauruslar va assotsiativ lug'atlar, imlo, talaffuz me'yorlari, tarjima, tilning turli leksik sistema (sinonimlar, antonimlar, paronimlar, omonimlar, graduonimlar, uyadosh so'zlar kabi)larini o'rgatishga xizmat qiluvchi mukammal mobil ilovalarni yaratish;

9) foydalanuvchilarda o'quv lug'atlarining zamonaviy ko'rinishlari bilan ishlash ko'nikmasi, lug'atlar bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida leksikografik kompetentlikni shakllantirishdan iborat muhim vazifalar turganidan dalolat beradi.

Ushbu vazifalarning amalga oshilishi mamlakatimizda axborot texnologiyalari taraqqiyoti, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, lingvodidaktika, lingvopedagogika, pedagogik leksikografiya kabi fanlarning rivoji bilan bog'liq.

Umuman olganda, zamonaviy ta'lim vositalari aysbergni esga soladi. Darslikni aysbergning suv yuzidagi, yordamchi vositalarni suv ostidagi qismiga qiyoslash mumkin. Shunday ekan, ushbu vositalar yaratilmas, o'quvchilarning stolda ona tilidan uning yoshiga mos ko'plab o'quv lug'atlari, leksik minimumlar turmas, buning uchun o'quv leksikografiyasi nazariy va amaliy soha sifatida tizimli yo'lga qo'yilmas va, eng muhimi, lug'atlarini tayyorlash, nashr qilish bilan bog'liq ilmiy hamda moliyalashtirish tizimi yaratilmas ekan, ona tili ta'limi o'zining haqiqiy mohiyatidan begonalgicha qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка: учеб. пособие / Дубичинский В.В. – Москва: Наука: Флинта, 2008. – 432 с.
2. Batafsil ma'lumot olish uchun qarang: <http://software.uz/uz/software/>; <https://qobiljon.uz/index.php/uz/elektron-dasturlar/elektron-lug-atlar/>; <https://www.youtube.com/watch>; <http://www.translatos.com/uz/>
3. Ulug'ov N. Lingvistik kompetentlikni shakllantirish omillari. "Til va adabiyot ta'limi", 2018. 6-son.



Dilfuza AVAZOVA,

 Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
 universiteti 2-bosqich magistranti

ABDULLA ORIPOV IZLAGAN UZUK

"Furqatning "Hajnoma"si va Abdulla Oripovning "Haj daftari" turkum asarlarining qiyosiy tahlili" mavzusidagi magistrlik ilmiy dissertatsiyasini yozish jarayonida manba izlab sevimli shoirimiz Abdulla Oripov xonadoniga borganimda u kishining rafiqalari Hanifa aya bir bloknot ko'rsatdi.

Charm muqovali bloknotning ilk sahifasiga Minhojiddin Haydar imzosi bilan tilaklar yozilgan va 1991-yil 28-mart sanasi qayd etilgan. Hanifa ayaning eslashicha, 1991-yil shoirning 50 yillik yubileyi munosabati bilan bo'lib o'tgan badiiy kechada Minhojiddin Haydar ham so'zga chiqqan. U Abdulla Oripovning "Lojuvard osmon" deb nomlangan to'plami nashr jarayonida yo'qolganidan xabardor ekanligi va shoirga bugun xushxabar olib kelgani, ya'ni ushbu to'plamning nashr jarayonidagi "signal" varianti saqlanib qolganini ma'lum qiladi. Shoirning 50 yillik yubileyiga ana shu yo'qolgan kitobini sovg'a qilishini aytadi va kitobning "signal" variantini emas, mana shu charm muqovali bloknotni topshirib ketadi.

Shoir esa buni marosim tugab, "sovg'a"ni ochib ko'rgach payqaydi. "Lojuvard osmon" deb nomlangan Abdulla Oripov qalamiga mansub to'plam taqdiri hanuz noma'lumligicha qolmoqda. (Asosiy mavzudan chetga chiqmaslik uchun bu borada keyingi izlanishlarimizda so'z yuritamiz).

Ushbu bloknotda "Haj daftari" turkum she'rlarining 40 hadisni tafsir etgan dastlabki qirqta she'r ham jamlangan. Shoirning "Haj daftari" turkumida "Ona" deb nomlangan ikkita she'r bor. "Ona" she'ri aynan "Kimga yaxshilik qilay?" – deb so'ragan sahobaga uch marta onangga deb, to'rtinchisida otangga deb aytdilar" hadisi sharifining badiiy tafsihi bo'lsa, "Ka'ba qopqasida turgan, ey posbon", deb boshlanguvchi turkumdagi "Ona" she'ri Qur'oni karimdagi "Ibrohim" surasining 37-oyati va bir qancha hadislarda keltirilgan Ibrohim alayhissalomning zavjalari Hojar onamizning tashnalikdan halok bo'layotgan farzandi uchun Safo va Marva tog'i orasida yugurib Allohga qilgan iltijosi sabab Zam-zam suvining ko'z ochishi va Ona doimo tiriklik timsoli ekani haqida.

Ushbu she'rlarning chuqurroq tahliliga kirishishdan avval Abdulla Oripov ijodida bungacha bo'lgan ona haqidagi she'rlarga bir nazar tashlasak. Shubhasiz, shoirning 1966-yilda yozilgan "Onajon" she'ri nafaqat Abdulla Oripov ijodida, balki o'zbek adabiyotidagi eng hazin va muhtasham nazmiy obida hisoblanadi. Ushbu she'r shoirning o'z onasi Turdixon Erdon Karvon qizi xotirasiga bag'ishlanadi.

Bu marsiyaning yozilishi va shoirning onasi bilan bog'liq xotiralar bilan qiziqib Qashqadaryoga shoirning singlisi Zulfiya Oripovning xonadoniga eshik qoqib bordim. Zulfiya momo ota qishlog'i Neko'zning shundoqqina biqinidagi Bovurdoq qishlog'iga kelin bo'lib tushgan.

Men Zulfiya momoni yo'qlab borgan bovrudokliklarning katta-yu kichigi ko'rishganda "Aha, qanday?" deya so'z boshlaydi. Yuz-ko'rinishi va shevasi ham biz neko'zliklar-

dan farq qiladi. Bolalik paytlarimizda bobomdan eshitgan hikoyaga ko'ra bovrudokliklar Neko'z va uning atrofidagi qishloqlar aholisiga begona qavm ekan. Ya'ni bu qishloqning aholisi qandaydir zolimning zulmiga uchrab, ko'p farzandlari qatl etilgan-u qolgan bolalarini olib o'z yerlaridan qochib chiqib Neko'z atrofidagi dashtlarni qo'nalga tutishgan ekan. Ulardan kim ekanliklarini so'raganlarga esa ko'ksilariga urib "Biz Xudoyning bovrudok dog' bandalarimiz", deyishgan va shu-shu bu joylar Bovurdoq (ya'ni bag'ri dog') deb atalib ketgan ekan.

Zulfiya momo bilan suhbatimiz tez qovushdi. "Onajon" she'rini yod o'qigan momo yig'lab yubordi.

"Bu she'r emas, bolam, bu akamning armoni. Men esimni tanigan paytimdan boshlab enam xasta edi. Aniq tashxisini bilmayman. Jigar kasalligi enamni qiynar edi. Otam tabib va do'xtirlarga ko'p qarattidi. Em topmadi, shekilli. Tobora og'irlashib borardi. Akam enamni tez-tez tush ko'ra boshlagan. Yaxshi tush bo'lmagandir-da, Toshkandan yetib keldi. O'shanda men ham, opam ham turmushga chiqqan, etagimizda ham, bo'yimizda ham farzandimiz bor edi. Turmushimiz bilan bo'lib biz ko'p ikir-chikirlarga e'tibor qilmaganmiz ham. Bir payt enamning yostig'ini to'g'rilab qo'yimoqchi bo'lgan akam yostiqning tagida o'zining birinchi kitobi "Mitti yulduz" va bir bog'lam pul borligini ko'rib qolibdi. "Enajon, boshingizga og'ir botmasin bularni sandig'ingizga olib qo'ysak bo'lmaydimi?" – deb so'rabdi akam. Enamning og'rig'i kuchli edimi, uzilib-uzilib gapirar edi. "Hah, bolam seni ovozing tushgan kitob meni og'ritadimi?" dedi. Keyin bir nafas rostlab olib: – ... unisiyam seniki, otangga aytganman", – dedi.

Men o'sha paytda bu so'zning fahmiga yetmagan ekanman. O'sha kuni otam va tog'am: "Ertaga do'xtirxonaga yotqizamiz. Enang oyoqqa turib ketadi. Sen chalg'ima" deyishib akamni Toshkanga jo'natib yuborishdi. Ertasi kuni 1966-yilning 17-noyabrida 55 yoshida enam vafot etdi. Otam akamga "Enang qaytish qildi", deb telegramma jo'nattirdi. Men akam va enamning so'nggi suhbatiga shu tarzda guvoh bo'lganman".

Zulfiya momoni tinglar ekanman, "Onajon" she'rining II qismidagi:

*U kun chetda oh chekardim
 G'ussalarning dastidan
 Sen otamga pul beribsan
 Yostig'ingni ostidan.
 Aytibsanki, onasizlik
 Kelmasin hech o'yiga.
 Sarf qilingiz, menga emas,
 Abdullaning to'yiga, –*

misralari xayolimda takrorlana boshlaydi. Shoir onasining "unisiyam seniki, otangga aytganman" so'zi vasiyat ekanligini singlisi Zulfiya momo singari qazodan so'ng anglagan edi.

“Enam vafot etgan paytda akam hali oila qurmagan, yigirma besh yoshli yigit edi. Enamning so‘nggi daqiqalarini yashayotganini bila turib Toshkanga jo‘natib yuborishgani uchun otam va tog‘amdan ancha payt xafa bo‘lib yurdi akam. Toshkandan kelsa, qishloqqa kelmay enamning boshidan qaytib ketgan vaqtlari ham bo‘ldi. Otam akamning shoir bo‘lishiga qarshilik qilganmi-yo‘qmi bilmaymanku, lekin akamning qishloqdan ketishi otamga ancha og‘ir botgan edi. Shuning uchun akamning shoir bo‘lib tanila boshlaganiga ham e‘tiborsizdek tutar edi o‘zini. Enam esa akamning har bitta she‘ridan, akam haqidagi har bir so‘zdan bir ko‘ylak semirar edi”.

She‘rning III bandida shunday manzara bor:

*Esimdadir titrar edim —
G‘amgin bolish pastida.
Kitobimni ko‘rdim nogoh
Boshginangni ostida.*

O‘z kitobini onasining bolishi ostida ko‘rgan yosh ijodkorni bir nafas titroq bosadi.

*— Shoir o‘g‘lim, deding menga
Sekingina qayrilib.
...Onajonim, balki men ham
Bir kun shavqqa to‘larman.
Balki men ham aytganingdek
Bir kun shoir bo‘larman.*

O‘z esdaliklarida Toshkentga poyezdga osilgandek bazo‘r kelganini yozgan shoir yuqoridagi misralarda onasining o‘z ijodiga e‘tiboridan qalqib ketgani, uning shoir degan e‘tirofiga hali loyiq bo‘lmasa-da bir kun shoir bo‘larman deb umid qilishi, bir kun onasi kabi otasining ham shu so‘z bilan chaqirishini orzu qilish bo‘lgandir.

“Enamning vafotidan keyin ko‘p yillar o‘tib akam enamning uzugini surishtirib, izlab qoldi. Bir kuni akamni qishloqqa kelganini eshitibotq otamnikiga yugurdim. Hali odam yig‘ilib ulgurmagani ekan. Odatda, akam kelsa otamning eshigiga odam sig‘may ketardi. Ko‘rishgach akam yana enamning uzugini surishtirdi. Daragi chiqmagani eshitib bir zum jim bo‘lib qoldi. Keyin meni yonimga keldi-da qo‘limni ushlab “Shu barmog‘iga taqib yurardi” dedi. Akamning nigohlari doim jiddiy edi. Shuning uchunmi singlisi bo‘lsam ham ko‘pda akamga botina olmas edim. Lekin shu lahzada akamning ko‘zlari butunlay boshqacha edi. Xuddi jiddiyliги erib ketganday yoshovrab qaradi menga. Shu paytda mashhur shoir, arbob emas enasini qo‘msagan o‘g‘il turar edi yonimda. O‘pkam to‘lib ketdi. Akam qo‘limni biroz ko‘tardi. O‘pmoqchi bo‘ldimi yo ko‘ziga surtgisi keldimi va yana ichki bir iymanish qo‘ymadimi, qo‘limni qo‘yib yuborib, yelkamga qoqib “O‘lmanglar, uka, o‘lmanglar”, dedi. Enam juda oddiy ayol bo‘lgan. Otam kolxoz raisi bo‘lgan bo‘lishiga qaramay enam elning ayolidan ortiq yurmagan. Bezak, pardozni bilmagan. Qulog‘iga sirg‘a ham taqmagani. Uyimizda beva ovsini yashagani uchun iymangan bo‘lsa kerak-da. O‘sha uzuk ham temirmi, jezmi bo‘lgan. Tilla emas edi. Akam bir-ikki suratdan boshqa xotira topa olmay, enamning qo‘li tekkan deb o‘sha temir uzukni ancha qarab yurdi. Topilmadi.”

*Unutilar g‘ussalar ham
Orzular ham cho‘zar bo‘y.
Onajonim, balki bir kun
Aytganingday bo‘lar to‘y.*

*...Balki do‘stlar davrasida
Kamim bo‘lmas hech qachon.
Lekin seni o‘sha damda
Qaydan topay, onajon?*

Abdulla Oripovning “Onajon” she‘ri biografik jihatdan o‘z onasi vafotiga marsiya bo‘libgina qolmay, Turdixon ena kabi onalik maqomidan o‘zga bezagi bo‘lmagan o‘zbek onalari haqqiga aytilgan so‘z hamdir.

Zamonaviy dunyoning ziyoli insoni sifatida shoir ona obrazini shunday tarannum etdi:

*Deydilar, qahrli bahodirlar ham
Janglarda jon berar chog‘i mardona.
Behad azoblarga chidab so‘nggi dam,
Bitta so‘z dermishlar shivirlab: Ona. (“Ona”.1986-yil)*

Abdulla Oripovning turli yillarda yozilgan ona va ayol mavzusidagi she‘rlarining yozilish jarayoni va tafsilotlarini o‘rganib, asosiy obyektimiz “Haj” daftariga qaytamiz.

Yuqorida hadisi sharif asosida yozilgan “Ona” she‘ri haqida aytgan edik. Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning ko‘rsatmalari asosida yozilgan she‘r badiiy jihatdan ham g‘oyatda ta‘sirli:

*Kimdir savol berdi: — Aytgil, Muhammad,
Yolg‘iz sen Rasulsan butkul olamga.
Kimga ko‘p yaxshilik aylay, o‘zing ayt,
Ota onamgami yoxud bolamga?*

She‘r hadisning talqini ekanligi uchun ham shoir juda ehtiyotkorlik bilan so‘z tanlaydi. Hadis va diniy bilimdan uzoqroq odam she‘rni o‘qiganida onaga yaxshilik qilish majburiy ekan, deb islom dini va Rasulullohdan og‘rinmasligi uchun asosiy mezonni she‘rda ham aniq belgilaydi:

*Rasul javob qildi: — Tingla birodar,
Gapimni uch bora quloqqa ilgil.
Imkon topa olsang dunyoda agar
Eng avval onangga yaxshilik qilgil.*

Ushbu misradagi “uch bora quloqqa ilgil” so‘zi hadis mohiyatini aynan saqlab qolgan bo‘lsa, “imkon topa olsang” so‘zi muqaddas islomning naqadar adolatli din ekanini ko‘rsatib bermoqda.

Turkumdagi yana bir “Ona” she‘ri esa Abdulla Oripovning Haj safari davomida yozilgan. Hajning sa‘y deb atalgan ibodati, ya‘ni Safo va Marva tog‘lari orasida yetti marta sa‘y qilish jarayonida ko‘nglidan kechgan ilhom bitiklari bo‘lsa, ajabmas. Chunki Hojar onamiz mana shu ikki tepalik orasida yugurgani aytiladi hadislarda:

*Hojar onamizning nidosi sabab,
Ka‘bada ko‘z ochgan obi zam-zam ham.
Bir umr talpinmish onaga qarab,
Ne-ne payg‘ambarlar ko‘zlarida nam.*

Hoji Abdulla Orifning bir bandai mo‘min sifatida onaga ehtiromi uning inson sifatida ko‘p yillar davomida qalbida ayol zotiga nisbatan yashagan buyuk bir hurmatning munosib davomi bo‘ldi:

*Qavmimni ranjitib qo‘ymayin, ammo
Tobut yasab kelgan er zoti doim.
Onalar bag‘riga faqat beshik jo,
Hayotbaxsh allalar aytgan muloyim.*



Luiza MEYLIYEVA,
 Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi
 205-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

RAVISHLARNING YASALISHI

(6-sinf, IV chorak)

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy maqsad: o'quvchilarda ravish so'z turkumi, uning yasalishi va ravish yasovchi qo'shimchalar haqida yangi bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish;

b) tarbiyaviy maqsad: ravish va ravish yasovchi qo'shimchalar qatnashgan gap va matnlar asosida o'quvchilarning mustaqil fikr yuritish, olgan bilimlarini hayot bilan bog'lay olish, estetik didi, axloqiy sifatlari, ona tabiatga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish;

d) rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarni mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olish, xotirani mustahkamlash, tez fikrlashga o'rgatish.

Darsning turi: noan'anaviy.

Darsda foydalaniladigan usullar: "Svetofo", "G'oyaviy charxpalak", "Ascent", "Mozaika", "T-chizma", "O'rgimchak to'ri".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, ko'rgazma va tarqatmalar, vatman qog'oz, flomasterlar, slaydlar, kompyuter, diaproyektor ekran.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashib, davomat aniqlanadi, sinf xonasining tozaligi va o'quvchilarning darsga tayyorligi ko'zdan kechiriladi. Dars musobaqa tarzida tashkil etilishi e'lon qilinib, sinf o'quvchilari "**Bilimdonlar**" va "**Donolar**" guruhlariga ajratiladi. Dars davomida guruhlar ishtiroklariga ko'ra beshburchak, to'rtburchak, uchburchak shaklidagi kartochkalar bilan baholanib borishi aytiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

O'tilgan mavzu – "Ravish so'z turkumi" yuzasidan o'quvchilar bilimini baholash uchun "**G'oyaviy charxpalak**" metodidan foydalanish mumkin. Bunda o'quvchilar slayd yoki guruhlariga taqdim etilgan jadvalda berilgan misollarda ajratib ko'rsatilgan so'zni izohlaydilar.

1-o'quvchi 1-misoldagi ajratilgan so'zni ravishga xos yoki xos emasligini "+" yoki "-" belgisidan foydalanib aniqlasa, 2-o'quvchi qaysi turkumga xos ekanligiga izoh beradi. O'yin shu tariqa davom etadi va jadval 1-o'quvchiga qaytganda to'xtatiladi. O'quvchilarning javoblari quyidagi slayd asosida tekshiriladi:

Ma'lumotlar	Ravishga xos	Qaysi turkumga xos?
Vodiy larni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda.	+	sifat
Men ularga akamning ertalab uloqqa ketganini aytdim .	-	fe'l
Men xuddi shu savolni kutib turgandek, darhol javob bera qoldim.	+	?
Bayramga taraddud hozirdanoq qizib ketdi.	+	?

O'quvchilarning ravish so'z turkumiga xos dastlabki bilim, ko'nikma va malakalarini sinovdan o'tkazishda "**Svetofo**" usuli ham samarali. Bunda slayd orqali namoyish etilgan hukmlarga rozi bo'lgan har bir o'quvchi yashil kartochkani, agar berilgan hukmni noto'g'ri deb hisoblasa, qizil kartochkani yoki ikkilanayotgan, qaror qabul qilishga qiynalayotgan bo'lsa, sariq kartochkani ko'taradi. Bu usulda tezkorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

"**Bilimdonlar**" guruhiga:

1-hukm: Harakat-holatning bajarilish o'rni, daraja-miqdorini bildiruvchi so'zlar ravish deyiladi. (*Yashil kartochka*)

2-hukm: Ravish harakatning belgisini bildiradi. (*Yashil kartochka*)

3-hukm: *Atayin gapirmoq, sekin yurmoq* kabi so'z birikmalarida **atayin** va **sekin** so'zlari ravish turkumiga xos. (*Yashil kartochka*)

4-hukm: Ravish qanday?, qachon?, qancha?, qayerda?, qayerga?, qayerdan? singari so'roqlarga javob bo'ladi. (*Yashil kartochka*)

5-hukm: *Birdan kulib yubordi, to'satdan kirib keldi* kabi so'z birikmalarida **birdan** va **to'satdan** so'zlari ravish turkumiga xos emas. (*Qizil kartochka*)

"**Donolar**" guruhiga:

1-hukm: Harakat-holatning bajarilish tarzi, paytini bildiruvchi so'zlar ravish deyiladi. (*Yashil kartochka*)

2-hukm: Ravish ham sifat so'z turkumi kabi belgi bildirmaydi. (*Qizil kartochka*)

3-hukm: *Tonggi shabada, sekin yurmoq, tez o'qi-*

moq kabi soʻz birikmalarida **sekin** va **tez** soʻzlari ravish turkumiga xos. (*Yashil kartochka*)

4-hukm: Ravish qanday?, qachon?, qancha?, qayerda?, qayerga?, qayerdan? singari soʻroqlarga javob boʻladi. (*Yashil kartochka*)

5-hukm: *Quvonchli xabar, tez oʻqimoq* kabi soʻz birikmalarida **tez** soʻzi ravish turkumiga xos emas. (*Qizil kartochka*)

Yuqoridagi metodlardan foydalanilganda oʻquvchilarning kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi rivojlanadi.


Oʻtilgan mavzu oʻqituvchi tomonidan xulosalanadi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Oʻqituvchi: Oʻtgan darsda biz siz bilan “Ravish” soʻz turkumiga xos kategoriyalar bilan tanishgan edik. Bugungi darsimizda esa ravishlarning yasalishi haqida yangi bilimlarni egallashga kirishamiz.

Ravishlar tub va yasama ravishlarga boʻlinadi. Yasama ravishlar qoʻshimchalar qoʻshish, asos qismni juft va takror qoʻllash yoki ikki asosni birlashtirish yoʻli bilan hosil qilinadi. Qoʻshimcha qoʻshish ravish yasalishining keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Masalan: dona+**lab**, toʻxtov+**siz**, zoʻr+**aki**, bola+**larcha**, vijdon+**an**.

Endi eʼtiboringizni slaydlarga qarataman:



Yangi mavzu haqida dastlabki tushunchalar berilgach, “**Oʻrgimchak toʻri**” metodidan foydalaniladi. Bu oʻyinni oʻqituvchi boshlab beradi, yaʼni ixtiyoriy ravish yasovchi qoʻshimchalardan birini aytilib, istalgan oʻquvchiga kalavaning ikkinchi uchi uzatiladi. Tanlangan oʻquvchi oʻqituvchi tomonidan aytilgan qoʻshimchadan soʻz yasaydi va keyingi istalgan oʻquvchiga boshqa bir ravish yasovchi qoʻshimcha aytib, kalavani uzatadi. Oʻyin shu tariqa davom etadi.

Bu metoddan foydalanish natijasida oʻquvchilarda **shaxs sifatida oʻz-oʻzini rivojlantirish kompetensiyasi elementlari** shakllantiriladi.

Dars avvalida berilgan topshiriqlar “**T-chizma**” grafik organayzeri orqali bajariladi. Bunda sxemaning oʻng tomoniga tub ravishlar, chap tomoniga yasama ravishlarni galma-gal yozib chiqadilar. Masalan:

TUB RAVISHLAR

erta
doim
sekin
kech
baʼzan
atay

YASAMA RAVISHLAR

ertalab
doʻstlarcha
fidokorona
taxminan
erkakchasiga
ataylab

Ushbi usul oʻquvchilarning kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Slayd orqali “**ASCENT**” (Yuksalish) chizmasi namoyish etiladi. Chizmaning chap tomonida quyidan yuqoriga tomon qadam-baqadam ravish yasovchi qoʻshimchalar va oʻng tomonida berilgan ravish yasovchi qoʻshimchalardan ravish yasash vazifasi topshiriladi. 1-qadamdan 2-qadamga oʻtish kaliti esa yasama ravish. Masalan: 1-qadamda **-cha** qoʻshimchasi berilgan, oʻquvchi shu qoʻshimcha yordamida ravish yasay olsagina keyingi qadamni bosishi mumkin. Eng yuqori

-simon	↑	xafasimon
-ligicha	↑	xomligicha
chasiga	↑	ochiqchasiga
-an	↑	tasodifan
-larcha	↑	otalarcha
-lab	↑	saharlab
-ona	↑	mardona
-cha	↑	yigitcha

choʻqqiga koʻtarila olgan oʻquvchi ragʻbat kartochkasiga ega boʻladi.

Mazkur grafik organayzerdan foydalanib oʻquvchilarning kommunikativ va axborotlar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantiradi.

Soʻng darslik bilan ishlanadi.

443-mashq sharti asosida gaplardagi ravishlar topiladi va ularning tuzilishiga koʻra turlari aniqlanadi. Oʻquvchilar gaplarni daftarga koʻchirib, mashq shartini bajargach, “**Mozaika**” metodi amalga oshiriladi va eng koʻp ravish topa olgan guruh ragʻbat kartochkasini qoʻlga kiritadi. Oʻquvchilarning javoblarini slayd orqali tekshiriladi. Bunda oʻquvchilarning **ijtimoiy faol fuqarolik va axborotlar bilan ishlash kompetensiyalari** rivojlantiriladi.

A	V	K	V	B	M	A	Z	X	V	M	A	R	D	L
O	V	M	I	E	E	Ch	D	F	G	H	Q	G	T	A
K	A	A	Y	R	A	N	L	K	J	H	A	B	Y	R
D	L	J	A	T	D	B	A	J	K	E	Y	I	Y	Ch
L	F	B	L	F	A	N	Y	D	A	R	A	N	U	A
M	A	U	A	B	R	R	O	V	Q	H	Y	Z	I	H
N	A	R	Z	X	B	M	D	U	E	O	A	M	P	A
N	Y	S	V	H	U	T	E	R	M	L	Y	X	O	M
A	W	Q	E	R	D	O	I	Y	R	H	O	L	L	I
R	I	D	R	E	H	G	M	S	E	B	V	V	K	Sh
J	L	A	E	L	A	S	T	A	X	A	B	N	J	A
G	H	N	L	K	D	T	D	A	S	D	F	G	H	Y
D	U	B	E	R	I	D	Y	X	Q	B	T	I	O	P

V. Baholash va ragʻbatlantirish.

“Sarmoya yigʻish” usulida toʻplangan ballar hisoblanib, gʻolib guruh aniqlanadi. Faol qatnashgan oʻquvchilar va gʻolib guruh aʼzolari ragʻbatlantiriladi. Barcha oʻquvchilar ishtirokiga koʻra baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

446-mashq. “Lola” saylida mavzusida hikoya yozing. Unda tub va sodda yasama ravishlardan foydalaning.

Gulchehra ORTIQOVA,
 Buxoro shahridagi 34-maktabning
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ENG FAOL TADBIRKOR

7-sinf, IV chorak)

Dars mavzusi: Yuklama, undov, modal, taqlid, tasdiq hamda inkor so'zlar mavzusini o'rganish yuzasidan mustahkamlash darsi.

Darsning maqsadi:

a) *ta'limiy maqsad:* o'quvchilarning yuklama, undov, taqlid, modal, tasdiq hamda inkor so'zlar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma, malakalarini mustahkamlash;

b) *tarbiyaviy maqsad:* yuklama, undov, taqlid, modal, tasdiq hamda inkor so'zlar istirokidagi ta'sirli matnlar asosida o'quvchilarni vatanparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash;

d) *rivojlantiruvchi maqsad:* o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirib, mustaqil, erkin fikrlashga o'rgatish.

Shakllantiriladigan kompetensiyalar: axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, matematik savodxonlik, nutqiy, lingvistik.

Darsning turi:

Darsda foydalaniladigan usullar: "O'ynab gapir-sang ham o'ylab gapir", "Do'st bo'lsang, yonimda tur", "Eng faol tadbirkor".

Darsda foydalaniladigan jihozlar: darslik, savolnomalar, slaydlar, tarqatma materiallar, rag'bat kartochkalari, oq, qora rangli kichik ko'rinishdagi qog'oz pullar, kompyuter, ekran.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar bilan salomlashib, davomat aniqlanadi, sinf xonasining tozaligi va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. Dars musobaqa tarzida tashkil etilishi e'lon qilinishi, o'quvchilar guruhlariga ajratiladi: "**O'tmish**", "**Bugun**", "**Kelajak**".

Guruhlarning darsda ishtiroki "Ofarin!" (5 ball), "Barakalla" (4 ball), "Rahmat!" (3 ball) rag'bat kartochkalari bilan taqdirlanib borishi aytiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash.

Darsning ushbu bosqichida "**O'ynab gapirsang ham o'ylab gapir!**" o'yin uslubidan foydalaniladi hamda o'quvchilarda o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi shakllantiriladi. Bunda o'quvchilar quyida berilgan savollarga faqatgina tasdiq va inkor so'zlar (ha, xo'p, mayli, yo'q, mutlaqo)dan foydalanib javob berishlari kerak bo'ladi. Har bir guruhdan uchtadan ishtirokchi qatnashadi.

"O'tmish" guruhiga:

1. Bog'lovchilar gapning uyushiq bo'laklarini yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'laydimi?, – (Ha)

2. Qalam bilan daftar oldim. Ushbu gapda bilan so'zi ko'makchimi? – (Yo'q)

3. U seskanib tushdi, chol ro'parasiga kelib qolgan edi. Ushbu gapda ikki sodda gap orasida chunki bog'lovchisini qo'ysam bo'ladimi? – (Bo'ladi)

"Bugun" guruhiga:

1. Ergashtiruvchi bog'lovchilar orqali bog'langan uyushiq bo'lakli gap tuzsa bo'ladimi? – (Mutlaqo)

2. Bog'lovchilar qo'llanilishiga ko'ra biriktiruv, zidlov, ayiruv, inkor bog'lovchilariga bo'linadi, shundaymi? – (Yo'q)

3. Va, lekin, ammo, biroq bog'lovchilari sof bog'lovchilarmi? – (Ha)

"Kelajak" guruhiga:

1. Ham so'zi bog'lovchi va yuklama vazifalarini bajaradimi? – (Ha)

2. Nilufar she'rmi qunt bilan o'qidi. Ushbu gapda bilan so'zi ko'makchimi? – (Ha)

3. Ushbu gapda sodda gaplar o'zaro aniqlov bog'lovchisi yordamida birikadimi? Xalq bunday yolbo-rishlarga quloq solmadi, g'isht qolipdan ko'chgan edi. – (Yo'q)

Guruhlar javoblariga ko'ra rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi. Shundan so'ng har bir guruhning ikkitadan ishtirokchisiga uyga berilgan vazifa o'qitiladi. Fikrlar umumlashtirilib, o'qituvchi tomonidan qo'shimcha ma'lumotlar beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Dars takrorlash darsi bo'lganligi uchun "**Do'st bo'lsang, yonimda tur!**" o'yini yordamida mavzu yuzasidan olingan ma'lumotlar qayta yodga olinadi. Bunda darslikda keltirilgan savollardan foydalaniladi. O'yin jarayonida o'quvchilarda **milliy va umummaddaniy kompetensiya** elementlari shakllantiriladi.

Har bir guruhdan 2 nafardan ishtirokchi doskaga chiqib, o'ziga berilgan savolga javob beradi. Guruhdoshi esa uning javobiga qo'shimcha qilishi mumkin bo'ladi. Shu tariqa ikkovlashib rag'bat kartochkasini qo'lga kiritishadi.

"O'tmish" guruhining 1-ishtirokchisiga: Yuklama deb nimaga aytiladi?

2-ishtirokchisiga: Yuklamalarning turlari haqida aytib bering.

"Bugun" guruhining 1-ishtirokchisiga: Undov so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

2-ishtirokchisi: Taqlid so'zlarning tuzilishi va imlosi haqida ma'lumot bering.

"Kelajak" guruhining 1-ishtirokchisiga: Modal so'zlarga misollar keltiring.

2-ishtirokchisi: Tasdiq va inkor so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini mavzuga oid slaydlardan foydalanib to'ldirib, izohlab boradi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.


O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, sizga ma'lumki, bugungi kunda yurtimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilyapti. Sababi ushbu sohaning rivoji xalqimizning usti but, dasturxonni to'kin bo'lishida muhim o'rin tutadi. Bu esa davlatimizning barcha sohada bundan-da yuksakroq yutuqlarni qo'lga kiritishiga xizmat qiladi. O'ylaymanki, sizning ham orangizda tadbirkor yoki biznesmen bo'lishni orzu qilib yurganlar yo'q emas.

Kelinglar, bugungi darsimizda siz ham o'zingizni tadbirkorlik sohasida bir sinab ko'ring. Hozir sizlar guruhingiz bilan kelishib bir kishini o'zingizga tadbirkor etib tayinlaysiz. Bu tadbirkor mendan kredit olib, o'zi xohlagan ish faoliyati bilan shug'ullanadi. Ya'ni u o'z xodimlari – sizga ishni taqsimlab, birgalikdagi mehnatingiz evaziga foyda ko'rib, tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantiradi. Qaysi guruh ko'p foyda ko'rsa, o'sha guruh g'olib hisoblanadi. Unutmang, siz to'plagan har bir bal guruhingiz yutug'i hisoblanadi. Shunday ekan, nafaqat o'zingiz, balki guruhingiz g'alabasi uchun ham mas'ulsiz.

Har bir tadbirkorga **5 million so'm**dan pul mablag'i kredit sifatida beriladi va tadbirkorlar o'z ish faoliyatlarini tanlashadi.

“O'tmish” guruhi: parrandachilik.

Bunda tadbirkor (guruh sardori) davlatdan tovuqlar (monitor orqali 1-rasm ko'rsatiladi, bunda ularga tovuqlar sifatida 1-topshiriq beriladi) sotib olib, ularni ishchilari (guruh ishtirokchilari) yordamida parvarishlaydi. Ya'ni ortida mashqning har bir gaplari keltirilgan tovuq tasviri tushirilgan tarqatmalarni (1-rasm) tadbirkor o'z ishchilariga taqsimlab beradi, ishchilar ushbu topshiriqni qanchalik to'g'ri bajarganliklariga qarab tuxum (2-rasm) yoki tovuq go'shti (3-rasm) rasmi ko'rsatilgan tarqatmani qo'lga kiritadi. Guruh sardori uni bozorda sotuvchi (bir o'quvchi sotuvchi vazifasini bajaradi)ga topshirib, foyda ko'radi (tuxum – 1500 so'm, tovuq go'shti – 2000 so'm, 1000 so'm, 500 so'm, 5000 so'mlik oq va qora rangdagi pul suratlarini tushirilgan qog'oz tarqatmalardan foydalaniladi).



1-rasm. 2-rasm. 3-rasm. 4-rasm.

1-topshiriq. Gaplarni imlo qoidalariga rioya qilgan holda ko'chiring. Yuklamalarning yozilishiga diqqat qiling.

Tarqatmalarda mashqning gaplarini quyidagicha taqsimlab tuzish mumkin:

Kimsan akam birpas qarab turdi (-da), indamay chiqib ketdi. (O'.Hoshimov)

Tolibjon kula-kula, xo'p dedim (-ku), – dedi.

– Samovar senga yoqdi (-mi) axir? (A. Qahhor)

Biz uni changalzor botqoqlikdan chiqolmaydi, deb o'ylagan edik. Chiqibdi (-mi, -a)?

Muzaffar eshikni sharaqlatib ochib, pastga tushdi.
– *Toshkentdagi Rasul degan og'aynimning uyini bilasan (-a)?*


– *Qaysi Rasul? Anovi kamgap professor (-mi)?*

– *O'sha! Mana bu xatni ertalab o'shanga yetkazasan.*

Mashqni **“O'tmish”** guruhi ishtirokchilari sinf taxtasiga bajarib izohlaydi, qolgan barcha o'quvchilar o'z daftarlariga mustaqil bajaradi.

“Bugun” guruhi: chorvachilik.

Bunda tadbirkor bir dona sigir (5-rasm), ya'ni 2-topshiriqni sotib olib, uni o'z xodimlari yordamida parvarishlaydi.



5-rasm. 6-rasm. 7-rasm.

Mashqni **“Bugun”** guruhi o'quvchilari sinf taxtasiga, qolgan o'quvchilar daftarlariga yozma tarzda bajari-shadi.

2-topshiriq. Berilgan so'zlarning turkumini aniqlang va ular ishtirokida og'zaki gaplar tuzing.

Oh, nahotki, ey, kish, obbo, iye, eh-he, hatto, milt-milt, sharaq-shuruq, voy, tiq, dag'-dag', ham, hattoki, beh-beh.

Bunda ular quyidagi jadvaldani to'ldiradilar:

Yuklama	Undov so'zlar	Taqlid so'zlar

O'yin sharti asosida har bir guruhga bir xil miqdorda rag'bat tarqatmasiga ega bo'lish imkoni yaratib berilishi kerak. Shuning uchun ushbu shartni bajarishda o'quvchilarga quyidagicha topshiriqlar beriladi:

Guruhning uchta o'quvchisi jadvalning uchta ustuni-ni to'ldiradi va yana uchta o'quvchi har bir ustunga mos bittadan og'zaki gap tuzadi. Jami 6 ta rag'bat, ya'ni berilgan to'g'ri javoblarga ko'ra sut yoki sut mahsulotlariga ega bo'lishadi. Sut (6-rasm) har biri 1500 so'mga, sut mahsulotlari (7-rasm) har biri 2000 so'mga baholalanib bozorda sotiladi. Ko'rilgan foyda hisoblaniladi.

“Kelajak” guruhi: bog'dorchilik.

Bunda tadbirkor bog' (8-rasm), ya'ni 3-topshiriqni sotib oladi. Undan foydalanadi. Buning evaziga esa meva (9-rasm) yoki meva sharbati (10-rasm) ko'rsatilgan rag'batlarga ega bo'ladi. Ularni sotadi (meva – 1500 so'm, meva sharbati – 2000 so'm), shu tariqa foyda ko'radi.



8-rasm. 9-rasm. 10-rasm.

3-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga izoh bering, ularning nutqdagi ahamiyati tushuntiring.

Mashqning shartini bajarishda ishtirokchilarga bog' tasviri tushirilgan tarqatmalarda ko'rsatilgan quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. **Qur-ey! Qur-ey!** Jimgina quloq soldi. «Ba-a» degan javob yo'q. (S.Anorboyev) 2. **Rustamga dada-si o'yinchoq samolyot olib berdi. U samolyotni ko'tarib "g'uv-v-v-v" deb hovlining u boshidan bu boshiga yugura berdi.** (X.Ahrorova) 3. – G'ozlar, bir so'z deysizmi?

– **G'a-g'a-g'a!**

– Totli suli yeysizmi?

– Ha-ha-ha!

– Nega patni silaysiz?

– **G'oq-g'oq-g'oq.**

– Mendan nima tilaysiz?

– Boq, boq, boq. (Anvar Obidjon)

4. **Hoy chopag'on bulutlar,**

Yog'sangiz-chi **duv-duv.**

Gul bog'imga, dalamga

Juda kerak suv-suv. (B.Yusupov)

Mashqning shartiga ko'ra bunday yordamchi so'zlarning nutqdagi ahamiyati haqida fikr bildirgan o'quvchiga ham bitta rag'bat kartochkasi beriladi. Guruh jami 6 ta rag'batni qo'lga kiritish imkoniga ega bo'ladi

“Eng faol tadbirkor” texnologiyasidan foydalanilganda o'quvchilarda **axborotlar bilan ishlash, o'zini o'zi rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, matematik savodxonlik, nutqiy, lingvistik kompetensiya** elementlari shakllantiriladi

Mashqlar bajarib bo'lingach, ko'rilgan foyda hisoblanib, g'olib guruh aniqlanadi.

V. Baholash va rag'batlantirish.

Dars davomida har bir o'quvchi o'z vaqtida “Ofarin!”, “Barakalla!”, “Rahmat!” rag'bat kartochkalari bilan ham taqdirlanib boriladi va shu asosda o'quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa.

4-topshiriq. *Lapang-lapang, hoy, aftidan, xullas, qiy-chuv* so'zlari ishtirokida gaplar tuzing va ularni izohlang.

Saida Umarova,

an English language teacher at secondary school № 10 in Yangikurgan district, Namangan region

HOW TO TEACH YOUNG LEARNERS IN ENGLISH IN PRIMARY CLASSES

Using interactive teaching methods in lessons, the teacher achieves new opportunities related primarily to the establishment of interpersonal interaction through external dialogue in the process of learning material mastering.

Indeed, certain interpersonal relationships inevitably arise between students in a group; and the success of their training activities depends on what they will be. Skillful organization of interaction between students on the basis of educational material is becoming a powerful factor in improving the effectiveness of educational activities in general.

Interactive learning simultaneously solves several problems:

– develops communication skills and abilities, helps to establish emotional contacts between students;

– solves the information problem, because it provides students with the necessary information, without which it is impossible to implement joint activities;

– develops general educational skills and abilities (analysis, synthesis, setting goals, etc.), that is, provides a solution to learning tasks;

– provides an educational task, because it teaches working in a team, to listen to the opinions of others.

Primary school teachers use the following types of interactive games in the organization of the English language:

1. English lesson with musical activities (song, music, rhythm);

2. An English lesson with visual arts (painting, applique, pottery);

3. English lesson with physical activity;

4. English lesson with theatrical activities;

5. English lesson with playing activity.

In this article we will discuss the study of English in primary classes. Another 10 – 15 years ago, learning a

foreign language began only from the 5th grades. As we know teaching English will begin from the first grades, because learning English is better to start from the first classes in the form of a game. From the second grades children are just beginning to read and write in English. Psychologists believe that in order to avoid confusion in the head, a foreign language is better learned after a basic acquaintance with the native language.

So, how do children learn English? For the most part, learning English is done by listening to audio recordings, learn to pronounce sounds – the simplest phrases and dialogues; learn to work with the dictionaries, flashcards, phrases and dialogues in the classroom. With each class of primary classes, the study goes more deeply.

A game plays a big role in the life of a younger student. And from this point of view, part of the elementary school teachers in the learning process devotes a wide place to linguistic games. These include the following:

1. Lexical games;

2. Grammar games;

3. Phonetic games;

4. Games that develop connected speech.

Linguistic games make the learning process more interesting and turn into a powerful incentive to master the English language. Joy, interest in the process of the game, the successful implementation of the specified exercises generate in children a sense of satisfaction and this is manifested in the learning outcomes.

They differ from entertaining games by having a methodical goal. As you know, educational games serve to perform methodological tasks during lessons and after school hours. Let's take a few of them as an example:

(Davomi 28- betda)



Asror MO'MIN,
shoir va tarjimon;
Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

QUSH TILI

(Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni asosida)

Drama



(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Ikkinchi parda

Uchinchi sahna

*Cheksiz-chegarasiz sahro. Olisda tund osmon.
Shamol uvillaydi. Go'yo g'ira-shira shom mahali.
Qushlar sahnaning chap tomonidan kelib, qum ustiga
qo'nishadi.*

Bir qush:

Voy-bo'y! Bu sahroning bormi oxiri,
Hatto yo'qtur biron jonzot shiviri.
Endi na uyga, na shohga yetamiz,
Balki shu sahroda o'lib ketamiz.
Hudhud, sendan umid, o'zing top tadbir,
Axir senga ayon juda ko'plab sir.

Hudhud:

Kim erur xoli ulus g'avg'osidin,
Shoh izzu johu istig'nosidin.
Bundan chiqadigan xulosa, demak,
Shahimiz izzati, rutbasi yuksak.

Bir qush:

Oldda bizni kutar xavf-xatar, balo,
Go'yo og'ir dardga bo'ldik muhtalo.

Boshqa qush:

Hudhud, bu safarda ko'rdik ko'p mushkil,
Biz dardimiz aytaylik, o'zing hal qil.
Mushkilin har kim sanga qilsa xitob,
Hallida sen ham anga aytib javob.
Qolmog'ondin so'ng ko'ngullarda xatar,
Hech xotirda xavotirdin asar,
Jam' xotir birla qilmoq yo'lg'a azm,
Bu uluq maqsadga tutmoq o'zni jazm.
Yo'qsa yo'l bir kun-ikki kunluk emas,
Bal kishi poyonig'a yettuk demas.
Bo'yla yo'l qat'ida jam' o'lmay ko'ngul,
Shubha birla bormog'i mushkil degul.

Hudhud:

Mayli, bo'lsa kimning ko'nglida savol,
Birin-ketin kelib aytsin bimalol.

Bir qush (Oldga chiqadi):

Tengdurur chun borimizg'a bol-u par,
Sen nedinsen – boxabar, biz – bexabar?
Bu tafovutni sarosar sharh qil,
Kim nedindur – bizga ravshan aylag'il.

Hudhud:

Farqim yo'q va lekin siylangan qushman,
Menga Sulaymonning nazari tushgan.
Shukur, Sulaymonga safardosh bo'ldim,
U bilan kezib ko'p sirlarni bildim.
Shuning uchun men ko'p narsadan ogoh,
Rasul siylaganni siylaydi Olloh.
*Qush Hudhudga tushundim deganCHA ortga che-
kindi.*

Bir qush:

Oldda yuksalgandir mashaqqat tog'i,
Shamolda sochilar ajal tuprog'i.
Bunday yo'lga sher ham etolmas jur'at,
Menday ojiz qushga bu yo'l ne hojat?

Hudhud:

Ey qush, shu gapimni unutma hecham,
Kimda himmat ulug' onda yo'qtur g'am.
Chunki bu ish keldi beshak ishq ishi,
Kimki oshiq ermas, ul ermas kishi.
Har kishiga ishq-u himmat bo'lsa yor,
Bunyau tan za'fig'a ne e'tibor.
Yordin o'lmak agar ummid erur,
Bil hayotedurki ul jovid erur.
*Qush Hudhudga tushundim deganCHA ortga che-
kindi.*

Bir qush:

O'tgan umrimda qilibmen ko'p gunoh,
Bu uyatden asr-u holimdur taboh.
Shu o'y meni ezar botib gunohga,
Qaysi yuzim bilan borurmen shohga?
Pok vaslig'a keraktur poklik,
Yo'qki lavsi jurm aro beboklik.
Dilni ezsa gunoh va undan hasrat,
Pok shoh huzuriga bormoqlik uyat.

Hudhud:

Shukur qil, gunahing bo'yingga olding,
Shukur qil, kech bo'lsin bundan uyalding.
Bu gunah birla gar o'lmak istasang,
Xalq ahvolig'a kulmak istasang.
Bilki bas nodon-u g'ofil bo'lg'asen,
Ahli aql ollida johil bo'lg'asen.
Yaratgan dilingga solmish bu nafas,
Bu gunahdin orimoq etting havas.
Tavbadur uni oritmoqqa iloj,
Zulmati isyon aro budur siroj.
Ulug' ziyoratga chog'lagin o'zing,
El bila bo'l, qo'yg'il umidsiz so'zing.
Bahri rahmat mavjg'a kirgan zamon,
Pok o'lursen men kibi yuz ming ravon.

Qush Hudhudga tushundim degancha ortga chekindi.

Bir qush:

Bu yo'lda yurishga bormikin haqqim,
Chunki yaxshi emas sen kibi xulqim.
Har sifatda keldi tab'im noraso,
Goh fosiqmen, zamone porso.
Bir qaror yo'qturur holimda hecham,
Bu jihatdandur ichimda alam.
Shu qaro fe'l bilan bormay qayoqqa,
O'zgarmasmen, qaro aylanmas oqqa.
Bo'yla yo'lg'akim kerak yakranglig',
O'zni topmasmen sahih ohanglig'.

Hudhud:

Bunday bema'ni fe'l, bo'lmasin iqror,
Filhaqiqat, barchaning zotida bor.
Shuning uchun kimda g'olib bo'lsa nafs,
G'aflat uyqusida uni bosar naqs.
Va lekin kimda-kim cheksa riyozat,
Uni ilhaq etib qo'ymas fazilat.
Sen dog'i bu ishga o'zni chog'lasang,
Bir qotiliqqa belingni bog'lasang.
O'yladur umidkim, bir lufi xos –
Gar tahattukdin seni qilg'oy xalos.
Bu taablardin tarabnok o'lg'osen,
Haq yo'linda rahravi pok o'lg'osen.

Qush Hudhudga tushundim degancha ortga chekindi.

Bir qush:

Hudhud, nafsim manga ham tinchlik bermas,
Qancha yengoy deyman, sira yengilmas.
Bo'yla yo'lda dushman o'lsa ul manga,
Tay nechuk bo'lg'ay bu qattiq yo'l manga.

Hudhud:

Sen nafsga berilib umring sovurding,
Bir eshakdek nafsga jiloving berding.
U qayga boshlasa ortidan yurding,
O'zingcha gerdayib davringni surding.
Umrung o'tti g'aflat-u isyon bila,
Yetti o'lmak yuz tuman armon bila.
Tengri amrin umr o'tub yod etmading,
Sheva juz izlol-u ifsod etmading.

To tirik erding – bu erdi g'aflating,
Bo'yla o'lsang, ko'r, ne bo'lg'ay holating.
Biz bila yur, qolgan umring g'animat,
Zora senga yetsa Haqdin marhamat.
Qush Hudhudga tushundim degancha ortga chekindi.

Bir qush:

Hudhud, senga holim ochiq aytayin,
Meni ham tinch qo'ymas shaytoni lain.
Boshima har lahza solur bir xayol,
Kim emas ondin qutulmoq ehtimol.
Chunki yo'q ondin qutulmog'lig' manga,
Choradur ma'muri bo'lmog'lig' manga.
Uyla muztarmen oning vasvosidin,
Qim zabundur aql oning ihsosidin.

Hudhud:

Sen ham nafs yo'lida bo'libsen qurbon,
Sening bu holingdan shayton ham hayron.
Chunki nafs degani shaytondin yomon,
Ochko'zni izmida o'ynatar oson.
Har ne ul qilmoq kerak nafsing qilur,
Har nekim shayton bilur, ul ham bilur.
Nafsing andoq haqq-u mulk etmish ani,
Kim erur darj anda yuz shayton fani.
Senki yor o'ldung bu yanglig' nafs ila,
Ne uchun shaytondin etkaysen gila.
Ham sanga yuz qatla shaytondin uyot,
Ham anga sen shumi nodondin uyot.
Qush Hudhudga tushundim degancha ortga chekindi.

Bir qush:

Mening ham hushimni mol-dunyo olgan,
Ko'nglimga mol-dunyo to'plashni solgan.
Pul shiqirlashidan olaman huzur,
Ko'zimni o'ynatar oltin, kumush, dur.
Mol-dunyomni qanday tashlab ketamen,
Yaxshisi, hoziroq uyga qaytamen.

Hudhud:

Ey sen, pul jinnisi bo'lib qolibsen,
Pul deb o'zingni har ko'yga solibsen.
Bu ne so'z bo'lg'ayki zikr etkay kishi,
Kim emas bu odamiylarning ishi.
Bilgasenkim yaxshi ermas bu sifat,
U kishini xarob etkay oqibat.
Siym sevgonkim, anga pobast o'lur,
Shavqidin oning ajoyib mast o'lur.
Toki bo'lg'ay dahr bog'ida tirik,
Ro'zg'or andoqki bu yanglig' irik.
Siym uchun yuz hirs-u shaydoliq' bila,
O'lmagay oxir bu rasvoliq' bila.
Siym yig'moqqa natija bo'ldi bu,
Sen oning savdosidin ilkingni yu(v).
Mutlaq oning sori mayl etma yano,
Kim talotumda erur bahri fano.
Qush Hudhudga tushundim degancha ortga chekindi.

(Davomi muqovaning 4-betida)



Nazokat JIYANOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

OG'ZAKI VA YOZMA SAVODXONLIKKA QANDAY ERISHISH MUMKIN?

Ma'lumki, fanda matn – nutq ko'rinishi bo'lib, vazifasi jihatidan nutqiy butunlik ekanligi ta'kidlanadi. Matnlar turli axborotni yetkazish xususiyatiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- 1) badiiy matnlar;
- 2) publiksistik matnlar;
- 3) ilmiy matnlar;
- 4) rasmiy matnlar.¹

Ba'zi ilmiy manbalarda matn tipologiyasiga ko'ra og'zaki va yozma turlarga bo'lib o'rganilgan. Matnda gaplar o'zaro turli sintaktik aloqa vositalar yordamida birikadi.²

Matn tuzish, matn bilan ishlash, matnni tahrir qilish, matnga ijobiy yoki tanqidiy munosabat bildirish, matnni to'ldirish og'zaki va yozma savodxonlikka erishishning amaliy natijalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham talabalar bilan ishlash jarayonida matnga munosabatning to'g'ri rejalashtirgan holda olib borilishi, savodxonlik darajasining o'sishiga olib keladi.

Talabalarining og'zaki va yozma savodxonligini oshirishda o'quv auditoriyalarda mavjud doskalarning ham amaliy ahamiyati katta, ya'ni og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish uchun doskadan foydalanishning **birinchi bosqichida** o'tilgan mavzuga mos holda bitta erkin mavzu tanlanadi. Bu jarayonda o'qituvchi talabalarga qiziqarli bo'lgan mavzulardan to'rt-beshtasini doskaga yozadi yoki o'qib beradi. Masalan: "Biz guruhimiz bilan Afrosiyob poyezdida Samarqandga sayohatga boryapmiz", "Biz guruhimiz bilan tog'ga bormoqchimiz", "Biz guruhimiz bilan kinoga tushmoqchimiz", "Biz guruhimiz bilan Alisher Navoiy nomidagi kutubxonaga bormoqchimiz", "Biz guruhimiz bilan Adiblar xiyoboniga bormoqchimiz" kabi ko'plab mavzularni shakllantirish mumkin.

Talabalar tomonidan mavzulardan bittasi, masalan, "Biz guruhimiz bilan Afrosiyob poyezdida Samarqandga sayohatga boryapmiz" mavzusi tanlab olinadi va har bir talaba mavzu yuzasidan gap tuzadi. Tuzilgan gaplardan foydalanib o'zaro mantiqiy bog'liqlikda matn shakllantiriladi. Matnni shakllantirishda doskadan foydalanish shart. Bunda, birinchidan, barcha talabalar darsga qamrab olinadi; ikkinchidan, jarayon guruh talabalarining barchasini (hatto o'qishga layoqati yo'qlarini ham) fikrlash, mavzuga mos gap tuzishga undaydi. Shakllantirilgan matn tarkibida Afrosiyob poyezdi bilan Samarqandga borilgan sayohat haqidagi fikrlari to'liq aks ettiriladi va xulosalanadi. O'qituvchi har bir talabaning matnni gaplar asosida shakllantirib borishini, ayrim o'rinlarda ularni mavzudan chiqib ketmasliklari uchun nazorat qilib boradi.

Matn shakllantirib bo'lingach, tahlil jarayoni boshlanadi. Bu doskadan foydalanishning **ikkinchi bosqichi** hisoblanadi. Bunda har bir talaba tomonidan doskaga yozilgan gap va ularning ketma-ketligi, mantiqiy bog'langan yoki bog'lanmay qolgan o'rinlari, talabalar tomonidan yo'l qo'yilgan imloviy, sintaktik, leksik, punktuatsion xatolar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinadi.

Doskadan foydalanishning **uchinchi bosqichida** mavzu yuzasidan qo'shimcha, masalan, doskadagi matnga mos kiritmalar topish topshirig'ini berish mumkin. Talabalar o'zlari shakllantirgan matnga mos holda kiritmalar kiritadi va matnni kengaytiradilar. Talabalarining kiritmalardan foydalanishdagi xatoliklari o'qituvchi tomonidan tahlil qilinadi, yutuq va kamchiliklar doskadagi matn asosida ko'rsatib beriladi. Agar matnni shakllantirish jarayonida vaqt yetmasa, unda o'qituvchi talabalar tomonidan shakllantirilgan matnni uyga vazifa sifatida beradi. Chunki doskada matn shakllantirib bo'lindi. Talabalar endi tayyorlangan matnga individual (yakka holda) yondashadilar va o'z fikr-mulohazalari asosida to'ldiradilar. Bu esa matn tahlilining doskadan keyingi bosqichi hisoblanadi.

Matnni tahlil qilishning **to'rtinchi bosqichida** talabalar uyga berilgan vazifani:

- matnni o'z fikrlari asosida kengaytirishlari;
- matnga bog'lanmay qolgan gaplarni olib tashlashlari;
- matnga badiiylikni oshiruvchi til birliklari (ko'chimlar, sinonim, antonim, omonim so'zlar, ibora va xalq maqollari, o'rni bilan mos keluvchi she'rlar) foydalanishlari;
- matnga umumiy xulosa kiritishlari;
- yaxlit badiiy matnga aylantirishlari kerak bo'ladi.

Matnni tahlil etishning **beshinchida** esa keyingi darsda o'qituvchi guruh talabalarining tayyorlab kelgan matnlarini tinglaydi va ikki guruhga bo'lib, talabalar tomonidan tayyorlab kelingan matnni ketma-ketlikda yaxlit bir matnga aylantirish topshirig'ini beradi. Bu topshiriqni bajarishlari uchun vaqt belgilanadi.

Matn tahlilining **oltinchi bosqichida** har bir guruh o'z matnini o'qib beradi. So'ng har bir guruh raqib guruh matnini:

- 1) imloviy;
- 2) sintaktik;
- 3) leksik birliklardan o'rinli foydalana olganlik;
- 4) punktuatsion savodxonlik;
- 5) matn mazmunining ketma-ketligi;
- 6) matnda umumiy xulosalarning mavjudligi jihatidan ko'rib chiqadi.

Matn tahlilining **yettinchi bosqichida** talabalar raqib guruh tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aso-

slab beradilar. O'qituvchi talabalarning fikrlarini umumlashtirib, tahlil jarayonidagi xatoliklar va kamchiliklar yuzasidan fikrlarini bildiradi. Talabalar o'rtasida bahs-munozarali joylarini tahlil qiladi. Har bir guruh a'zolarining og'zaki nutqi va yozma savodxonligi bo'yicha umumiy xulosalar beriladi va baholanadi.

Matn tahlilining **sakkizinchi bosqichida** har bir guruh (2 yoki 3 ta guruh) matnini yaxlit bir matnga aylantirish topshirig'i beriladi. Guruhlar tomonidan tayyorlangan va xulosalangan matn mazmuni bog'lovchi til vositalari orqali ketma-ketlikda yaxlit bitta katta matnga aylantiriladi. Takror gaplar olib tashlanadi. Bu jarayonda ham talabalar o'rtasida bahs-munozaralar bo'lishi tabiiy. Chunki matnga mos variantlar tanlab olingan holda yaxlit matn ketma-ketligini shakllantirishda talabalar tomonidan turli xil fikrlar bildiriladi. Bunday tahlil ham dars samaradorligini oshirishda, ham og'zaki va yozma savodxonlikni shakllantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki matn yaratish jarayonida

talabalarning og'zaki va yozma savodxonlikka bo'lgan munosabati shakllanib boradi, og'zaki nutq savodxonligiga erishish uchun, avvalo, yozma savodxonlikni shakllantirish zarurligi anglab yetiladi. Turli mavzularda matn yaratish, matnga munosabat bildirish, ularni tahlil va tahrir etish talabalarning og'zaki va yozma savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Har qanday matnga munosabat bildirish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu esa kelajagimiz bo'lgan yosh avlodning og'zaki va yozma savodxon bo'lishini ta'minlaydi. Turli mavzulardagi bahs-munozaralarga o'zining erkin fikrini sof adabiy tilda og'zaki berishlariga o'rgatadi. Buning uchun matn yaratish va matn bilan ishlash, barcha matnlarni bir matnga aylantirish kabi topshiriqlarni tez-tez o'tkazib turish, turli mavzularda matn yaratishga undash bu ta'lim beruvchining o'qitish tizimidagi amaliy vazifalari bo'lishi kerak. Shundagina turli xil uslubiy xatoliklarning oldi olinadi va savodxonlik ortadi.

¹M.Yo'ldoshev. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti, 2010. 16-bet.

²J.Lapasov. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O'qituvchi. 1995. 5-bet.

Muazzam DEDAXANOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
1-bosqich tayanch doktoranti

“IFODALILIK VA KO‘CHIMLAR” NAZARIYASI UMUMTA'LIMDA

Darslik va qo'llanmalardan ma'lumki, ko'chma ma'noning metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik va kinoya kabi turlari farqlanadi (2; 157–159). Biroq vazifadoshlik boshqa yondosh tushunchalarga qaraganda kam uchrashi hisobiga bo'lsa kerak, darsliklarda unga to'xtalinmagan. Kinoya esa keyingi mustaqil mavzular qatoridan joy olgan. Biz ham ushbu maqolada 11-sinf darsligida “Ifodalilik va ko'chimlar” mavzusi ostida “Metafora, metonimiya va sinekdoxa”ga urg'u berilganiga asoslanib, faqat shu tushunchalarning yoritilishiga e'tibor qaratdik.

Mazkur mavzuni o'rganish uchun 3-chorak oxirlarida nazariy ma'lumotlar uchun bir soat, mustahkamlash uchun yana bir soat dars soati ajratilgan bo'lib, albatta, nazariyani ham amaliyotga bog'lab o'tish zarur bo'ladi.

Ta'limni tashkil qilish jarayonida «Aqliy hujum», «Zigzag», «Zinama-zina», «Muzyorar», «Yumaloqlangan qor» kabi interfaol usullardan, tarqatma materiallarni tayyorlashda «BBB», «Konseptual jadval», «Venn diagrammasi», «Insert», «Klaster», «Nima uchun?», «Qanday?» va boshqa grafik organayzerlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Ayniqsa, sinfdagi barcha o'quvchilarni faollashtirib olish uchun *blits-so'rov* o'tkazish, «Aqliy hujum» va «Muzyorar» usullaridan foydalanish, dars so'ngida va «BBB» jadvalini ishlatish darsning mazmunli, jonli va samarali o'tishini ta'minlaydi.

Uchta leksik birlik nazariyasi uchun bir soat, albatta, kamlik qiladi. Biroq o'qituvchi bu vaqtda bir mavzu ostida hammasini to'laqonli tushuntira olishi lozim. Raqobat bor joyda o'sish, taraqqiyot bor. Shu bois o'qituvchi, avvalo, sinfdagi o'quvchilarni uch guruhga bo'lib, musobaqa darsini yo'lga qo'ysa, kutilgan natijaga erishish qulay bo'ladi.

Jamoalar o'z sardorini aniqlab, guruh nomi bilan o'zlarini tanishtirishadi. Albatta, guruh ko'chma ma'noda, masalan, jonzot nomi bilan “Lochinlar”, “Arslonlar”, “Qaldirg'och” kabi metaforik usulda nomlanishi maqsadga muvofiq. Avvalo, muallim o'tilgan mavzular takroriga oid topqirlar o'yini, tezkor savol-javob (*blits-so'rov*)lar o'tkazadi va natijalarni tegishli ball bilan svetofor shaklida yashil – 3 ball, sariq – 2 ball va qizil – 1 ball sifatida kartochna berib, baholab boradi. Keyin mavzuga doir har bir tushunchaga hamkorlik texnologiyasi bo'yicha qisqacha izoh berishi va ko'proq mashqlar ustida ishlashni yo'lga qo'yishi joiz.

O'zbek tilidagi so'zlar, asosan, polisemantik (ko'p ma'nolilik) xususiyatiga ega. Ular ko'chma ma'no orqali emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik kasb etishi tili-mizning juda keng imkoniyatlarga egaligidan dalolat beradi.

Nutqda so'zlar turli xil yo'l bilan ko'chma ma'noda qo'llanadi va ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chim asosida ikki narsa yoki tushuncha o'rtasi-

dagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik) bo'yicha tasviriylik, ifodalilik hamda aniqlikni kuchaytirish maqsadida ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Ko'chimlarning metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi bir nechta turlari farqlanadi. Bu o'rinda metafora, metonimiya va sinekdoxa tushunchalariga to'xtalib o'tamiz.

Metafora ("metaphora" – ko'chirish) narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishi hisoblanadi. Masalan, *uzukning ko'zi* birikmasidagi ko'z so'zining ma'nosi metaforik ma'no, chunki u odamning ko'ziga o'xshashligi asosida yuzaga kelgan. Lekin ayni so'zning bu ma'nosi tilda doimiy metaforaga aylangan, ya'ni mustaqil so'z sifatida turg'unlashib, mazkur tushunchaning nomiga aylangan. Metafora qanchalik yangi, shaxsning individual mahorati asosida yuzaga kelgan bo'lsa, shunchalik ta'sirchan, ifodali bo'ladi. Mohir so'z ustalari o'z asarlarida so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orqali ifodali, obrazli nutqning o'zgal namunalari yaratadilar. Quyidagi misolda buni o'z ma'nosida qo'llanmagan so'zlarni hamkorlikda aniqlash orqali ko'rishimiz mumkin:

Manglayi tirishar zinapoyaning,
Panjara **kuylaydi** misoli chiltor,
Terlab ketganini ko'rsang oynaning...
Hamma narsa seni **kutar** intizor. (Iqbol Mirzo)

Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ko'chma – metaforik ma'noda qo'llangan (3; 79–80).

Metafora yo'li bilan ma'no ko'chishi yuzaga kelishini quyidagicha izohlash mumkin (2; 157):

a) shaklning o'xshashligi, ifodalanayotgan predmet (hodisa)lar o'rtasidagi shakliy o'xshashlik asosida: og'iz (*odamning og'zi* – o'z ma'nosida, bosh, asosiy leksik ma'no) – og'iz (*g'orning og'zi* – ko'chma, hosila ma'no), quloq (*odamning qulog'i* – o'z ma'nosida) – quloq (*radioning qulog'i* – ko'chma, hosila ma'no);

b) tashqi ko'rinishning mavhum o'xshashligi: bosh ("odam a'zosi" – o'z ma'nosida: *odamning boshi*) – bosh ("narsa, o'rin-joyning boshlang'ich nuqtasi" – ko'chma, hosila ma'no: *yo'lning yoki gapning boshi* kabi);

d) baholar tuzilishidagi o'xshashlik, ikkita belgi-xususiyat o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: vazmin ("yengil emas" – o'z ma'nosida: *vazmin tosh*) – vazmin ("tabiatan bosiq" – ko'chma, hosila ma'no: *vazmin odam*) yoki yengil ("vazmin, og'ir emas", o'z ma'nosida: *yengil yuk*) – yengil (qiyin, og'ir bo'lmagan – ko'chma, hosila ma'no: *yengil jazo, yengil topshiriq*);

e) ishlab chiqarilgan taassurotlarning o'xshashligi: *achchiq qalampir* (o'z ma'nosida) – *achchiq xotira* (ko'chma, hosila ma'no);

f) joyning o'xshashligi, narsa-predmetlar u yoki bu qismlarining o'rni nuqtayi nazaridan o'xshatish asosida: dum («jonzot a'zosi» – o'z ma'nosida: *kuchukning dum*) – dum («narsaning orqa qismi» – ko'chma, hosila ma'no: *samolyotning dum*);

g) harakatlarni taqdim etish usulidagi o'xshashlik, ya'ni bajarilgan yoki bajariladigan ish-harakatlar o'rtasidagi nisbiy o'xshashlik asosida: chaqmoq (ari yoki ilon kabi jonzotlarning zarar berishi – o'z ma'nosida) – chaqmoq ("xafa qiladigan gap aytmoq" – ko'chma, hosila ma'no: gap bilan chaqib-chaqib oladi).

Izoh. Qavs ichini, aniqrog'i, o'z va ko'chma ma'noni aniqlash o'quvchilarga havola qilinadi, guruh va undagi o'quvchilarning ketma-ketlik tartibi buzilmagan holda javob berishlari so'raladi.

Topshiriq. Har bir guruhga besh daqiqa vaqt ichida metaforaga misol tuzish bo'yicha "**Kim chaqqon?**" musobaqasi uyushtiriladi. Birinchi guruh ot (odamda bor narsani ko'chma ma'noda ifodalash), ikkinchi guruh sifat va uchinchi guruh fe'l turkumiga mansub so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llab, jumla tuzishi talab etiladi.

"Lochinlar" (ot)	"Arslonlar" (sifat)	"Qaldirg'och" (fe'l)
ariq labi	shirin bola	quyosh kulib qaraydi
tog' etagi	bemaza gap	osmon ko'z yosh to'kadi
daryo yoqasi	sovuq muomala	gap bilan uzib oldi

Metonimiya ("metanimia" – qayta nomlash) – narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi ichki aloqadorlik asosida birining nomi bilan ikkinchisining atalishi. Masalan, *xona jimjit* gapidagi xona so'zi metonimik qo'llangan bo'lib, unda xonadagi odamlar nazarda tutilgan.

Yozuvchining mahorati bilan badiiy nutqdagi metonimiya tufayli yuzaga kelgan ifodalilikka e'tibor qaratamiz:

Bu yerga termulib parishon dunyo,
To'g'rilab oladi qo'lda soatin. (A.Oripov)

Bu o'rinda ham *dunyo* odamlar ma'nosini o'zida ifodalagan.

Misollardan ayonki, metonimiya so'zni tejamkorlik bilan qo'llash asosiga quriladi. Mazkur usul asosida ko'chma ma'no hosil qilish fikrimizni lo'nda, ifodali, ta'sirchan bayon qilishning bir yo'li sanaladi. Metonimiyanning qanday ko'rinishlarda namoyon bo'lish (1; 102–103) masalasini yoritish ham o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida musobaqani davom ettirgan holda amalga oshiriladi. Ya'ni o'qituvchi har bir o'quvchiga individual yondashgan holda misollarni berib boradi, o'quvchilar esa tushib qolgan so'z nimaga aloqador ekanligini izohlashi kerak bo'ladi. Masalan: **Rauf Parfini o'qiyapman** – kitobxonning nutqidan kitob nazarda tutilyapti.

O'qituvchi tomonidan har bir o'quvchining javobiga asoslanib, baholab boriladi.

O'qituvchi	"Lochinlar" guruhi vakili
1. "Anvar va Ra'no"ni sevib o'qiyman.	A.Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani bosh qahramonlari asar nomi o'rnida qo'llangan.
O'qituvchi	"Arslonlar" guruhi vakili
2. To'xtaniyoz ota kolbasalari	Biror narsa nomi uni ishlab chiqargan shaxs nomi bilan atalishidan yuzaga kelgan.
O'qituvchi	"Qaldirg'och" guruhi vakili
3. Dasturxonga chiqing.	Biror joydagi narsa nomi orqali o'sha joy tushunilgan.

Sinekdoxa yunoncha “synekdoche” – “birgalikda anglamoq”, “qo‘shib anglamoq” so‘zidan olingan bo‘lib, bo‘lak orqali butunni yoki butun orqali bo‘lakning nomi ikkinchisiga ko‘chirishdan yuzaga keladi. Masalan: *Bashirjon yoniga ag‘darildi: “Rahmatli chol to‘g‘ri aytarkan. Undan-ku, bir tirnoq – men qoldim. Yaxshimiyomonmi, har qalay, ismini familiya qilib yuribman”* (N.Aminov) jumlasidagi *tirnoq* so‘zi sinekdoxa yo‘li bilan *farzand* ma‘nosida qo‘llangan.

Ko‘p hollarda sinekdoxa ajralmas butun va bo‘lakni bildirsa, metonimiyada bu holat “ajraluvchan” xarakterga ega bo‘ladi. Qiyoslang:

– *Do‘stlar, – deya peshvoz chiqdi jingalak soch.* (Sinekdoxa, chunki soch odamning ajralmas qismi)

– *Hoy qizil qalpoqcha, qayoqqa ketyapsan?* (Metonimiya (1; 104-105). Qalpoq esa kiyim, uni yechib qo‘yish, boshqasiga almashtirish mumkin).

Shunday qilib, sinekdoxa (ya‘ni nazarda tutish) vo-sitasida shaxs yo predmetning nomi o‘rnida biror a‘zo, bo‘lak orqali o‘sha tushuncha beriladi yoki daraxtlar o‘z mevasi nomi bilan yuritiladi.

Bu nazariy ma‘lumotlar tushunarli bo‘lishini mustahkamlash uchun o‘qituvchi har bir guruh vakiliga individual yondashgan holda misollarni berib boradi, ular esa berilgan misol qaysi predmetning butuni yoki qismi ekanligini aniqlashlari lozim bo‘ladi. Namuna:

O‘qituvchi	“Lochinlar” guruhi vakili
1. <i>Besh qo‘l barobar emas.</i>	Qo‘l (butun) orqali barmoq (qism) nazarda tutilgan.
O‘qituvchi	“Arslonlar” guruhi vakili
2. <i>Nikolay zamoni-da ostonam tuyoq ko‘rmagan.</i>	Ostona (qism) orqali uy, xonadon (butun) nazarda tutilgan. Yana tuyoq (qism) orqali hayvon (butun) nazarda tutilgan
O‘qituvchi	“Qaldirg‘och” guruhi vakili
3. Olma gulladi.	Olma mevasi (qism) orqali olma daraxti (butun) nazarda tutilgan.

Darslikdagi mashqlardan aksariyat qismi yopiq test uchun saralab olinadi, qolganlari esa ochiq test shaklida mustahkamlanadi. Bu o‘rinda yopiq test belgilangan vaqt ichida o‘zaro guruh vakillari hamkorligida, ochiq test esa individual bajarilishi yo‘lga qo‘yiladi. Topshiriqda metafora, metonimiya va sinekdoxa bo‘yicha aralash berilgan misollarni to‘g‘ri farqlash talab etiladi.

Yopiq test namunasi o‘quvchilarga qulay bo‘lishi hamda vaqtdan yutish maqsadida misollarning yuqorisiga to‘g‘ri javob bo‘luvchi variantlar yozib qo‘yilgan bo‘lib, jamoalar belgilangan vaqt mobaynida metonimiya bo‘lsa – B, sinekdoxa bo‘lsa – C harfini (misollar oxiriga) belgilaydilar:

A) metafora

B) metonimiya

C) sinekdoxa

1. O‘zbek **Navoiyni** o‘qimay qo‘ysa, **Oltin** boshning kalla bo‘lgani shudir. (E.Vohidov)

2. Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko‘ngillar-ni **qitiqlay boshladi.**

3. Qodir akaning **eshiklari** shumi?

4. Yana tabiatning **dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...**

5. Balki tush ko‘rganday qolursiz hayron, Eshitib **Toshkentning** sabr-u toqatin. (A.Oripov)

Ochiq test namunasi:

1. *Jo‘shadi buloqning kumush yoshlari, Ham mungli, ham shirin jildirashlari.*

She‘riy parchada ma‘no ko‘chishining qaysi turi qo‘llangan?

A) sinekdoxa B) metafora

C) metonimiya D) vazifadoshlik

2. Qaysi atama yunonchadan olingan bo‘lib, birgalikda anglash ma‘nosini bildiradi?

A) metafora B) metonimiya

C) sinekdoxa D) kinoya

3. *Navbatim sumka ko‘targan “jinsi” dan keyin.* Ushbu gapda ma‘no ko‘chishining qaysi turi sodir bo‘lgan?

A) metafora B) metonimiya C) sinekdoxa D) kinoya

4. Nutqimizda eng keng tarqalgan ma‘no ko‘chish usuli qaysi?

A) metonimiya B) metafora

C) vazifadoshlik D) sinekdoxa

5. *“Yig‘ilishga mo‘ylovni chaqirib kelmoq”* birikmasida ma‘no ko‘chishining qaysi turi sodir bo‘lgan?

A) metafora B) metonimiya

C) sinekdoxa D) kinoya

Dars so‘ngida musobaqa natijasi e‘lon qililib, g‘oliblar mukofotlanadi. Uyga vazifa sifatida o‘tilgan mavzularni takrorlash hamda mavzuga doir testni yechib kelish topshiriladi. Shuningdek, uy topshirig‘i qatorida ko‘chma ma‘no asosiga qurilgan badiiy matn – qatra yozish talab qilgan ma‘qul. “Boychechak bilan suhbat”, “Navro‘z, seni sog‘indik”, “Qaldirg‘ochman, eshit nol-amni” kabi mavzulardan birida metafora, metonimiya, sinekdoxa usullarini mahorat bilan qo‘llab, eng yaxshi badiiy matn yarata olgan o‘quvchi rag‘batlantirilishi e‘lon qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dedaxanova M., Dadaxonov A. O‘zbek tili fanidan ma‘lumotnoma. Qo‘llanma. – Toshkent: Yangi kitob, 2016.
2. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: «Talqin», 2005.
3. Mahmudov N., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili: O‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinf va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari o‘quvchilari uchun darslik – Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018.



Jumanazar ABDULLAYEV,
Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va
adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi

INSONIYATNING ENG BUYUK KASHFIYOTI NIMA?

Til – moddiy, ma'naviy olam, jonli-jonsiz mavjudotlarning sezgi a'zolarimizga ta'sir etib, ongimizda in'ikos etishi natijasida shakllangan turfa xil tasavvur, tushunchalar, ularning o'zaro munosabati natijasida xotiramizdan o'rin olgan doimiy nomi, nisbatan barqaror atamasi, o'zgarmas ifodalovchisi, tayyor holdagi akustik obrazi bo'lgan ijtimoiy-ruhiy vositalar tizimlaridir. Ular lisoniy birliklarning pog'onali assotsiativ paradigmatlari va o'ziga xos ma'naviy, funksional tabiatiga ko'ra o'zaro birikib yoki maxsus mantiqiy-grammatik-modal tavsiflanib, turli fikriy mazmunli sintaktik birlik – gaplarni shakllantiradi. Bu nutq a'zolari yordamida talaffuz qilinishi yoki yozma shaklda ifodalanishini o'z ichiga oluvchi, ayni shu jarayonlarning dialektik bir butunligidan hosil bo'luvchi dual funksional sistema – qo'sh mohiyatli murakkab ijtimoiy-individual, ideal-material hodisa hisoblanadi.

Shunday hodisa sifatida tilning biri ikkinchisini taqozo etadigan, lekin har biri o'ziga xos tabiati, ma'no-vazifasi bilan xarakterlanuvchi ikki xil tabiiy va bir xil shartli (sun'iy, subyektiv) yashash shakli, mavjudlik holati farqlanadi. Ularning biri lison, ikkinchisi nutq (og'zaki nutq), uchinchisi yozuv (yozma nutq) deb ataladi.

To'g'ri, til avvalboshdan tabiatan ikki xil – psixik va fizik holatda mavjud bo'lgan lingvistik hodisalarning dialektik birligidan tashkil topadigan o'ziga xos siklik harakatdagi butunlik sifatida faoliyat ko'rsatib kelayotir. Mohiyat, asos e'tibori bilan til hozir ham shunday hodisa. Tilshunos olim F. de Sossyur ta'biri bilan aytganda, *ong va birliklarini shakllantirgan, psixik muhr, akustik obraz holatdagi til (lisoniy) birliklari va ana shu lisoniy birliklarning nutq jarayonida o'zaro birikib-bog'lanib yoki o'ziga xos mantiqiy-grammatik-intonatsion-modal tavsif olib, fikr ifodalovchi har xil gap hosil qilishi natijasida uning tarkibiy qismlari yoki bir butun gap sifatida namoyon bo'lishi, reallashishidan yuzaga keladigan nutqiy birliklar* holida faoliyat ko'rsatishi, kommunikativ, kognitiv, emotsional-ekspressiv, estetik funksiyalanishi tilning asosiy hayot tarzi, birlamchi yashash shakli bo'lib, bu har qanday til uchun xos bo'lgan hodisa, azaliy va abadiy qonuniyatdir.

Ammo ijtimoiy hayotdagi tub o'zgarishlar o'z taraqqiyoti davomida shunday bir vaziyatni yuzaga keltirdiki, jamiyatda yozuvning dunyoga kelishi uchun hayotiy zarurat, ehtiyoj tug'ildi, jamiyat yozuvsiz yashay olmaydigan darajada rivoj topdi. Va yozuv kashf qilindi, inson shu paytgacha og'zaki tarzda ifodalab kelgan fikrini yozma shaklda ifodalash imkoniyatiga ham ega bo'ldi, yozma nutq paydo bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, yozuv – inson yaratgan eng buyuk kashfiyot bo'lib qoldi, ta'bir joiz bo'lsa, yozuv, yozma

nutq insoniy til, inson ixtiro qilgan eng buyuk muloqot, aloqa vositasidir. Qolgan buyuk ixtirolarning hech biri ijtimoiy taraqqiyotdagi roli, ahamiyati jihatidan unga teng kela olmaydi. Zero, boshqa ixtirolarning kashf qilinishida yozuvning o'rni tengsiz. Yozma nutq bugun uni kashf qilgan shaxslarning o'sha paytda xayoliga ham kelmagan taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Bundan ayon bo'ladiki, til jamiyat taraqqiyotining ma'lum vaqtida ikki xil tabiiy yashash shakli, mavjudlik holati bilan birga insonning o'zi kashf qilgan yozuv tufayli uchinchi xil yashash shakli – yozma nutq shakliga ham ega bo'ladi.

Albatta, jamiyat yozuvsiz yashagan davrlar ham bo'lgan, shuningdek, yozuvsiz yashayotgan jamiyatlardan ham bor. Biroq har ikkisi ham jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlariga taalluqli hodisalardir. Tom ma'nodagi bugungi jamiyatni yozuvsiz, yozma nutqsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Demak, tilning uch xil yashash shakliga ega ekanligi bugun bor haqiqat, mavjud lingvistik reallikdir.

Binobarin, til haqida fikr yuritganda uning ana shu yashash shakllari, mavjudlik holatlarini hisobga olish, gap uning qaysi shakli va qaysi shakliga oid birliklar haqida ketayotganini aniq belgilash, farqlashga to'g'ri keladi. Aks holda fonemani tovushdan, tovushni esa harfdan, so'zni so'zshakldan, yasalmani yasalgan so'zdan, sintaksemani so'z birikmasi va gapdan, tekstemani matndan farqlamaslik kabi noilmiy holatlarga yo'l qo'yilaveradi.

Til ilmi ham, til ta'limi ham ilmga asoslangan, ilmiy asosda tashkil qilinadigan, ilmiy asoslar hukmron bo'lgan aqliy, aqliy-amaliy jarayonlar hosilasi. Binobarin, til ilmida ham, til ta'limida ham ularning bosh predmeti bo'lgan tilning uch xil (ikki xil tabiiy, bir xil shartli) yashash shakli, mavjudlik holatini farqlash, shunga ko'ra fikr yuritish, til va til birliklarini shunday talqin qilish hamda faoliyat ko'rsatish jarayonida shunga qat'iy amal qilish mazkur soha mutaxassislarining kasbiy burchi, mas'uliyatli vazifasidir.

Bugungi kunda lison va lisoniy birliklar, nutq va nutqiy birliklar, og'zaki va yozma nutq, ularga oid birliklarning aniq farqlanishi, bir xil hodisalar emasligi, har birining nisbiy mustaqilligi va o'ziga xos nazariy talqin va tavsifga ega. Hamma gap til ilmi va til ta'limida ularga qat'iy amal qilish, amaliy faoliyatda ularni farqlab fikr yuritish, talqin qilishda. Bu boradagi ishlar qayta ko'rib chiqish, aniqlik va izchillikka muhtoj. Bunday qilishning ularni farqlamay fikr yuritishdan afzal ekanligi ulug' alloma bobomiz Alisher Navoiy tomonidan bundan necha asrlar avval aytilgan, tilshunos olimlar V. fon Gumboldt, B. de Kurtene, F. de Sossyur, S.Ivanov, S.Usmonov tomoni-

dan bundan necha yillar oldin asoslab berilgan. Shular asosida o'zbek tilshunosligida ham *til~ lison~ nutq* farqlanishiga oid qator fundamental asarlar dunyoga kelganligi ham ko'pchilikka ma'lum. Anglash unga amal qilish bilan ahamiyatli. Til ilmi va til ta'limining uzviyligi, mutanosibligi, muvofiqligi, sifati va samaradorligi bugun shunga bog'liq.

O'ylaymizki, o'zbek tilshunosligi va ona tilini o'qitish tizimi bugun til, lison va nutqni, ularga oid birliklarni farqlash, farqlab fikr yuritishga qat'iy amal qilgandagina ana shunday to'laqonli ilmiy asoslarga ega bo'ladi. S.Ivanov, S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, I.Qo'chqortoyev, A.Hojiyev, A.Nurmonov, H.Ne'matov, N.Mahmudov kabi tilshunoslar va hozirgi o'zbek adabiy tili ta'limining yetuk mutaxassisleri faoliyati buning yaqqol isboti. Til ilmi va til ta'limini kutilgan darajada

taraqqiy ettirish va takomillashtirish bizdan bugun ana shu asosiy farqlanishga qat'iy rioya qilishni taqozo qilmoqda. Tilning o'zaro bog'liq, shartlangan, bir-birini taqozo etuvchi, ammo aniq farqlanuvchi lison va nutq deb atalgan ikki xil mavjudlik holati borligi, ularning dialektik birligi obyektiv haqiqat.

Demak, ularni farqlash va, o'z navbatida, lison va nutqning dialektik birligini ta'minlash bilan biz aslida obyektiv haqiqatni qayd etgan, unga muvofiq ish tutgan bo'lamiz. Fanimiz ilmiy paradigmasiga keyingi yillarda kirib kelgan "til shaxsi", "so'zlovchi shaxs" tushunchalari ham ana shu muvofiqlikka mos fikr yuritish natijasi sanaladi. Zero, til ijtimoiy hodisa bo'lish barobarida individual, shaxsiy; individual-shaxsiy bo'lishi barobarida ijtimoiydir. Ular biri ikkinchisini taqozo etadi, biri ikkinchisiz yashay olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizov A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent, 1992.
2. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. 232-bet.
3. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. – Toshkent, 1993.
4. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent, 1995.
5. Nurmonov A. Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. – Toshkent, 2008.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Darslik. – Toshkent, 2006.
7. Usmonov S. O'zbek tilida so'zning morfologik tuzilishi. – Toshkent, 2010.
8. Qo'chqortoyev I. Ferdinand de Sossyurning lingvistik konsepsiyasi. – Toshkent: Fan, 1976.
9. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent, 2010.

Tarjimashunoslik

Mohira OTABOYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Oliy adabiyot kursi magistranti

BOLALAR VA OLIMLARNI BOSHDA TURISHGA O'RGATGAN ERTAK

(Muallif uslubini qayta yaratish – badiiy tarjimaning sharti)

Jahon adabiyotida shunday asarlar borki, ularni tarjima qilish anchayin murakkab. Bunga asar muallifining chet ellik ekani, u bizdan ancha uzoq, o'zgacha urf-odatlar hukmron, adabiy me'yorlar ham farqli davrda ijod qilganigina emas, balki o'sha asar yozilgan til sabab bo'ladi. Ingliz adabiyotining zabardast adibi Lyuis Kerrollning "Alisa Mo'jizalar mamlakatida" va "Alisa Ko'zguorti o'lkasida" ertaklarini adabiyotshunoslar shunday asarlar sirasiga kiritishadi.

Rus adabiyotshunosi N.Demurova asarlardagi bu murakkablikni "qudratli personajlar"da ekanini aytib, bu "personajlar shaxs emas, ingliz tilining o'zi" deya xulosa qiladi. Yozuvchi bosh qahramon Alisa yordamida tilga xos alogizmlarga murojaat qiladi va ular bilan "tajribalar" o'tkazadi. Albatta, bunday tajriba dunyodagi boshqa adiblar ijodida ham uchraydi, biroq hech bir

yozuvchi Kerrollchalik ularga keng o'rin va ahamiyat bermagan. Ayni shu jihat tarjimon uchun asosiy qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

1917- yilgacha rus tarjimonlari tomonidan qilingan tarjimalarda asarlarni "ruslashtirish"ning guvohi bo'lamiz, misol uchun, "Alisa Mo'jizalar mamlakatida" asarini bir tarjimon (afsuski, uning ismi va boshqa ma'lumotlar saqlanmagan) "Sonya devlar qirolligida" ("Соня в царстве дива") deb o'g'irgan. Shuni qayd etib o'tish joizki, o'sha davr adabiy me'yorlari buni qabul qilgan va hech qanday e'tirozlar bo'lmagan, mualliflar asarini to'la rus bolasiga, aniqrog'i, faqat kichik o'quvchiga moslagan. Natijada Alisa – Sonyaga, oqsoch Meri-Enn – Marfushaga, Cheshir mushugi esa Sibirning g'ayrioddiy maxluqiga aylangan.



O'tgan asrning 20–40-yillariga kelib, ikkala asar va ulardagi she'rlarning tarjimonlari: V.A.Azova, T.L.Shepkinoy-Kupernik, A.Olenicha-Gnenenko kabilar tarjimini imkon qadar asliyatga so'zma-so'z tarjima orqali yaqinlashtirishga urinishadi, biroq N.M.Demurova bu urinish asarni tiniqlashtirmaganini va jozibasiga putur yetkazganini aytadi.² *"Bu yerda masala shundaki, – deya urg'u beradi olim, – Kerrollcha boshqotirma, parodiya, mantiqiy "ko'chish", metaforalar yoki asarning istehzolariga to'la qurilishini so'zma-so'z o'girish mumkin emas"*.

Ta'kidlash o'rinliki, aynan N.M.Demurovaning D.Orlovskiy va S.Marshak bilan hamkorlikda qilgan tarjimai ancha muvaffaqiyatli chiqqan va asliyatga mos kelishi bilan birga tarjima sohasida o'rgansa arziqli maktab bo'la olgan. Olima Kerroll asarlarini rus tiliga o'g'ribgina qolmay, yozuvchi hayoti hamda ijodini chuqur tadqiq qilgan. Uning: *"1966-yiliyoq D.G.Orlovskoy bilan asar tarjimasiga kirishayotib oldimizda turgan qiyinchilik va masalalarni anglaganmiz. Biz Kerroll ertaklaridagi dam o'ynoqi va sho'x, dam lirik va falsafiy ruhiyatni, shuningdek, muallifning o'ziga xos vazmin, aniq, ortiqcha "jimjimadan" xoli (faqat avtor oldiga "kinoya" yoki "ekssentrik" maqsad qo'yib shu yosinda yozgan holatlarni hisobga olmaganda), biroq jo'shqin va ma'noli nutqini yetkazib berishimiz kerak edi"*, – degan fikrlari men uchun bu ikki asar tarjimasida asosiy dasturilamal vazifasini o'tadi.

Asarlarning boshidayoq nom va atamalar to so'ngigiga qadar tarjimonni o'yantirardi. Kerroll beto'xtov sujetga yangi personajlarni kiritadi va ularning takrorlanmas nomlarini o'girish esa o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Muallif ularni tasodifan yoki shunchaki tanlamagan, personajlarda ishora, adabiy alluziya, millat madaniyatining qatlamlari butunligicha aks etgan. Misol uchun, *"Alisa Mo'jizalar mamlakatida"* asarining ikkinchi bobidagi ko'z yoshli ko'lda suzayotgan antiqa hayvonlarini olaylik: **"... a Duck and a Dodo, a Lory and an Eaglet, and several other curious creatures"** deya beriladi ular asarda.

Amerikalik yozuvchi, matematik, *"Paranormal hodisalarni ilmiy tadqiq qilish komiteti"* asoschilaridan bo'lgan Martin Gardner bu personajlarni shunday sharhladi: *"the Duck"* – Robinson Dakvort (Duckworth), *"the Lory"* – Lorina, opa-singil Liddellarning (yozuvchi aynan Alisa Lidell sabab bu ikki beqiyos asarini yozgan) kattasi; *"the Eaglet"* – kichik singil Edit; *"the Dodo"* esa Kerrollning o'zi. Gardner buni yozuvchi o'zining asl familiyasini duduqlangani uchun *"Do-do-djson"* deb aytgani bilan bog'laydi.³

Kerrollning ikkala asarida ham xizmatkorlar personaji bor. Anglosokson bu xizmatkorlarning nomlari – *"Hatta"* va *"Haigha"* bir qarashda ingliz tiliga mansubmasday. Ismlarning o'zagi izlansa, *"Hatta"* *"Halter"*, ya'ni *"kallavaram, ovsar"*, *"Haigha"* esa *"Hare"* *"quyon"* ma'nosini berishi ma'lum bo'ladi. Ma'lumki, ikkala personaj ham ingliz xalq folkloridan olingan, rus tarjimonlari ham bu masalada mulohaza yuritib, asardagi personajlarning to'liq nomini *"meros"* qilish maqsadida, *"Haigha-Hare"*ni *"Zay Ats"* va *"Hatta-Hatter"*ni esa *"Bolvens Chik"* deydi.



Men ham tarjima qilayotib avvaliga ayni tajribaga asoslanib personajlarni *"Quy Yon"* va *"Kalla Varam"* shaklida berishga qaror qilgandim. Biroq asliyatga yaqinlashaman deb o'zbek kitobxonni matnini o'qiyotib *"qo-qilish"*ni payqadim. Atoqli tarjimon G'.Salomov: *"to'g'ri tarjima etishni maqsad qilib qo'ygan kishi, ko'proq, hijjalab tarjima qilishga, muddaosi chiroyli tarjima qilishdan iborat bo'lgan kishi esa ... ko'proq, o'zini avtorlashtirishga moyil bo'ladi"*, deya masalani konkretlashtirgandi. Shuning uchun qahramonlarni nomlashda ortiqcha murakkablikdan qochib va asliyatdagi ma'nosidan ham yiroqlashmagan holda *"Quyyon"* va *"Kallavaram"* deya o'girishni ma'qul topdim.

Kerroll o'z xalqining folklor bisotidan har ikki asarida ham imkon qadar unumli foydalangan. *"Alisa Ko'zgu orti o'lkasida"* asaridagi *"Tweedledum"* va *"Tweedledee"* obrazlari ingliz bolalar folkloridagi she'rdan olingan. Personajlar nomlari ular haqidagi she'rni o'girayotib aslidek qoldirilsa, satrlardagi o'ynoqi bolalarga xos ohang yo'qolishi sezildi. Rus tarjimonlari ularni *"Trulyalya"* va *"Tralya-lya"* tarzida o'girishadi. Aytish kerakki, egiz aka-ukaning bunday nomlanishi she'rga ham mutanosib tushgan hamda ularning kulgili, qo'pol, ammo yoqimtoy qiyofasiga ham yarashgan. Men ham mazkur tajribani asarni o'zbekchalashtirayotib o'zlashtirishni ma'qul ko'rdim.

Adib asarlaridagi har bir qahramon nomining tarjimai haqida shu yo'sinda to'xtalish, izlanishlarni bayon qilish mumkin. Oddiygina Ipak Qurtidan tortib ingliz folkloriga xos Arslon-u Yakkashox, Mart Quyoni ham-

da Cheshir mushugigacha, Ko'zgu ortidagi g'aroyib hasharotlar nomlari-yu ular orqali yozuvchi aytmochi bo'lganini uzoq tahlil qilish mumkin. Zero, asarni o'zbekchalashtirish jarayonida duch kelingan va mulohazaga undagan yana bir holat borki, bu asarni nafaqat adabiyotshunoslar, balki tilshunoslar o'rtasida ham mashhur bo'lishiga sabab bo'lgan. N. Demurova "so'z o'yinlari"ni adib asaridagi ikkinchi komponent deya baholaydi,⁴ o'quvchi ikkala ertakda ham yumoristik vaziyatlarni deyarli uchratmaydi, chunki yumor so'zlar va ularning ma'nolarida mujassam. Bunday ingliz tili imkoniyatlariga qurilgan yumorni yetazish, o'g'irishda ehtiyotsizlik asar mazmunini buzilishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, "Alisa Ko'zgu orti o'lkasida" asarining ikkinchi bobidagi Alisa Atirguldand boshqa gullar bilan birga o'sish unga qo'rqinchli emasmi, deb so'raydi

"There is the tree in the middle", said the Rose.
"What else is it good for?"

"And what could it do, if any danger came?" Alice asked.

"It could bark", said the Rose.

"It says 'Bough-wough'", cried a Daisy. "That's why its branches are called boughs"

Mazkur dialogda so'z o'yini omonim so'z "bough"-ga qurilgan, ya'ni bu so'z ingliz tilida ikki ma'noni – "daraxt shoxi" va "vovullamoq" ma'nolarini anglatadi. Ikkala ma'no ham dialogning mantig'iga mos tushadi. Dastorgul daraxtning vovullashini, shuning uchun uning shoxi "vov-vov" deb atalishini aytadi. Bizning tilimizda bu ikki ma'noni bildiruvchi omonim so'z yo'q, biroq asardagi bu so'z o'yinini o'zbekchalashtirish kerak. Rus hamkasblarimiz tajribasiga nazar tashlansa, ular bu o'rinda ma'noni, ya'ni yuqorida ta'kidlanganidek, nimaning emas, qanday aytilishini afzal ko'rishadi va "so'z o'yini" uchun mutlaqo boshqa so'zdan foydalanishadi:

"– Он хоть кого может **отдубасить**, – сказала Роза. – Что что, а **дубасить** он умеет!

– Потому-то он и называется дуб, – вскричала Маргаритка"

"**отдубасить**" so'zi "kaltaklamok, do'pposlamok" ma'nolarini bildirib, undan "dub" so'zini olib tarjimon "**дуб**" ("eman") daraxti bo'lgani uchun ham kaltaklay oladi tarzida rus tilida so'z o'yini qilgan. Dunyo tarjima amaliyotida bunday hodisa "kompensatsiya" deb ataladi, mazkur atamani bizning tarjimashunoslikda ilk bor X. Doniyorov va R. Doniyorovlar ishlatgan.

Asaridagi bu jumla va so'z o'yinini o'zbekchalashtirayotib, men bu usuldan foydalanmaslikni ma'qul ko'rdim. Boisi esa o'zbek tilidagi mazkur holatga yaqin vaziyatni paydo qiluvchi ekvivalentni topish murakkab. Shuning uchun uni o'zgarishsiz qoldirib, izoh berib o'tishni maqbul topdim. Asardagi ayrim dialoglar "so'z o'yin"larini aslyatdagidek o'g'irishga imkon berdi.

Masalan, "Alisa Ko'zguorti o'lkasida" asarining "Arslon va Yakkashox" bobidagi Qirol va Alisa suhbatini olsak:

"Would you... be good enough to stop a minute... just to get... one's breath again?"

"I'm good enough," the King said, "only I'm not strong enough to stop it. You see, a minute goes by so quickly!"

Dialogdagi "good enough" birikmasi so'zma so'z o'g'irilganda "yetarli darajada yaxshi" degan ma'noni bildiradi. Asar kontekstidan kelib chiqib uni "marhamat", ya'ni shu ish amalga oshirilsa yaxshi bo'lishi ma'nosini berish uchun almashtirdik natijada:

"– Marhamat qilib... balki bir daqiqaga... to'xtarmiz... nafas rostlagani?..

– Men marhamatliman-u, ammo buni to'xtatadigan darajada kuchli emasman. Bilasan-ku, daqiqalar yeldek uchadi!" tarzida o'zbekchalashtirdim. Bu yondashuv aslyatga yaqinlashtiribgina qolmay, ma'noni ham saqlagan.

Ertakning shu bobidan yana bir misol keltiramiz:

"– Sevgilimning ismi boshlanar "Q"dan, – Alisa o'zini tiya olmay dugonalari bilan o'ynaydigan so'z o'yinini boshlab yubordi. – Chunki u doimo quvnoq. Yomon ko'rganimning oti ham boshlanar "Q"dan, boisi u juda qiltiriq. Uni to'yirdim bir kun quymoqqa. Va u yashar..."

– Va u yashar baland bir qirda, – dedi Qirol Alisa "Q"dan boshlanadigan joy nomini topgunicha. – Yana bir xabarchining ismi Kallavaram. Bilganingdek, menda ular ikkita, biri borishga, biri kelishga.

Aslyatda bu dialog quyidagicha berilgan:

"I love my love with an H," Alice couldn't help beginning, "because he is Happy. I hate him with an H, because he is Hideous. I fed him with Ham-sandwiches and Hay. His name is Haigha, and he lives..."

"He lives on the Hill," the King said, while Alice was thinking of the name of a town beginning with H. "The other Messenger is Hatta. I must have two, you know... to come and go. Once to come, and one to go."

Ingliz bolalari o'rtasida ana shunday harflar bilan boshlanadigan o'yin bo'lgan va Kerroll undan asarida foydalanadi. "Haigha" xabarchini "Quyvon" deb tarjima qilganimizni aytgan edik. Barcha so'zlar aynan shu nom ustiga qurilgani bois "happy" – "quvnoq", "hill" – "qir" tarzida o'z so'zma so'z o'g'irildi, biroq "hideous" (asl ma'nosi "xunuk" bo'lsa-da) "qiltiriq"qa, "Ham-sandwiches" ham "quymoqqa" aylantirildi, chunki so'z o'yinini mantiqan to'g'ri bo'lishi uchun tarjimada shunday evrilish qilindi.

Ana shunday holatlarni Kerroll ertaklaridan istagan-cha topish mumkin. Bu esa tarjimondan hushyorlik va ingliz tili imkoniyatlaridan boxabarlikni talab qiladi. Axir angliyalik yozuvchi Gilbert Chesterton aytganidek, *ertakchi nafaqat bolalarni oyog'ini osmondan qilib turishga o'rgatdi, balki olimlarni ham boshda turishga o'rgatgan.*

¹Демурова Н.М. О переводе сказок Кэрролла. – Москва: Наука, 1991.

²Демурова Н.М. О переводе сказок Кэрролла. – Москва: Наука, 1991.

³Демурова Н.М. О переводе сказок Кэрролла. – Москва: Наука, 1991.

⁴Демурова Н.М. О переводе сказок Кэрролла. – Москва: Наука, 1991.



Dilmurod ISLOMOV,
O'zDSMI "Cholg'u ijrochiligi" kafedrasini
professori v.b.

ENG QADIMGI, ENG BUYUK VA UMRBOQIY QO'SHIQ

Keyingi paytlarda bir o'y hamrohimga aylangan... Men onamning beshikka belagan damlarini, yumshoq ko'rpachalarning buklanib qolgan joyi jismimga botib og'ritganlarini eslayman. Beshikni tebratib aytgan al-lalari hamon quloqlarim ostida ovoz beradi.

Bu so'zlarga kim ham ishonishi mumkin? Hech kim.

O'ylanib qolaman, balki onam allasidagi o'sha bahoriy nasim misol taralgan kuyning ta'siridan san'at olamiga kirdimmikin?

Buyuk olim, mutafakkir Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobini varaqlab, meni uzoq yillardan beri qiynab kelayotgan o'ylarimga javob topganday bo'ldim. Unda shunday satrlar bitilgan edi: "Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo'llamoq kerak. Biri bolani beshikda sekin-sekin tebratish, ikkinchisi uni uxlatish uchun odat bo'lgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab, bolaning tanasi bilan badan tarbiya va ruhi bilan musiqaga bo'lgan iste'dodi hosil bo'ladi".

Mutafakkirlarning so'zlaridan xulosa qilsak, men ham onam allasi bilan san'at olamiga kirib kelgan, chaqaloqligimda o'sha allani eshitganligim rost bo'lib chiqadi-da.

Aslida eng qadimgi qo'shiq, kuy ona allasidan boshlanadi, deb o'ylayman. Ona allasiday buyuk, boqiy qo'shiq, ona allasiday umrboqiy kuy yo'q. Mana bu go'zal satrlarga e'tibor bering:

*Alla, alla, oppog'im alla,
Gul ichida yaprog'im, alla.
Qizil gulning butog'i, alla,
Onang shuning adog'i, alla.*

Yoki:

*Jonimning jindalagi, alla,
Qovunning handalagi, alla.
Gullar ichida g'unchasi, alla,
Nonlar ichida kulchasi, alla.*

Onalar qalbining tub-tubidan sirqirab chiqqan ajoyib satrlar. Asli ilk shoir ham, xonanda-yu sozandalar ham onalar bo'lgan. She'riyatning, kuy-qo'shiqlarning ham jon tomirlari ularga borib taqaladi.

To'y-tomoshalar, turli safarlarda xalq bilan yuzma-yuz bo'lganimda alla ovoziga jo'r bo'lib doira chalganman. Ana shunday quvonchli kunlarning birida bolasini bag'riga bosgan ayol men tomon yuzlandi. Yaqinlashib qolganda: "Dilmurod aka! Mana shu bolaginam sizning doirangizning ovozini eshitishi bilan shod-u xursand bo'lib, piqirlab kulib, qo'llarini havoga ko'tarib o'yinga tushadi. Chamamda, sizday el suygan san'atkor bo'ladi. Bir og'ziga tuflab qo'ying", – dedi.

Bolakay men tomon qo'llarini cho'zib doiramni ush-lashga intilmoqda edi. Doirani yaqinlashtirdim. Jajji bar-

moqlari bilan doira halqalarini ushladi. Keyin xuddi onasi ko'ksiga boshini qo'yganday doira dastasiga peshonasini bosdi. O'shanda men o'z kasbimdan shodlanib, g'ururlanib ketib, bolakayni mehr bilan bag'rimga bosdim. Ijodiy tajribamdan, kuzatishlarimdan aniq bir xulosaga keldimki, hali bizda folklorshunos, san'atshunos olimlarimiz oldida juda katta ochilmagan qo'riqlar turibdi.

Bizdan oldin o'tgan allomalarimiz san'at sohasida ko'plab asarlar bitishdi. Ammo biz ulardan ancha ortda qolib ketganligimizni yoshlarimizni ajnabiy musiqalar tomon yuz burganlaridan ham sezsak bo'ladi. Balki bunday burilishlar farzandlarimiz go'dakligida ona allasini eshitmasdan ulg'ayayotganligi bilan bog'liqdir.

Har qanday ilm – tajribaning mahsuli. Ko'pchiligimizda odam ongi, ruhi, qalbi, jismi, kayfiyatiga musiqaning ta'sir kuchini his qilish, xulosalar chiqarishga aql-idrokimiz yetmaydi. Lo'nda qilib aytganda, ilm ahlida tajriba, tajribalilarida bu ilmga qaytishga xohish yo'q. Shu sabab musiqa ilmi xazinasini chetlab o'tish hamon davom etmoqda.

Yurtimiz tarixiga nazar tashlasak, barcha buyuk olimlarimiz bir sohada shuhrat qozonmay, ko'plab sohalarda yuksaklikka erishganining guvohi bo'lasiz. Tibbiyot ilmida tamal toshini qo'ygan Abu Ali Ibn Sino ijodiga bir nazar tashlaylik. U falsafa, tibbiyot, fizika, kimyo, matematika, tilshunoslik, musiqashunoslik ilmi bilan shug'ullangan. Shu bilan bir qatorda go'zal ruboiylar yozgan. Musiqa sohasida "Musiqa haqida risola" asarini yaratgan.

Biz tarixda o'tgan ulug' allomalarimizning ensiklopedik xarakterdagi olimlar bo'lganiga ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Maqsadimiz – bugungi kunda ham ana shunday iste'dodli avlodni tarbiyalash burchimiz ekanligini chuqur anglamoq.

Men doira san'atini egallagan bir sozanda sifatida bir necha yillardan beri doira, uning tarixi, xalq orasida yoyilishi, zarbidan paydo bo'lgan ta'sir kuchi, o'tgan va bugungi asrlardagi usta doira cholg'uchilarining hayoti, ijodi haqida ma'lumotlarni to'plash jarayonida bir xulosaga keldimki, doira san'ati haqida turli asarlarda shingil maqolalar borligini hisobga olmasa, mukammal bir asar hanuzgacha yaratilmagan. Aslida zarbli cholg'uning bu turi xalq orasida juda keng tarqalgan. Uni Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Pokiston kabi Sharq mamlakatlaridagi har o'n xonadondan birida, albatta, uchratish mumkin.

Umuman, musiqa san'ati aqliy barkamollikning poydevori, nozik didning shakllanishi, insonni o'z zamini, millatiga sodiq, oilasi, qarindosh-urug', yon atrofidagilarga mehr-oqibatli qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynovchi soha. Insonning hayotga qarashlari qanchalik teran, sinchkov bo'lishida musiqa doyalik vazifasini o'taydi.

Bog'cha bolalariga ovqatlanish, o'ynash vaqtida ularning asabiga tegmaydigan tarzda milliy kuylar eshittirib borilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lur edi. Chunki bolalarda hodisalarni tez o'zlashtirish qobiliyati mujassam bo'lib, ular o'ta ziyrak "ijodkor"lardir. Agar bolalarga uchto'rt yoshida mumtoz kuylar eshittirib borilsa, ulg'aygan-da xalqning durdonasi sanalmish bunday qo'shiqlarni ensasi qotib eshitmaydi, kuy-qo'shiqqa mos holatga tushib, teran tomirlari uzoq o'tmishga borib taqalishini yanada chuqurroq his qila boshlaydi. Yoshligidan milliy musiqani tinglash madaniyati, his qilish malakasi shakllangan bola hech qachon undan uzilib ketolmaydi.

Bundan bir necha yillar muqaddam Moskva shahrida tashkil etilgan "Sog'lom bolalarni shakllantirish" laboratoriyasida tajriba o'tkaziladi. Unda homilador ayolga alla o'rgatishib, har kuni kechki soat sakkizda homilaga alla aytishni uqtirishadi. Ayol bir necha kunlar aytilgan vaqtda bolasiga alla aytib yuradi. Bir kuni o'z

yumushlari bilan bo'lib alla aytish yodidan ko'tariladi. O'sha kuni ona o'zini yomon his qiladi, chunki qornidagi bola bezovtalanib uni noxush ahvolga soladi. Shunda ayol vaqtida allasini aytmaganligini eslab qoladi. Alla aytishni boshlashi bilan bola tinchlanadi. Ko'rinib turibdiki, inson hali tug'ilmasidanoq kuyga, qo'shiqqa o'z munosabatini bildirar ekan.

Bugun insonning ichki olamini ochish, u olamga ezgulik chechaklarini ekish, hali bola tug'ilmasdan boshlanishi kerakligini ilm ahli bir-bir ochib bormoqda.

Biz farzandlarimizni oilasi, Vatani, xalqiga sodiq qilib tarbiyalashda ne-ne chig'iriqlardan o'tib, bugungacha xalqning yuragida yashab kelayotgan kuy-ohanglarimizni ustoz muallim sifatida meros qilib qoldirishimiz ham farz, ham qarzdur. Chunki bolalarimizni bu go'zal sohaning bilimdoniga aylanishida biz kattalarning roli beqiyos ahamiyatga ega.

HOW TO TEACH YOUNG LEARNERS IN ENGLISH IN PRIMARY CLASSES

(Davomi. Boshi 16- betda)

Activity 1. What's disappeared?

Pictures are posted on the board beforehand by a teacher. Children call objects in the drawings. Then they close their eyes, and the teacher picks up one of the drawings. They open their eyes and call the object that has disappeared. The teacher, continuing the game, asks to remember not only the names of the drawings, but also their sequence. In this case, the teacher does not take the drawings, but changes their location.

Activity 2. "Interpreter".

Teacher asks the children to stay in a circle. In the middle of the circle is a teacher. He takes turns throwing the ball to the students and says different phrases in English, and the children translate them and throw the ball back to the teacher. For example: Katta oynak – a big mirror; televizor ko'rmoq – to watch TV; Sariq gilam – yellow carpet.

Activity 3. "Lotto".

The teacher gives the children a map with a table drawn on it. Pictures are pasted on each cell. Then the teacher says the words in English (a chair, a sofa, a window, a door, a fireplace, a floor, a lamp, etc.). The teacher says the words with pauses. During the pause, the children cover these words with a chip made of paper. Then the teacher checks and evaluates the cards of children.

Activity 4. "Pay attention".

The teacher shows the "Zumrad" doll to the children and organizes the game. "Zumrad" calls the names of objects in the drawings. If their answers are correct — the student repeats them, if not true — the child corrects his mistake.

It is a carpet (It is a carpet).

It is a lamp (It is not a lamp. It is a fireplace).

In the development of logical thinking the role of riddles, proverbs and generalizing tests is great.

Riddles:

I go it goes with me (Shadow)

Runs day and night, but never gets tired (River).

If you give me something to eat, I will live, give me the water – I die (Fire).

You will skin me – I will not cry, but you will cry (Onion).

Pictures of domestic and wild animals are posted on the board beforehand by a teacher. Teacher makes up simple sentences by using new words and word phrases. A teacher selects the names of animals and divides them into two groups — domestic and wild animals. Teacher names animals in drawings and names their characteristics. Teacher asks the students to answer this question: What is the role of wild and domestic animals in our lives? Teacher asks the students to look at the table. (Venn diagram)

Teacher conducts his/her lesson by distributing pieces of paper with inscriptions sher (a lion), arslon (a tiger), fil (an elephant) the students. Students are divided into three groups. They are distributed worksheets and given assignments. Results are demonstrated by team members. Then the children show on the Venn diagram the similar and distinct features of wild and domestic animals.

As you can see, the lesson of the English language was arranged according to modern requirements, motivation was created for the emergence of interest in the new lesson, new teaching technologies were used.

In our opinion, the use of appropriate games and exercises to ensure communicative communication will affect the more lively conduct of the lesson.

References

1. Cameron, L. (2001). Teaching languages to young learners. Cambridge:
2. Linse, C. T. (2005). Practical English language teaching: Young learners. New York: McGraw Hill.
3. Scott, W. A., & Ytreberg, L. H. (1990). Teaching English to children. London: Longman.
4. <http://britishcouncil.org.uk>

Dilnavoz TOSHNAZAROVA,
Anaxon IBRAGIMOVA,
Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistrarlari

“SO‘Z BIRIKMALARI” TA‘RIFIGA YANGICHA YONDASHUV

Ma'lumki, so'z birikmasi yasalishi nuqtayi nazaridan ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlarning o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'lanishi natijasida yasaladi. Bir qarashda juda oddiy ko'ringan bu til hodisasi turli zamonlarda tilshunoslar tomonidan turlicha izohlanib, sharhlanib kelingan. Talqinlarning ko'pchiligida esa masala mohiyatiga yondashishda muayyan kamchiliklar mavjud, ta'riflar to'la qamrovli emas. Masalan, rus tilshunosi O.S.Axmanova o'zining “Словарь лингвистических терминов” (Moskva, 1969) lug'atida “Har qanday mustaqil so'zlarning birikishi so'z birikmasidir”, degan ta'rifni keltiradi. Ushbu ta'rif, bizningcha, aksioma (...so'zlarning birikishi so'z birikmasidir) xususiyatiga ega.

M.S.Stepanova “Теория валентности и валентный анализ” (Moskva, 1973) kitobida “So'z birikmasi deganda ikki so'z o'rtasidagi grammatik munosabat nazarda tutiladi”, deya izoh berilgan. Bu ta'rifda esa so'zlarning o'zaro bog'lanishida ma'no munosabatlari nazardan chetda qolgan.

Yoki o'zbek tilshunoslaridan M.Irisqulovning “Tilshunoslikka kirish” (Toshkent, 1992) kitobida keltirilgan “Qismlari teng bog'lanish yo'li bilan bog'langan so'z birikmalari teng bog'langan so'z birikmalari deyiladi”, degan ta'rifda O.S.Axmanova talqinidan farqi o'laroq, birikmalar bog'lanish yo'lining faqat bir tomoni aytilgan. So'z birikmalari bog'lanish yo'lining bitishuv, boshqaruv va moslashuv tomonlari, tobe-hokimlik xususiyatlari eslatilmagan.

G'.Abdurahmonov, S.Mamajonovning “O'zbek tili va adabiyoti” (Toshkent, 2002) kitobida “So'z birikmasi tobe (yaxshi odam, tez keldi) va teng (kitob va daftar) birikmalardan tashkil topadi”, deya fikr bildiriladi va yuqoridagi talqinlarga qo'shimcha ravishda faqatgina birikmalar munosabatidagi tobe va hokimlik nazarda tutiladi.

So'z birikmasi haqida yana ayrim ta'riflar borki, ular talqiniga qay tomondan, nimani nazarda tutib yondashilganligi sezilmaydi va ularning sharhlari asosi tilning muayyan qoidalariga nomutanosib ekanligi darhol ko'zga tashlanadi. Masalan, F.F.Fortunatovning “Источник лингвистических учений” kitobida so'z birikmalarini “grammatik” va “nogrammatik” turlarga ajratilishi haqidagi fikrlari so'z birikmasiga qaratilganmi yoki boshqa bir til hodisasi nazarda tutilayotganligi sezilmaydi.

Agar olimning fikrlari so'z birikmalari ta'rifi haqida aytilgan bo'lsa, unda bizning fikrimizcha, talqinlarning ayrim e'tirozli tomonlari bor. Zero, tilda, ayniqsa, uning sintaksis qismida “nogrammatik” birliklarning bo'lishi

tildan muayyan ma'noda xabardor odamlarning aqliga sig'maydigan narsa. Birikmaga yanada chuqurroq, so'zlarning o'zaro mavqeyi tomonidan qaralsa, tobe-lik va hokimlik ham darhol seziladi. Birikmalarning bu xususiyatlari muloqotda so'zlovchi uchun ham, tinglovchi uchun ham muhimligi inkor qilinmoqchi bo'ladi. Ularning qo'llanilish o'rni (bosh, ergash), ular orqali berilayotgan ma'lumot uchun qaysi biri eng muhimligi, mavqeyi (tobe, hokim) nutqda muhim ahamiyat kasb etishi nazardan chetda qoladi.

Fikrimizni quvvatlash uchun **ochiq yuz** va **yuzi ochiq** misollarini keltiramiz. Ko'rinib turibdiki, birikmalardagi o'rin almashuvi, tobe, hokimlik, ularning o'zaro sintaktik munosabatlaridagi o'rin o'zgarishlari, ular orqali anglashilayotgan ma'lumotlar bir-biridan keskin farq qiladi. *Dehqonlar bu yilgi qurultoyga ochiq yuz bilan keldilar* misolida **ochiq yuz** – samimiy, xushmuomala, beg'araz, insoniylik burchiga sodiq shaxslarni bildirsa, **yuzi ochiq** iborasida sharm-hayosiz, shallaqi, og'ziga nima kelsa gapiraveradigan, tevarak-atrofga beparvo shaxslar tushuniladi. Misol uchun: *Bu ayol o'ta yuzi ochiq ekan*.

Mazkur mavzu bo'yicha so'z birikmalarining ayrim xususiyatlarini tan olmaydigan tadqiqotchilar ham bor. Jumladan, so'z birikmalari ta'rifi va talqinini astoydil o'rgangan va bu borada e'tiborga loyiq tanqidiy fikrlar bildirgan T.Xo'jayev o'zining “So'z birikmasi talqiniga qisqacha sharh” (“Xorijiy filologiya” jurnali, 2005. Til. Adabiyot. Ta'lim. 3-son) maqolasida *Tilda ergash so'z ham, bosh so'z ham, tobe so'z ham, hokim so'z ham yo'q, balki mustaqil so'zlar va yordamchi so'zlar bor*, deya fikr bildiradi. Mazkur ta'kidida so'z birikmalarida mavjud va ravshan ko'rinib turgan bog'lanish xususiyatlari (bosh-ergashlik, tobe-hokimlik) to'la rad qilingan. Ularning so'z birikmalari xususiyatlarini moddiy va ma'nan mushohada qilinishdagi rolga loqayd qaralgan.

Endi olimning *“So'z birikmalari mustaqil va yordamchi so'zlardan iborat bo'ladi”*, degan fikriga kelsak, bu talqin ham mazkur masalaga qiziquvchilar fikrini chalg'itadi. Negaki, qiziquvchi xayoliga birinchi navbatda so'z birikmalari emas, balki so'z turkumlari xususiyatlarining farqli o'rganilishi keladi. Zero, morfologiya-ning asosiy mavzularidan biri so'z turkumlari bo'lganligi sababli gap so'z birikmasi haqida ketayotganini xayolida mahkam ushlagan qiziquvchi birikma tarkibidagi so'zlarning birinchisi yordamchi va ikkinchisi mustaqil bo'la olishini xayoliga ham sig'dira olmaydi. Chunki u birikma tarkibidagi barcha so'zlarning mustaqil ma'no va mustaqil qo'llanilishini avvaldan idrok qilgan bo'ladi. Binobarin, birikma tarkibidagi so'zlar orqali berilmoq-

chi bo'lgan ma'lumotda o'zaro "yordamchi"ga zarurat yo'q. Har bir so'z (komponent) biror narsa yoki hodisani mustaqil nomlaydi, mustaqil ko'rsatadi va mustaqil to'la xabar beradi.

Fikrimizni olimning o'zi tavsiya qilgan misollari asnosida quvvatlashga harakat qilamiz. So'z birikmasidagi yordamchi deb qaralgan **qizil kitob**, **besht qavat** so'zlarida **qizil** – sifat, **besht** – son (mustaqil so'zlar) bo'lib, ular morfologik jihatdan ham mustaqil so'zlar turkumiga kiradi. Ikkinchidan, bu so'zlar ma'lum ma'no anglatishga yordam bermaydi, aksincha, har qaysisi o'z mustaqil ma'nosiga ega bo'lib, **qizil** – kitobning sifatini, **besht** esa qavatning sonini aniq ifodalab kelgan.

Bu mavzu bo'yicha M.Baxtiyorov, O'.Xoliyorov, N.Abdurahmonova "O'zbek tilidan universal qo'llanma" kitobining 5-nashri, N.Rasulova, B.Supiyeva "Ona tilidan ma'ruzalar" (Toshkent, 2016), M.Hamrayev "Ona tili" (Toshkent, 2012), N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Sobirov, Z.Jo'raboyeva muallifligida yaratilgan 5-sinf Ona tili darsligi to'ldirilgan 4-nashrida (Toshkent, 2015), N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva muallifligidagi 6–7-sinflar Ona tili darsligi (Toshkent, 2017), H.Ne'matov, M.Abduraimova, R.Sayfullayeva muallifligidagi 8-sinf Ona tili (Toshkent, 2014) darsliklarida mualliflarning "Ikki va undan ortiq mustaqil so'zlar grammatik va ma'no jihatdan birikib, so'z birikmalarini hosil qilishi, ularda hokim va tobelik mavjudligi, barcha turkum so'zlari tobe va hokim so'z vazifasida kela olishi" borasida fikrlar mushtarakligi mavjud. Hatto 9-, 10-, 11-sinflar Ona tili darsliklarining 9-sinf uchun nashrida so'z birikmasi bo'yicha ularni amalda takrorlash uchun faqat 5 tagina mashq kiritilgan. Eslatma va qoidalar umuman yo'q.

Oliy ta'lim uchun belgilangan F.Ikramova, A.Azizova, D.Muhammedova muallifligidagi "O'zbek tili. Pedagogika-psixologiya fakultetlari uchun" (Toshkent, 1983) kitobida, O'zbek tilshunosligida va o'zbek tili bo'yicha tavsiya qilinayotgan barcha darslik va qo'llanmalarida ham mazkur til birikmasiga "Ma'no va grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib kelgan ikki va undan ortiq mustaqil so'zlarga so'z birikmalari deyiladi", degan umumiy ta'rif ostida berilgan.

Yana bir narsani aytib o'tish joizki, tilshunoslikda umumqo'llaniluvchi, muayyan ma'noda hamma tilshunoslar tomonidan tan olingan **so'z birikmasi** atamasini o'zbek olimlaridan T.Xo'jayev ikkinchi bir termin, ya'ni **yoyiq tushuncha ifodasi** deb atashni tavsiya qilgan. Tadqiqotchining so'z birikmalari talqiniga bergan xulosasidagi tavsiya asoslari aniq tushunilishi uchun

olim taklifidan quyidagi sitatani keltirishni o'rinni deb topdik:

"1. Uyushiq bo'laklarning ham, yig'iq gapning ham, frazemaning ham shaklan mustaqil so'zlarning birikmasi ekanligi so'z birikmasi bo'yicha yuqoridagi kabi qarama-qarshi fikr va talqinlarning yuzaga kelishi va so'z birikmasining ma'no va mohiyati e'tiborga olinmagan holda ta'riflanib kelishi, ayni vaqtda nazarda tutilgan sintaktik birlikning shu asosda "so'z birikmasi" deb atalib kelishiga asosiy sabab bo'lgan.

2. Nazarda tutilgan sintaktik birlik ma'nosi va mohiyati yoyiq tushuncha ifodasi ekan, endi uni shu asosda "so'z birikmasi" emas, balki "yoyiq tushuncha ifodasi" deb atashni lozim topdik".

Tadqiqotchining mazkur fikri (so'z birikmasi) talqini masalasiga falsafiy jihatdan yondashilsa to'g'ri bo'ladi. Lekin tilning noyob fenomenlaridan biri bo'lgan so'z birikmasi sharhi tilshunoslik nuqtayi nazaridan talqin qilinishi kerak yoxud bu yerda gap tushuncha, tafakkur borasida emas, nazdimizdagi til hodisasini isming jismiga monand atalishi borasida bo'lishi kerak. Shu ma'noda "so'z birikmasi"ning imlo (aytilishi va yozilishi) jihatidan ham tarkib qism so'zlari anglatgan ma'no (ma'lumot) jihatidan ham, birikib kelmasligi, tarkibiy qismlarining doimo mustaqil qolishi, narsani o'z nomi bilan atalmayotganligini, ta'kidlash joiz yoxud "**so'z birikmasi**" – **birikmagan so'zlarni** nomlab keladi. Bunday antinomik hodisalar tilda ko'p uchraydi. Shu asnoda ularni ramziy tushunish kerak. Shunda so'z birikmasi atamasini boshqa nom bilan atashga hojat qolmaydi. Aslida bu termin ostida "ikki va undan ortiq so'z" leksik va grammatik jihatdan o'zaro bog'lanib, aynan bir narsa (hokim so'z orqali ifodalanadi) va uning belgilarini (tobe so'z orqali ifodalanadi) atayctganligi, u haqda muayyan ma'lumot berayotganligi, umumtushuncha asosida esa bog'liq so'zlar ma'nolari mushtaraklanganligi diqqatimiz markazida turishi lozim. Shu ma'noda so'z birikmasi talqini bo'yicha o'z shaxsiy fikr-mulohazalarimizni tilshunoslarimizning yuqoridagi berilgan talqinlarga asoslangan holda "**Leksik va grammatik ma'nolari jihatidan o'zaro bog'lanib kelgan ikki yoki undan ortiq mustaqil so'zlar so'z birikmasi deyiladi**" degan bo'lar edik.

Bunda "leksik ma'no deyolganda muayyan so'z nomlayotgan, u haqda anglashilayotgan ma'lumot tushunilsa, grammatik ma'no ostida so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning o'zaro ma'no munosabatiga kirib, shakllarini o'zgartirishi va ularning so'z turkumlariga xos kategoriyalari, xususiyatlari nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахманова. О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1969.
2. Степанова. М.С. Теория валентности и валентный анализ. – Москва, 1973.
3. M.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 1992.
4. G'.Abdurahmonov, S.Mamajonov. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2002.
5. Ф.Ф.Фортунатов. Источник лингвистических учений. – Москва, 1956.
6. F.Ikramova, A.Azizova, D.Muhammedova. O'zbek tili. – Toshkent, 1983.
7. M.Hamrayev. Ona tili. – Toshkent, 2012.

Iroda ERNAZAROVA

Samarqand davlat universiteti

1-kurs tayanch doktoranti

MUALLIF SO'Z IJODKORLIGI TUSHUNCHASI

(Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostoni misolida)

Tilshunoslik sohasida so'nggi yillarda o'zbek tilining ichki va tashqi omillarini ochib berishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Bunda shoir va yozuvchilarning so'z qo'llash mahorati alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Erkin Vohidovning deyarli barcha asarlarida ishlatilgan so'zlar salmoqli mazmun ifodalab, o'quvchi so'z boyligini oshirishga xizmat qiladi. Jumladan, 11-sinf "Adabiyot" darsligida parcha keltirilib, o'quvchiga to'liq matnini o'qish tavsiya etilgan "Ruhlar isyoni" dostonida foydalanilgan so'zlar ham yuqoridagi xususiyatdan xoli emas.

Doston matni bilan tanishish jarayonida o'quvchida ma'nosi aniq bo'lmagan bir qancha so'zlar bilan ishlash muammosi paydo bo'ladi. Bu so'zlar muallifning o'ziga xos bilim darajasi, topqirlik mahoratini belgilovchi, qo'llanish doirasi bir qadar toraygan maxsus professional, kasb-hunarga oid so'zlar, dialektizmlar, jargonlar, tarixiy va arxaik so'zlar bo'lib, ular matnda o'zbek tili leksikasi boyligini namoyon etish bilan birga unutilib borayotgan so'zlarning qayta muomalaga kiritilishiga turtki bo'ladi. Ayniqsa, doston matnidagi tarixiy so'zlar bu borada muhim ahamiyatga ega. Masalan, **ma'vo** (*boshpana, turar joy*), **g'azot** (*din yo'lida qilinadigan urush*), **tahayyur** (*hayron bo'lish*), **ismat** (*poklik*), **kadar** (*loyqalik; g'am-g'ussa*), **jarida** (*gazeta*), **doxil bo'lmoq** (*bir narsaning ichiga kirmoq, qadam qo'ymoq*), **qo'sid** (*xabarchi*), **fikrat** (*fikr, g'oya*) singari tarixiy so'zlar ma'nosi matn o'quvchisida katta qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, o'quvchining bu so'zlar ma'nosidan xabardorligi nutq ta'sirchanligini yo'qotuvchi takrorning oldini olishda eng maqbul yo'l sanaladi.

Ijodkor voqea-hodisalarning haqqoniy manzarasini chizishda qadimgi turkiy, arabiy, forsiy tillardagi lug'aviy birliklarni aslidagidek qo'llagan. Jumladan, hozirgi o'zbek tilida kam uchraydigan **habib** (*sevikli*), **istibdod** (*o'zboshimchalik*), **hassos** (*ta'sirchan*), **intiqom** (*qasos*), **tabl** (*katta nog'ora, dovul*), **g'ulu** (*bo'rttirib ko'rsatish*), **fatvo** (*muftining hukmi*), **mehrob** (*ibodatxona; tokcha, taxmon tepasining yarim doira qilib ishlangan qismi*), **ishtiboh** (*shubha, gumon*), **mushfiq** (*shafqatli, mehribon*), **samovot** (*samo so'zining ko'plik shakli*), **tahqir** (*nafratlanish, haqorat*), **jobir** (*jabr-zulm o'tkazuvchi*), **zanji** (*qora tanli*), **vahdat** (*birlik*) kabi arabcha leksemalar o'z ma'nosida ishlatilgan. Shuningdek, asardagi **jovidon** (*abadiy*), **zardob** (*forscha: safro, ko'chma: dard-alam*), **zabun** (*zaif*), **komiron** (*baxtli, hayotdan zavqlanuvchi*), **mehrgiyo** (*ituzumgullilar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik*), **aftoda** (*yiqilgan, darrmonsiz*), **kaj** (*egri, qing'ir*), **zabun** (*mag'lub*), **ro'znoma**

(*gazeta*), **koranda** (*dehqon*), **devonavor** (*jinni, telba*) singari forscha so'zlar ham o'zining ma'no nozikliklari bilan asar qimmatini oshirishga xizmat qilgan.

Ijodkor doston matnida italyancha "gazeta" so'zining o'rniga arabcha "jarida" va forscha "ro'znoma" so'zlariga murojaat qilish orqali sinonimlar qatorini yana bittaga boyitgan, deyish mumkin.

Badiiy matnda muallif tomonidan yasalgan yangi so'zlar ham mavjudki, bunday lug'aviy birliklar tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda okkazonalizm deb yuritiladi. Ayrim manbalarda ko'rsatilishicha, okkazonalizmlar individual nutq neologizmlaridir. A.Hojjiyev okkazonalizmlarni quyidagicha ta'riflaydi: "Okkazonalizm (lot. occasionalis – tasodifiy) – mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual – uslubiy neologizm"¹.

Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "havo" so'zining ma'nosi "bo'shliq; sekin" tarzida izohlanadi. Ammo doston matnida uchraydigan "havoldor" so'zining izohi uchramaydi. Ya'ni muallif o'zbek tilida ma'lum belgiga egalik ma'nosini ifodalovchi **-dor** morfemasi ni havol so'ziga qo'shib, yangi ma'no yaratuvchisiga aylangan, deyish mumkin:

*Uni turtar musulmon ham,
Siltaydi hind havoldor.²*

Muallif **-kor** affiksi yordamida ham okkazonalizm yasaydi:

*Shoirmi ul g'alayonning
Sababkori deydilar. (293-bet)*

E.Vohidov dostonida ota va o'g'il o'rtasida taxt uchun yuzaga kelgan nihoyatda mushkul bir vaziyatda o'g'ilning his-tuyg'ularini ifodalash uchun – parast affiksiga murojaat qilib so'z ijodkorligini ko'rsatadi:

*Alamingga nihoya yo'q,
Ne taxtparast odamsan. (320-bet)*

Ba'zan okkazonalizmlar so'z yasash qolipining buzilishi natijasida ham vujudga keladi. Masalan, o'zbek tilida **-li** va **-lik** affikslarini qo'llashda yetakchi morfemaning ma'nosiga e'tibor qaratiladi. Doston matnida esa **-lik** affiksi quyidagicha o'rinish holat mavjud:

*Alqissakim,
Juda qadim*

Jaholatlik zamonda,
Bir donishmand
Ulug' hakim
O'tgan ekan jahonda. (295-bet)

Aytish mumkinki, bu o'rinda sifat yasovchi **-li** affiksi o'rnida **-lik** affiksining ishlatilishi muallif tasvirini aniqroq ko'rsatishga xizmat qilgan. Dostonning yana bir o'rnida **-lik** affiksining **-li** o'rnida qo'llanishi ijodkorning badiiy maqsadini ta'sirchan ifodada etkanini ko'ramiz:

Men – uylik,
Sen – kelinlig-u
Nabiralik bo'larding. (304-bet)

Muallif doston matnining juda ko'p o'rinlarida fors-tojik tilidan o'zlashgan, "ma'lum belgiga ega emaslik" ma'nosini ifodalovchi **be-** affiksiga murojaat qiladi. *Besas*, *behush*, *beruh* kabi so'zlarda qo'shimcha o'z vazifasida qo'llangan bo'lsa, ba'zi jumlalar tarkibida yangicha mazmun va vazifa nuqtayi nazaridan o'rinlashgan:

Ular yashar
Bizdan o'zga,
Benamoyon va besas.
Sharpalari hech bir ko'zga,
Hech quloqqa sezilmas. (331-bet)

Bu kabi misollarni doston matnida ko'plab uchratishimiz mumkin. Bu esa ijodkorning ulkan so'z qo'llash mahoratidan dalolat.

Bir so'z bilan aytganda, "Ruhtar isyoni" dostonida har bir so'z o'z ohoriga ega va muallifning lisoniy yaratuvchanligi namoyon bo'lgan. Bu jihatni kengroq ko'lamda, ijodkorning barcha asarlari misolida yoritish bugungi kun tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir.

Barcha so'z san'atkorlari, ijodkorlar, shoir adiblarning til mahoratini o'rganish, ular tomonidan yangi ma'no noziklari bilan tilimizga qayta olib kirilayotgan birliklarni, shuningdek, mavjud qonun-qoidalar asosida yasali, yangicha ma'no qirrasini namoyon qilayotgan so'zlarni o'rganish, umumlashtirish, iste'molga olib kirish alohida ahamiyat kasb etadi.

¹Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2002. 74-bet.

²E.Vohidov. O'zbekim. – Toshkent, 2019. 294-bet. (Keyingi iqtiboslar ham shu manbadan olingan bo'lib, sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.)

Oybibbi ISKANDAROVA,

Toshkent temiryo'l muhandislari instituti
o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

CHINGIZ AYTMATOV IJODIDA FOJIALAR TALQINI

Chingiz Aytmatov ijodida insoniyatni ogohlikka chorlash, uning ma'naviy dunyosini boyitish, ma'rifatga undash asarlarining o'q ildizi hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonlari, texnika asriga insoniy hissiyotlarning o'lib borishi, manqurtlik, ajdodlar ruhini mensimaslik, milliy urf-odatlarining unutilayotgani, tabiatga nisbatan noto'g'ri munosabat, xullas, odamzodning telba-teskari ishlari barcha fojialarning asosi ekani oddiy, ammo ta'sirli voqealar, munosabatlar asosida ifoda etiladi.

"Qiyomat" romani boshdan oyoq voqealar zidligi asosiga qurilgan: Akbara va Toshchaynar munosabatlari er-xotin Bozorboy va "ko'k" Tursun munosabatlariga zid qo'yilgan. Bo'rilarning o'z bolalariga bo'lgan mehri Bozorboyning farzandlariga bo'lgan mehridan yuksakroq. Hatto Akbara va Toshchaynarning yashash tarzi Bozorboy va ayoli "ko'k" Tursun orasidagi janjal,

kaltak va mojarolarga to'la turmush tarziga qaraganda adolatliroq.

"Akbara tun yarmidan og'ganda keldi... Yangi qazilgan yer oldida (Bo'ston Toshchaynarni shu yerga ko'mgan edi) cho'zildi, to azongacha shu yerda qoldi, quyoshning ilk nurlari to'kilganda u g'oyib bo'ldi..." [1: 537]

O'z qoniga o'zi belanib yotgan Bozorboyga esa ayoli "ko'k" Tursun:

– Bilardim itday o'lib ketishingni, itdan farqing yo'q edi! – deydi.

Romanda Bo'ston va Gulimxon oilasi, Akbara va Toshchaynar juftligining ruhiy iztiroblari ham bir-birlariga o'xshaydi: "Uyda u kichkinaning jasadini ko'chishga tayyorlab qo'yishgan karavotchasi yotqizdi. Shunda Gulimxon jasad poyiga tiz cho'kdi va xuddi Akbara tunlari uv tortgan kabi uvullay boshladi". [1: 544]

Akbara va Toshchaynarning bolalari – bo'lturuklar, Bo'ston va Gulimxonning oxirgi nasli – Kenjash odam qo'li bilan halokatga mahkum etildi. Qiyomatni siyosiy safсатаboz Qo'chqorboyev, g'urbat va mojarolar uyasi Bozorboy, yuvosh va beozor ko'rinuvchi aynimachoq olomon – odamlar o'z qo'llari bilan yaratyapti.

Muallif "Qiyomat" romanida Bo'ston O'rkunchiyev obrazi orqali olomonga quyidagicha baho beradi: "... Bo'ston o'z fikrini hech kimga ma'qullata olmasdi. Albatta, avvaliga hamma buni, rost, odamlarga yerlarni ajratib bersak, to'g'ri ish bo'ladi, odamlar o'zlarini yer egasiday his qiladilar, oila, bola-chaqa ham bundan bahramand bo'lishadi, ishga baravar jon kuydirishadi deb rozi bo'lib turar edilar-da, mahalliy hushyor siyosiy iqtisodchilardan birontasi chiqib, bu axir sotsializmning muqaddas qonun-qoidalarini buzish emasmikin? – deb shubha bildirgan zahoti hammalari darhol baravariga so'zlaridan qaytar va bunga butunlay teskari gaplarni aytishga tushar, isbot qilishga arzimaydigan narsalarni isbotlab yotar edilar. Hech kim qing'ayishda ayblanishini istamasdi..." [1: 497]

Muallif olomon obraziga juda katta falsafiy ma'no yuklagan. Olomonning biror narsani ma'qullashi ham, inkor qilishi ham oson. Ya'ni, butun bir xalq olomonga aylanyapti.

Ch.Aytmatovning "Oq kema" qissasida ham dramatism nihoyatda kuchli. Murg'akkina qalbi bilan har narsadan go'zallik izlayotgan Bolakay kattalarning murakkab, shafqatsiz dunyosiga duch keladi: u o'z otasini eslolmaydi. Onasi otasi bilan ajrashgandan so'ng shaharga ketib qolgan, qaytib kelmagan, bola onasini ham eslolmaydi...

Bola bilan yonma-yon yashayotgan Bo'key xola – farzandsiz. Uning xushnud kunlari deyarli yo'q. Eri O'rozqulning kaltak, dashnomlaridan ezilib, to'kilib boryapti...

Buvisi Bolakayga o'gay: "Daryoga oqib ketsa, o'zidan ko'rsin – qo'limni cho'zmayman. Endi shunisi yetmay turgan edi. O'z ota-onasi tashlab ketdi. Menga boshqa tashvishlar ham yetib ortadi, majolim yo'q". [2: 115]

Lekin bola suv ichadigan bittagina ezgulik bulog'i bor. U bobosi – Mo'min chol. Mo'min chol unga dermantin

portfel olib beradi. Otiga mindirib maktabga olib boradi. Ona bug'u haqida ertak aytib beradi.

Ona bug'u bu – xotira, millat xotirasi timsoli. Bolaning ajdodlari xotira hurmati ona bug'uga ehtirom bajo keltirib, u bilan xuddi ona-bolalarday yashab kelishgan. Bola ham shu ma'naviyatni, shu ishonchni, shu e'tiqodni qabul qiladi – ona bug'uni ko'rganda xuddi ilohiyotni ko'rganday quvonadi. Ammo muhit xotira muqaddasligini tan olmaydi... Ona bug'uni ov qilib pishirib yeyishadi. Bu bilan hukmron mafkura, tuzum, uning mohiyati badiiy-ramziy tarzda fosh etiladi". [6: 314]

"Asrga tatigulik kun" romanida Oqmoya, uning nasli Qoranor tuya, "Qiyomat"da Akbara, "Oq kema"da Ona bug'u ming yillik tarix, betakror qadriyatlarga ega Millat, Xalq degan katta ma'noni ifodalaydi. Sobitjon, Bozorboy, O'rozqul, Toshtanafg'on ana shu ming yillik chinor daraxtining shoxiga o'tirib, o'zlari o'tirgan daraxt ildiziga bolta urayotgan xavfli shaxslardir.

Taniqli adabiyotshunos Qozoqboy Yo'ldoshev "Manqurtlik ruhiy-estetik tushuncha sifatida" maqolasida yozadi: "Manqurt afsonasi tasvirini beraf ekan, yozuvchi odamni manqurtga aylantirgan jungjanlarga bo'lgan nafratini bekitmaydi. Muallif romandagi revizor, mayor Tansiqboyev, leytenant Tansiqboyev va Sobitjonga o'xshash ma'naviy qadriyatlarni e'zozlash, odam ko'nglini anglashdan yiroq manqurttabiat, hissiz kimsalarni yetishtirgan tuzumga bo'lgan nafratini ham jo'shqin ifoda etadi". [5: 189]

Chingiz Aytmatov nasrining badiiy yuki zalvorli. Undan o'tmaslashib qolgan, badiiy didimizga xush yoqadigan maishiy muammolar, sarguzashtli muhabbat, soxta, hissiz to'qimalar yo'q. Unda davr og'riqlari, zamon muammolari bor. Bu og'riqlar butun insoniyatga daxldor: "Ey inson, qachon ezgulik yo'lini tutasan? Qachon ong-u tafakkuringdagi vahshiylik, vayronkorlik, zulm, diyonatsizlik, ochko'zlik, iymonsizlik kabi illatlardan forig' bo'lasan? Qachon erk va istiqbol, muhabbat, poklik va baxt, iymon va saodat chegaralarining haqiqiy qo'riqchisiga aylanasan?"

Bu kabi savollar Chingiz Aytmatov ijodining yadrosini tashkil etadi. Uning mohiyati insoniyatni saodatga yetaklashga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chingiz Aytmatov. Qiyomat – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
2. Chingiz Aytmatov. Povestlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1986.
3. Chingiz Aytmatov. "Qulayotgan tog'lar". – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
4. Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov va b. Adabiyot. II qism. – Toshkent: Yangiyo'l poligraf servis, 2014.
5. Qozoqboy Yo'ldoshev. "Manqurtlik ruhiy-estetik tushuncha sifatida". Chingiz Aytmatov va O'zbekiston. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.
6. Nazar Eshonqul. "Chingiz Aytmatovning "ogohlik bonglari." Chingiz Aytmatov va O'zbekiston. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.

Ozoda DADAJONOVA,
 O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi

MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA MAQOLLAR

Badiiy tilning muhim uslubiy, lingvopoetik komponentlaridan birini maqollar tashkil qiladi. Maqollar badiiy adabiyotda yozuvchi aytmochi bo'lgan fikrni ixcham, sodda, xalq uchun tushunarli, ta'sirchan ifodalashga imkon beradi. Shu sababli o'z asarlarida xalq maqol va hikmatli so'zlariga murojaat qilmagan yozuvchi deyarli uchramaydi.

Badiiy adabiyot tilidagi maqollarning ma'noviy-uslubiy vazifalari olimlar tomonidan o'rganilgan. Bular orasida Muqimiy [1: 52], Abdulla Qahhor [2: 82], Maqsud Shayxzoda [2: 75], Erkin Vohidov [3: 100] asarlarida uchraydigan maqollarni tahlil qilishga bag'ishlangan izlanishlar diqqatga sazovor.

D.Shodiyevaning "Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi" nomzodlik dissertatsiyasida shoir she'riyatidagi maqollar tahliliga alohida e'tibor qaratilgan. [4: 12] Biz ham ushbu maqolamizda Muhammad Yusuf ijodida qo'llangan maqollarni tahlil qilish orqali shoirning mahoratini ko'rsatib berishga harakat qilamiz.

Muhammad Yusuf she'rlarida maqollarning qo'llanishini uch turga ajratish mumkin:

- 1) maqollarda so'z tartibining o'zgarishi;
- 2) maqollardagi so'zlarni o'zgartirish;
- 3) shoir tomonidan o'zgartirilgan va yangi ijod qilingan maqollar.

Masalan:

*Bo'lingan bo'lisning o'chgay chirog'i,
 Ortga bir qayriling, mingta qiyos-ku.*

("Mish-mish")

Bu yerda *bo'linganni bo'ri yer* maqoliga variantdosh sifatida *bo'lingan bo'lisning o'chgay chirog'i* deb berilgan. Bo'lis – o'tmishda Rossiya va unga tobe hududlarda uyezd tarkibidagi bir qancha qishloqlarni o'z ichiga olgan ma'muriy bo'linma. [5: 410] Demak, *bo'lis* so'zi joy nomini anglatadi.

*Bo'lar elning bolalari bir-birin der,
 Bo'lmas elning bolalari bir-birin yer.*

("Xalq bo'l, elim")

Bu misralarda *bo'ladigan bola boshidan ma'lum* maqolining variantdoshi sifatida yangi maqol hosil qilingan. Keyingi misraga e'tibor beramiz:

*Derlar: jon sog' bo'lsa jahon topilgay,
 Bir parcha yer, parcha osmon topilgay.*

("Ketar bo'ldim")

Birinchi misrada *bosh omon bo'lsa, do'ppi topiladi* maqolining variantdoshi sifatida yangi maqol hosil qilingan. Ikkinchi misrada *bir parcha yer, parcha osmon topilgay*, deya maqol mazmuni asoslangan.

Shoir "Bor bo'lsin" she'rida qiz farzandni maqtab, obrazli o'xshatishlar bergan:

*Qizi yo'qning oysiz xomush osmoni,
 Qizi borming qasrdir xonadoni.*

Yoki:

*Qiz bor uyning fayzi bo'lak deydilar,
 Jannat yo'li – qiz bor yo'lak deydilar, –*

deb yangi maqol hosil qilingan.

O'zing uchun o'l yetim!...

O'rda ham men, qirda ham. ("Beshinchi o'g'il")

Bu yerda *o'zing uchun o'l yetim* maqolining davomi sifatida *o'rda ham men, qirda ham* deb ta'kid kuchaytirilgan.

Endi osmon yiroq,

Endi yer yumshoq.

Lola, lolajonim,

Lolaqizg'aldoq. ("Lolaqizg'aldoq")

Osmon uzoq, yer qattiq maqolining komponentlari so'zlarni qofiyalashtirish, ta'sirchanlikni oshirish uchun o'zgartirilgan. Bunda *uzoq* so'zining sinonimi sifatida *yiroq* so'zi, *qattiq* so'zining antonimi o'rinda *yumshoq* so'zi berilib, maqolning ma'nosi ham o'zgartirilgan. Bu qahramon ruhiy holatini tasvirlashda yordam bergan.

Kundayin yillarim o'tar tizilib,

Bir boshga bir o'lim turar suzilib,

Bo'ynim egilguncha ketsin uzilib,

Oriyat yo'lida ko'ksi qalqonman.

Yuqoridagi misrada *bir boshga bir o'lim* maqoli undan oldingi misraga qofiyadosh sifatida kengaytirib berilgan.

Tuzing totib, unutganlar xor bo'ladi,

Ko'zlariga ikki dunyo tor bo'ladi. ("Tavallo")

Bu yerda *tuzini yeb, tuzlug'iga tuflamoq* maqoli qisqartirib qo'llangan. Bu maqol nonko'rlik qilmoq, yaxshilikka yomonlik qaytarmoq ma'nolarini ifodalaydi. Maqoldagi *yeb* so'zi *totib* so'ziga o'zgartirilgan, qolgan qismi keyingi misraga qofiyadosh qilib ma'nosi saqlangan.

Yetmish yulduz yog'ilib,

Yarim oycha to'lolmas,

Yetti yanga yig'ilib,

Bitta ona bo'lolmas. ("Beshinchi o'g'il")

Bu yerda shoir onaning o'rnini hech kim bosa olmasligini ta'sirchan ifodalab yangi maqol yaratgan.

Shu topda ko'nglingdan kechgan

O'yingdan aylanayin:

Arpa ekkkan – arpa o'rar

Bug'doy ekkkan bug'doyin!.. ("Bobodehqonim")

Shoir *nima eksang, shuni o'rasan* maqolini butunlay o'zgartirib qo'llagan. *Aylanayin* so'ziga ohangdosh bo'lishi uchun *bug'doyin* deb obrazli tasvirlagan. *O'rar* so'zi ellipsisga uchragan.

Dunyoning ishlari shunaqa, oshna,

Odamning taftini hayvon oladi. ("Munchoq")

Ushbu she'riy parchada *odam taftini odam oladi* maqolidagi so'z o'zgartirilgan.

Suyganni siylamoq qo'ldan kelmadi,

Suymasga suykanib ko'ngil to'lmadi.

Suymaganga suykalma maqoli kengaytirilib, obrazli tarzda ifodalangan. Maqolning birinchi, ikkinchi misralarida s undoshi takror kelib alliteratsiyani hosil qilgan.

Misolalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, shoir Muhammad

Yusuf xalq maqollarining ta'sir kuchidan o'z ijodida unumli foydalanish bilan birga, ularning yangi ekvivalentlarini yaratgan. Bu uning asarlari xalqchilligi, ta'sirchanligini yanada oshirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Jo'raxonov. Muqimiyning xalq maqollaridan foydalanishdagi mahorati // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1974. 4-son. 52–55-betlar.
2. B.Yoriyev. Shayxzoda poemasida maqol va aforizmlar // O'zbek tilshunosligi masalalari. – Samarqand: SamDU, 1977. 325-son. 75–87-betlar.
3. S.Maksumova. Erkin Vohidov asarlaridagi maqollarning uslubiy xususiyatlari. // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2017. 3-son. 100–102-betlar.
4. D.Shodiyeva. Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi // Filol. fanlari nomzodi diss... avtoreferati. – Toshkent, 2007. 12–13-betlar.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 410-bet.

Shoira RAHIMOVA,

Urganch universiteti mustaqil izlanuvchisi

“DAVLATYORBEK” DOSTONINING O‘ZBEK VERSIYASI

Har bir xalqning eposi, eng avvalo, uning milliy tarixi haqidagi xotiralardir. Biroq u tarixiy voqealarning real takrorlaridan iborat emas, balki ularning badiiy qayta ishlangan ko'rinishlaridir.¹

Shunday ekan, xalq dostonlaridagi epik motivlar zamirida ular shartli va noodatiy bo'lishlaridan qat'i nazar, xalqning dunyoqarashi, axloq normalari, ideali o'z ifodasini topadi.²

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan “Davlatyorbek” dostoni ham uni yaratgan xalqning orzu-umidlari, hayot tarzini o'zida badiiy mujassamlashtirgan ma'naviy merosdir. Doston aynan xalq tarixining yorqin ko'rinishlaridan birini aks ettirishi bilan e'tiborga loyiq. Xorazmda yaratilgan ushbu ko'lamdor asar 2000 misradan ortiq tarkibga ega. Dostonda tarixiy shaxslar obrazi ham yaratilgan bo'lib, bu boshqa dostonlarda kam kuzatiladi. “Davlatyorbek” dostoni vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, mardlik, insof-adolat, din-diyonat, ezigulik, sahovat kabi noyob fazilatlarini targ'ib qilishi bilan katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Eposdagi tarixiylik juda keng ma'no-mazmunni o'z doirasiga qamrab oladiki, unda turmushi aks etgan xalqning hayot yo'li, ma'naviy dunyosi, intellektual potentsiali chuqur va to'raligicha o'z ifodasiga ega bo'ladi.³ “Davlatyorbek” dostoni yaqin o'tmishdagi voqealarni o'z mazmuniga qamrab olishi bilan qadimiy eposdan ancha farq qiladi. Qoraqalpoq olimlarining ta'kidlashlariga ko'ra dostonning paydo bo'lgan hududi Qo'ng'irotdir. Davlatyorbek Orol o'zbeklarining bolg'ali urug'idan chiqqan Eshmurod noyibning o'g'li bo'lgan.

Darhaqiqat, eng qadimgi davrlardan XIX asrning birinchi choragini o'z ichiga qamrab olgan buyuk tarixiy asar “Firdavs ul-iqbol”da Davlatyorbekning ismi ikki-uch joyda tilga olinadi: “Va Yavmut bilan Orol Qo'ng'irotda istilo topib, mulk ixtiyori Yavmut qo'lida bo'ldi va Miskin mehtarni Xongaldi inoq Eshmurod Qo'ng'irotning o'g'li Davlatyorbekka buyurub o'tturdi va Abdurahmon mehtarga nazoratni mufavvaz qildi”⁴, deb qayd qilingan.

Asarda Davlatyorbek bilan bog'liq boshqa tafsilotlar berilmaydi. Biroq asarda keltirilganidek, Miskin mehtarning o'ldirilishida Davlatyorbekning qo'li bo'lishi haqiqatga yaqin. Zero, shundan so'ng unga nisbatan tazyiq qo'zg'alishi tabiiy. Aybdor esa jonini saqlash uchun elidan chiqib ketishi shart. Undan keyin, albatta, sarguzasht boshlanadi.

Ushbu tarixiy voqea dostonning yaratilishiga turtki bo'lganligi ehtimoldan xoli emas.

“Davlatyorbek” dostoni dastlab 1943-yilda Ashxobodda chop etilgan bo'lib, dostondan ayrim parchalarni o'z ichiga olgan. 1978-yilda esa to'raligicha bosilib chiqqan.⁵ Biroq doston turkman shoiri Qurbonali Ma'rufiy ijodiga tegishli asar sifatida e'lon qilingan.

Professor Q.Maqsatov dostonni biror bir muallif ijodiga nisbat berishni qat'iy rad qiladi. Folklorshunos olimning ta'kidlashicha, doston Orol o'zbeklari muhitida shakllangan. Asarning uch-to'rtta qo'lyozma nusxalari ham ma'lum. Uning dastlabki variantlari 1930-yillardayoq yozib olingan.⁶

“Davlatyorbek” dostonining qo'lyozma nusxalariga razm solinsa, ilk nusxalar Xorazm muhitida, to'g'rirog'i, Qo'ng'irotda ko'chirilganini sezish qiyin emas. Negaki, Qo'ng'irotda ko'chirilgan nusxalar Xorazmda ommalashgan qo'lyozma dostonlarga o'z uslubi, tili, she'riy shakllari bilan aynan mos keladi. Turkmanlar orasida tarqalgan nusxalar yig'ma tarzda to'planib, muayyan bir shaklga keltirilgan va Ma'rufiy ijodiga nisbat berilgan.

Manbalarga ko'ra Qurbonali Ma'rufiy Davlatyorbek bilan bir davrda yashagan, hatto u bilan birga o'qigan, jang qilgan, ko'p umrini Xiva va Urganchda o'tkazgan, degan ma'lumotlar ham mavjud.⁷

“Davlatyorbek” dostoni kompozitsiyasi an'anaviy epos tizimiga to'la rioya qilingan holda shakllangan. Ekspozitsiyadan keyin epik qahramonning xayrlashuv sahnavi boshlanadi. Unga ona oq yo'l tilaydi. Shu jihat e'tiborni tortadiki, ushbu sahna jahondagi aksariyat epik asarlarda, xususan, rus bilinalarida ham mavjud ekan. Masalan, “Добриnya змееборец” qahramonlik bilinasida ham onasi o'g'lini safarga jo'natish oldidan unga ezgu tilaklar izhor qiladi.⁸

Xayrlashuv sahnavidan so'ng sarguzashtlar boshlanadi. Yana an'anaviy eposdagi kabi ma'shuqa xabari yetib kelishi, uni izlash, shartlarini bajarish, shu asnodda bosh qahramonning yarador bo'lishi, unga suiqasd uyushtirilishi, ma'shuqaga fojiali xabar yetib kelishi va uning joniga qasd qilishi kabi voqealar eshituvchi va o'quvchi ko'z oldida birin-ketin namoyon bo'ladi.

Dostondagi asosiy obraz Davlatyorbek bo'lib, u Go'ro'g'li, “Yusuf va Ahmad”dagi Yusuf obrazlarining sintezlashgan toifasiga o'xshaydi.

Davlatyorbek jasur jangchi, mohir chavandoz, shoir va qo'shiqchidir. Uning yigitlari o'z boshchilariga bizga nasi-

hat bering, deb tez-tez murojaat qilishadi. Bu ko'rinishlar "Go'ro'g'li" dostonlaridagi epik qahramon qiyofasini takrorlaydi.

Bosh qahramonning pand-nasihati haqidagi she'riy monologlari ko'p jihatlari bilan Go'ro'g'li pandnomalariga o'xshab ketadi:

G'o'ch yigitlar suring besh kun davronni,
Bul yolg'on dunyodur, dod bila kechur.
Nomard foydasiga berib molini,
Yemas, ichmas, kuni sud bila kechur.
Bul shirin dunyoning o'tarin biling,
Olma ko'z bedovni egarlab mining,

Shod-u xurram bo'lib, o'ynang va kuling,
Dunyodini aldangan mot bila kechur.

("Oshiqnoma", 7-kitob, 48-bet).

Doston bizning fikrimizcha, XVIII asrning oxirlarida yaratilgan. Qoraqalpoq olimlarining qayd qilishlaricha, asarning qo'lyozma nusxalari XIX asrda yuzaga kelgan. Demak, dostonning to'la shakllanib, qissaxonlar repertuariga o'tishi XIX asrning I yarmiga to'g'ri keladi. Keyinchalik ushbu qo'lyozma nusxalar baxshilarning og'zaki repertuaridan joy olgan.

Xorazmda uning qo'lyozmalari ko'proq qiroatxon xalfalar qo'lida saqlanib qolgan.

¹Азбелев С.Н. Историзм былин испецифика фольклора. – Л.: Наука, 1982. – С. 209. (328)

²Путилов Б.Н. Героический эпос черногогорцев. – Л.: Наука, 1982. – С. 178. (240)

³Петросян А.А. История народа и его эпос. – Москва: Наука, 1982. – С. 67. (216)

⁴Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. 65–70-betlar. (Nashrga tayyorlovchilar: N. Jumaxo'ja, S. Ro'zimboyev, A. Ahmedov).

⁵Гурбаналы -Магруппы. Девлетяр. – Ашгабат: "Туркменистан", 1978. (Нашрга тайёрловчи: Қ. Дурдыев)

⁶Максетов К. Каракалпакские героические дастаны. // Очерки по истории каракалпакского фольклора. – Ташкент: Фан, 1977. – С. 91–94 (232)

⁷Дурдыев К. Маърупы ве онуң "Девлетяр" дессаны / Девлетяр. – Ашгабат: Туркменистан, 1978. – С. 3–27.

⁸Юдин Ю.И. Героические былины. – Москва: Наука, 1975. – С. 23 (120)

Sharofat BO'RIBAYEVA,

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi;

G'ayrat HAFIZOV,

O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

PASSIV KONSTRUKSIYALARINING SINTAKTIK KLASSIFIKATSIYASI VA ULARNING O'ZBEK TILIDA IFODALANISHI

Ma'lumki, nemis tilida xatosiz gapirish uchun uning grammatikasini bilish muhim hisoblanadi. Nemis tili grammatikasi nemis tilini chet tili sifatida o'rganayotganlar uchun biroz qiyinchilik tug'diradi. Bunga eng asosiy sabablardan biri nemis va o'zbek tillarining turli til tiplariga mansubligidir. O'zbek va nemis tili grammatikasida ko'pgina tafovutlar bo'lgani uchun bu ikki tilni qiyoslab o'rganish ko'pincha ijobiy natijalar beradi. Biz ham ushbu maqolamizda nemis tilidagi passiv konstruksiyalarni o'zbek tiliga berilish yo'llarini ikki tilni qiyoslagan holda ochib berishga harakat qildik.

Nemis tilida fe'llar, asosan, ikki nisbatga, ya'ni aniq nisbat va majhul nisbatga ega. O'zbek tilida esa fe'lning aniqlik nisbati, o'zlik nisbati, majhullik nisbati, birgalik nisbati va ortirma nisbatlari mavjud.²

Aktiv nisbatda ish-harakatni bajaruvchisiga nigoh yo'naltirilsa, passivda esa ish-harakatni bajaruvchisiga emas, balki jarayonga yo'naltiriladi.³ Passiv nisbati aktivga qaraganda kamroq qo'llanilsa-da, ammo uning yasalishi va funksiyalari aktivga qaraganda biroz murakkabroq. "Duden Grammatik"⁴ da yozilishicha, hozirgi zamon nemis matnlarida aktiv 93% va passiv 7% miqdorda uchrar ekan. Aktiv nisbat bilan qiyoslaganda passiv juda kam hollarda ishlatilsa-da, ammo bu nisbatni o'rganish nemis tilini chet tili sifatida o'rganayotganlar uchun juda muhim.

Nemis tilida grammatikaga oid manbalarda passiv turlarining turli atamalar bilan nomlanganligini kuzatish mumkin. Masalan, "Duden Grammatik" kitobida passivni quyidagi turlari berilgan:

1. Werden-Passiv (werden fe'li bilan passiv).
2. Bekommen-Passiv (bekommen fe'li bilan passiv).
3. Sein-Passiv (sein fe'li bilan passiv).⁵

Harald Vaynrix ham passivni quyidagi uch turini ko'rsatib o'tgan:

1. Vorgangspassiv (jarayon passivi).
2. Zustandspassiv (holat passivi).
3. Modal-Passiv (modalli passiv).⁶

Boshqa grammatik kitoblarda esa uning ikki turi haqida to'xtalib o'tilgan: Vorgangspassiv va Zustandspassiv.⁷

Nemis olimi Ulrich Engel ham passivning quyidagi ikki turini ko'rsatgan: das volle Passiv (to'liq passiv) va das generelle Passiv (umimiy passiv).

Das volle Passiv ham o'z navbatida quyidagi turlarga bo'lingan:

Das werden-Passiv, das gehören-Passiv (gehören fe'li bilan passiv), das sein-Passiv, das bekommen-Passiv.⁸

Tilshunoslar yuqoridagidek passivni turlarga bo'lgan va ularni turli atamalar bilan nomlagan bo'lsalarda, ammo ularning yasalishida va qo'llanishida o'xshashliklar mavjudligini ko'rish mumkin.

Nemis tilida majhul nisbat aniq nisbat kabi olti zamon shakliga ega. Bundan tashqari passiv infinitiv I va infinitiv II shakllariga ega.⁹

Ushbu zamonlarda ifodalangan gaplar tuzilishiga ko'ra bir, ikki, uch bo'lakli bo'ladi va ba'zi manbalarda to'rt bo'lakli passiv konstruksiyalarini uchratishimiz mumkin.

Bir bo'lakli passiv konstruksiyasi faqatgina fe'ning passiv shaklidan tashkil topadi. Sintaktik ega sifatida gapda es olmoshi qo'llaniladi. Uni, shuningdek, bajaruvchisi ma'lum bo'lmagan shaxssiz passiv deb ham atash mumkin.¹⁰

Es wird getanzt.

Shendels nazariyasiga asosan, bu konstruksiya faqatgina fe'ning passiv shakli va ixtiyoriy to'ldiruvchidan tashkil topadi. Kesimning ikkinchi o'rinda kelishini kafolatlash uchun gap tarkibida birinchi o'rinda es qo'llaniladi. Shuning uchun ham bu konstruksiya egasiz konstruksiya deb ham ataladi. Lekin gapda birinchi o'rinda boshqa bir so'z kelsa, es tushib qoladi:

Es wird jetzt tüchtig gearbeitet – Jetzt wird tüchtig gearbeitet.¹¹

Ikki bo'lakli passiv konstruksiyasida fe'ning passiv shaklidan tashqari sintaktik ega ham qatnashadi. Buni bajaruvchisi gapda qatnashmagan egali passiv deb nomlash ham mumkin.¹²

Shendelsning fikriga ko'ra, ikki bo'lakli passiv uch bo'lakli passivga qaraganda ko'proq qo'llaniladi. Bunda ish-harakat bajaruvchisi bir nechta sabablarga ko'ra gapda aniq ko'rsatilmasligi mumkin.

Ish-harakat bajaruvchisi notanish va uni aniq ko'rsatish imkoni yo'q:

Dieses Gebäude wurde im 17. Jahrhundert gebaut.

Ish-harakat bajaruvchisi biror sababga ko'ra aniq ko'rsatilmasligi mumkin: Ich bin heute eingeladen worden.

Ish-harakat bajaruvchisi ish-harakat jarayonida ahamiyat kasb etmaydi va gapda uni ko'rsatish shart emas: Abonnierte Tageszeitungen werden in den frühen Morgenstunden ausgegeben.

Ish-harakat bajaruvchisi umumiy xarakterga ega: Das Leben, das er nicht verstand und in dem er nicht verstanden wurde.

Ish-harakat bajaruvchisi haqiqatdan ham ko'rsatilmaydi: Bei der Eisenbahnkatastrophe wurden zwei Wagen beschädigt und mehrere Personen verletzt.

Ish-harakat bajaruvchisini berilgan kontekstdan anglab olish mumkinligi uchun ham gapda berilmaydi: Dieses Thema wird im Kapitel 5 erörtert. (vom Verfasser)¹³.

Uch bo'lakli passivda fe'ning passiv formasi va gapning sintaktik egasidan tashqari predlog bilan ko'rsatilgan bajaruvchi ham qatnashadi:

Er wird vom Lehrer gelobt.¹⁴

Bunda, asosan, von va durch predloglari qo'llaniladi.

To'rt bo'lakli passiv uch bo'lakli passiv va yana bir kelishidki (Dativ, Genitiv) qo'llaniladigan gap bo'lagidan iborat bo'ladi.

Eslatma: berilgan konstruksiyalar ichida ikki bo'lakli passiv eng ko'p qo'llaniladigan turga kiradi, undan keyingi darajalarda uch va to'rt bo'lakli passiv turadi. Bir bo'lakli passiv nemis tilida odatda juda kam qo'llaniladi:

Das Buch wird dem Schüler vom Lehrer geschenkt.¹⁵

Nemis tilidagi passiv konstruksiyalar o'zbek tiliga ko'pin-

cha majhul nisbat orqali berilishiga guvoh bo'lganmiz. Biz ikki, uch va to'rt bo'lakli passiv konstruksiyalarini o'zbek tiliga fe'ning boshqa nisbatlari orqali ham berilishini misollar yordamida yoritib berishga harakat qilamiz. Nemis tilidagi bir bo'lakli passiv konstruksiyasiga misol:

Und dann wird dezent ausgeblendet.

Keyin kadr to'satdan o'zgarib qoladi.

Gapda birinchi o'rinda ikkinchi darajali bo'lak qo'llanilganligi sababli formal ega vazifasini bajaruvchi es gapda qo'llanilmagan. Ushbu gap o'zbek tilida ifodalanganda aniq nisbat orqali berilgan.

Quyidagi nemis tilidagi gap ikki bo'lakli passiv hisoblanib, gapda nisbiy olmosh bog'lovchisi ega vazifasini bajarib kelgan, ammo ish-harakat kim tomonidan bajarilganligi ko'rsatilmagan: Ich bin nämlich eine gebürtige Linkshänderin, die in der Schule auf rechts umgepolt wurde.

Tug'ma chap qo'lman, biroq maktabda o'ng qo'lida yozishga majbur qilishdi.

Bu yerda ish-harakat bajaruvchisini kontekstdan yaqqol anglab olish mumkin. Bu gapning kesimi o'zbek tilida fe'l negiziga birgalik nisbati qo'shimchasi –ish qo'shish orqali ifodalangan: majbur qilishdi.

Quyidagi misolda nemis tilidagi uch bo'lakli passiv konstruksiyasi ergash gap tarkibida kelib, gapning egasi bog'lovchi vazifasida kelgan nisbiy olmosh orqali ifodalangan: Ich bin für Sie ein Fantasiebild, real daran sind nur ein paar Buchstaben, die von Ihnen sprachpsychologisch in einen klangvollen Zusammenhang gebracht werden können.

Men siz uchun tasavvuringizdagi bir suratman, yanada ochiqroq aytusak, siz tomoningizdan tilshunos – ruhshunos sifatida ohangiga ko'ra tartibga keltirilayotgan harflar yig'indisi.

Ish-harakat bajaruvchisi vazifasida kelgan olmosh (Ihnen) von predlogi bilan qo'llanilganligi sababli dativ kelishigida turibdi. Nemis tilidagi gapning kesimida passivga xos ma'no, o'zbek tilidagi gapda sifatdosh orqali berilgan: keltirilayotgan. Sifatdosh tarkibida majhul nisbat yasovchi suffiks -il va ortirma nisbat -tir suffikslari mavjud. Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, passivni o'zbek tilida ifodalashda majhul va ortirma nisbatlardan va fe'ning sifatdosh shaklidan foydalanilgan.

Die Einladung wurde der Mutter von ihrer Tochter verschickt.

Taklifnoma onaga qizi tomonidan jo'natildi.

Mazkur nemis tilidagi gap to'rt bo'lakli passiv konstruksiyasi asosida tuzilgan. Bunda gapning egasi (die Einladung), von predlogi bilan qo'llanilgan ish-harakat bajaruvchisi (ihrer Tochter) va dativ kelishigida kelgan to'ldiruvchi (der Mutter) ishtirok etgan. Ushbu konstruksiya o'zbek tiliga majhul nisbat orqali tarjima qilingan.

Ushbu maqolamizda biz nemis tilida passiv va uning konstruksiyalari haqida to'xtalib o'tdik. Nemis tilidagi bir, ikki, uch va to'rt bo'lakli passiv konstruksiyalari o'zbek tiliga ko'p holdalarda majhul nisbat, aniq va ortirma nisbatlar orqali berilishini misollarni tahlil qilgan holda ko'rsatib berdik.

¹МирсоатовТ.З. Немис тили грамматикаси. Морфология. – Тошкент. 1974. 163 б.

²Habermann M., Diewald G., Thurmayr M. Fit für das Bachelorstudium. Grundwissen Grammatik.Mannheim. 2009. S.18

³Duden. Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. hrsg.u. bearb. Von Günter Drosdowski in Zusammenarbeit mit Peter Eisenberg. 5., völlig neu bearb. Und erw. Aufl. Mannheim; Leipzig; Wien; Zürich: Dudenverlag. Der Duden. Bd.4. 1995. S.170

⁴Duden Grammatik Band 4. Brockhaus, Mannheim 2006 S.474-477.

⁵Weinrich H. Textgrammatik der deutschen Sprache. Georg Olms Verlag. Hildensheim. 2007. S.157.

⁶Fleer S. Kurzgrammatik Deutsch. Langenscheidt KG, Berlin und München. 2008. S. 80.

⁷Engel U. Deutsche Grammatik. IUDCIUM Verlag. München, 2004. S.239-243.

⁸МирсоатовТ.З. Немис тили грамматикаси. Морфология. – Тошкент. 1974. 164 б.

⁹HelbigG., BuschaJ.. Deutsche Grammatik. Langenscheidt, Berlin und München, 2001. S. 145.

¹⁰Шендельс Е.И. Практическая грамматика нем.языка. Высшаяшкола – Москва, 1988. 72–73 ст.

¹¹Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik. Langenscheidt, Berlin und München, 2001. S. 145

¹²Шендельс Е.И.Практическая грамматика нем.языка. Высшая школа – Москва, 1988. 65–66 ст.

¹³Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik. Langenscheidt, Berlin und München, 2001. S.145.

¹⁴Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik. Langenscheidt, Berlin und München, 2001. S.145.

Nigora URALOVA,

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika
universiteti mustaqil tadqiqotchisi

TARIXIY HAQIQATNING BADIY TALQINI

(N. Karimovning «Maqsud Shayxzoda» ma'rifiy-biografik romani xususida)

Odatda, hajmi ancha katta, xilma-xil qahramonlar, sertarmoq sujetga ega bo'lgan, asosan, proza yo'li bilan yozilgan asar roman hisoblanadi. O'zbek adabiyotida o'tgan asrning birinchi choragida Abdulla Qodiriy boshlab bergan ushbu janr keyinchalik adiblarimiz tomonidan samarali davom ettirildi va ushbu janrda yaratilgan ko'plab asarlar kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

XX asrning so'nggi choragida Aziz Qayumov tomonidan yaratilgan hujjatli "Abu Rayhon Beruniy", "Abu Ali ibn Sino" asarlari yana bir janr – ma'rifiy roman janri yaratilishiga asos bo'ldi, deya olamiz. Keyinchalik ushbu janr Bo'riboy Ahmedov, Naim Karimov, Pirmat Shermuhamedov kabi qator yozuvchi va olimlar tomonidan rivojlantirilib, ma'rifiy, ma'rifiy-biografik, tarixiy asarlar yaratildiki, bu o'zbek adabiyoti xazinasining yanada boyishiga xizmat qildi. Jumladan, taniqli adabiyotshunos olim Naim Karimov tomonidan keng kitobxonlar ommasiga taqdim etilgan «Cho'lpon», «Zulfiya», «Mirtemir», «Maqsud Shayxzoda», «Usmon Nosir» kabi qator ma'rifiy-biografik romanlar alohida e'tiborga loyiq.

Ma'lumki, badiiy to'qimaning juda kamligi yoki umuman yo'qligi, asar voqealarining tarixiy faktlar, dalillar, shohidlarining xotiralarini asosida shakllantirilishi, muallifning roman qahramonlari yuzasidan ilgari surgan ilmiy farazlari, umumlashma va xulosalari, shaxsiy mulohazalari bilan boyitilishi ma'rifiy romanning janriy xususiyatlari hisoblanadi. Bu tipdagi asarlarda hujjatlar asosida ishlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, muayyan tarixiy shaxs yoki voqealarni o'rganishda o'quvchi-kitobxon uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Naim Karimovning shoir, dramaturg, adabiyotshunos olim, tarjimon, pedagog, o'zbek adabiyoti, adabiyotshunosligi va tarjima maktabi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan adib Maqsud Shayxzodaning mashaqqatli taqdiri aks etgan «Maqsud Shayxzoda» nomli ma'rifiy-biografik romani adib hayotining biz bilan va bilmagan jihatlarini zamondoshlar xotiralarini va arxiv materiallari asosida batafsil yoritilgan. Unda adibning badiiy mahorati ham tahlil prizmasidan bir qur o'tkazilganligi, amalga oshmay qolgan rejalarini, yakunlanmay qolgan asarlari xususida ham ishonchli manbalarga tayangan holda bildirilgan fikr-mulohazalar asar qimmatini yanada oshiradi.

Romanda aks etganidek, Maqsud Shayxzoda – taqdir shamoli Toshkentga uchririb kelgan va bu zaminni o'zining ikkinchi vatani deb bilgan, o'zbek xalqiga bo'lgan cheksiz ehtiromini o'zbek tilida asarlar yozish orqali izhor eta olgan ozar o'g'loni.

O'z davrining ziyoli oilasida dunyoga kelgan Maqsud Shayxzoda adabiyotga juda erta havas qo'yan. Dastlabki she'rlari, adibning o'zi hayotining so'nggi yillarida e'lon qilgan tarjimai holida e'tirof etganidek, besh yoshlarida 8–10 misra «masal» to'qish bilan boshlangan. Uning ilk she'ri 1921-yilning 12-dekabrda «Kommunist» gazetasida chop etilgan. Keyinchalik 1926-yillarda «Maorif yo'li» gazetasida bosilgan «Adabiy suhbatlar»i, Naim Karimov ta'bir bilan aytganda, endigina 18 yoshga qadam qo'yan shoirning «nafaqat Nomiq Kamol, balki Pushkin, Lermontov, Gyote, Bayron, Firdavsiy ijodidan ham xabardor, she'riyatning asosiy vazifa va talablarini bilgan shoir va tanqidchi»² bo'lib yetishganidan darak berardi.

Taqdir taqozosi bilan o'z vatanidan 3 yilga badarg'a bo'lgan shoir ota-onasining maslahati bilan Toshkentda qo'nim topdi va hayotining keyingi sal kam qirq yili davomida o'z yaratgan asarlari bilan o'zbek adabiyoti xazinasiga salmoqli hissa qo'shdi.

Kitobxon-o'quvchi ma'rifiy-biografik roman bilan tanishish jarayonida olimning 1929-yil «Sharq haqiqati» gazetasida bosilgan o'zbek tilidagi dastlabki she'ri «Traktor»dan (50-bet) tortib, «O'zbekiston ovozi» gazetasining 1966-yil 15-dekabr sonida chop etilgan so'nggi salmoqli maqolasi – «G'azal mulkingning sultoni»gacha (319-bet) bo'lgan davr oralig'ida kechgan hayoti bilan tanishish jarayonida bevosita Naim Karimov tasviridagi Shayxzoda bilan bamisoli birga yashaydi: kulsa – kuladi, kuysa – kuyadi.

Odatda, roman janri tarixiy haqiqatlar bilan bir qatorda bir qancha badiiy to'qimalarni ham talab etadiki, bu asarning qiziqarli bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq Naim Karimovning ma'rifiy romanlarida bunday to'qima obrazlarni uchratmaysiz. Adabiyotshunos olim adiblar hayotini hikoya qilar ekan, qahramoni kechmishida ro'y bergan voqealarni tasvirini badiiylik nafosati bilan yo'g'iradi, goho olimning o'z fikr-mulohazalari ustunlik qilsa, goho zamondoshlari tomonidan yodga olingan voqealar badiiy talqini bilan e'tiborni tortadi. Bularning barchasi haqiqatga yaqinligi bilan o'quvchi diqqatini tortadi.

Romanda arxiv hujjatlariga tayanib keltirilgan chekistlar tasviridagi "bo'yi o'rta, jasadi to'la, yelkasi ko'tarilgan, bo'yni kalta, sochlari qora, yuzi dumaloq, manglayi baland, qoshlari yoysimon, burni katta va keng, og'zi katta, lablari do'rdoq, dahani tekis, quloqlari katta" (4-bet) Shayxzoda qiyofasi Naim Karimov izlanishlari o'laroq sayqal topib, o'quvchi ko'z o'ngida o'ta bilimdon olim, iste'dodli adib, har qanday holatda va har qanday sharoitda ham va'dasini bajaradigan subutli, nafaqat do'st-yorlari va yaqinlari, balki shogirdlariga-da mehribon inson, bir so'z bilan aytganda, ulkan qalb egasi sifatida gavdalana boradi. Shuningdek, Naim Karimov tomonidan "Shayxzodaning Navoiy ijodi bilan "changlanishi"da Cho'lponning ham hissasi oz emas"ligi, "Mirzo Ulug'bek" tragediyasidagi Xo'ja Ahror obrazini noto'g'ri talqin qilganligi, shuning uchun ham ushbu obrazni "Xo'ja Asror yoki boshqa bir ism bilan atash to'g'ri bo'l"ishi (238-bet) haqida fikrlar ham bildiriladiki, bu muallifning yetuk adabiyotshunos olimligidan dalolat beradi.

Asar bilan yaqindan tanishish jarayonida kitobxon nafaqat Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi bilan, balki adib hayotiga bog'liq holda bevosita sobiq Ittifoq, jumladan, mamlakatimizning Ikkinchi jahon urushi davrigacha, urush davri va urushdan keyingi tiklanish va turg'unlik yillariga doir haqqoniy tarixidan ham voqif bo'ladi. Shayxzoda hayotiga bog'liq holda tasvirlangan XX asrning 40-yilgacha bo'lgan davr adabiyoti ham o'zining jami murakkabliklari bilan o'quvchi ko'z o'ngida gavdalanadi. Jumladan, 1937-yilda Pushkin vafotining 100 yilligiga bag'ishlangan tantanalar sabab Oybekka – «Yevgeniy Onegin» she'riy romani, Elbekka – Pushkinning she'riy ertaklari, Abdulla Qahhorga – «Kapitan qizi» qissasi, Hamid Olimjonga – «Kavkaz asiri» va «Suv parisi», Usmon Nosirga – «Bog'chasaroy fontani», Temir Fattohga – «Lo'lilar», Shayxzodaga – «Mis chavandoz» hamda «Motsart va Salyeri» she'riy asarlarini tarjima qilish topshirig'i berilganligi va uning adiblar tomonidan a'lo darajada bajarilganligi; Moskvada o'zbek san'ati o'nkunligining tashkil etilishi va uning muvaffaqiyatli yakuni nihoyasida unga bosh-qosh bo'lgan Fayzulla Xo'jayevning Moskvada qamoqqa olinishi haqidagi ma'lumotlar o'quvchi tasavvurida o'sha davrning mash'um holatini jon-

lantiradi. Shundan keyin boshlangan «qama-qama»lar millatning asl farzandalari, jumladan, «24-aprelda Fitrat, 27-mayda Rafiq Mo'min, 2-iyulda Otajon Hoshim, 12-iyulda Qayum Ramazon, 13-iyulda Cho'ipon, 14-iyulda Usmon Nosir, 3-avgustda Bosit Qoriyev, 5-avgustda Ziyo Said, 6-avgustda G'ozzi Yunus, 7-avgustda Miyon-Buzruk Solihov, 9-avgustda Anqaboy, 14-avgustda Tavallo, 4-sentabrda Ashurali Zohiriy, 26-sentabrda Muhammad Hasanov, 29-sentabrda Qosim Sorokin, 15-oktabrda A'zam Ayub, 29-oktabrda G'ulom Zafariy, 31-dekabrda Abdulla Qodiriy va boshqa o'nlab, yuzlab yozuvchilar, olimlar, jurnalistlar, san'atkorlar qamoqqa» (76-bet) olinganligi haqidagi ma'lumot tutday to'kilgan o'zbek ziyolilarining, Naim Karimov ta'biri bilan aytganda, «momoguldarakli yillar»dagi taqdiridan so'zlaydi.

Ikkinchi jahon urushi boshlangach, xalqni g'alabaga ruhlantirish uchun «yozuvchilar mashhur tarixiy shaxslar va folklor asarlari qahramonlarining vatan ozodligi yo'lidagi mardlik va jasoratlarini tasvirlangan asarlarni yaratishga bel bog'ladilar. Hamid Olimjon – Muqanna, Oybek – Mahmud Torobiy, Maqsud Shayxzoda esa mo'gul va arab bosqinchilariga qarshi kurashdagi jangovar jasoratlar haqida sahna asarlari yozishga ahd» (105-bet) qilganligi, bu jarayonda tarixiy shaxs – Jaloliddin Mankburni aynan Shayxzoda tomonidan Manguberdi deb atalganligi va bugungi kunga qadar shunday atalib kelinayotgani, ushbu dramani yaratishda adib xorazmshohlar tarixini chuqur o'rganish bilan bir qatorda Shahobuddin Muhammad Nasaviyning «Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni» hamda Alouddin Atomalik Juvayniyning «Tarixi jahongushoyi Juvayniy» asarlarini chuqur o'rganib, shu asarlar asosida dramani yozishga kirishganligini muallif alohida ta'kidlab o'tadi. Shu bilan birga o'quvchi o'z davrida drama juda katta shuhrat qozonganligi, dramada rollarni Obid Jalilov (Xorazmshoh), Amin Turdiyev (Chingizxon), Olim Xo'jayev (Amir Badriddin), Sayfi Olimov (Muhammad Nasaviy), Sora Eshonto'rayeva, Shohida Ma'zumova, Xolida Xo'jayeva (Sultonbegim), Toshxon Sultonova (Ona) kabi aktyorlar ijro etganligi, rassom Hamidulla Ikromov, kompozitor Manas Leviyevning xizmatlaridan ham xabar topadi. Romanda keltirilgan 1946-yil 26-avgustda qabul qilingan Markaziy Komitetning «Dramatik teatrlarning repertuari va uni yaxshilash yo'llari haqida»gi qarori tufayli juda ko'plab yetuk asarlar bilan bir qatorda Shayxzoda va uning «Jaloliddin Manguberdi» dramasi ham «feodal o'tmishni qo'rsash va ideallashtirish»da (142-bet) ayblanganligi haqida ishonchli manbalarga tayanib keltirilgan ma'lumotlar o'quvchini mash'um davrning qora kunlaridan voqif etadi.

Ikkinchi jahon urushdan keyingi davrda Yozuvchilar uyushmasidagi vaziyat mamlakatdagi qaltis holat haqida muayyan tasavvur uyg'otadi. Milchakov, Sheverdin va ularning hammaslari sa'y-harakatlari o'tgan asrning 50-yillarida qanchadan qancha ziyoli qatlam vakillari qatorida Shayxzodaning boshiga ham qora kunlarni soldi. 1952-yilning 20-sentabrda Shayxzodani qamoqqa olish bilan boshlangan kulfatlar uning 1953-yilning sentabrda 25 yilga mehnat-tuzatuv lageriga yuborish va 5 yillik saylov huquqidan mahrum etish jazosi tayinlanishi bilan nihoyasiga yetdi. Faqat 1954-yilga kelibgina – 20 oylik qamoqdan so'ng Shayxzoda ozodlikka chiqadi. Bu ma'lumotlar romanda ishonchli manbalar vositasida xronologik tartibda yoritilgan. Eng muhimi, asarda muallifning olimlarga xos ziyarak nigohi va yozuvchilarga xos badiiy mahorati asarning ham ma'rifiy, ham badiiy qimmatini oshirgan.

Asarda nafaqat Maqsud Shayxzoda, balki Shayxzoda yashagan davr muhiti, uni qurshagan odamlar olami ham olimning tiyrak nigohidan chetda qolmagan. Jumladan,

asarda Muxtor Avezov, Shukur Burxonov, Abror Hidoyatov, Usmon Yusupov, Otajon Hoshim, Oybek, G'afur G'ulom, Sakinaxonim kabi ko'plab shaxslar qiyofasiga ham ko'rinmas bo'yoqlar bilan jilo beriladiki, natijada ularning nurli suvrati ko'z o'ngimizda sekin jonlana boradi. Ammo Naim Karimov tomonidan yana shunday «suvsatlar» "chiziladi"ki, beixtiyor «dunyoda noqobil farzandning ota-onasiga, noshud shogirdning ustoziga nisbatan xiyonatidan qabihroq jinoyat bo'lmasa kerak»ligiga (182-bet) amin bo'lasiz.

Naim Karimovning ushbu romani Shayxzodaning ijodkor sifatidagi qiyofasini to'laqonli gavdalanirigani bilan ham ahamiyatli. Xususan, unda muallif Shayxzodaning keng ko'lamlil ijodiy rejaları haqida ham ma'lumotlar taqdim etadi. Muallif o'z izlanishlariga tayangan holda Maqsud Shayxzodaning bir qancha asarlari o'z yakuniga yetmaganligi, bir qancha rejaları amalga oshmay qolganligini alohida ta'kidlab o'tgan. Jumladan, Shayxzodaning «Alisher Navoiy» opera librettosi, «Abu Rayhon Beruniy» tarixiy dramasi yoza boshlangani, ammo nihoyasiga yetmaganligi, «Sahroga baxt» pyesasi ni yozish, «Sharq ensiklopediyasi» – «Qomusi Sharqiyani» nashrga tayyorlashni rejalashtirgani, «Bobur va Furqat hamda ularning Hindiston bilan bog'liq hayotlari haqida ham asar yozmoqchi» bo'lganligi, «ajoyib ziyolilar haqida» (311-bet) ham sahna asarini yozish niyati xususidagi Maqsud Shayxzoda mulohazalari ham bayon etilgan.

Shayxzodaning adabiy merosini o'rganish va targ'ib etish bilan mashg'ul bo'lgan Muhsin Zokirov tomonidan berilgan ma'lumotlarga tayanib bildirilgan fikrlarga ko'ra «Abu Rayhon Beruniy» tarixiy dramasi «besh parda, yetti yoki to'qqiz ko'rinishdan iborat» bo'lishi kerak edi. Yana bir e'tiborni tortadigan jihat: adib mazkur dramani yaratishda Beruniyning qur'achilar, munajjimlar va folbinlar bilan bo'ladigan qizg'in munozara sahnasini tasvirlash uchun folbinlardan fol ochish usullarini diqqat bilan o'rganganligi, keksa sahhoflar orqali qur'a va fol ochish haqidagi kitoblarni toptirib, ular bilan tanishib chiqanligi kabi ko'plab ma'lumotlar aytib o'tilganki, bu orqali o'quvchi Maqsud Shayxzodaning har bir asarini yaratishga o'ta jiddiy yondashganligidan voqif bo'ladi.

Ma'rifiy-biografik romanda keltirilgan Mirzakalon Ismoilii, Hakim Nazir, Sora Eshonto'rayeva, Shukur Burxon, Hafiz Abdusamatov, Jumaniyoz Jabborov, Shukurullo, Turob To'la va boshqalar tomonidan bayon etilgan xotiralar ham adib hayotini yoritishda, bir tomondan, Naim Karimovning mashaqqatli mehnatlarini ifodalasa, boshqa tomondan Shayxzoda hayotini haqqoniy tasvirllovchi ishonchli manba bo'lib xizmat qilgan.

1937–1938-yillarning qora quyuni, urush davri mashaqqatlari hamda 1950-yillarning «momoguldarakli» shamoli Maqsud Shayxzoda hayotida ham izsiz ketmadi. Uzoq davom etgan xastalik shunday ulkan adibni 1967-yilning 19-fevralda oramizdan olib ketdi. Naim Karimov ta'biri bilan aytganda, «Aloh Shayxzodadek fozil va har tomonlama iste'dodli ijodkorga yana bir necha yil umr ato» (311-bet) etganda edi, adabiyotimiz xazinasi yana qancha bebaho asarlar bilan boyishi shubhasiz bo'lardi.

Xullas, asar bilan tanishgan o'quvchi Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi xususida to'liq va mukammal ma'lumotlarga ega bo'lish barobarida XX asrning 70-yillariga qadar bo'lgan o'zbek adabiyoti va adabiy jarayon, suronli qatag'on siyosati va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari, shu davrda ijod qilgan shoir va yozuvchilar hayoti xususida ham ko'plab haqqoniy ma'lumotlarni qo'lga kiritadi. Qolaversa, ikkita katta daftarga bitilgan «Abu Rayhon Beruniy» dramasi taqdiri soha mutaxassislarini yangi izlanishlarga chorlaydi.

¹O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. Besh jildlik. Uchinchi jild. 391-bet.

²Naim Karimov. Maqsud Shayxzoda. Ma'rifiy-biografik roman. – Toshkent: Sharq, 2010. 26-bet. (Ushbu manbadan olingan keying iqtiboslar sahifasi qavs ichida ko'rsatiladi.)



Shahodat OBIDOVA,
 Kogon tumani 1-IDUM Ingliz tili fani o'qituvchisi;
Shohista JO'RAYEVA,
 Kogon tumani 4-umumta'lim maktabining
 ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

INGLIZ TILI DARSLARIDA FANLARARO BOG'LIQLIKNI REALLASHTIRISH

Fanlararo bog'liqlik, ya'ni integratsiyaning o'quvchi uchun qiziqarli, oson va real bo'la olishi bugungi kun ta'lim tizimida o'z tasdig'ini topmoqda. Matematika, fizika, biologiya, kimyo, tarix, geografiya kabi fanlarning ayrim mavzularini ingliz tili darslariga integratsiyalash amaliyoti bosqichma-bosqich darsliklarda ham o'z ifodasini topmoqda. Misol uchun, 3-sinf Ingliz tili darsligidagi "A hungry caterpillar" yoki "Trees or flowers" mavzusini zoologiya fani bilan integratsiyalab, reallashtirib o'tish talab etiladi. Jumladan, 6–7-sinf darsliklarida "Countries and Continents", "We're in Europe" kabi geografiya fanlari bilan uyg'unlikda o'tiladigan mavzular uchraydi. 8-sinf Ingliz tili darsligida tarixiy, madaniy bilimlar o'zaro bog'liq holda o'rganiladi. 9-sinf Ingliz tili darsligida esa huquqshunoslik fanlariga e'tibor qaratiladi.

Ingliz tili darslarida bu fanlarga oid mavzularni qiziqarli hayotiy misollar bilan boyitgan holda mashg'ulotlar olib borish barobarida o'quvchilarga Xalqaro PISA, TIMS, PIRLS baholash tizimi testlari berib borilsa, ta'lim sifatini yanada oshirishga ko'maklashgan bo'lamiz. Albatta, bunday darslarda o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, tafakkur omillari yuqori rivojlanadi. Birgina 5-sinf Ingliz tili darsligining "Hobbies" bo'limida o'rganiladigan "but", "or", "and" zidlov va teng bog'lovchilari o'quvchi tafakkurini sinaydi. Agar ushbu darslarda mantiqiy savollarga oson javob topa oladi. Misol uchun, It occurs once in a minute, twice in a moment, but never in an hour? (javob: M harfi) yoki Is it correct to say "the yolk of eggs is white" or "the yolk of eggs are white"? (javob: ... is white) yoki There is a variation that goes as follows: A man, his wife and their son are in a car accident. They are all rushed to the hospital and the doctor says: "I cannot operate on him, he's my son" (javob: kishining otasi va bolaning bobosi – shifokor) kabi jumboqli savollarga e'tibor qarataylik. Ularda uchraydigan ko'plab tasdiq yoki inkor ma'noga ega, izlanishni talab etadigan jumlar bolalarda ingliz tili orqali nafaqat matematik va o'qish savodxonligini oshiradi, balki hozirjavoblikni ham rivojlantiradi.

3-sinflarda "Trees and flowers" mavzusida aqlni charxlash uchun quyidagicha oson, lekin biroz o'ylantiradigan kichik matnlar berish o'rinni bo'ladi:

There were 25 flowers in the garden. Little Tomy watered half of them. How many flowers did Tomy water?

A man goes to the forest and cuts ten trees. There are ten multiplied ten trees. He cuts ten the first. How many trees does the man cut?

Bunday savollar o'quvchilarni qiyin topshiriqlarni osonroq hal qilishga o'rgatadi. Albatta, bu bosqichma-bosqich olib borilsa, ko'proq samara beradi.

Darslik mavzulari reallashtirilganda o'quvchi ongiqa tezroq yetib boradi, u nafaqat bilim oladi, balki uni nutqida qo'llay oladi. Ayniqsa, PISA va PIRLS savollari xorijiy tillarda ko'plab uchraydi. O'quvchi til o'rganish davomida ular vositasida boshqa fan ko'nikmalarini ham oshirib, rivojlantirib boradi. Masalan, quyidagi topshiriqqa e'tibor qarataylik:

When Charlotte reached the busy road, it was the middle of the night. She stood and watched the traffic.

A truck driver noticed Charlotte and stopped in the road.

"Going to the valley?" he asked. Charlotte nodded.

When did Charlotte reach the road?

What did Charlotte do when she reached the road?

She walked towards the farmer's house.

She stood and watched the traffic.

She tried to cross the road.

She waved for a truck to stop.

Bu matn Anu Storning "Brave Charlotte" asaridan olingan bo'lib, savollar orqali o'qish savodxonligi sinab ko'riladi. Birinchi savolda Sharlottaning yo'lga qachon yetib olganligi, ikkinchisida esa yo'lga yetib olganidan keyin uning nima qilganligi so'ralgan. Javoblar bir-biriga yaqin, eng mukammal javobni belgilash uchun esa o'quvchi izlanishi kerak. Bu savollar A2 daraja doirasida bo'lsa-da, A1 daraja bo'lishiga qaramay, boshlang'ich sinflarning 4-sinfida ta'lim oluvchi iqtidorli o'quvchilarga yechim topa oladi.

Ingliz tili darslarda sodda, jo'n tilda yuqoridagi kabi savollardan o'rinni foydalanish 2021-yilda O'zbekiston ta'lim muassasalarida olinishi rejalashtirilgan xalqaro baholash testlariga tayyorgarlik vazifasini o'tash barobarida bolalarda mantiqiy fikrlash, topqirlik, zukkolikni, matematik va o'qish savodxonligini oshirib boradi.

Xulosa o'rinda O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi tobora isloh qilinib, yangilanib borilayotgani, bu esa har taraflama barkamol, bilimli, zukko yoshlarning yetishib chiqishida o'z samarasini berayotganini alohida ta'kidlash joiz. Mamlakatimiz iqtisodiyoti yanada taraqqiy etishi uchun bizga yuksak marralarga erisha oladigan mana shunday yoshlar kerak. Buning uchun darslarimizda hayotiy, mantiqiy, falsafiy, aniq va ravon fikrlashga xizmat qiladigan interfaol metodlar, topshiriqlarni maqsadga muvofiq qo'llashni yo'lga qo'yish foydadan xoli bo'lmaydi.

Nodira GAPPAROVA,

Qurolli Kuchlar Akademiyasi katta o'qituvchisi

NEMIS TILI MASHG'ULOTLARIDA GAPIRISHNI O'RGATISH TAJRIBASIDAN

Til o'rganish kishilik jamiyatida doimo muhim o'rinni egallab kelgan. Xalqaro munosabatlar avj olgan hozirgi zamonda xorijiy tillarni bilish, chet tillarda o'z xohish-istagini bayon qila olish yoki hamkasbining muddaosini tushunish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda qurolli kuchlardagi hamkorlik qamrovi kun sayin kengayib borayotgan bir davrda harbiylar faoliyatida ham chet tillarni o'rganish muhim vazifa bo'lib kelmoqda. Jumladan, Qurolli Kuchlar Akademiyasida tahsil olayotgan tinglovchi va kursantlarga chet tillarni o'rgatish, ularni yuqori malakali, har tomonlama yetuk va professional ofitser kadrlar qilib tarbiyalash o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklash barobarida qator vazifalarni belgilab berdi.

XXI asrning boshlariga kelib ingliz tilida muloqot qiluvchi mamlakatlarning jamiyatdagi o'rni mustahkamlanishi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faolligi oshishi va aynan ingliz tiliga bo'lgan e'tiborning kuchayishi nemis tiliga bo'lgan ehtiyojning susayishiga olib keldi. Natijada bu tilni o'rganish tor doiralarda, faqatgina mutaxassislik ehtiyojlari uchun, ilg'or texnika va texnologiyalar, ilmiy yutuqlar va soha yangiliklaridan bevosita xabardor bo'lish uchungina xizmat qiluvchi funksiyani bajarib keldi.

Harbiy ta'limda nemis tili fanini o'zlashtirish jaryonida kursantlar ko'p qo'llaniladigan faol fonetik, grammatik va leksik materiallar, shuningdek, navbat-chining standart raporti, harbiy sohaga oid ko'p ishlatiladigan terminlar, tili o'rganilayotgan mamlakat va uning qurolli kuchlari, harbiy texnika va qurol-aslahalarning taktik-texnik tavsifnomalari, komandirning ish xaritasini o'qish va unda aks ettirilgan taktik vaziyatni tushunish uchun zarur bo'lgan tushunchalarga ega bo'lish, kelgusida o'z mutaxassisligi doirasida uchraydigan yangi so'zlarni muloqotda qo'llay olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishlari lozim edi. Ammo harbiy xizmatning o'ziga xosligi chet tilda nutqiy malakalarni oshirish uchun bir qator muammolarni keltirib chiqarishi sezilmoqda. Kursantlar nemis tilida jangovar texnikalarning taktik-texnik tasnifini, aynan harbiy atamalarini osonlikcha tushunsa-da, harbiyga oid bo'lmagan mavzularda nemis tilida fikrlarini bayon qilishlari, muloqotga tez kirishib ketishlarida qiyinchiliklar mavjud. Bu holatning asosiy sabablari, fikrimizcha, quyidagilarda:

– birinchidan, harbiy ta'limning xususiyati bilan bog'liq mavzularning ularga "tanishligi", ya'ni chet tildan boshqa fanlarda ham aynan shu mavzularda mashg'ulot o'tkazilishi;

– ikkinchidan, chet tilni o'rganish o'quv dasturlarining mazmuni, asosan, "harbiyga oid" mavzulardan tashkil topganligida namoyon bo'ladi.

Hozirgi kunda harbiy bilim yurtlarida kursantlarga

chet tilni o'rgatish barcha nutq faoliyatini o'z ichiga olgan (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv) mashg'ulotlardan iborat bo'lib, nemis tilida Deutsch für Soldaten; Menschen nomli o'quv adabiyotlardan foydalanib kelinmoqda. Ushbu adabiyotlarda asosiy o'rinni gapirish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar egallaydi.

Aslida gapirish – muayyan fikrni izhor etish maqsadida muayyan tildagi leksik, grammatik va talaffuz hodisalarini qo'llashdan iborat. [1:236] Til vositalari yordamida fikrni bayon etish birmuncha qiyin kechadi. Chunki ushbu jarayonda bir yo'la ikki xil nutqiy dasturni bajarishga to'g'ri keladi: biri fikr bayon etish bo'lsa, ikkinchisi lisoniy hodisalarni qo'llashdir. Gapirish – nutq faoliyatining produktiv (mahsuldor) turi hisoblanadi. Gapirishning mazmuni fikrlarni og'zaki ifodalashdir.

Barcha nutq faoliyati turlari, jumladan, gapirish, mashqlarni bajarish orqali o'rgatiladi. Gapirish mashqlari sistemasi ko'nikma va malakani shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi hamda takomillashtiruvchi omillar vazifasini o'taydi [1:243]. Tayyorlov va nutq mashqlari gapirish ko'nikma va malakasini shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirish vazifalarini o'taydi. Ular o'quv mashqlari nomi bilan yuritiladi. Tayyorlov deganda gapirishning leksik, grammatik, talaffuz ko'nikmalariga daxldor mashqlar tushuniladi. Nutqiy mashqlarda esa tayyorlanmagan va tayyorlangan nutq (gapirish) sodir etiladi. Dastlabki bosqichda, og'zaki nutqning ilgarilashi sharoitida, yozma matn ishtirok etmaydigan mashqlar zaminida gapirish ko'nikma va malakasi o'stiriladi. Ikkinchi bosqichda og'zaki matnga tayanib, gapirish mashqlari o'tkaziladi.

Standart vaziyatdagi mashg'ulotlar davomida gapirish malakalarini rivojlantiruvchi mashqlar variantini keltirib o'tmoqchimiz:

1-variant:

Mashg'ulotning maqsadi:

- yoz faslini berilgan rasmlar yordamida tasvirlash;
- "Yoz" mavzusi bo'yicha so'zlarni takrorlash va ularni nutqda qo'llash;
- so'roq gaplarni tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirish;
- mavzu bo'yicha grammatik hodisalarni nutqda mustahkamlash;
- tanish leksika ishtirokida hikoya tuzish malakalarini rivojlantirish.

Tasavvur qiling, sizga do'stingiz Germaniyadan telefon qildi. U yozda O'zbekistonga sayohat qilmoqchi va sizdan bu yerdagi ob-havo haqida gapirib berishingizni iltimos qilyapti. Bu mashq uchun bizga bir qancha leksik birliklarni takrorlab olish talab qilinadi (die Sonne scheint, der Himmel ist blau, alles blüht....).

So'zlarni quyidagi shaklda takrorlab olish mumkin. Kartochkalarda so'zlar o'zbek tilida yoziladi, kursantlar galma-gal so'zlarni nemis tilida aytishlari lozim bo'ladi. So'ngra quyidagi so'z birikmalari yordamida dialog tuzishlari taklif qilinadi: Hallo! Wie geht's? Alles blüht. Das Wetter ist schön. Badest du? Die Blätter sind grün. Ushbu ish turi juftliklarda tashkil qilinsa, bitta kursant Germaniyadan kelgan mehmon rolini ijro etsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

2-variant:

Mashg'ulotning maqsadi:

– dialogik nutq malakalarini rivojlantirish;
– “Bo'sh vaqt” mavzusi bo'yicha so'zlarni takrorlash va ularni nutqda qo'llash;

– savollarga javob berishni o'rganish;

– tanish leksika yordamida savol tuzishni o'rganish.

Mashg'ulot faoliyat turlari aks ettirilgan rasmlarni doskaga ilish bilan boshlanadi. Shundan so'ng kursantlar mashg'ulotning mavzusi nima ekanligini aniqlaydi. So'ngra mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.

Leksikani takrorlash.

Ushbu ish turini “Pantomima” o'yini shaklida tashkillashtirish mumkin. Kursantlarga vazifalar yozilgan kartochkalar tarqatiladi, ular kartochkadagi so'zlarni imo-ishora, mimikalar bilan ko'rsatib berishlari, boshqa kursantlar esa bu so'zlarni topishlari kerak bo'ladi. (Ushbu mashqlarda noverbal nutqiy stereotiplar qo'llanilmoqda.)

“**Rasender Reporter**” rolli o'yini. Har bir kursantga savol yozilgan kartochkalar tarqatiladi (Spielst du Ball am Wochenende? Fährst du Rad in der Freizeit?...). Ular xona bo'ylab yurib sheriklariga savol berish, tezroq javoblarni yig'ish va ularni daftariga qayd etishlari lozim bo'ladi.

3-variant:

Mashg'ulotning maqsadi: assotsiogramma yordamida “Zukunftswünsche der Jugendlichen” mavzusi bo'yicha so'zlarni erkin qo'llash, “Meine Zukunft” (Was wünschen Sie sich für die Zukunft?) mavzusi bo'yicha monologik nutqiy malakani shakllantirish.

Guruh ikkiga bo'linadi (har bir guruh 3–4 kishidan iborat):

a) har bir guruh mavzu bo'yicha uchta tushunchani ifodalashga harakat qiladi, so'zlar ot so'z turkumiga oid bo'lishi kerak (masalan: ish, oila, karyera, o'qish, ta'lim va boshqalar);

b) so'ngra har bir guruhga mavzu yuzasidan turli so'z birikmalari yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Har bir tushunchani ifodalovchi ikkitadan so'z birikmasi tanlab olinadi va doskada assotsiogramma to'ldiriladi:

1. Chet elda ishlash, pul ishlab topish, ... bo'yicha ta'lim olish, ... tahsil olish, va b. Im Ausland arbeiten, viel Geld verdienen, eine Ausbildung als ... machen, an

einer ... Uni studieren, vorwärts kommen, sich durchsetzen, sich verlieben, heiraten, Kinder haben, ein eigenes Haus bauen, Freizeit genießen, Reisen machen, gesund leben wollen, etw. für den Umweltschutz tun, vorerst nicht heiraten.

2. Zamonaviy firmada ishlamoq, yaxshi hamkasblar bilan ishlamoq, ishonchli ish joyiga ega bo'lmoq, kasb o'rganmoq, chet tillarni o'rganmoq va b. In einer modernen Firma arbeiten, mit guten Kollegen arbeiten, einen sicheren Arbeitsplatz haben, einen Beruf erlernen/ergreifen, Fremdsprachen beherrschen, Kenntnisse erweitern, erfolgreich sein, neue Freunde gewinnen, auf dem Lande/ in einer Stadt wohnen, sich mit Hobbys beschäftigen, andere Kultur kennen lernen, einen Sozialberuf/ Heilberuf wählen, sich von echten Lebensmitteln ernähren.

3. Siz kelajagingizni qanday tasavvur qilasiz? Assotsiogrammadagi so'z birikmalaridan foydalanib savolga javob bering.

Kursantlarning kichik hikoyasi tinglanadi.

Shu o'rinda kursantlarning nemis tilida gapirish malakalarini oshirish o'qituvchilar uchun asosiy vazifa bo'lib, u chet tilni o'qitishning asosiy maqsadi ham hisoblanadi. Kursantlarda gapirish malakalarini rivojlantirish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda ularning lisoniy kompetentsiyasini ko'tarish, ta'lim manbasi, didaktik vazifalariga qarab munosib ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bunda quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

– kursantlarda gapirish faoliyatini egallash motivlarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta'lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini yaratish;

– kursantlarga ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish; ular tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g'oyalarni bag'rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash, har bir kursantda uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish, ularning nutqiy faolliklarini muntazam rag'batlantirish;

– o'quv jarayonini kursantning xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish;

– ularda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning kreativ imkoniyatlarini kengaytirish, muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga ularni undash;

– gapirish faoliyatini rivojlantirishning asosi bo'lgan lisoniy komponentlarni amalda qayta ishlab chiqish va takomillashtirish imkonini beradigan interfaol mashg'ulot shakllari va metodlarini tanlash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. – 432 b.
2. Методики обучения иностранным языкам в средней школе. Пособие для учителей, аспирантов и студентов. – СПб.: КАРО, 2006. – 224 с.
3. Московская Н.А. Развитие умений говорения на уроках немецкого языка. Методическая разработка. – ЯО, 2012. – 25 с.
4. Скрипникова Т.И. Методика формирования речевой компетенции на иностранном языке. Учебное электронное издание. – ВО “ДВФУ”, 2018. – 212 с.



Durdona EGAMNAZAROVA,
Andijon davlat universiteti
Ingliz tili grammatikasi kafedrasida o'qituvchisi

REDUPLIKATSIYANING GAP KOMMUNIKATIV TUZILISHIDAGI O'RNI

Annotatsiya. Maqolada reduplikatsiya (takror) hodisasining o'zbek tilidagi o'ziga xos xususiyatlari va gapning kommunikativ qurilishidagi ahamiyati xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: reduplikatsiya, takror, kommunikativ markaz, rema, so'z tarkibi, affiksatsiya.

Аннотация. В статье рассматриваются особенности редупликации в узбекском языке и ее значение в коммуникативной структуре предложения.

Ключевые слова: редупликация, повторение, коммуникативный центр, рема, структура слова, аффиксация.

Annotation. The article discusses the peculiarities of reduplication in Uzbek and its importance in the communicative structure of the sentence.

Key words: reduplication, repetition, communicative center, rheme, word structure, affixation.

Reduplikatsiya – butun so'z yoki uning o'zagi, shuningdek, turli grammatik qurilmalar va birikmalarini takrorlash, juftlash bo'lib, V.A.Vinogradov ta'rifiga ko'ra fono-morfologik tushuncha hisoblanadi [3: 26]. A.A.Reformatskiy esa uning ko'pchilik tillarda axborotni kuchaytirib yetkazish vositasi ekanligini ta'kidlaydi [4:201]. N.Aliyeva fikricha, ushbu hodisa o'z xususiyatlariga ko'ra tabiiy va primitiv bo'lib, uning ildizlari juda qadim zamonlarga borib taqaladi [1: 272]. O'z navbatida fransuz tilshunosi J.Vandries reduplikatsiyaning tillarda keng tarqalish sababini ma'lum vaziyatni tinglovchi/o'quvchi o'z tasavvurida osonroq anglashi uchun jonli, obrazli tarzda tasvirlash ehtiyoji tufayli yuzaga kelganligi bilan izohlaydi [4: 15].

Keltirilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, reduplikatsiya deyarli barcha tillarda, xususan, o'zbek va ingliz tillarida ham gapning kommunikativ tuzilishida muhim ahamiyat kasb etadi [3: 26].

Zamonaviy tilshunoslikda reduplikatsiyaning tasniflashda fonetik, morfologik, leksik, sintaktik va semantik jihatdan yondashiladi va ushbu hodisa quyidagi ko'rinishlarda uchrashi mumkin bo'lgan juda keng qamrovli tushuncha sanaladi [2: 60]:

1) so'z tarkibidagi ma'lum unli tovushni cho'zish yoki undoshni qavatlash: *Yo'-o'-o'q! Ke-e-el! Axxmoq! Mazza-ku!*

2) so'z tarkibidagi ma'lum bo'g'inni juftlash: *xahol-amoq;*

3) so'z tarkibidagi affiksning juftlanishi: *bolajonim, bolajonginam, bolajonginam o'zimning;*

4) butun so'zning takrorlanishi: *tez-tez, so'lim-so'lim, o'ylana-o'ylana;*

5) ma'lum sintaktik qurilmaning takrorlanishi: *Yig'ilishga ommaviy ravishda taklif etildi. Telefonda taklif etildi. Og'izma-og'iz taklif etildi. Botir firqa telefonda taklif etildi. Shaxsan taklif etildi!* (T.Murod)

O'zbek tilshunosligida ham reduplikatsiya hodisasiga oid bir qancha nazariyalar ilgari surilgan, biroq olib

borilgan izlanishlarni yetarlicha deb bo'lmaydi, sababi masalaning o'zbek tilidagi mohiyati hali to'liq ochib berilmagan; masalaga, asosan, sintaktik-semantik jihatdan yondashilgan. A.Abdullayevning "O'zbek tilida takroriy gaplar" maqolasida matnda takroriy gaplarning, uning qo'shma gaplarga munosabati, shakl turlari haqida fikr yuritiladi. Uning fikricha, takroriy gaplar mantiqiy-grammatik, stilistik hodisa bo'lib, asosan, ma'no kuchaytirish, ekspressivlik va emotsionallikni ta'minlashga xizmat qiladi [5:103]. Tilning kommunikativ va stilistik funksiyalari takroriy gaplarda bir vaqtda namoyon bo'ladi.

O.Bozorov ham sintaktik takrorlanish hodisasiga kommunikativ tuzilishni ifodalovchi o'ziga xos vosita sifatida qaraydi [5: 104]. Olimning ta'kidlashicha, matnda gap to'liq (aynan) qaytarilganda takror gap emotsional holatda bo'ladi. Bunday holatlarda matn mazmuni yo'nalishiga ko'ra remaning ta'kidlanishi uning takrorlanishi hamda maxsus ohang bilan kuchaytirilishi orqali amalga oshiriladi [5: 104].

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilida reduplikatsiyaning ot so'z turkumiga xos fonetik-morfologik turi keng tarqalgan bo'lib, bunda takrorlanayotgan so'z boshidagi undosh **p, m, ch** undoshlari bilan o'rin almashadi va so'zga yangicha ma'no qo'shadi [4: 17], biroq gapning kommunikativ markazi bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Masalan:

– *Obke suv-puv!* (O'.Hoshimov) – suv yoki ichgani shunga o'xshash biror narsa, aynan suv bo'lishi shart emas ma'nosida;

– *Qushim boshi shuncha, tana-manasi bilan mana shuncha. Toping nima? – deb savol berdi* (G'.G'ulom) – butun tana nazarda tutilmoqda;

– *Xuddi boyagidek bironta ko'prik-po'prik bormikin, deb u yoq-bu yoqni tekshirdik* (O'.Umarbekov) – ko'prik yoki ko'prik vazifasini bajaruvchi nimadimi qidirish ma'nosida.

Ot so'z turkumining leksik reduplikatsiyasida esa, aksincha, hissiy-ekspressiv bo'yoqdorlik anglashiladi

va gapning kommunikativ markazi sifatida qo'llaniladi. Bunday vaziyatda ot, ko'pincha, to'ldiruvchi bo'lak vazifasini bajaradi: *Bosh og'rig'i o'lsin, odamning tinka-tinkasini quritib yuboradi* (O'.Umarbekov).

Sifat so'z turkumi fono-morfologik usulda juftlansa, sifatdan anglashilgan ma'no yana ham intensivlashadi, belgi-xususiyatning yuqori darajasi namoyon bo'ladi; so'zlovchi/muallif tinglovchi/o'quvchining e'tiborini aynan sifat orqali ifodalangan aniqlovchi bo'lakka jalb etadi. Bunday hodisa, ayniqsa, ranglarni bildiruvchi sifatlar bilan ko'p uchraydi va birinchi qismda **p**, **m** tovushlari rang bildiruvchi sifatning birinchi bo'g'iniga qo'shilib qisman takrorni hosil qiladi. Qiyoslang: *Bir ayolning eridan ajralishini oqlash uchun butun qishloq ahlini qop-qoraga chiqarish shartmikin?* (O'.Hoshimov); *Jiydazor qop-qorong'i, jimjit edi.* (O'.Umarbekov).

Kommunikativ tuzilishda ot so'z turkumi reduplikatsiyasi unchalik muhim bo'lmaganidek, son so'z turkumi ham, garchi leksik usulda takror hosil qilsa-da, tegishli bo'lakni har doim ham aktuallashtira olmasligi mumkin, chunki ma'no kuchaymaydi, balki yangi, qo'shimcha ma'no anglashiladi (ko'pincha, taxmin ma'nosi): *Poyezd bir-ikki qichqirib, asta-sekin qo'zg'ala boshladi.* (X.To'xtaboyev); *Hali-hali esimda, u kishiga yaxshi ko'rinaman deb, bir-ikki yil o'smadan xol qo'yib yurganman* (O'.Umarbekov).

O'rin-payt ravishlari leksik reduplikatsiyasi ham og'zaki nutqda keng tarqalgan usul bo'lib, ravishda anglashilgan ma'no kuchayadi, unga ekspressivlik yuklanib, rema guruhini tashkil qiladi: *Uzoq-uzoqlarda poyezd shovqini eshitildi. Keyin elas-elas uzoqlashib borayotgan g'ildiraklar tovushi quloqqa chalindi* (O'.Hoshimov).

Fe'l yoki vaziyat ravishlari leksik reduplikatsiyasi gapning aktual tuzilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda reduplikatsiya nafaqat ma'noni bo'rttiruvchi, balki fe'lda anglashilgan ish-harakatga qo'shimcha ma'no yuklovchi vosita hisoblanadi. Masalan: ish-harakatning davomiyligi, takroriyliigi kabilar: *So'ri ostida sharqirab suv oqayotganmish. Hovuchlab ichaveribman-ichaveribman* (O'.Hoshimov); *Yig'lab-yig'lab joyiga tushib qolarmikin deyman-da* (X.To'xtaboyev).

Sintaktik reduplikatsiya fono-morfologik va leksik takrorlardan ko'ra kengroq tarqalgan usul bo'lib, o'zbek tilida so'z tartibining erkinligi hisobga olinganda, sintak-

tik takrorning kommunikativ tuzilishdagi roli beqiyos: *Xo'rligim kelib, ko'zimdan tirqirab yosh chiqib ketdi... Yo'q, yo'q! Kerakmas, kerakmas!!* (X.To'xtaboyev).

Sintaktik takror xalq og'zaki ijodi va poeziyada ham keng qo'llaniladi:

*Urushga ketgan akam,
G'azotga ketgan akam,
Onamizni yig'latib,
Xatni kam bitgan akam!* (X.To'xtaboyev)

Gap tarkibidagi ma'lum sintaktik qurilmalar va bo'laklarning o'ziga xos takrorida ba'zan remaga yana ham kuchliroq emfaza berish maqsadida takror to'liqsiz gap shaklida kelishi ham mumkin. Bunday ko'rinish gapning har qanday turida kuzatiladi va ularga xos ma'lum sema bo'rttirib ko'rsatiladi: *Maldalini tushmagur kiyimlik emas ekan, tasadduq, yeydigan narsa ekan, yeydigan!* (O'.Umarbekov); *Vujudim bo'm-bo'sh bo'lib qoldi... bo'm-bo'sh.* (O'.Hoshimov).

Shuningdek, mazkur hodisaning aksi, ya'ni avval monoremani (to'liqsiz) gap, ketidan gap to'liq holatda takrorlanib qo'llanilishi ham mumkin: *Qachon, qachon shuncha pul bergandi u onasiga!! Bu qandoq jazo! Bu qandoq bedodlik!* (O'.Hoshimov).

Sinonimik reduplikatsiya semantik takrorning o'ziga xos ko'rinishi hisoblanadi, ya'ni gap takrori aynan emas, balki sinonimlari hisobiga amalga oshirilishi mumkin [4: 18]. Bunda sinonim qisman mos kelishi ham mumkin: *U xo'-o'-o'p o'qimishli, xo'-o'-o'p bilimdon, xo'-o'-o'p olim odam. Faqat bitta "juz'iy" kamchiligi bor: chin dildan kulolmaydi, chin dildan yig'lolmaydi...* (O'.Hoshimov); *Voy opaginang o'rgilsin! Voy quloqlaringning qimirlashiga o'zginam girgitton bo'lay! Uni qarang, oyimchaxon, quloqlari biram chiroyli qimirlaydiki... Voy eshakjonga jonginamni qoqay!* (G'.G'ulom)

Ko'rinib turibdiki, sinonim takrorlar xabar mazmuniga ekspressivlik berishdan tashqari uni kengaytirish, batafsillashtirish xususiyatiga ham ega ekanliklari bilan ahamiyatli. Reduplikatsiya (yoki takror) gapning kommunikativ tuzilishi bilan chambarchas bog'liq tushuncha bo'lib, o'zbek tilida ma'lum bo'lakni aktuallashtiruvchi vositalar qatorida, ayniqsa, so'zlashuv nutqida o'zining muhim o'rniga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алиева Н.Ф. Слова-повторы и их проблематика в языках Юго-Восточной Азии. – Москва: Наука, 1980.
2. Букатникова С.Д. Редупликация в современной лингвистике // Наука RASTUDENT.RU, 2014. No. 4(04-2014) / [Электронный ресурс] – Режим доступа. – URL: <http://nauka-rastudent.ru/4/1280/>
3. Дюзенли М.В., Сунь Э. Явление редупликации в русском и китайском языках: к постановке проблемы. Русский язык и лингвистика в сопоставительном аспекте / Материалы ежегодной международной конференции. – Екатеринбург: УрФУ, 2015.
4. Локман Б. Структура и семантика редупликации в турецком и таджикском языках. Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Душанбе, 2015.
5. Бозоров О. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив (актуал) тузилиши. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Фаргона, 2004.
6. Рожанский Ф.И. Редупликация как объект типологии // Acta Linguistica Petropolitana. №3. Труды института лингвистических исследований, 2010.
7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/reduplikatsiya-kak-obekt-tipologii> (дата обращения: 17.02.2020)
8. Большой российский энциклопедический словарь. <https://slovar.cc/enc/bolshoy-rus/1739670.html>

Azamat URALOV,

Sirdaryo viloyat XTXQTMOHM Tillarni
o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

KENGAYGAN SHAKLLARNING TIL TIZIMIDAGI O'RNI

Annotatsiya. Maqolada kengaygan shakllar haqida so'z borgan. -moqlik, -ishlik, -ganlik singari kengaygan shakllarning hosil bo'lishi, rivojlanishi va taraqqiyoti haqida fikrlar bildirilib, tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: qo'shma affiksalar, affiksalar, morfemalar sistemasi, kengaygan shakl, yo'yoq shakllar, grammatik struktura, tejamlilik, kuchaytiruvchi element, semantika, suffiks.

Аннотация. В статье идет речь о расширенных формах. Были сделаны размышления и заключения о развитии и возникновении расширенных форм -моқлик, -ишлик и -ганлик.

Ключевые слова: союзные аффиксы, аффиксы, система морфем, расширенная форма, грамматическая структура, экономность, элемент усиления, семантика, суффикс.

Annotation. There is describing about extended forms in the paper. Besides, in the paper were done thoughts and conclusions about development and appearance of extended forms such as -moqlik, -ishlik i -ganlik.

Key words: allied affixes, affixes, morpheme system, extended forms, grammar structure, sparing, intensifying element, semantics, suffix.

So'zning mazmun-vazifa jihatidan biror pozitsiyadagi mavqeyini mustahkamlash uchun, tilshunos olim A.G'ulomov ta'biri bilan aytganda, kuchaytiruvchi affiksalar yordamga keladi. Kuchaytiruvchi affiksalar qatnashadigan qurilmalar hozirgi tilda muayyan andoza (qolip) maqomiga ega.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili morfologik qurilishida tashqi tomondan qo'shma affikslarga o'xshab ketadigan bir qancha birliklar mavjud. Turkiy tillar o'zak va qo'shimchalar tizimidagi ana shunday birliklarni taniqli turkiyshunos olim P.M.Melioranskiy *kengaygan* (расширенные), *yo'yoq* shakllar, ularning zidi bo'lgan birliklarni *kengaytgan*, *qisqa* birliklar deb nomlagan edi. Uning fikricha, *so'r-so'ra*, *qiz-qizi*, *bur-bura* shakllaridagi ikkinchi qism – "qisqa" o'zaklarning "kengaygan" shakli bo'lib, til tizimidagi jarayonlarning hosilasi sanaladi.

Turkiy tillarda undosh+unli+undosh ko'rinishdagi o'zaklar (yan – yonmoq, yal – yolqin – yonmoq, yaq – yoqmoq)ning affiksalar bilan murakkablashishini ilk bor V.V.Radlov "Turkiy tillar morfologiyasiga kirish" maqolasida asoslab, uni giperaglyutinatsiya deb atagan.

Turli davrlarda til birliklaridagi ma'noviy o'zgarishlar o'zakning murakkablashuviga olib keladi. Ma'nosi xiralashgan, ishlatilish doirasi cheklangan affiksalar o'zak-asos tarkibida yaxlitlanadi, avvalgi ma'noni tiklash, kuchaytirish uchun yangi faol birlik – affiks ortiriladi. Fuziya qonuniyati tufayli hozirgi o'zbek tilida ham qisqa shakllarning *kengaygan* ko'rinishlari mavjudki, ularning bir qismi shaklan qo'shma affikslarga o'xshab ketadi. Lekin ularning orasida muhim tafovutlar borligi ularni turli maqomga ega birliklar sifatida o'rganish zaruratini vujudga keltiradi.

Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida turkiy tillar, jumladan, o'zbek tilidagi ba'zi so'z va qo'shimchalar hamda ularning birkuvi natijasida hosil bo'lgan birliklar ham turlicha o'zgargan yoki qisman ma'nosini yo'qotgan. Shunday birliklardan biri chiqish kelishigi qo'shimchasi *-dan* hisoblanadi. Bu morfema ba'zi so'zlarda asemantik birlik sifatida qotib qolgan. O'zbek tilidagi juda ko'p so'zshakllarda *-dan* qo'shimchasi asos bilan birlikda qo'llanar ekan, tarkibida ayni qo'shimcha bo'lgan so'z shakllar konversiyaga uchrab, *birdan*, *to'satdan*, *ichdan* singari yangi birliklarni hosil qiladi yoki so'z tarkibida boshqa vazifani bajaradi: *tezdan* (*tezda* ham shunday) kabi. Bunday qotib qolish holatlari va o'zgarishlar tarixan chiqish kelishigi qo'shimchasi ma'nosidan ancha yiroqlashib, soddalashgan *birdan*, *qo'qqisdan*, *o'z-o'zidan* (*o'zidan o'zi*), *uzundan uzun*, *ochiqdan ochiq* singari so'zlarda kuzatiladi.

O'zbek tiliga xos bo'lgan agglutinatív-analitik tuzilishdan kelib chiqib shuni qayd etish o'rinliki, ikki so'zning yonma-yon, yondosh kelishi natijasida ikkinchi so'z o'z ma'no-vazifasidan uzoqlashib, dastlab ko'makchi so'zga, so'ng qo'shimchaga aylanadi. Bu jarayonga fe'l so'z turkumi nisbatan ko'p tortiladi va fe'lga xos bunday shakllar ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan, *borib turur – boribdur – boradur – boradi*; *kela turur – keladur – keladi* kabi misollarda ikki so'zning birikishi til morfem qurilishida *-adi* morfemasini hosil qilgan.

Tarixiy taraqqiyot bosqichlarida turli asos morfemalar va affiksalar ma'lum darajada rivojlanadi, o'zgaradi. Bu taraqqiyot til birliklarining o'zgarishi (ma'nosi, vazifasi va shaklining kengayishi, torayishi)ga sabab bo'ladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *-(i)sh* harakat nomi shakli keng qo'llanadi, uslubiy betarafligi va leksik-semantik murakkabligi bilan *-moq*, *-(u)v* harakat nomi shakllaridan alohida ajralib turadi. A.Hojiyevning ta'kidlashicha, *-(i)sh* affiksi bilan yasalgan harakat nomi shaklining *-lik* affiksi bilan qo'llanish holatlari uchrab turadi: *borishlik*, *qo'rqishlik* kabi. Bunday hollarda *chopish* (бер), *kelish* (приход) shakllariga xos ma'no ifodalanadi. Lekin bu ma'no *-(i)sh* affiksi bilan yasaluvchi shaklning o'zi orqali ifodalanaveradi, *-lik* affiksining qo'llanishiga hech qanday ehtiyoj bo'lmaydi va bu affiksni qo'llash hozirgi o'zbek adabiy tili uchun me'yoriy holat emasligi sezilib turadi: *Kuyoviga xat yozdirib*, *Gulchiroydan ko'z-quloq bo'lib turishlikni so'radi*. (J.Abdullaxonov)

Xalq tili va og'zaki so'zlashuvda *-(i)shlik* shaklida oxirgi k undoshining tushib qolishi ham uchraydi: *borishli-kelishli qilsin*.

-ganlik shakli. Oltoyshunos olim V.Kotvich qadimgi turkiy tilda o'tgan zamon sifatdosh shakllarini hosil qiluvchi *-duq* (*barduq*), *-mish* (*kelmish*) va *-gan* (*o'qigan*) shakllarining o'zaro raqobatda va parallel qo'llanganligini yozsa², A.N.Kononov bu shakllarni turkiy tillarning turli guruhlariga mansub birliklar sifatida ko'rsatadi: *-duq* va *-mish* o'g'uz tillari, *-gan* esa qipchoq-qarluq tillariga mansub shakllardir.³

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *-gan* sifatdosh qo'shimchasi nafaqat belgi (*o'qigan bola*), shuningdek, zamon, modal ma'nolarini ifodalaydigan ko'p ma'noli, ko'p vazifali shakldir. Bu qo'shimcha fe'lga xos shakl yasovchi birliklarni qabul qilish bilan birga ot yasovchi *-lik* qo'shimchasi bilan murakkablashish xususiyatiga ham ega. Masalan: *borganlik*, *o'qiganlik*, *aytganlik* kabi.

Kengaygan shakllar tuzilish tarkibiga ko'ra qo'shma affikslarga yaqin turadi. Chunki qo'shma affiks kamida ikki elementning binar munosabatidan tashkil topgani kabi kengaygan shakllar ham o'zaro munosabatdagi ikki va undan ortiq qismdan iborat bo'ladi. Bu holat kengaygan shakllar bilan qo'shma affikslar bitta narsami yoki alohida birliklarmi, degan savolni keltirib chiqaradi. Negaki, dastlabki bosqichda ularni faqat tashqi tomonigagina asoslangan holda bir struktur tip ostiga birlashtirish mumkin bo'lsa ham, keyingi bosqichdagi jiddiy qiyoslash kengaygan shakl bilan qo'shma affiksning bir qatorda tura olish imkoniyatini inkor etadi. Masalan, *-moqlik* shakli *-gudek*, *-masdan*, *-maslik*, *-moqchi* affikslari ikki komponentdan tashkil topgan bo'lishiga qaramay, ular bilan bir struktur-semantik tip ostiga birlashtirish imkoniyatiga ega emas. Bunga tarkibdagi *-lik* komponentining tegishli semantik "yuk" tashiy olmasligi sabab bo'ladi.

-moqlik (*-maqliq*, *-maklik*) shakli eski o'zbek tilida, xususan, Alisher Navoiy va Bobur yashagan davrda faol yasovchilardan sanalgan. Hozirgi o'zbek tilida arxaiklashib, asosan, poetik asarlarda uchraydi. Avvalgi davrlarda *-moqlik* tarkibidagi qismlarning semantik yaxlitlanishi ancha kuchli bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ularning orasidagi bog'lanish susaygan. Buni, ayniqsa, *-i/sh* affiksli harakat nomining kengaygan shakli *-i/shlik* bilan qiyoslaganda sezish mumkin: tabiatan *-i/sh* affiksli shaklda substantivlik belgilari ko'proq bo'lganidan kengaytiruvchi element uning tarkibiga hech qachon xuddi *-moq* shaklidagidek yaxlitlana olmagan.

-(i)bon qo'shimchasi, asosan, eski o'zbek tilidagi nazmiy asarlarda ishlatilgan va tobe harakat-holat ma'no-vazifasini bildirishga xoslangan. A.M.Shcherbak fikricha, ravishdoshning *-ibon* shakli qadimgi vosita-qurol kelishigi bo'lib, tarixan fe'l ismlar (harakat nomi)dan kelib chiqqan. Shuningdek, *-(i)b* shakli she'riy matnlarda ko'proq tobe harakatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Solishtiring: *-mayin* (bilmayin), *-layin* (tiriklayin), *-dayin* (shundayin), *-(a)yin* (kelayin) kabi shakllardagi *-in* ham ana shunday kengaytiruvchi xususiyatga ega.

-sinlar qo'shimchasi ham ma'noni kuchaytirish talabi bilan *-sin+lar* kengaygan shakldan o'sib chiqqan yangi birlik.

Dastlabki davrlarda *-ngiz*, *-nglar*, *-ngizlar* ma'no tarkibiga ko'ra *-ng* affiksining "kengaygan" shakli sifatida ko'ringan bo'lsa, keyinchalik ular yaxlitlanib, qo'shma affikslarga aylangan. Ulardan *-ngizlar* shakli eski o'zbek tilida kam uchraydi, shunda ham she'riy vazn talabi bilan matnga kiritiladi, hozirgi o'zbek adabiy tilida esa deyarli qo'llanmaydi, lekin o'zbek tilining qipchoq lahjasida tegishli maylning asosiy ko'rsatkichlaridan sanaladi (qozoq va qirg'iz tillarida ham ana shunday tabiatga ega).

-laring affiksi keyingi davrlar mahsuli. Bu jihatdan Toshkent shevasining ham ta'siri sezilib turadi, modal-uslubiy ma'no ifodalaydi va so'zlovchining tinglovchilarga nisbatan mensimaslik ma'nosini bildiradi: *borlaring*, *turlaring*, *aytlaring* singari.

-sizlar qo'shimchasi ham til taraqqiyotining keyingi davrlarida yuzaga kelgan bo'lib, II shaxs-son kategoriyasini hosil qiladi: *borasizlar*, *o'qiysizlar* kabi. Uning birinchi qismi bo'lgan *-siz* qo'shimchasi tarixan *-si* olmoshi va *-z* jamlik ko'plik ko'rsatkichidan tashkil topgan bo'lsa ham, keyingi davrlarda yaxlit *siz* olmoshining agglyutinatsiya usuli bilan shaxs-son kategoriyasi paradigmasiga to'laqonli birlik sifatida tortilganini aytish mumkin. *-siz* affiksi semantikasida ko'plik ma'nosining

susayishi va hurmatlash ma'nosining barqarorlashuvi tufayli tegishli paradigмага ko'plik ma'nosini tiklash uchun *-lar* affiksi orttirila boshlagan va «kengaygan» shakl (*siz + lar*)dan yangi qo'shimcha – *-sizlar* kelib chiqqan.

